4. "The Analects of Confucius·Yongye". [OL],<https://lunyu.5000yan.com/yongye/>.
5. Qin Xiaobo."Confucian Ethical Thought and Citizens' Moral Construction". [N], Beijing: People's Daily, eighth page, June 15, 2004.
6. Zhu Yiting "History of Traditional Chinese Ethical Thought". [M], Shanghai: East China Normal University Press. First edition, September 2003.
7. "The Analects of Confucius.Yanyuan", [OL],<https://lunyu.5000yan.com/yanyuan/>.
8. “(中庸)zhongyong/Moderate”, [OL],<https://zhongyong.5000yan.com/>.
9. Wang Dianqing. "Research on Oriental Morality" (Third Series), [M], Beijing: China United Industry and Commerce Press, 1999.
10. Reviewer: Department of Philosophy and Logic Doctor of Philosophy (PhD) Jorayeva Nigora Avazovna.



**Umarxon BABAXO'JAEV,**  
Namangan davlat universiteti Fizika kafedrasi dotsenti  
E-mail: u\_boboxujayev1960@mail.ru

O'zMU professori M.Qurbanov taqrizi asosida

### FIZIK BAKALAVR YO'NALISHI TALABALARINI LOYIHAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA FIZIK MASALALARNING AHAMIYATI

#### Annotatsiya

Bugungi kunda oliy ta'limga tizimida talabalarida mustaqil ta'limga olish, kreativ fikrlash, tizimli tahlil qilish kabi qobiliyatlarini kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish kabi muammolar dolzarb hisoblanadi. Oliy ta'limga tizimida talabalarini loyihaviy faoliyat olib borishga tayyorlash orqali ushbu fazilatlar shakllanadi bunda asosiy e'tiborni masala ishslash va mustaqil ta'limga qaratib, ularni uzviy bog'liqligini ta'minlash zarur. Maqolada talabalar loyihaviy faoliyatni samarali amalga oshirishlari uchun ishlab chiqarilgan ta'limga traektoriyasida fizikadan amaliy mashg'ulotlarda foydalilaniladigan masalalar tarkibiga katta ahamiyat beriladi. Shuni hisobga olib ushbu ishimizda qanday fizik masalalardan foydalaniyliganda yuqori samaradorlikka erishish usullari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'limga tizimida talabalar, loyihaviy faoliyat, fizika, amaliy mashg'ulot, epistemik bilim, muammo, qarshilik kuchi, tezlik, kinetik energiya.

### ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ БАКАЛАВРОВ НАПРАВЛЕНИЕ ФИЗИКИ К ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

#### Аннотация

Сегодня в системе высшего образования актуальными считаются такие проблемы, как внедрение методов и технологий, направленных на укрепление способностей студентов, таких как самообразование, творческое мышление, системный анализ. В высшей образовании эти качества формируются путем подготовки студентов к проектной деятельности, в которой необходимо уделять внимание решению задач и самообразованию обеспечивая их взаимозависимость. В статье большое значение уделяется содержанию задач, используемых в практических занятиях по физике на образовательной траектории, создаваемой студентами для эффективной реализации проектной деятельности. Принимая это во внимание, в данной работе мы показали методы достижения высокой эффективности при использовании задач по физике.

**Ключевые слова:** Высшее образование, студент, проектная деятельность, физика, практические занятия, эпистемические знания, проблема, сила сопротивления, скорость, кинетическая энергия.

### THE IMPORTANCE OF PHYSICAL TASKS IN THE PREPARATION OF UNDERGRADUATE STUDENTS IN THE FIELD OF PHYSICS FOR PROJECT ACTIVITIES

#### Annotation

Today, such problems as the introduction of methods and technologies aimed at strengthening students' abilities, such as self-education, creative thinking, and system analysis, are considered relevant in the higher education system. In higher education, these qualities are formed by preparing students for project activities, in which it is necessary to pay attention to problem solving and self-education, ensuring their interdependence. The article pays great attention to the content of the tasks used in practical physics classes on the educational trajectory created by students for the effective implementation of project activities. Taking this into account, in this paper we have shown methods for achieving high efficiency when using physics problems.

**Key words:** Higher education, student, project activity, physics, practical exercises, epistemic knowledge, problem, resistance force, velocity, kinetic energy.

**Kirish.** Respublikamizda Oliy va o'rta ta'limga tizimida oxirgi yillarda zamонавиј та'limga kontseptsiyasi asosida xalqaro andozalar asosida mutaxassislar tayyorlashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Oliy ta'limga tizimida islohotlarni tizimli olib borish maqsadida 2019 yil 8 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni qabul qilingan. Ushbu tasdiqlangan kontseptsiyada respublikamiz oliy ta'limga so'nggi yillarda erishilgan yutuqlar va bajarilgan ishlar tahlil qilinib bir qator hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar ko'rsatib o'tilgan jumladan:

-oliy ta'limga muasasalarini va kadrlar buyurmachilarini bilan o'zaro hamkorlikda mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ishlar samarali yo'lgan qo'yilmagan.

-talabalarida tanqidiy fikrlash axborotni mutaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmagan.

Yuqoridagi kabi muammolarini hal qilish uchun kompleks chora tadbirlar belgilab berilgan. Jumladan:

-individual ta'limga traektoriyalariga asoslangan, talabalarida kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar va ta'limga dasturlarini shakllantirish.

-mustaqil ta'limga soatlari ulushini oshirish, talabalarida mustaqil ta'limga olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ta'limga sohasidagi horijiy tajribalar tahliliga ko'ri talabalarini bir necha faoliyatlarini birlashtirish oladigan ta'limga jarayonidagi usullardan biri "loyihaviy faoliyat" yoki "loyihalash" usulidir [1,2].

Xorijiy olimlardan N. V. Bordovskaya, V. P. Bespalko, J. C. Vigotskiy, V. C. Gershunskiy, M. S. Kogon, A. N. Leontiev, J. C. Rubinshteyn, V. A. Slastenin, J. B. Fridman, va boshqalarning falsafa, pedagogika, psixologiya sohasidagi ko'plab asarlari loyiha faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

A.V. Xodireva, S.A. Yermolaeva, I.A. Dralyuk, N.A. Gazova, S. G. Lesnikova, T.V. Shevtsova va boshqalarning dissertatsiya ishlari loyiha faoliyatini shakllantirish muammosiga bag'ishlangan.

Loyiha faoliyatining turli jihatlarini o'rganish va tahlil qilish, uni maxsus ta'lim muhitni sifatida shakllantirish uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish masalalarini M.Axmetova, Y. Borisova, N.Bugakova, N.Gachev, O.Lomakin, V.Monaxov, M.Moiseeva, T.Novikova, Y.Polat, N.Paxomova, A.Polovinkin, I.Nikitina, N.Nuriev kabi olimlarning asarlarida keng yoriligan.

Mamlakatimiz olimlidan N.Azizzodjaeva, A.Aripjanova, G.Ibragimova, Z.Nishonova, Sh.Sharipov, E.G'ozievlar talabalar ijodiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik-psixologik mexanizmlari, talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirish, kreativ ta'lif texnologiyalaridan foydalanish masalalarini tadqiq etishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'lif sohasidagi xorijiy tajribalar tahlillariga ko'ra talabalarni bir necha faoliyatlarini birlashtira oladigan ta'lif jarayonidagi usullardan biri "loyihaviy faoliyat" yoki "loyihalash" usulidir [1,2].

Oliy ta'lif fizika sohasi yo'naliishda bakalavrlar tayyorlashda "loyihaviy faoliyat" usulidir foydalanish samaralarini haqida bир qator ilmiy ishlarmizda ta'kidlaganmiz [3,4].

Talabalar "loyihaviy faoliyat" ni samaralar amalga oshirishlari uchun ishlab chiqarilgan ta'lif traektoriyasida fizikadan amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan masalalar tarkibi katta ahamiyat kasb etadi. SHuni hisobga olib ushu ishimizda qanday fizik masalalardan foydalanilganda yuqori samaradorlikka erishish usullari ko'rsatib o'tilgan.

Loyihaviy faoliyat mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak fizik bakalavr yo'naliishida ta'lif olayotgan talabalar loyihaviy faoliyat olib borishlari davomida zamonaviy ta'lif talabalariga ko'ra quydagi kompetentsiyalarga ega bo'lishadi, ya'ni:

- Tabiat va ijtimoiy hayotdagi fizik hodisalarini ilmiy jihatdan tushuntirish.
- Turli ma'lumotlar to'plash va ularni qayta ishslash taqqoslash va ilmiy talqin qilish
- Muammolarni o'rganish va u asosida to'g'ri fizik masala tuzish, ishslash va yechimni to'g'rilingini tahlil qilish.

Yuqorida sanab o'tilgan kompetentsiyalarga ega bo'lish uchun talabalar yetarli fizik va matematik bilimlarga ega bo'lishi kerak. Ma'lumki ta'limming zamonaviy kontseptsiyasiga ko'ra bilim oluvchilar oladigan barcha bilimlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin va ushu bilimlar ikki bosqichda egallanadi. Birinchi bosqichda asosan metodologik bilimlar, ya'ni ilmiy ma'lumotlar olish uchun qo'llaniladigan turli formula va usullar o'rganiladi. Fizikadan metodologik bilimlar qonun-qoidalari va ularni ifodalovchi formulalar kattaliklarni o'lchash va ularni o'zarboq liqligini aniqlash, ma'lumotlarni jadval, grafik, diagramma ko'rinishida abstraktsiyalash va ifodalashning umumiy usullari kabilarni qamrab oladi.

Ikkinci bosqichda egallanadigan bilimlar "epistemik bilimlar" deb ataladi va bunday bilimga ega shaxs o'rgangan ilmiy nazariya va gipoteza, ilmiy dalil va kuzatish o'rtaсидаги farqni tushuntirish, ideal fizik jarayondan real fizik jarayonga yaqinlashish shartlarini anglash, ilmiy tadqiqotlarni turli usullarini tushunish, tahlil kilish va "mutaxassis" sifatida baholash kabi ko'nikmalarga ega bo'lishadi [5].

Talabalar loyihaviy faoliyat bilan shug'ulanishlari uchun har ikki bilim turiga ega bo'lishlari talab etiladi. SHuning uchun talabalarning ta'lif traektoriyalarida ushu bilimlar qachon va qanday egallanishi va kim tomonidan qanday bilimlar qachon berilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Loyihaviy faoliyatda esa metodologik bilimlar bilan birga epistemik bilimlarni ahamiyati yuqori hisoblanadi. SHuning uchun talabalarni loyihaviy faoliyat olib borishga tayyorlash uchun dars mashg'ulotlarni rejalashtirishda va foydalanadigan o'quv materiallari tanlashda yuqorida keltirilgan har ikki bilim turini rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida ta'kidlaganimizdek ma'ruza mashg'ulotlari vaqt nuqtai-nazaridan imkoniyatlarni cheklangan. SHuning uchun asosiy e'tiborni amaliy mashg'ulotlarga va mustaqil ta'lif shakliga qaratish lozim. Hozirda amaliy mashg'ulotlar ikki shaklda, ya'ni masalalarini ishslash va laboratoriya ishlari bajarish shaklida olib boriladi.

Laboratoriya ishlarni bajarish orqali talabalarda asosan metodologik bilimlar shakllanadi, chunki laboratoriya ishida biror bir kattalik aniqlovchi ischi formula tayyor berilib bajariladigan ishlar algoritmi bayon qilingan bo'ladi. Har bir mavzuga oid turli laboratoriya ishlari yoki fizik topshiriq bajarishga ega moddiy-texnik ta'minot imkoniyati cheklangan.

Hozirdi respublikamizdagi oliy o'quv yurtlarini fizik bakalavr yo'naliishida foydalanadigan masalalar to'plamlarida berilgan masalalarini 5-10% mashq masala, ya'ni bitta formuladan topiladi, 70-75% esa miqdoriy masala bo'lib fakat bitta fizik kattalik topiladi, qolganlari esa sifat, grafik va baholashga oid murakkab bo'lmagan masalalardan iborat. Talabalarga taqdim qilingan barcha masalalar javobi berilgan bo'lib deyarli tahlil qilinmaydi. Bundan tashqari masalalarini ishlashtida ideal fizik model va uning uchun tuzilgan matematik ifodadan foydalaniadi, ammo matematik ifodadan foydalanish oralig'i, ideal modeldan reallikka yaqinlashish yo'llari deyarli tahlil yoki muhokama qilinmaydi. Masala ishlashtaga bunday yondashuvni asosiy kamchiligi masalada keltirilgan fizik jarayon atroficha o'rganilmasdan qaysidir nuqtadagi eski vaqt momentidagi qiymat topiladi. Talabalar loyihaviy faoliyatni fizika sohasi bo'yicha olib borgan qandaydir fizik jarayon o'rganiladi. Bunday o'rganilayotgan fizik kattalikni boshqa bir yoki bir nechta fizik kattalikga bog'likligi jadval yoki grafik ilmiy tahlil kilinib yangi bilimlar yaratiladi. SHuning uchun amaliy mashg'ulotlarda shunday masalalar turkumidan foydalanish kerakki, ushu masalalarni ketma-ket hal qilish bilan yaxlit bir fizik jarayon o'rganilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari talabalar loyihaviy faoliyatlarini davrida ta'lif jarayonini asosan quyidagi maqsadini nazarida tutib masalalar to'plami shakllantirilishi kerak:

-Loyihaviy faoliyatda fizik muammoni bilish va u asosida masala qo'yish.

-Loyihaviy faoliyatda kreativlikni shakllantirish va rivojlantirish.

-Loyiha tuzish, bajarish, hisobot yozish, tahlil kilish va taqdimot tuzish kabi ko'nikmalarni shakllantirish.

Talabalarda atrof-muhitda yoki texnikada sodir bo'layotgan fizik jarayoni ajralib va uning asosiy fizik masala qo'yish ko'nikmasi bosqichma-bosqich shakllantiriladi [6]. Birinchi bosqichda talabalar fizikani biror bo'limiga, ya'ni misol tariqasida mexanikani dinamika bo'limidagi bir nechta kuchlar ta'sirida harakatga doir miqdoriy va grafik masalalarni ishlay oladigan darajaga olib kelinadi [7].

Ikkinci bosqichda esa avvalgi bosqichda ko'rilgan masalalarda foydalanib reallikga yaqinlashtiriladi. Ushbu bosqichda talabalarga taqdim qilingan masalalarda topilishi kerak bo'lgan fizik kattalikni faqat bir qiymati emas balki bir nechta nuqtalardagi qiymati jadval yoki grafik shaklida olish talab qilinadi.

Namuna sifatida ikkinchi bosqichga tegishli quyidagi masalani keltirish mumkin.

2-bosqich uchun Massasi 1350 kg bo'lgan "Cobalt" avtomobili dvigatelinini tortish kuchi 6500 N bo'lib u harakatni boshlaydi. Butun harakat davomida avtomobilga  $F = kv$  qarshilik kuchi ta'sir kilsa, uning tezligi, bosib o'tgan yo'llini va kinetik energiyasini vaqtga bog'liq grafigini yasang.

Ushbu masalalar yechimini tahlil kilamiz:

Bunda harakat tenglamasi quyidagicha bo'ladi va ushu tenglamadan talab qilingan kattaliklarni aniqlaymiz.

$$ma = F - F_q = F - kv$$

$$m \frac{dv}{dt} = F - kv$$

ko'rinishdagi differentialsial tenglamaga ega bo'ldik.

Ushbu tenglamalardan tezlik, bosib o'tilgan yo'lli va kinetik energiyani aniqlash uchun formulani keltirib chikaramiz:

$$\begin{aligned} v &= \frac{F}{k} \left[ 1 - \exp \left( -\frac{k}{m} t \right) \right] \\ x &= \frac{F}{k} t + \frac{m}{k} \left[ \exp \left( -\frac{k}{m} t \right) - 1 \right] \\ E_k &= \frac{1}{2} mv^2 = \frac{m F^2}{2 k^2} \left[ 1 - \exp \left( -\frac{k}{m} t \right) \right]^2 \end{aligned}$$

Ushbu keltirib chiqarilgan formulalardan foydalanib xatto oddiy hisoblash yordamida grafik yasash ham ko'p mehnat va vaqt talab qiladi. Hozirgi kunda kompyuterda dasturiy ta'minotdan foydalanib grafik yasash vaqtini tejash imkonini beradi. Yasalgan grafiklarni tahlil kilib harakat to'g'risida deyarli to'la tasavvurlarga va yangi bilimlarning ega bo'lamiz. Yangi metodologik bilimlardan foydalanib epistemik bilimlarimizni boyitish bilan birga fizik jarayonni tahlil qilish, ilmiy xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarini takomillashtiramiz [8,9].

Uchinchi bosqichda esa talabalarga tayyor masala emas balki fizik topshiriq beriladi, chunki ushbu fizik topshiriqlarni bajarish uchun talaba o'zi masala tuzishi lozim. Fizik topshiriq asosida tuziladigan masalani imkoniyat darajasida real voqealikka yaqinlashtirish talab qilinadi. Masala tuzishiga bunday talab qo'yish masala ishlashta kompleks yondashuvni talab qiladi, ya'ni yuqorida ko'rganimizdek analitik usuldan va IT-teknologiyalaridan foydalanib masala yechimini topishga harakatni yuzaga keltiradi [10]. Ushbu bosqichni asosiy vazifalaridan biri talaba fizik masala tuzishi uchun albatta qandaydir ma'lum kattaliklardan foydalanishi zarur, buning uchun esa fizik topshiriqni ro'y bergan fizik jarayon deb uning real fizik modelini va unga asoslanib matematik modelni tuzadi. Matematik model yordamida noma'lum kattalikni biror qiymatini yechimini topish uchun qolgan kattaliklar ma'lum bo'lishi kerak. Talaba ma'lum kattaliklarni aniqlash uchun ma'lumotlar bazasidan

foydalanishi, internetdan shu sohaga oid kattaliklarni yoki jadval grafiklarni izlab topishi, qayta ishlashi yangi bilimlarni izlashi va undan samarali foydalanishi zarur. Bunday faoliyat talabaga ma'lumotlar bilan ishlashtirish ko'nikmasini rivojlantirib kreativ fikrash va o'z yo'lini asoslangan holda aniqlash sifatlarini namoyon qiladi [11].

**Xulosa va takliflar.** Demak fizik masalalardan foydalanib loyihibi faoliyatga tayyorlashda quyidagi maqsadlarga erishiladi.

- ideal fizik jarayonдан real fizik jarayonga yaqinlashish
- real fizik jarayondagi muammolarni sezalish
- aniqlangan muammolar asosida fizik masala qo'yish
- masalani xal qilishda turli jadval va grafiklar olish va ularni tahlil qilish, ya'ni ma'lumotlar bilan ishlashtirish
- muammoni o'rganish davomida o'zi uchun yangi bilimlar yaratish va ilmiy xulosa chiqarish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib mushohada qiladigan bo'lsak fizik masalalar ishlashtirish orqali amaliy mashg'ulotlarda talabalarni loyihibi faoliyatga tayyorlash uchun bizning A.CHertov tahriri ostida nashr qilingan "Fizikadan masalalar to'plami"ni foydalanish uchun asos qilib unga yangi qo'shimchalar kiriltsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalar loyihibi faoliyatni samarali olib borishlari uchun fizikadan amaliy mashg'ulotlarda ularni loyihibi faoliyatni amalga oshirishga kompleks tayyorlash lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Юдин Э.Г. Методология науки. Системность. Деятельность. М.: Эдиториал УРСС, 1997г. - 444 с.
2. Ball G.A. Psychological Principles of Modern Humanism // Problems of Psychology. – 2009. – №6. – Р. 3–12.
3. Boboxo'jayev U.S., Ismanova O.T.. Fizika yo'nalishi talabalarida loyihalash faoliyatini shakllantirishda zarur pedagogik tavsiyalar. "Kondensatsiyalangan moddalar fizikasining rivojlanish tendentsiyalari" xalqaro ilmiy konferentsiyasi materiallari. FarDU.. 30-31oktabr. 2023 г. c.439-441
4. Ismanova O.T.. Fizika yo'nalishi talabalariga loyiha ishlarini bajartirish orqali kreativ fikrashlarini rivojlanish usullari. Buxoro davlat universiteti. Pedagogik mahorat jurnali. 2023 yil. 11-son. ISSN 2181-6833
5. Дубровина, О. С. Использование проектных технологий в формировании общих и профессиональных компетенций обучающихся. Проблемы и перспективы развития образования (ИИ): материалы междунар. науч. конф. (г. Пермь, май 2012 г.) Пермь: Меркурий, 2012. - 124-126с
6. Панчук Т.А. Формирование готовности к проектной деятельности студентов факультетов технологии и предпринимательства : Дис. Кузбас. гос. пед. акад. – Новокузнецк, 2004. -185 с.
7. Пахомова, Н.Ю. Метод учебного проекта в образовательном учреждении : пособие для учителей и студентов педагогических вузов. – Москва: АРКТИ, 2005. – 56 с.
8. Boboxo'jaev U., Ismanova O., Yarimo'tkazgichlar fizikasi mutaxassislarni kreativlik xususiyatlarini shakllantirishda loyihalash faoliyatini ahamiyati. // "Yarim o'tkazgichli opto- va nanoelektronika, muqobil energiya manbalari hamda ularning istiqbollari" mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. – Andijon, 2023. 12–13 oktabr. В. 362–365.
9. Гузеев В.В. «Метод проектов» как частный случай интегративной технологии обучения. Директор школы, 1995. – № 6. – С. 39-47.
10. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования : учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. – Москва: Академия, 2002. -273 с.
11. Ismanova O.T. Fizik bakalavrlearning loyihalash faoliyati samaradorligini orttirishda amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati. Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar. 73-78 b. ISSN 2091-5780. E-ISSN 2181-306x



**Shaxlo BOLTAYEVA,**

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti v.b

E-mail: shaxlo\_2024@mail.ru

Profi University Pedagogika va aniq fanlar kafedrasini dotsenti M.Maxmudova taqrizi asosida

## EXPLANATION OF THE PROBLEM OF FORMING STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY IN PEDAGOGICAL THEORY

### Annotation

The article reveals the problem of developing creative thinking of elementary school. Justifies the theoretical position about the essence of creativity. The concept of "extracurricular work" is explained in detail, its types, forms and results are taken into account. The activities of creative thinking circles outside the pedagogical classroom are discussed.

**Key words:** Creative thinking, extracurricular activities, organizational methods, elementary school, elementary school students.

## ОБЪЯСНЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ

### Аннотация

В статье раскрывается проблема развития творческого мышления начальной школы. Обосновывает теоретическое положение о сущности творчества. Подробно поясняется понятие "внеклассная работа", учитываются ее виды, формы и результаты. Обсуждается деятельность кружков творческого мышления вне педагогического класса.

**Ключевые слова:** Творческое мышление, внеклассная деятельность, организационные методы, начальная школа, учащиеся младших классов.

## PEDAGOGIKA NAZARIYASIDA O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSINING YORITILISHI

### Annotatsiya

Maqola boshlang'ich sinfning ijodiy fikrashini rivojlantirish muammosini olib beradi. Ijodkorlikning mohiyati haqidagi nazariy pozitsiyani asoslaydi. "Sinfdan tashqari ishlari" tushunchasi batasfil olib berilgan, uning turlari, shakllari va natijalari hisobga olinadi. Ijodiy fikrashining pedagogik sinfdan tashqari to'garaklar faoliyatini haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ijodiy fikrash, sinfdan tashqari ishlari, tashkiliy usullar, boshlang'ich maktab, boshlang'ich sinf o'quvchilari.

**Kirish.** Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu jamiyatda yashayotgan har bir insonni o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqar oladigan erkin, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta'limgartiblikning tizimiga katta e'tibor berilmoida. Jumladan, Maktabgacha ta'limgartiblikning tashkil etilganligi, shuningdek, maktab ta'limi rivojlantirish bo'yicha bir nechta Prezident qarorlari va farmonlarini keltirishimiz mumkin. Zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan barcha sohalardan bo'lgani kabi ta'limgartiblikning tizimiga ham innovatsion texnologiyalarni joriy etish davr talabi bo'lib qolaveradi. Pedagogik ta'limgartiblikning zamonaviy konsepsiysi, birlinchi navbatda, o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi, bining natijasida chuqur bilimga tayyorgarlikka erishish mumkin.

Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to'g'risida va insonning hayotda tutgan o'rni to'g'risidagi tasavvurlari o'zgarmoqda, tafakkuri va olamni tushinishing yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy-amaliy o'zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o'tish yuz bermoqda.

Ta'limda ijodiy izlanishlar haqiqiy ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o'qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari to'g'risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagini muvafaqqiyat qozonadi.

Inson hayoti sharoitlarini o'zgartiruvchi va insonni o'zini ham o'zgartiruvchi faoliyat hozirgi zamonda ta'limgartiblikning umumiy asosidir. Inson faoliyatini jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy davrida turli xil ko'rinishlar, faoliyatning turli shakllarida farqlanadi.

Biroq ichki munosabatlar, ular o'rtasidagi aloqalar doimiy va umumiy bo'lib qolaveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardir. Ma'lumki, inson o'z g'oya, fikr, qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo'llaydi va qayta yaratadi.

Faoliyat – atrof olamga nisbatan insonning o'ziga xos faol munosabatidir. Chunki insonning hayotda namoyon bo'lishining muhim shakli uning voqe'a-hodisalarga bo'lgan faol ishtirotidir. Har qanday faoliyatda hayotiy tajriba to'planadi, insonda o'z atrofini o'rab olgan borliqni bilish jarayoni kechadi, ma'lum bilimlar egallab olinadi, malaka va ko'nikmalar hosil bo'ladi, natijada inson faoliyatini rivojlanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Shaxs rivojlanishiga irlisyat, muhit, tarbyianing ta'siri bilan birga unga faoliyatning ta'siri ham o'ta muhimdir. "Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat – bu uning faolligidir. Faoliyk – (lotincha "aktus") – harakat, "aktivus" – faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha hatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriya", – deb ta'kidlaydi o'zbek olimasi V.M.Karimova [1]. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashga aloqador sifatlari orqali bayon etiladi. "Ijodiy faoliyat – bilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan tizimdir" - deb ta'kidlaydi A.M.Matyushkin [2].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish mavzusini gapirishdan oldin "ijod", "ijodkorlik" kabi atamalariga to'xtalib o'tamiz. Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda, darsliklarda "ijod", "ijodkorlik" kabi atamalarni uchratib turamiz. Bu atamalarning adabiyot sahifalarida paydo bo'lganligi bejiz emas. "Ijod" – so'zining lug'aviy ma'nosи: "yaratish", "yangilikni kashf qilish" kabi so'zlarini bildirib keladi.

"Ijodkorlik"-faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng olyi tarzda paydo bo'lishidan, namoyon bo'lish jarayonini o'z ichiga oladi. Ijodkorlik sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyatni jarayonidir. Ijodkorlik o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ob'ektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlanfiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijodi bo'lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyatni bilan belgilanadi: ixtiyorchi, tashkilotchi, ilmiy va badiiy mehnat vaboshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlardan ijtimoiy munosabatlarga bog'liq.

Bir qator psixolog olimlar N.P.Shcherba, V.S.Yurkevich, Ye.L.Yakovlevlar: "Ijodiy faoliyat – inson faoliyinini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayonidir. O'quvchi shaxsi aynan turli faoliyiklar jarayonida shakllanadi", - deb hisoblaydilar. A.N.Leontyev fikricha, faoliyatning asosiy psixologik nazariyasi va ta'limga faoliyatlari yondashuv quyidagi g'oyalari va tamoyillarni o'zida qamrab oladi [3]:

Faoliyatga metodologik asos bir tomonidan obyektiv dunyo, ikkinchi tomonidan miyaga ruhiyatning ta'siri natijasida vujudga keladi;

Ruhiy ta'sirning faoliik kasb etishi – bu subyektning ehtiyoji asosida amalga oshadi;

Moddiy dunyoda subyektni faoliyatga yo'naltirish, faoliyatning o'zi ham ijtimoiy munosabatlarda tarkib topadi;

Inson faoliyati ruhiyatining ijtimoiy tarixiy tabiatiga bog'liq bo'lib, bu jarayon ijtimoiy hayotning o'zida amalga oshadi;

Inson faoliyatida ruhiyat ichki faoliyat sifatida namoyon bo'ladi

Barcha tahillarni umumlashtirib, quyidagi fikrga kelindi: faoliyat – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, o'quvchi shaxsining ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, hamda egallangan bilimlarni tatbiq etish, o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faoliikk shaklidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Faoliyat jarayonida inson shaxsining har tomonlama yaxlit rivojlanishi, atrof-olamga munosabati shakllanadi. Inson faoliyati maqsadga muvofiq amalga oshishi uchun uni to'g'ri tashkil etish va to'g'ri yo'naltirish lozim. Bu bolaga o'z shaxsiyatini eng to'liq erkin shaklda ochib berishga imkon beradi. Barcha badiiy faoliyat faol tasavvurga, ijodiy fikrleshga asoslanadi. Ushbu funksiyalar bolaga dunyoning yangi, g'ayrioddiy ko'rinishini beradi. Ular tafakkurni, xotirani rivojlanirishga hissa qo'shami, uning individual hayotiy tajribasini boyitadi, bu esa tasavvur va ijodiy fikrleshni rivojlanirishga yordam beradi. Lekin ko'p hollarda shaxsnинг rivojlanishi imkoniyatlardan foydalanailmaydi, tarbiyalanuvchilar ko'pincha ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatini faol tashkil eta olmaydilar, hayotda sust harakat qildilar.

O'quvchilar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish, mehnatni kiritgan holda uning asosiy yo'nalishlarini bilish, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik, emotsiyonal faoliyatlariga ajratish mumkin. Faoliyat faol va passiv bo'ladi, faqat faoliyat insonning barcha imkoniyatlarini ruyogba chiqarishga yordam beradi. Bunday faoliyat insonda qoniqish hosil qildi, inson kuch-quvvatga to'ladi.

O'qishda faoliik ijtimoiy tajribalarni tezroq o'rganib, anglab olishga, kommunikativ qobiliyatini rivojlanirishga, o'zini o'rab turgan atrof-olamga munosabatini shakllanirishga olib keladi. Bilish faoliigi esa bolaning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi [4].

Mehnatda faoliik shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishga undaydi, uni yanada muvaqqiyatli mehnat qilishga yo'llaydi. Rivojlanayotgan shaxsni doimiy faoliikkancha murakkab va qiyin kechadi. Zero, o'quvchining turli yoshda uning faoliyati o'zgarib turadi. Shuning uchun bu borada maktabdag'i

ommaviy tadbirlar bilan birga har bir o'quvchining invidual va yosh xususiyatlarini hisobga oladigan ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

**Tahhil va natijalar.** Inson qobiliyati va iste'dodi muvaffaqiyatlarga erishishining asosiy sharti ham insonning faolligidir. Qobiliyat shakllanishi va rivojlanishi, birinchidan, ma'lum bir faoliyatga moyilliq yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarni aniqlash yo'li bilan, ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida sistemali faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlanirish yo'li bilan, uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiyl va maxsus axborotni engil va samarali o'zlashtirishni rejalashtirgan faoliyat bo'yicha malaka va ko'nikmalar hosil qilishni ta'minlasin. Bolalarda qobiliyatlarini o'sishi ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladi [10].

Chunki o'qituvchi qay darajada mahoratlbo'lmasin, agar o'quvchining o'zi faol bo'lmasa, u muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Chunki o'qituvchi o'quvchini o'qitish jarayonida uni boshqarib boradi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalari, darsga oid bo'lgan o'yinlarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib, yanada takomillashtib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaqiy texnologiyalardan foydalananish va ularni egallayotgan bilimlarni o'zlarini qidirib, mustaqil tarzda izlab topishi, mustaqil fikrleshvi va o'rganishi, tahlil qilishi hatto yakuniy xulosalarini ham o'zlarini keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik, o'rgatuvchilik vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham o'quvchi o'z faoliyatida o'ziga ahamiyatlbo'lgan, o'ziga jalb eta oladigan hayot mummolarini bilan shug'ullana borib, ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlanadi [5].

O'qitish jarayonida o'quvchiga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaqiy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrleshga, Izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish, tahlil qilish ilmiy adabiyotlardan unimli foydalananishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogka va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovotsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqoza etadi. Ular juda xilma xildir o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchi talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrleshni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlanirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga yordam beradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa shundaki, shaxs faoliigli uning rivojlanishida vosita emas, balki uning natijasi hamdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim olishning poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o'quvchilarda ijodiy faoliyatini rivojlanirishni taqoza etadi. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaqiy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalananish o'quvchilarni mustaqil fikrleshga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlesh doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Ta'lim-tarbiya shu vaqtida maqsadga erishadi, qachon u o'ziga ham boshqalarini ham quvonch keltira oladigan ijtimoiy, faol, tashabbuskor, ijodkor shaxsni shakllantirish olsa, ana shunda shaxs faoliyati jarayonida uning barcha potinsial imkoniyatlari ruyogba chiqadi. O'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlanirish, ularni har tomonlama yetuk bo'lishiga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2017. – 178 bet.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishining nazariy asoslari. – T.: Fan, 1997.-182-b.
3. Boltayeva Sh. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. // Xalq ta'limi, 2004, № 3.-33-34 b.

4. Boltayeva Sh.T. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish //Pedagogika nazariyasi va tarixining ayrim dolzarb muammolari. / Ilmiy ishlar t o‘plami.-T.: Fan, 2006.-B.142-144.
5. Абдуллаева Ш.А., Сайтов С.С., Халикова Г.И. История педагогики и образования. Учебник. –Т., 2008. -298 с.
6. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство.-Т. Фан ва ахборот технологиялари, 2006. - 167 б.
7. Брушлинский А. Новые педагогические технологии.- М: Просвещение, 1999. – 567с.
8. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. Педагогика. Ўкув кўпланма.-Т.: Фан, 2004.- 182 б.
9. Немов Р.С. Психология : Учебн.пособия для учащихся пед . училищ, студентов пед. ин-ов, и работников системы подготовки, повышения квалификации и переподготовки пед. кадров. –М.: Просвещение, 1990.- 301 с.
10. Djalalov Baxromjan Begmurzayevich, Ibrohimova, Oftobxon Ma'rufjon qizi. O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari // ORIENSS. 2022. No12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o'quvchilarni-intellektual-rivojlantirishning-psixologik-pedagogik-xususiyatlari> (дата обращения: 24.07.2023)



**Lochin VALIYEV,**  
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti v.b  
E-mail:valiev133@gmail.com

TDPI dotsenti M.Norbosheva taqrizi asosida

## THE EMERGENCE OF IDEAS ABOUT HUMAN RIGHTS AND THE FORMATION OF IDEAS ABOUT HUMAN DIGNITY IN THE EAST

### Annotation

In this article, the emergence of ideas about human rights in the East and the formation of ideas about human dignity and the formation of ideas about the appreciation of the human personality are the development of the modern world, the recognition that the human personality is a high value, the definition of human rights, democratization of states, as well as civilized inter-state relations, interpersonal relations between individuals and authorities, goodness, the emergence and formation of human rights in social consciousness, the issue of achieving their realization, the process of gradual development of humanity and, first of all, the interaction of people in society are scientifically based.

**Key words:** Man, state, power, society, reciprocity, goodness, justice, freedom, equality, democracy, compassion, category.

## ПОЯВЛЕНИЕ ИДЕЙ О ПРАВАХ ЧЕЛОВЕКА И ФОРМИРОВАНИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ ДОСТОИНСТВЕ НА ВОСТОКЕ

### Аннотация

В данной статье возникновение представлений о правах человека на Востоке и формирование представлений о человеческом достоинстве и формирование представлений о признании человеческой личности являются развитием современного мира, признанием того, что человеческая личность - высокая ценность, определение прав человека, демократизация государств, а также цивилизованные межгосударственные отношения, межличностные отношения между личностью и властью, добро, возникновение и формирование прав человека в общественном сознании, вопрос достижения их реализации Научно обоснован процесс постепенного развития человечества и, прежде всего, взаимодействие людей в обществе.

**Ключевые слова:** Человек, государство, власть, общество, взаимность, добро, справедливость, свобода, равенство, демократия, сострадание, категория.

## SHARQDA INSON HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI G'OYALARING VUJUDGA KELISHI VA INSON QADR-QIMMATI OID TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Sharqda inson huquqlari to'g'risidagi g'oyalarning vujudga kelishi va inson qadr-qimmati oid tasavvurlarning shakllanishi va inson shaxsi qadrlanishi doir tasavvurlarning shakllanishi zamonoviy dunyoning taraqiyoti, Insonning shaxsi yuksak qadriyat ekanligining e'tirof etilishi, inson huquqrini ta'minlanishiga roya qilinishi davlatlarning demokratlashuvu, shuningdek davlatlararo munosabatlarning sivilizatsiyalashganligi, shaxs va hokimiyatning o'zaro munosabatlari, ezzulik, Ijtimoiy ongda inson huquqlarining vujudga kelishi va shakllanishi, ularning ruyobga chiqarishga erishilishi masalasi, insoniyat tadrijiy rivojlanish jarayoni va avvalo odamlarning jamiyatdagi o'zaro munosabatlari ilmiy asoslangan.

**Kalit so'zlar:** Inson, davlat, hokimiyat, jamiyat, o'zaro munosabat, ezzulik,adolat, erkinlik, tenglik, demokratizm, rahm-shafqat, kategoriya.

**Kirish.** “Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaron rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi”. Ushbu haqqoniy e'tirof O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-noyabrda imzolagan “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi farmoyishda alohida ta'kidlandi. Inson huquqlari to'g'risidagi g'oyalarning vujudga kelishi va inson shaxsi qadrlanishi doir tasavvurlarning shakllanishi zamonoviy dunyoning taraqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Insonning shaxsi yuksak qadriyat ekanligining e'tirof etilishi va inson huquqrini ta'minlanishiga roya qilinishi davlatlarning demokratlashuvu, shuningdek davlatlararo munosabatlarning sivilizatsiyalashganligi ramziga aylandi. Ular shaxs va hokimiyatning o'zaro munosabatlarda uning ustun rolini e'tirof etgan holda ezzulik,adolat, erkinlik, tenglik, demokratizm, rahm-shafqat kabi universal umuminsoniy kategoriyalarni o'zida mujassamlashtirdi. Ijtimoiy ongda inson huquqlarining vujudga kelishi va shakllanishi, ularning ruyobga chiqarishga erishilishi — aslida insoniyat tadrijiy rivojlanish jarayoni va avvalo odamlarning jamiyatdagi o'zaro munosabatlardir. Patriarxat jamiyatda oilada ota hukmonlik qilgan bo'lsada, oila a'zolarining

huquqiy vakolat va imtiozlarsiz oila mavjud bo'la olmagan. Patriarxat davridayoq ayol va erkaklar o'zlaridan nasl qoldirishlari uchun juft bo'lib yashash orqali huquq va majburiyatga ega bo'lish kerakligini tabiatning o'zi isbotlab berdi. Ammo bu ongli ravishda amalga oshmay, barcha jonzotlar singari nasl qoldirish tuyg'usi orqali amalga oshirilgan edi . Patriarxat davriga kelib, endi nafaqat biologik, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy ehtiyojarlari jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilani takomillashishiga olib keladi. Oilani tashkil qilish mexanizmining rivojlanishda asosiy o'rin oila a'zolarining o'zaro huquq va majburiyatlariga tegishli bo'lgan. Oila a'zolarining o'zaro xattiharakatining murakkab mexanizmi bo'lgan oila a'zolarining o'zaro huquq va majburiyatlarini o'rganish, avesto davri oilasining mazmun-mohiyatini ochib berishda muhim rol o'yynaydi. Qanchalik mantiqa zid bo'lmasisin, aytish joizki, inson huquqlarining vujudga kelishida uning normal hayotiy faoliyatiga nisbatan turli tahdidlar.

Inson hayoti ming yillar davomida xavf-xatarlarga duchor bo'lgan, qadr-qimmati poymol qilingan. Unga javoban tabiyy ravishda odamlarning tengligi, ularni kamsitish, shafqatsizlik, zo'ravonliklardan himoya qilishning insonparvarlik g'oyalarini tug'ilgan hamda qaror topgan va h.k. Tarixdan ma'lumki, insoniyat inson huquqlarini saqlab turish va himoya qilish uchun

maxsus say-harakatlar talab etiladigan vaziyatga tushib qolmasligi uchun har bir avlod inson huquqlarini yangidan qayta-qayta himoya qilaverishi kerak. Inson huquqlarining ilk bor mustahkamlanishi milliy xartiyalar, deklaratsiyalar, konstitusiysi normalari shaklida amalga oshirilgan. 1789 yildagi Inson va fuqaro huquqlari fransuz deklaratsiyasi anche ta'sirchan qonunchilik hujjati bo'lib xizmat qiladi va uning tarixda shaxs huquq va erkinliklarining e'tirof etilishi va himoyasining muhim belgisi bo'lganligi bejiz emas. Deklaratsiyadagi demokratik tezisning e'tiborga molik jihat shundaki, unga ko'ra, huquqlardan foydalanish ta'minlanmaydigan, hokimiyatlар bo'linishi amalga oshirilmagan jamiyat konstitusiyaviy hisoblanmaydi (16-m.). Shaxsiy hayot, mulk, xavfsizlik sohasidagi, hokimiyatning javobgarligi, jumladan diniy va boshqa fikr-mulohazalar tabiiy, ajralmas va muqaddas huquq va erkinliklarga kiritilgan. Fransuz Deklaratsiyasi bilan bir qatorda tarixda inson va fuqaro huquqlari ifodalangan ingliz Xabeas Korpus Akti, Amerika Qo'shma Shtatlarining Mustaqillik deklaratsiyasi, AQSH Konstitusiyasi va huquqlar to'g'risidagi Bill hamda boshqa bir qator hujjatlar ham muayyan ahamiyatiga ko'ra ajralib turadi. XX asrning boshlarida shaxs va davlat o'rtaida asosiy huquq va erkinliklarning e'tirof etilishiga asoslangan shartnoma munosabatlari prinsipi Yevropa, Lotin Amerikasi va mustamlakachilik asoratidan xalos bo'lgan bir qator Osiyo davlatlarida qonuniy asosda qabul qilindi. Ushbu jarayon asta-sekin mustaqillikka erishgan Afrika va Osiyo davlatlariga ham yoyildi. Ayniqsa, kishilarning bir davlat kuchi bilan huquq va erkinliklarni to'liq va kerakli darajada himoya qilib bo'lmagliga ishonchi orta boshladi.

**Tadqiqot metodologiyasi** Xalqaro gumanitar aloqalarga bo'lgan ehtiyoj tobora o'sib bordi. Inson huquqlarining, birlinch navbatda, har kimmer yashash huquqini dahshati va ommaviy ravishda buzilishiha olib kelgan Ikkinci jahon urushi mazkur sohada davlatlar va xalqlarning o'zaro keng hamkorligiga aylanib, inson huquqlarining baynalmilallashuvida keskin burilish pallasi bo'ldi. 1945 yili Birlashgan Millatlar Tashkilotini tuzilishning asosiy maqsadlardan biri Inson huquqlari va asosiy erkinliklari uning irqi, jinsi, tili va e'tiqodidan qat'i nazar hamma uchun bir xilda hurmat qilinishini rag'batlantrish va rivojlantirish ekanligi bejiz emas[2]. 1948 yilning 10 dekabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim hujjat — Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi e'lon qilindi. Uning matni insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik,adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligidan iborat insonparvarona iboralar bilan boshlanadi. Deklaratsiya rasman yuridik majburiy hujjat hisoblanmasa-da, ammo aksariyat ko'pchilik davlatlar tomonidan umume'tirof etilganligi bois, u hozirgi kunda tom ma'noda shunday hujjatga aylanadi. Keyinchalik BMT boshchiligidagi inson huquqlariga bag'ishlangan o'nlab boshqa bir qator hujjatlar qabul qilindi. Ular qatorida Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt (unga 1966 yildagi tegishli fakultativ protokolni ham qo'shib) va Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt alohida ahamiyatiga ko'ra ajralib turadi. Ular shartnomalar sifatida namoyon bo'ladi va ishtirokchi tomonlar uchun majburiy yuridik kuchga ega bo'lib, ularning har biri rasmiy ravishda mazkur hujjatlarning qoidalariga rivojlanishga rozi bo'ladi. Yuqorida zikr etilgan Deklaratsiya va Paktlar yig'indisi Inson huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Bill deb ataladi. U ijtimoiy turmushning barcha sohalarida individvning eng muhim huquq va erkinliklari ro'yxatini o'z ichiga oladi va davlatlarning shaxsnинг huquqiy maqomini qonuniy mustahkamlashiga yo'naltirilgan umumiyy democratik andoza sifatida xizmat qiladi. Endilikda dunyodagi aksariyat ko'pgina mamlakatlarning konstitusiyaviy qonunchiligidan inson huquqlari to'g'risidagi asosiy xalqaro hujjatlarga mos keladigan insонning asosiy huquq va erkinliklari ro'yxati joy oлган. Ular davlatlar tomonidan yuridik mustahkamlangan boshqa huquqlar bilan birgalikda u yoki bu mamlakat inson va fuqarolarining huquq va erkinliklari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bunda muayyan-tarixiy va milliy xususiyatlar, iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tuzilish, axloqiy an'alar va shu kabilar hisobga olinadi. Bu yerda "inson

huquqlari" va "fuqaro huquqlari" tushunchalarining asoslanotirilgan mutanosibligi yotadi.

Xozirgi zamondan tushunchasida "inson huquqlari" va "fuqaro huquqlari" zamonaiviy tushunchada u yoki bu mamlakatning qonunlarida mustahkamlanganligi, shaxsnинг fuqaroligidan qat'i nazar, umumijitimoysi, falsafiy, axloqiy, tabiiy ravishda vujudga keluvchi va ajralmas qat'iy-yuridik mezon sifatida e'tirof etiladi.

**Tahhil va natijalar.** Fuqaro huquqlari faqat muayyan davlatning normativ hujjatlari bilan o'rnatiladi va bir vaqtning o'zida uning ma'lum fuqarolik majburiyatlari ham belgilab qo'yiladi. Tabiiy huqlarni tan olmagan holda, ularni o'zboshimchalik bilan cheklash, amalga oshirildishiga to'sqinlik qilish, asossiz ravishda taqiqlar kiritish orqali har qanday davlat, agar bunday taqiqlarni narmativ ravishda qonunlashtirsa, qonunga xi洛f foliyat yuritgan bo'ladi.

Inson huquqlari sohasidagi cheklash haqida so'z yuritganda, bu haqida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasida umumiy tartibda quyidagilar keltirib o'tilgan:

1. Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to'liq kamol topishi mumkin.

2. Har bir inson o'z huquqi va erkinliklari deklaratsiyasining 29-moddasida umumiy tartibda quyidagilar keltirib o'tilgan:

3. Ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va prinsiplariga aslo zid bo'lmagligi kerak. Ota-onalarning bolalarni himoya qilishga majburiyligi, hozirda ham eng dolzlarb muammolardan biri bo'lib, dunyoning ko'plab mamlakatlarining qonunchiligidagi o'z tasdig'iни topgan.

"Bolalar sog'lig'ini himoyalash va ularning o'sishini ta'minlash" haqidagi 1990 yil 30 sentabrda qabul qilingan Umumjahon Deklaratsiyasining 18-moddasida: "Jamiyatning barcha muassasalari, ota-onalarining boshqa vasiylarning bolalarini oila sharoitida boqish va ularga g'amxurlik ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan urinislarni hurmat qilishlari va qo'llab-quvvatlashlari zarur" deyiladi. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 25-moddasining birlinch qismida "Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatlik va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ishsizlik, kassalik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lмагan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega", - deyiladi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 25-moddasining ikkinchi qismida. "Onalik va bolalik alohida g'amxurlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar, nikohda yoki nikohdan tashqarida tug'ilishdan qati nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak.

**Xulosa va takliflar.** Inson huquqlari barcha huquq sohalariga qaraganda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki unda butun insoniyatning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, shaxsiy mustaqilligi kabi asosiy qadriyatlar alohida to'la mujassamlashadi. Ushbu qadriyatlar inson huquqlarida o'zining normativ mustahkamlangan aksini topib huquqiy vositalar va institutlar ko'magida amalga oshirilishi kafolatlanadi[5]. Ammo inson huquqlari konsepsiyasining ichki mazmuni va maqsadi faqatgina qonuniy tartibga solishning tor doirasi bilangina cheklanib qolmaydi. Sivilizatsiyalashgan jamiyatda inson huquqlarni ta'minlashni huquqiy usullari standartlar va umumiy hayot normadagi muammolarining muhim qismi hisoblanadi[6]. Shunday qilib, inson huquqlarini samarali tarzda amalga oshirish eng avvalo bu huquqlarni rag'batlantrish va himoya etish uchun milliy infratuzilmalar yaratishni taqozo etishi aniq-ravshan ko'rinish turgan faktga aylanib bormoqda[7]. Keyingi yillarda jahonning ko'pgina mamlakatlarida zimmasiga inson huquqlarini himoya etish bilan bog'liq aniq vazifalar yuklatilgan muassasalar

tashkil etildi[8]. Garchi bunday muassasalarning vazifalari har bir mamlakatda o'ziga xos bo'lib, bir-biridan farq qilsa-da, ularning hammasi bitta mushtarak maqsadga erishishni ko'zlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Aristotel. Politika. Afiskaya politika.–M., 1997. – S. 36. 19
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Deklaratsianing 60 yilligiga bag'ishlangan nashr 1948–2008. – B. 10. 22
3. Ramatov, J., & Umarova, R. (2021). Central Asia in Ix-xii Centuries: Socio-political Situation, Spiritual and Cultural Development. Academicia Globe: InderScience Research, 2(04), 148-151.
4. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.
5. Umarova, R., Tuhtaboev, E., & Temirova, S. (2022). Scientific and Theoretical Bases of Beruni's Natural Philosophy. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(1), 13-15.
- Непрерывное мониторинг и обновление системы контроля. Важно осуществлять постоянный мониторинг эффективности системы контроля и вносить необходимые изменения и улучшения в соответствии с изменяющимися потребностями и условиями.

Эти выводы могут служить основой для разработки и реализации мероприятий по усовершенствованию системы депутатского контроля за исполнением местных бюджетов в городе Ташкенте с целью повышения ее эффективности и прозрачности.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Матибаев Т. О новых подходах к активизации деятельности местных представительных органов власти //Fuqarolik Jamiyati. Гражданское общество. – 2018. – Т. 15. – №. 3. – С. 65-68.
2. Нодирхонова Н. ПРОБЛЕМЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В БАНКОВСКО-ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ: ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
3. Есипов В. М. Организационно-экономический механизм противодействия криминальной экономике на этапе проведения рыночных реформ : дис. – М. : Акад. упр. МВД России, 2004.
4. БОРОДКИНА О. И. и др. АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛНОГО ГОСУДАРСТВА В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: КАЗАХСТАН, КЫРГЫЗСТАН, УЗБЕКИСТАН. – 2023.
5. Ganiyeva M. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблейсининг 72-сессиясидаги нутини ўрганиш бўйича илмий-оммабон рисола //Архив научных исследований. – 2019.
6. Ziyodillayev R., Karimov I. A. Inson Huquqlari Va Erkinliklari Himojasini Ta'Minlashda Milliy Institutlar (National Institutes for the Protection of Human Rights and Freedoms) //ИНСОН НУҚУҚЛАРИ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИ НИМОЯСИНИ ТАММИНЛАШДА МИЛЛИЙ ИНСТИТУТЛАР. – 2008.



Gulchexra QOBULNIYOZOVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti professori, f.f.d  
E-mail: kabulnizova@yandex.com

TIUE universiteti professori, f.f.d K.Saidova taqrizi asosida

## VIEWS ON THE INTUITIVE AND INTELLECTUAL FOUNDATIONS OF CONSCIOUSNESS IN THE PHILOSOPHY OF HENRI BERGSON

### Annotation

This article examines the views of the 20th century French philosopher Henri Bergson on the problem of consciousness. Special emphasis is placed on the disclosure of the concepts of intuition and intelligence in the teachings of Henri Bergson.

**Key words:** "philosophy of life", consciousness, intelligence, intuition, subconscious, spiritual power, time, space, duration, relativity.

## ANRI BERGSON FALSAFASIDA ONGNING INTUITIV VA INTELLEKTUAL ASOSLARIGA OID QARASHLAR

### Annotatsiya

Maqolada 20 asr frantsuz faylasufi Anri Bergsonning ong masalasiga doir qarashlari ko'rib chiqilgan. Asosiy e'tibor bunda Bergson ta'lomitida intuitsiya va intellekt tushunchalarining mohiyatini ochib berishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** "hayot falsafasi", ong, intellekt, intuitsiya, ong osti, ruhiy kuch, makon, zamon, davomiylik, nisbiylik.

## ВЗГЛЯДЫ НА ИНТУИТИВНЫЕ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ АНРИ БЕРГСОНА

### Аннотация

В данной статье рассматриваются взгляды французского философа 20 века Анри Бергсона на проблему сознания. Особый акцент направлен на раскрытие понятий интуиции и интеллекта в учении Анри Бергсона.

**Ключевые слова:** "философия жизни", сознание, интеллект, интуиция, подсознание, духовная сила, время, пространства, длительность, относительность.

**Kirish.** Hayot falsafasining buyuk vakili frantsuz faylasufi, intuitiv falsafanining asoschisi – Anri Bergsondir. Uning ijodida inson ongida intellekt, intuitsiya va hayotiy jo'shqinlik kabi ruhiy energiyaning shakllari tahlil qilinadi. Intellektning kelib chiqishi masalasida uchraydigan qiyinchiliklar, A.Bergson fikricha, ongning yuqori shaklini faqat intellekt bilan chegaralashdan kelib chiqadi. Aslida esa intellektidan tashqari ham inson ongida shunday bir kuch borki, u hech qanday intellekt shakliga to'g'ri kelmaydi. Bu kuchning evolyutsiyasi qachonlardir intellektning paydo bo'lishiga olib kelgan. Inson ongidagi bu yashiringan kuch bilan intellekt o'tasidagi munosabatni Bergson suzishni o'rganish va suzish jarayoni bilan solishtiradi. Quruqliqda suzishni o'rganmoqchi bo'lgan odam hech qachon uni o'rgana olmaydi. Buning uchun u svuga tushib qo'rquvni yengishi va svuni shapillata boshlashi kerak. Inson ongi olamni aks ettiruvchi mexanizm emas, ong buyuk hayotiy bir kuchdir va bu kuchning ko'rinishidan biri intellektidir.

**Adabiyotlar sharhi.** Bergson falsafasida ongning intuitiv va intellektual asoslari masalasi bilan xorij olimlari V.Diltey, G.Zimmel, M.Xaydeger, K.Yaspers, A.Danto, F.Koplston, G.Skirkbeck, N.Gilyelar shug'ullanishgan. Ular intuitiv falsafanining turli tomonlarini o'rganib chiqishgan. Anri Bergson falsafasida ong masalasi bilan N.Smirnov, I.Verixov, I.Blauber, Yu.Podoroga, V.Vizgin kabi tadqiqotchilar o'rganishgan. Mamlakatimizda mazkur masala bilan Sh.Qahhorova, Q.Shodmonov, M.Mamatov, R.Karimov, G.Ruzmatova kabi faylasuf-olimlar shug'ullanib kelmoqdalar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot tahlil, sintez, tizimi yondashuv hamda komparativistik tahlil usullariga asoslangan. Komparativistik tahlil usuli alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu usul asosida Bergson qarashlari boshqa olimlar va mutasakkirlarning qarashlari bilan qiyoslangan hamda uning o'ziga xos yondashuvi ochib berilgan. Bundan tashqari, muallif germenevtika metodologiyasiga Bergson asarlardagi ong, intuitsiya va intellektga oid g'oyalarining mazmun-mohiyatini chuqr tahlil qilish uchun ham murojaat qilgan.

**Tahlil va natijalar.** Tafakkurning kelib chiqishi masalasida falsafa aniq fanlarning yutuqlaridan foydalanadi va ular asosida o'z dunyoqarashini yaratadi. Lekin bu konkret tabiatshunoslik fanlarining o'zi ham tafakkurning mahsulidir va ular barcha tabiiy jarayonlarni bir-biridan ajratib, muayyan bir mexanik shaklga solib o'rganadi. Bu shakl o'zining uch o'lchamli makoniga egadir. Tafakkur va aniq fanlar moddiy olamning asosida yotgan hayotiy jo'shqinlik kuchini ham aynan shu mexanik qotib qolgan qolipga solishga urinadi. Agar falsafa aniq fanlar nuqtai nazaridan chetga chiqib keta olmasa, u barcha narsalarini harakatga keltiruvchi hayotiy kuchni nima ekanligini bila olmaydi. Harakatning manbai ichki ziddiyatlar yoki umuman o'zgarish, degan fikrga keladi. Aslida bunday fikr tafakkur doirasidan chiqib ketishga imkoniyat bermaydi.

Tafakkurning kelib chiqishi masalasini o'rganish uchun falsafa aniq fanlar doirasidan chiqib ketishi kerak va faylasufning intuitiv his-tuyg'ulari olamiga kirishi lozim. Aniq fanlar asosan inert shaklidagi materiyani o'rganadi. Ularni harakati o'rganish uchun uni tirik narsalardan ajratib, bo'laklarga bo'lib, har bir bo'lakni ayrim xossalarni o'rganadilar. Tirik organizmni yaxlit bir holatda o'rgana olmaydi. Chunki fan tushunchalar va qonunlar tizimidan iboratdir. Har bir tushunchada esa narsaning abstrakt-mavhum qolipi o'rganiladi va bu xossalarni formal mantiq qonunlari asosida o'rganiladi.

Abstraktsiyada narsa jarayon sifatida o'rganilmaydi. Abstraktsiyaning mohiyati ham narsalarning xossalarni bir-biridan ajratish va bu ajratilgan narsalarni harakatsiz holatda o'rganishdir. «Tabiatdagi murakkab tirik shakllarning mohiyatini o'rganish uchun aniq fanlar bu harakatchan shakllarni to'xtatishga va tushunchalar qolipiga solishga majburdir. Natijada aniq fanlar tirik olamni mexanik qotib qolgan sur'atini yaratadilar. Bunday mexanik tasavvur orqali esa hayot sirini ochib bo'lmaydi. Shuning uchun harakatchan tirik shakllar hayotiy kuchlarning ichki mohiyatini ochish uchun fan ketidan falsafa keladi» [1].

A.Bergson davomiylik tushunchasini e'tibor markaziga qo'yadi. Bu tushunchada vaqtning bir yo'nalishligi yo'qoladi. Makonning ham uch o'lchamlligini nisbiy bo'lib qoladi.

Bergsonning fikricha, makon va vaqt inson tafakkuri doirasida xizmat qiluvchi tushunchalardir. Ular materiyaning davomiylik, energiya holatiga nisbatan olinganda o'z ahamiyatini yo'qtadilar. Vaqt va makon tushunchalari materiyaning faqat ayrim narsalardan iborat bo'lgan shakligagina nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Fan moddiy olamni o'rganar ekan, uni uch o'lchamli makon va o'tmishdan kelajakka yo'naltirilgan vaqt sifatida o'rganadi. Lekin vaqt va makon tushunchalari A.Eynshteynning nisbiylik nazariyasida o'zining mutlaq ma'nosini yo'qtodi. Ularning nisbiy ekanligi aniqlandi va ular materiyaning inert holatidagina mavjuddir. Lekin materiyaning inert bo'limgan holatlari ham bordir. Bu holatlarga nisbatan makon va zamон tushunchalari o'z ahamiyatini yo'qtadi. A.Bergson I.Kantning aprioristik falsafasini tahlil qilar ekan, uning antinomiyalari to'g'risida qiziqarli bir xulosaga keladi. A.Bergson fikricha, Kant ruhiy jarayonni intellektual jarayon bilan birlashtirib qo'ygan. Aslida ruhiyat, ruhiy jarayonlar intellekt doirasidan chiqib ketib, butunlay boshqa o'lchamga, boshqa qadriyatlarga asoslangan, boshqa falsafiy dunyoqarashga olib keladi. Bu falsafiy dunyoqarash fan metodologiyasiga asoslanmaydi, uning chegaralari doirasidan chiqib ketadi va ko'proq psixologik holatlar dunyosiga o'tadi. Bunday yangi falsafaning asosida insonning ichki dunyosidagi psixik kechinmalarni o'rganish yotadi.

Tafakkurdagi zamon va makon tushunchalarining nisbiy ekanligini tushuntirish uchun Bergson Plotin ta'lomitiga murojaat qiladi. Plotin ta'lomitida ko'lam, o'lcham, davomiylik ruhiy mavjudlikning muayyan bir shakldir [2]. Bu muayyan shakl ortida inson tafakkuri o'z tasavvuriga sig'dira olmaydigan ruhiy borliq yotadi. Makon va zamon haqidagi nisbiy tushunchalarimiz bizning qarashlarimizga moslashgan tafakkurning o'zi yaratgan shakllaridir. Masalan, geometriya fanidagi makonga tegishli bo'lgan har xil ko'lam, o'lcham tushunchalari va qonuniyatlar tasavvurimizdagi shakllardan kelib chiqadi. Hayvonlar bunday tushunchalarga ega bo'lmasalar ham o'zini makon va zamonda hissiyotlari orqali adashmasdan harakat qilishga moslashganlar.

Demak, geometriya fanidagi induktsiya va deduktsiya usullari aslida tafakkurimizni moddiy olamga moslashish shakllaridir. A.Bergsonning fikricha, fandagi barcha ilmiy nazariyalar ham o'zgaradi. Demak, olam va u haqdagi inson tasavvurlari qotib qolgan borliq va uni aks ettiradigan qotib qoluvchi suratlар emas. Borliq o'zgaruvchan, insonning borlig'i ham bu borliqning bir qismi bo'lib, unga qarab moslashib boradi. Bu moslashuvimiz tasavvurimizda har xil tushunchalar va qonunlar orqali ifoda etiladi.

A.Bergson fikricha, «tartib sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi kelishuv natijasida paydo bo'ladi» [3]. Bu tartib va kelishuv asosida narsalarning ichida mavjud bo'lgan ruhning faoliyatini yotadi. Agar ruh narsalar ichida erkin faoliyat ko'rsatsa, u hayotiy jo'shqinlik, hayotiy tajribaga aylanadi. Bu tajribada sub'ekt va ob'ekt birlashib ketgan va bu birlikning asosida ruhiy jarayon yotadi. Birinchidan, bu jarayonning qanday kechishini oldindan bilib bo'lmaydi. U ruhning quvvatiga bog'liq bo'lib, har xil sharoitda har xil oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, narsalarda mavjud bo'lgan ruhning harakati orqaga qayrilib o'z-o'zini aks ettirishi mumkin. Shunda faoliyatdagi ob'ekt sub'ektdan ajraladi va ruhiy jarayonning sekinlashishiga olib keladi. Buning natijasida mexanik qonunlarga asoslangan tafakkur shakllari paydo bo'ladi. Bu holatda inson ongi o'zining ruhiy quvvatini yo'qtadi, faoliyatdan ajralib qoladi va ob'ektni aks ettiruvchi sub'ektga aylanib qoladi. Shunday qilib, Bergsonning fikricha, ruhiy faoliyatning ikki shakli mayjud. Birinchisi, hayotiy jo'shqinlikka asoslangan hayotiy tajriba shaklidir. Ikkinchisi esa mexanistik tarzda aks ettirishga asoslangan naziariy ong shaklidir. Nazeri ong yoki tafakkur shaklida hayotiy jo'shqinlik so'nadi va ruhiy jarayon o'z quvvatini yo'qtadi. Yagona borliqda sub'ekt va ob'ektga ajraladi. Tafakkur nuqtai nazaridan sub'ekt ob'ektni aks ettirishi kerak. Bu aks ettirilishning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini biz tajriba orqali tekshiramiz. Lekin Bergson tafakkurdagi naziariyalarni tajriba orqali tekshirib bo'lmaydi, deb

hisoblaydi. Negaki, tajriba sub'ekt va ob'ektning birlashishidir, deyu [4].

Qadim o'tmishdagagi tafakkur holatidan hozirgi zamondagi tafakkur holatining asosiy farqi, A.Bergsonga ko'ra, insonning ehtiyojlaridan kelib chiqishadir. Bu ehtiyojlar Arastu fizikasida olamni turlarga va individlarga bo'linishiga olib kelgan. Moddiy olamning asosida zaruriy qonuniyatlar emas, balki turlarning muayyan tizimi yotgan va bu turlar o'rtasidagi munosabatlар Arastu tomonidan o'ziga xos tushunchalar orgali ifoda etilgan. Masalan, toshning yerga tushish jarayonini Arastu bu turdagи narsaning asl holatiga qaytishga intilishi, deb hisoblagan. G.Galileyning fizikasida esa toshning yerga tushishi holati yerning tortishish qonuni orqali tushuntiriladi. Demak, Arastu fikriga binoan tafakkurning markazida turlarning o'zaro birligi va yaxlitligi yotadi, Galileyning fizikasida esa dunyoning asosida tortishish kuchlari qonuniyati yotadi. A.Bergsonning ta'kidlashicha, aslida Arastu fizikasidagi tushunchalar ham, Galileyning fizikasidagi tushunchalar ham olamni insonning ongidan tashqarida mavjud ekanligini aks ettirmaydilar. Aksinchal, ular moddiy olam va inson ongini birligini, bir-biriga moslashganligini ochib beruvchi, kelishilgan holatdagi tushunchalardir.

A.Bergson «Ijodiy evolyutsiya» asarida tartibni ikki ko'rinishga bo'ladi. Birinchi ko'rinishdagi tartib moddiy olamdagи narsalar o'zaro aloqadorligidan iborat. Bu tartibni tafakkurdagi tushunchalar mexanik ravishda aks ettiradi. Bu tartibda ijodkorlik kuch-quvvati yo'q, u faqat narsalarni makon va zamonda o'zaro joylashuvini kuzatadi. Ikkinci turdagи tartib esa narsalar ichidagi hayotiy jo'shqinlikni o'zaro tajalli etishini ko'rsatadi. Buni tushuntirish uchun A.Bergson hayvonot va o'simliklar turlarini misol qilib keltiradi. Masalan, bir turdagи hayvonlar yer sharining har xil joylarida o'zlaridagi moslashish qobiliyatini har xil ifoda etadilar. Yevropadagi asalarilar Yaponiyadagi asalarlardan birmuncha farq qiladi. Vaholanki, ularning turi bir, lekin ulardagi hayotiy jo'shqinlik kuchi, yashash shart-sharoitlariga qarab butunlay har xil harakatlarga olib keladi. Masalan, Yaponianing Nagano viloyatida tarqalgan asalarilar bu viloyatdagi qovoqarilarga qarshi kurash shakllarini juda yaxshi biladilar. Bu viloyatga Yevropadan olib kelingan asalarilar asalni nihoyatda katta miqdorda bersalar ham, qovoqarilar hujumi oldida kuchsizdir. Yevropada esa bu asalarilar boshqa hasharotlardan o'zini yaxshi himoya qiladilar. Bergsonni fikri shunday ediki, bir turdagи hayvonlar, o'simliklar har xil sharoitda o'zining xilma-xil qobiliyatlarini yuzaga chiqarishadi. Bu qibiliyatlarini yuzaga keltiruvchi kuch moddiy olamdagи barcha narsalarga xos bo'lgan hayotiy jo'shqinlik kuchidir. Bu hayotiy jo'shqinlik kuchini hayvonot olamida instinkt deb atashadi.

Tartib tushunchasi tafakkur nuqtai nazarida narsalarni makon va zamonda joylashuvi bilan bog'liqdir. Bunday tartib, Bergsonning fikricha, mexanik tartibdir. Narsalarni joylashuvi insonning faoliyatini bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Faoliyatdan kelib chiqadigan tartib ularni makon va zamondagi joylashuviga qarab befarq bo'lib qoladi. Bu nuqtai nazaridan qaraganda, narsalar makonda betartib joylashgandek ko'rindi. Lekin aslida narsalarning bunday joylashishi ularning inson faoliyatida egallagan o'miga bog'liqdir. Shunday qilib, ob'ektiv reallikning o'zi bir paytda tartib va tartibsizlikni o'zida mujassam qiladi. Tafakkur nuqtai nazaridan tartibsiz tasodifiy ko'ringan narsalarning o'ziga xos yashiringan tartibi va betakror izchilligi bordir. Har xil nuqtai nazaridan qaraganda bir narsaning o'zi bir paytning o'zida ham tasodifiy, ham zaruriy, ham tartibili, ham tartibsiz bo'lishi mumkin. Bizning aqlimiz bu tartib va tartibsizlikni, zururat va tasodifni bir-biridan sun'iy ravishda ajratadi va bir-biriga qarama-qarshi ziddiyatlar deb e'lon qiladi. Aslida esa bu ziddiyatlar hayotiy jo'shqinlik kuchini tarkibidagi xilma-xillik va rang-baranglikni tashkil qiladi. Tafakkur esa mexanik tartibga tushirishga harakat qiladi va xilma-xil bo'lgan jarayonlarni sun'iy ravishda ikki qutbga, ikki xil ziddiyatlarga ajratadi. Bu ikki xil ziddiyatlar ichida rang-barang olam o'z ranglarini yo'qtib, faqat ikki rang – oq va qoraga ajratadi. Mana shu ikki xil ziddiyat o'rtasidagi munosabatlarni tafakkur dialektika nuqtai nazaridan rivojlanishning asosiy sababi, deb

hisoblaydi. Bergsonning fikricha, «olamda rivojlanish emas, balki hayotiy jo'shqinlik kuchi avj uradi. Olam limmo-lim ranglar va jilolarga to'ladir» [5: 200]. Bu hayotiy jo'shqinlikning zaminida ruhiy kuch-qudrat, ruhiy energiya yotadi. Bu ruhiy energiyani tafakkur ilg'ab olishga va tushunchalar orqali ifoda etishga harakat qildi. Tafakkurning bunday harakatlari natijasida falsafaning dialektika usuli qadimdan vujudga kelgan. Dialektik uslub hayotiy jo'shqinlikdagi rang-baranglikni bir-biriga qaramaqarshi ziddiyatlarga bo'ladi. Bu ziddiyatlarni esa abstrakt tushunchalar orqali tushuntirishga harakat qildi. Bergsonning fikricha, «dialektika tafakkurning sun'iy ravishda yaratilgan uslubidir. U hayotiy jarayonlarni to'la qamrovli holatda o'z ichiga olmaydi» [5].

Falsafa tarixida hayotiy, ruhiy jarayonlarni xilma-xil nuqtai nazardan o'rgangan sistemalar bo'lgan. Ular intuitsiyalubni mavjud ekanligini ta'kidlashgan. Intuitsiya hayotiy jo'shqinlik kuchini his qilishga qodir va har qanday dialektika uslublaridan yuqorida turadi. Dialektika tafakkurning mahsulidir bo'lsa, intuitsiya oliy ongning mahsulidir. Intuitsiya faylasufning ichki ruhiy holati sifatida barcha falsafiy sistemalarning u yoki bu qarashlarida mavjud bo'ladi. Agar falsafa tarixiga nazar tashlasak, intuitsiya elementlarini deyarli barcha falsafiy oqim, maktabda intuitsiya yagona yaxlit zaminni tashkil etmagan. Buni ifoda etish uchun Bergson quyidagi so'zlarni keltiradi: «Falsafiy dunyoqarash intuitsiya zaminida bo'lganida ruhdan tabiatga, tabiatdan esa ruhga doimo o'ta olganida moddiy va ruhiy jarayonlarni bir-biridan ajratmaganda, o'zining oliy maqsadiga erishgan bo'lar edi» [1].

A.Bergson fandagi energiya haqidagi tasavvurlarni ruhiy jarayon tushunchalari bilan solishtirib ko'radi. «Koinotga nazar tashlasak, – deb yozadi Bergson, – u son-sanoqsiz bizning quyosh sistemamiziga o'xshash sistemalardan iboratligiga amin bo'lamiz. Ularning bir-biriga ta'siri deyarli kuchli emas. Shuning uchun biz quyosh sistemasi doirasidagi energiya, ya'nii kuch-quvvat harakatlarini e'tiborga olishimiz kerak» [5]. Fizika fanida energiyaning saqlanishi qonuni fundamental qonunlardan biri hisoblanadi. Bu qonunga binoan bizning quyosh sistemamizdagi energiya jarayonlari o'z-o'zidan kamaymaydi ham, ko'paymaydi ham. Lekin termodinamikaning ikkinchi qonuni ham mavjuddir. Bu qonun termodinamikaning ikkinchi printsipi deb ataladi va unga binoan energiyaning barcha turlari issiqlikka aylanadi. U esa, o'z navbatida, barcha yerga bir maromda tarqalishga harakat qildi. Cheksiz koinotda issiqlikning tarkalishi uning kamayishiga olib keladi. Shunday qilib, boshida niyoyatda kuchli va katta hajmda bo'lgan energiya jarayoni asta-sekin sekinlashadi, issiqlik kamayib borib, yo'qolish darajasigacha keladi.

Bir qator muammolar energiyani saqlanish qonunini asoslab berish uchun cheksiz koinotdag'i yuldo'z sistemalar bir-biriga doimo ta'sir qiladi va bu ta'sir zaminida energiyaning almashinuvni yotadi, deb hisoblaydilar. Bunday dalillarni e'tiborga olish materiyani abstrakt makon tushunchasi bilan bog'lashga olib keladi. Bunday mexanik tushuncha esa hozirgi fan tomonidan dalillar asosida tasdiqlanmagan. Sinergetika fanining dalillariga binoan energiyaning ko'payishiga olib keladigan rivojlanish jarayonlari faqat ayrim sistemalargagina xos, ular esa o'z navbatida asosiy yo'nalishni tashkil etmaydi. Issiqlik energiyasining kamayib borish jarayoni fizika fani doiralarida jumboqqa olib keladi. Bu jumboqni yechish uchun uch o'lchamli makon va zamona tasavvuriga asoslangan fizika doirasida chiqib ketish lozim. Hayotiy jo'shqinlik kuchlari termodinamikaning ikkinchi qonunini inkor etmaydi, lekin materiyaning barcha shakllarida bu qonunga xilof ravishda o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, o'simliklardagi xlora filning yuzaga kelishi jarayoni kosmik quyosh energiyasini o'simlikning hayotiy kuchiga aylanishi va energiyani issiqlik shaklidan biologik shakliga o'tishdir [6]. Demak, tirik organizmlar hayotida energiyaning kamayishi qonuniga xilof ravishda energiyaning butunlay boshqa shaklga o'tish hollari kuzatiladi. Hayotiy jo'shqinlik kuchi materiyadagi inert harakatni yengib, uni materiyani biorganik darajaga, ko'taradi. Bu esa, o'z navbatida, hayotiy jo'shqinlik kuchlariga yaratuvchilik va ijodkorlik xos ekanligini isbotlaydi [7].

Koinotda qaror topgan hayotiy jo'shqinlik kuchini Anri Bergson quyidagi timsollar orqali ifoda etadi [1]. Bu jarayon hech qanday tartib-qoidaga bo'yusunmaydi, unda ruhiy kuchning erkinligi jo'sh uradi. Hayot, energiya, ruhiy jo'shqinlik, ijodkorlik, erkinlik – bularning barchasi markazdan kelib chiqadigan kuchlardir [8]. Agar bu markaz bo'limganida koinotdag'i energiyaning barcha shakllari issiqlikka aylanib, astasekin sovib, oxir-oqibat yo'q bo'lar edi. Fizika, mexanika fanlari doirasida materiyaning faqat noorganik shakllari o'rganiladi. Bularda esa hayotiy kuch sekinlashib qolgan. U shakl qolibiga tushib uch o'lchamli makon va zamonda mayjuddir.

**Xulosa.** Hayotiy jo'shqinlik va ijodkorlik kuchini tirik jonzotlarning organik hayoti zaminida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Organik hayotning noorganik hayot shakllaridan kelib chiqishini Bergson inkor etadi. Organik va noorganik hayot qachonlardir yagona bo'lgan energiya oqimining ikki yo'nalishidir. Ular bir-biridan kelib chiqmaydi. Organik hayotning sirini o'rganish uchun Bergson neyrofiziologik jarayonlarga e'tibor qaratadi. Bu jarayonlarning barchasi tirik jonzotlarning harakatini boshqaradi. Tirik organizmlar harakat orqali energiyani yo'qtadilar va shu bilan bir qatorda energiyani ham oladi.

### ADABIYOTLAR

- Бергсон А. Творческая эволюция. – Москва: Канон-Пресс, 1998. – С.178, 214, 220.
- Skirbekk, G., Gilye, N. Falsafa tarixi. – Toshkent: Sharq, 2002.
- Бергсон А. Материя и память. – Москва: Мысль, 1998. – С.146.
- Бергсон А. Длительность и одновременность. – Санкт-Петербург: Academia, 1923. – С.158.
- Бергсон А. Избранное: Сознание и жизнь. – Москва: РОССПЭН, 2010. – С.244, 399.
- Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R., Ruzmatova G., Qobilniyozova G. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi (XVII-XX asrlar). – Toshkent: Sharq, 2002. – В.110.
- Кабулниязова Г.Т. Спонтанно-образная память в творчестве Анри Бергсона и в суфизме (сравнительный анализ) // Вопросы философии. – 2022. – Т. № 12. – С.159–167. DOI: 10.21146/0042-8744-2022-12-159-167.
- Karimov R., Bekbaev R. The Traditionalism of Rene Guenon in the Discourse of Philosophy of History and Social Anthropology // Wisdom. – 2022. – №1(21). – P.194-202. DOI: 10.24234/wisdom.v21i1.712.



Husnora KURANBAYEVA,  
TAFU "Pedagogika" kafedrasiga katta o'qituvchisi  
E-mail:kuranboyevahusnora@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor M.E.Axmedova taqrizi asosida

### THE MECHANISM OF USING PEDAGOGICAL EXPERIENCE-TEST IN IMPROVING STUDENTS' METHODODOLOGICAL COMPETENCES

#### Annotation

The use of pedagogical experience-testing in the methodical improvement of the linguo-pedagogical competences of future primary school teachers is complicated and responsible. In the human subject, especially in the primary education of higher education institutions, it is necessary to organize experiments and tests based on a clear program, and the program should take into account all pedagogical and psychological laws and conditions. The scientific research program determines the purposeful, consistent implementation of experimental work.

**Key words:** Trajectory, linguistic-pedagogical competence, didactic, artificial intelligence, explanatory-illustrative (information-receptive); reproductive, problem presentation, partial-search (churistic).

### МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОПЫТА-ТЕСТА В ПОВЫШЕНИИ МЕТОДИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

#### Аннотация

Использование педагогического опыта-тестирования в методическом совершенствовании лингво-педагогических компетенций будущих учителей начальных классов является сложным и ответственным. В человеческом предмете, особенно в начальном образовании высших учебных заведений, необходимо организовывать эксперименты и испытания на основе четкой программы, причем программа должна учитывать все педагогические и психологические закономерности и условия. Программа научных исследований определяет целенаправленное и последовательное выполнение экспериментальной работы.

**Ключевые слова:** Траекторная, лингвопедагогическая компетентность, дидактическая, искусственный интеллект, объяснительно-иллюстративная (информационно-рецептивная); репродуктивный, проблемный, частичный поиск (чуаристический).

### TALABALARNI METODIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV DAN FOYDALANISH MEXANIZMI

#### Annotatsiya

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda pedagogik tajriba-sinov dan foydalanish pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish o'ziga xos murakkab va mas'uliyatlidir. Inson predmetida, ayniqsa, OTM boshlang'ich ta'linda tajriba-sinov o'tkazish aniq dastur asosida tashkil etilishi, dastur har tomonlama pedagogika-psixologik qonuniyatlar, shart-sharoitni hisobga olishi zarur. Ilmiy tadqiqot dasturi tajriba-sinov ishlarini maqsadli, izchil amalga oshirish mazmunini belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** Traektoriya, lingvopedagogik kompetensiya,didaktik, sun'iy intellekt, tushuntirish-illyustrativ (axborot-retseptiv); reproduktiv, muammoli taqdimot, qisman-qidiruv (xuaristik).

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda pedagogik tajriba-sinov dan foydalanish pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish o'ziga xos murakkab va ma'suliyatlidir. Inson predmetida, ayniqsa, OTM boshlang'ich ta'linda tajriba-sinov o'tkazish aniq dastur asosida tashkil etilishi, dastur har tomonlama pedagogika-psixologik qonuniyatlar, shart-sharoitni hisobga oladi. Ilmiy tadqiqot dasturi tajriba-sinov ishlarini maqsadli, izchil amalga oshirish mazmunini belgilaydi. Pedagogik tajriba-sinov dasturi, mavzuning dolzarbligi, ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini aniqlash, ilmiy farazning haqqoniyligini asoslashda metodik dastur yaratiladi.Tadqiqot nazariyasining amalda sinab ko'rish; tadqiqot ilmiy-amaliy imkoniyatini joriy etish, umumlashtirish; bir necha variantda har xil sharoitda tadqiqot natijasini tekshirib ko'rish; matematik statistik tahlil qilish va baholash kabi yo'naliшlardan iborat bo'ladi. Ma'lumki, amaliyat ilmiy bilishning mezoniidir. Ilmiy tadqiqot fanning istiqbolini belgilovchi, mumtoz qonuniyatlarini yorituvchi yoki vaqtinchalik bo'lishi, ba'zan takror bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun tajriba-sinov ishlari ana shu imkoniyatlarni hayotda o'z ifodasini aniqlashdan iborat bo'ladi. Ilmiy farazlarni asoslashda tajriba-sinovlari muhim tarkibiy qismidir. Ilmiy farazlarga asosan tajriba-sinov ishlari tashkil etiladi, ilmiy farazlar amaliyotda sinalsagina nazariy g'oyaga aylanadi. Ilmiy farazlar tajribalarda asoslanmasa

ilmiy tadqiqot yo'naliши o'zgartiriladi, qayta tajriba o'tkaziladi. Ilmiy tadqiqotning konsepsiysi muammoning o'rganilish tarixiy taraqqiyoti, hayotda tipik ko'rinishlari tajribada sinab ko'rildi. Amaliy tajriba tadqiqot nazariyasini asoslaydi to'ldiradi. Shuning uchun tajriba-sinov ishlari dasturi ilmiy tadqiqotni izchil amalga oshirish tizimi, mexanizmdir. Tadqiqot nazariyasi tajriba-sinov ishlari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi falsafiy kategoriya tajriba-sinov ishlarining metodologik asosidir.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini aniqlashda tajriba-sinov ishlari ekspertiza vazifasini bajaradi. Ilmiy tadqiqotni argumentlash, g'oyaviy aksioma tajriba-sinov ishlarining har xil variantda, har xil sharoitda o'tkazilganiga bog'liq. Pedagogik tadqiqotlarni argumentlash tajriba-sinov ishlari dasturining tarkibiy qismidir. Bir necha variantda, shart-sharoitda ta'lum-tarbiya samaradorligini oshirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari tajriba va nazorat guruhalrida sinab ko'rildi. Uzoq muddatli tajribada har bir bosqichda bajariladigan kuzatish tajriba-sinov ishlari tartibi belgilanadi. Tajriba guruhlari xususiyatiga ko'ra bir yoki bir necha bosqichli tajriba-sinov ishlari rejajashtiriladi.Tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirishda mantiqiy xulosalar bilan birga matematik statistik tahlil argumentli konsepsiysalar ishlab chiqildi. Inson ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatar ekan u jamoa bilan muloqotga kirishish,

ko'pchilikka o'zi fikrini yetkazib berish, hisobot berish, da'vat qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi zaruratga aylanadi. Shu ma'noda, boshlang'ich ta'lim yo'nalishilarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish asosiy masalalarдан biri hisoblanadi. Ta'lim tizimining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'lim mazmuni o'quv predmeti asosida, o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda ravon va ta'sirchan ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi boshlang'ich ta'lim oldida asosiy vazifa sifatida turibdi. Zero, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'rifatli, bir so'z bilan aytganda barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda.

Shu jihatdan olib qaraganda OTM Boshlangich ta'lim yo'nalishida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'qitishga oid o'quv materiallar asosida oquv topshiriqlari, mantiqiy fikrlash hamda o'z fikrini nutq sharoitiga mos holda to'g'ri va ravon ifodalash malakasini takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni tatbiq etishning yangi metodik yondashuvlarini joriy etish va amaliyatda sinab ko'rish muhim pedagogik muammodir.

**1. Tayyorlovchi bosqich.** Mazkur tajriba-sinov ilmiy tadqiqotning eng sermahsul usuli bo'lib, u kuzatishlar jarayonida tug'ilgan g'oya, taqdim etilgan tavsya va ishlab chiqilgan o'quv topshiriqlarining samaradorlik darajasini belgilab beradi.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'quv predmeti, xususan, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish, shuning barobarida ularni ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirish ko'nikmasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari o'rganish va mazkur jarayonga zamonavii usullari tatbiq etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tajriba jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish asosida ona tili ta'lim mazmuniga oid darslik materiallarini o'zlashtirish imkoniyatlari aniqlandi va bu jarayonda ona tili o'quv predmeti bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda tushuntirish yuzasidan kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajalari aniqlandi. bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining anketa, taqdim etilgan matn hamda mavzular asosida bilim darajalari aniqlandi. Yana quydigilar ham ma'lum bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish muammolari aniqlanadi;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish uchun darslik va boshqa ko'rgazmali vositalardan foydalanishdagi yutuq va kamchiliklar aniqlanadi;

- Ona tili ta'limi mazmunida didaktikaga asoslangan mashq va topshiriqlarga nisbatan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining munosabatini aniqlash hamda fikrlarni umumlashtirish maqsadida anketa-savol javoblari o'tkazildi.

**2. Ta'kidlovchi tajriba-sinov bosqichida** aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish usul, shakl va vositalari aniqlanib, Ona tili ta'limida lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga asoslangan mashq va topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlash hamda tanqiyidiy fikrlashga oid ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqildi.

Ijodiy izlanishga asoslangan o'qitishga doir topshiriqlar, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish ona tili ta'limi mazmunida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning pragmatik asoslarini takomillashtirish ko'nikmasini rivojlantirish orqali,

avvalo, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining to'g'ri fikr yuritishga, matnlarni ifodali o'qiy olishiga, o'rtaga qo'yilgan muammo haqida shaxsiy fikrini og'zaki va yozma shakllarda mazmunli ifodalay olishiga e'tbor qaratildi. Zero, sanab o'tilganlarga nisbatan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ko'nikma rivojlantirish bugungi kundagi eng dolzar va muhim pedagogik muammollardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik rivojlantirish, dars mashg'ulotlari orqali shaxsiy fiki mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri qo'llash malakalarini takomillashtirish talab etiladi.

Tajriba-sinov ishlar jarayonida quyidagi ilmiy faraz tekshirib ko'rildi va o'z isbotini topdi:

- ona tili ta'lim mazmunida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik, rivojlantiruvchi topshiriqlar orqali takomillashtirish;

- ona tili ta'lim mazmunida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish jarayoni maxsus o'rganilib, undagi kamchiliklar, ularning sabablarini aniqlanib, bartaraf etish yo'llari va omillari ishlab chiqiladi;

- Ona tili ta'lim mazmunida lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishning ahamiyati va didaktik imkoniyatlari anglangan holda metodik jihatdan to'g'ri tatbiq etildi;

Ona tili ta'lim mazmunida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishning mazmuni, shakl, usul va vositalari ishlab chiqildi;

- lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish maqsadida ijodiy tafakkurni rivojlantiradigan, o'z fikrini turli shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olish ko'nikmasini paydo qilishga yo'naltirilgan hamda samaradorlik darajasi aniqlangan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

**3.Shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida** ishlarining maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarildi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bilan tanishtirildi;

- ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar dars mashg'uloti jarayoniga to'liq tatbiq etildi;

- olingan natijalarga ko'ra ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar takomillashtirildi.

- ona tili ta'lim mazmunida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, so'z zaxirasini boyitish, mustaqil o'quv topshiriqlari ustida ishlay olish ko'nikmalarini rivojlantirishning yoritilmagan qirralari aniqlandi va kelajakda olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlariga material bo'la oladigan tavsiyalar berildi.

OTM "Ona tili o'qitish metodikasi"ga oid darsliklarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlashga o'rgatishga oid o'quv materiallarining tarkibi va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish bugungi holatini aniqlash maqsadida dastlab tajriba-sinov maydonchalari aniqlab olindi.

Tajribaning dastlabki kunlarida nazorat guruhlaridan ham, tajriba guruhlaridan ham yozma ishlar olindi. Bizga ikkala guruhning ham dars mashgulotlarini o'zlashtirish darajasi deyarli bir xil ekanligi ma'lum bo'ldi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishida uning ta'siri katta ekanligi barchaga ma'lum. Umuman, dars mashg'ullotini qanday metodik tashkil qilish bu OTM professor-o'qituvchilarining to'plagan malakasiga bog'liq. OTMDa ona tili ta'lim mazmunida fonetik, leksik, morfemik, morfolofik, sintaktik tahlillarni o'qitilishida ona tili ta'lim mazmunini bilan bog'liq muammolarning metodik bir uchi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ham borib taqalmoqda. Tajriba-sinov jarayonida shunday holatlarga duch kelindiki, ayrim talabalarning ona tili ta'limi mazmunida o'quv topshiriqlarini takomillashtirish bo'yicha yetarli ko'nikma va malakaga ega emas. Hatto tajribali professor-o'qituvchilar ham

dars mashg'ulotini interfaol usulda turli zamonaviy metodlarda qiziqarli tashkil eta olsalar-da, talabalarga ona tili o'qitish metodikasiga oid fandan, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish bo'yicha zarur ko'nikma va malakalarini bera olmayapti. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini darsga qiziqitira olish yaxshi, albatta, biroq shu qiziqtrish orqali talabani ijtimoy hayotda doim asqotadigan bilim va malakalar bilan qurollantirish asosiy masala ekanligini doim esda tutish zarur. Ushbu holatning sababini aniqlash maqsadida OTM professor-o'qituvchilar orasida anketa-so'rov o'tkazilganda quyidagilar aniqlandi:

1. *OTM professor-o'qituvchilar lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'quv topshiriqlari tuzish ko'nikmasini rivojlantiriladimi?*

2. *Mashq va topshiriqning farqini qanday izohlaysiz?*

3. *Siz dars o'tadigan guruhlarda nechta talaba matniqiy fikrlday oladi?*

4. *OTM talabalarida kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha qanday savol va topshiriqlar berasisiz?*

5. *Qaysi o'quv topshiriqlari talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmasini takomillashtiradi? Nega?*

6. *Ona tili o'qitish metodikasi darsliklaridagi savol va topshiriqlar sizni qoniqtiradimi? Nega?*

7. *Ona tili ta'lim mazmuniga oid dars mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda mashqlar ham kerakmi?*

8. *Barcha darsliklar mazmunini ochib beruvchi muhim savollarning bormi? Odatda darsda qanday savollar berasisiz?*

9. *Talabalarni ona tili ta'lim mazmunida o'quv topshiriqlari ishlashga o'rgatish uchun qanday topshiriqlar tuzish kerak? Misollar keltira olasizmi?*

10. *Ona tili ta'lim mazmuni, muallif g'oyasini ochib beruvchi savol va topshiriqlar qanday bo'ladi?*

Yuqorida keltirilgan javoblardan ko'rinish turibdiki, ona tili o'qitish metodikasi dars mashg'ulotlarini tashkil qiluvchi, talabalarni tildan mohirona foydalanishga o'rgatuvchi mutaxassislar ona tilidan DTS malaka talablari va, eng muhim, ona tili o'qitishning maqsadini aniq bilishmaydi. Ayrimlarning fikrlashi talabga javob bermaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga o'rgatishdan ko'zlangan maqsad ham ona tili ta'lim mazmuni, o'qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqadi.

Ona tili ta'lim mazmunini yoritishda, "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish" mavzusi orqali talabalar kreativ fikrlashga doir qanday ko'nikma yoki malakaga ega bo'lishi kerak?", degan savol va topshiriqlarga mantiqli javoblar lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda, ba'zilari havola qilinadi. Ona tili ta'lim mazmuni darsliklaridagi savol va topshiriqlar sizni qoniqtiradimi? Nega?, degan savolga (darsliklardagi muammolarni bartaraf etilsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga Ona

tili o'qitish metodikasi fani bilan bir qatorda "O'quv topshiriqlar metodikasi" fani joriy etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi ) tarzda javob berilgan.

Mavzular bir-biri bilan o'zaro aloqada, bog'liqlikda bo'ladi. Ayniqsa, ona tili ta'lim mazmunida, o'qitishda uni tilning boshqa birliklariga bog'lab tushuntirish katta natija beradi.

Talabalarning bu boradagi fikrlari va ko'nikmalarini bilish maqsadida anketaga quyidagi savol kiritilgan edi:

1. *"Ona tili o'qitish metodikasi" darsliklarida keltirilgan savol va topshiriqlar mazmuni sizga tushunarlimi?*

2. *O'qituvchingiz ona tili ta'lim mazmunini yoritishda Sizga grammatik tahlil yoki muhokama qilishda ko'proq qanday savollar beradi?*

3. *lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish o'qish, matnlarni yod aytish mashqlari olib boriladimi? Qaysi topshiriqni olgansiz?*

4. *Professor-o'qituvchi Sizni baholashda qanday topshiriqlardan foydalananadi?*

Mazkur savollar talabalarning ona tili ta'lim mazmunida lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'quv topshiriqlarini bajarish bilan bog'liq muammolarini aniqlashga yordam beradi.

Savollarni keltirishning boisi shuki, boshlang'ich ta'limning asosiy vositasi hisoblangan darsliklar mazmun-mundarijasi talab darajasida bo'lishi, o'quv materiallari boshlang'ich ta'lim maqsadi ro'yobiga xizmat qila olishi shart, aks holda ayrim OTM professor-o'qituvchilar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish bo'yicha zarur ko'nikma va malakaga ega emasligi muammoning manbasini ko'rsatadi. Darsliklardagi o'quv materiallari shunday tuzilishi kerakki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish asosida bilim olishga, mustaqil ishslashga avtomatik ravishda yo'naltirsin. Respublikaning OTMDa faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar ona tili ta'lim ta'lim mazmunida lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'quv topshiriqlarini rivojlantirish bo'yicha kerakli ko'nikma va malakaga ega bo'la olmayotganini inobatga olsak, barcha e'tiborni bu borada mukammal darslik, amaliy qo'llanmalar yaratishga qaratish lozim bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kelajakda o'quvchiga tavsiya etilgan mashq va torshiriqlarni bajarish jarayonida o'z kuchiga, o'zi mustaqil ishlay olishiga ishontirish usullarini o'rgatish, o'z nutqi orqali atrofdagilarga ta'sir ke'rsata olish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga doir mashq va topshiriqlar orqali, har bir nutq tovushini to'g'ri talaffuz qila olishiga, to'g'ri yoza olishiga, nasriy va she'riy matnlarni ifodali o'qiy olishiga, o'rtaga qo'yilgan muammo haqida shaxsiy fikrini og'zaki va yozma shakllarda mantiqli ifodalay olishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

- Гулямов А. Методика развития учебно - познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: Дис. док. пед. наук. –Т.: ТГПИ, 1991. – 37 б.
- Axmedova M.E. ( hammualliflar) Umumiyy pedagogika nazariyasini va amaliyoti. Дарслик-Т., 2019. 5-6.(302)
- Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslik. –T., 2014. 96-b. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashr. –T., 1992. 400 b.
- Лернер. И.Я.Дидактические основы методов обучения.Текст. –М.: 1981.- 186 с.
- Скаткин М.Н.Проблемы современной дидактики.-М.: Педагогика. 1984. - 96с.
- Скаткин М.Н.Совершенствование процесса обучения.–М.: Педагогика. 1971.- 205c



Umida KUCHKELDIYEVA,

Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

E-mail: Orezzero918@gmail.com

Samarqand chet tillar instituti dotsenti, PhD D.Xolmurodova taqrizi asosida

## DIDACTIC PRINCIPLES OF STUDENTS' ORAL COMMUNICATION PROCESS

### Annotation

The article analyzes the problems of interaction between the teacher's ability to organize pedagogical communication with students, the technologies of oral speech development, and the subjects of the pedagogical process, the main goal and content of the lesson, on the development of speech activity in students.

**Key words:** teacher, student, speech activity, oral speech, teaching process, professional and communicative activity.

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ПРОЦЕССА УСТНОЙ КОММУНИКАЦИИ СТУДЕНТОВ

### Аннотация

В статье анализируются проблемы взаимодействия умений учителя организовать педагогическое общение с учащимися, технологий развития устной речи и субъектов педагогического процесса, основной цели и содержания урока, по развитию речевой деятельности учащихся. .

**Ключевые слова:** учитель, студент, речевая деятельность, устная речь, учебный процесс, профессионально-коммуникативная деятельность.

## TALABALAR OG'ZAKI MULOQOT JARAYONINING DIDAKTIK ASOSLARI

### Annotatsiya

Maqolada talabalarda nutq faoliyatini rivojlantirish bo'yicha o'qituvchining talabalar bilan pedagogik muloqot tashkil etish qobiliyati, og'zaki nutqni rivojlantirish texnologiyalari va darsni asosiy maqsad va mazmuni pedagogik jarayon sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammollari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, talaba, nutq faoliyati, og'zaki nutq, dars jarayoni, kasbiy va kommunikativ faoliyat.

**Kirish.** Jahon ta'limga rivojlantishining hozirgi bosqichida o'z faoliyatining faol subyekti bo'lishga qodir XXI asr shaxsini rivojlantirishga, ta'limga siyosatining barcha jabhalarini yangilashga, ta'limga xorijiy til o'rganish salohiyatini oshirishga va ijtimoiy qadriyatlarini rivojlantirish modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. UNESCO va Xalqaro universitetlар ассоциацияси (International Association of Universities – IAU) дастурларида "ta'limga oluvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish, muloqotda hamkorlik qobiliyatlarini va qiziqishlarini kuchaytirish" [1] asosida bo'lajak chet tili o'qituvchilarining nutq faoliyatini rivojlantirish, zamonaviy sharotlarda yoshlarning o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirish, ta'limga jarayonining barcha sub'ektlarini sifatlari shaxsiy va kasbiy jihatdan rivojlantirishga qaratiligan loyixalar tizimi bajarlamoqda.

Usbhu maqolada nutq faoliyati metodikasini rivojlantirish chet til o'qitish jarayonida o'rganildi. Hozirgi zamonaviy ta'limga nafaqat biror soha mutaxassisni sifatida, balki chet tillarni va axborot texnologiyalarini ham yaxshi biladigan, dunyoqarashi va bilimi keng inson sifatida shakllanmog'i kerak. "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori [2] asosida ta'limga sohasida chet tillarni bilish darajasini amalga oshirilgan tub islohotlar jismonan sog'lom, ma'nан yetuk, har tomonlama barkamol zamonaviy shaxsni tarbiyalashga qaratilgan va yoshlarni ta'limga sohasida amalga oshirayotgan islohotlarining faol ishtirokchisiga aylantirishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Chet tilini o'qitishning zamonaviy jarayoni o'qituvchi va talabalarining bir-biri bilan o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi. O'qituvchining talabalar bilan pedagogik muloqotni tashkil etish qobiliyati ko'p jihatdan talabalarining shaxsiy xususiyatlarini ochib berishga va chet tilini madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida o'zlashtirishga qaratilgan chet tilidagi zamonaviy o'quv jarayonining samaradorligini belgilaydi.

Pedagogik muloqotning uslubiy va amaliy jihatlari hozirgi vaqtida o'qituvchi va psixologlar [3] hamda metodistlarning [4] yaqindan diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Shu bilan birga, chet tili darsidagi o'zaro ta'sir deganda, eng avvalo, pedagogik hamkorlikning psixologik asosi bo'lgan ta'limga jarayonining barcha sub'ektlarining birgalikdagi muvofiqlashtirilgan faoliyati va ular o'rtasida shakllanadigan o'zaro tushunish nazarda tutiladi.

Bundan kelib chiqqan holda, chet tilidagi ta'limga jarayonining asosiy tarkibiy bo'limi bo'lgan darsni asosiy maqsad va mazmuni pedagogik jarayon sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammollarini hal qilish amaliyoti bo'lgan murakkab aloqa akti sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Darsning har bir bosqichida o'qituvchi va talabalarning harakatlari muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak. Masalan, agar o'qituvchi darsdan darsga, guruhdan guruhga takrorlanadigan standart og'zaki mashqdan boshlasa yoki uy vazifasini rasmiy tekshirish bilan boshlasa, bu talabalar bilan o'zaro munosabatlarni buzadi, chunki bu vaziyatni yaratishga yordam bermaydi. Ammo agar darsning boshida o'qituvchining harakatlari uning hissiy holatini talabalar bilan uchrashishdan, ular bilan bo'lajak muloqotni ko'tarinki kayfiyat bilan boshlasa, talabalar faoliyatining shaxsiy tajribasi va konteksti bilan bog'liq nutq materialidan foydalishga qaratilgan bo'lsa, ular talabalarning kelgusi faoliyatini rag'batlantirishga, keyingi ta'limga mazmunini idrok etishga va o'zlashtirishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Talabalmi nutq birligini ko'p marta takrorlashga undaydigan o'qituvchining xatti-harakatlari, ular o'zgaruvchan muloqot sharotlarida ular uchun yangi kommunikativ vazifalarni belgilashga, kommunikativ yo'nalishga ega bo'lмаган va haqiqiy manfaatlar va ehtiyojlarni hisobga olmaydigan, vazifalarni belgilashga e'tibor bermasdan qoldirish kabi holatlar talabalgara salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holda, tilni o'rganish jarayoni va uning natijasi talabalar tomonidan rasmiy jarayon sifatida qabul qilinadi, chunki tilning ijtimoiy hodisa sifatida mohiyati va motivi ya'ni ularning chet tilini o'rganish sababi, ya'ni, tilni boshqa

madaniyat vakillari bilan o'zaro ta'sir qilish vositasi sifatida o'zlashtirishiga mos kelmaydi. Talabalarning chet tilini o'zlashtirishdagi faoliyati shaxsning shakllanishi bilan bog'liq holda neytral jarayon sifatida ishlaydi. Aksincha, agar o'qituvchining harakatlari barcha talabalar nutqining vaziyatli shartliligi va kommunikativ qiymatini ta'minlasa va o'qituvchi o'zining o'quv faoliyatida talabalarning ijodiy va nutq tashabbusini, ularning mustaqilligini va rang-barangligini rag'batlantiradigan har ikkala ish shaklidan foydalanadi.

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro tushunish omilini yetarlicha baholamaslik chet tilini o'qitishning amaliy sohasida ham katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Ma'lumki, paydo bo'lgan shaxslararo munosabatlar ta'siri kamayishi mumkin. Shu sababli, o'qituvchining yaxshi kasbiy tayyorgarligi, o'z harakatlarini uslubiy jihatdan to'g'ri rejalashtirish va amalgaga oshirish qobiliyati o'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi rivojlanmagan munosabatlar tufayli o'quv samarasi minimal bo'lishi mumkin. Va aksincha, o'qituvchi harakatlarining tilni o'zaro ta'sir vositasi sifatida o'qitishga yo'naltirilganligi, talabalar bilan teng huquqli sheriklar, shaxslar, shaxslar jamoasi sifatida muloqotni belgilab beradi, hatto cheklangan darajada bo'lsa ham, chet tilini amaliy o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Ta'limgarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasida qanday munosabatni kuzatish mumkin? Ulardan qaysi biri o'quv sifatiga foydali ta'sir ko'rsatadi va qaysi biri talabalarning madaniyatlararo muloqot qobiliyatini rivojlantirishda yutuqlarga erisha olmaydi? O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va ular o'rtasida rivojlanadigan munosabatlarning natijasi pedagogik muloqotning quyidagi uslublari bo'lishi mumkin: birgalikdagi ijodiy faoliyatga ishtiyocoqqa asoslangan muloqot; do'stlilikka asoslangan muloqot, munosabatda masofa ushslash va qo'rqtish orqali muloqot qilish kabilalar[5].

Pedagogik muloqotning diametrali qarama-qarshi turlarini tavsiflovchi o'qituvchining nutqi va nutqsiz harakatlarini taqqoslashlik: muloqot-qo'rqtish va birgalikda ijodiy faoliyatga ishtiyocoqqa asoslangan muloqot hisoblanadi. Qo'rqtuvchi muloqot o'qituvchining darsda tashabbusni o'z qo'liga olishga, ustun mavqega ega bo'lishga va talabalarga o'z irodasini yuklashga bo'lgan qat'iy istagi bilan tavsiflanadi. Bu maqsadlarda u buyruq, tanbeh, tahdid shaklida buyruq, belgi, ko'rsatma va ba'zan jazo masalan, yomon baho shaklida foydalanadi. Bunday o'qituvchi uchun ta'limgarayonini tashkil etish avtoritar-imperativ tamoyillarga [6] asoslanadi va uning faoliyatining shiori "Men aytganimni qil!" degan so'zlardir. O'qituvchining asosiy funktsiyalari og'zaki va yozma mashqlarni bajarish ketma-ketligini ko'rsatish, xatolarni tuzatish bo'yicha maqsadli ishslash va talabalar bayonotlarini baholashga qisqartiriladi. Bunda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mohiyatyan oddiy o'zaro mulohaza almashtishdan iborat bo'lib, bunda o'qituvchi, qoida tariqasida, ta'limgarayonining rasmiy tashkilotchisi vazifasini bajaradi. U o'zining asosiy vazifasini faqat talabalarning dastur materialini o'zlashtirishni ta'minlash uchun har qanday vositalardan hatto eng qattiq foydalanishdan iborat deb biladi. Avtoritar yo'naltirilgan o'qituvchi talaba sinfdan o'rganishi shart deb hisoblaydi. Tashqi tartib va intizom, qoida tariqasida, o'qituvchi tomonidan talabalarni qattiq sinovdan o'tkazish va nazorat qilish natijasidir. Bularning barchasi talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarda keskinlikni keltirib chiqaradi, ko'pincha ular o'rtasida ziddiyatlarga olib keladi va o'zaro dushmanlikni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, avtoritar yo'naltirilgan o'qituvchi tomonidan qabol qilingan ta'limgarayonining modeli bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni o'zlashtirish sifatida o'rganishdir va muloqot modeli bir tomonlama modeldir.

Faqat o'qituvchi va talabalarning har biri uchun shaxsiy ma'noga ega bo'lgan birgalikdagi ijodiy faoliyati sharoitida ya'ni, shaxsiy o'zaro munosabatlar sharoitida ular o'rtasida sherliklik munosabatlari rivojlanadi. Bu munosabatlar o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabati va o'zaro ta'sirida, ularning nutqi va nutqdan tashqari harakatlarining izchilligida namoyon bo'ladil[7].

Chet tili o'qituvchining kasbiy va kommunikativ faoliyati maktab darsi muammolarini hal qilishga qaratilgan bir

qator harakatlar sifatida amalga oshiriladi. Chet tili o'qituvchining kasbiy va kommunikativ faoliyatining tarkibiy qismi - axborotga yo'naltiruvchi, motivatsionrag'batlantiruvchi, didaktik-kommunikativ - nazorat-tuzatish elementi bilan - har bir faoliyat - harakatda o'zaro bog'liqdir. Har bir aniq didaktik-kommunikativ harakatda ular alohida va bir-biri bilan muayyan munosabatlarda namoyon bo'ladil[8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Birgalikdagi faoliyat sharoitida o'qituvchining asosiy vositalari, so'rovlar, maslahatlar, maqtovlar, ma'qullashlar yoki xayrioxlik bilan qoralashdir. O'qituvchining funktsional yuki muqarrar ravishda o'zgaradi: dars davomida u talabalar e'tiborini mashqlarni bajarishga emas, balki faoliyatning mazmunli tomoniga qaratadi, har bir topshiriqning maqsadi va motivini nima qilish kerak va nima uchun kabi savollar bilan ochib beradi. Bu holda ta'limgarayonining asosiy shakli o'rganilayotgan tilda tinglash, gapirish yoki o'qish emas, balki kommunikativ, kognitiv va mavzu bilan bog'liq faoliyatga qo'shma ishtiyoq, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi jonli muloqotdir. Ularning birgalikdagi faoliyatining asosiy shiori "Birga harakat qilaylik!" shioridir. Darsdagi vaziyatga qarab, o'qituvchi talabalar nazarida nutq sherigi yoki yordamchi va maslahatchi yoki muloqotning tashabbuskori, kerak bo'lganda esa hakam vazifasini bajaradi.

Talabaga kelsak, qulay shaxslararo munosabatlar tufayli u tilda xato qilish, noto'g'ri tushunish qo'rquvini his qilmaydi, o'zini erkin his qiladi. O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi do'stona munosabatlarning natijasi ikkinchisining xatti-harakatining motivatsiyasi darajasining oshishi hisoblanadi. Shunday qilib, o'qituvchi darsda birgalikdagi faoliyatni tashkil qilib, o'qitish modelini shaxsning erkin ochilishi, muloqot modelini esa ko'p tomonlama sifatida tanlaydi. Chet tili darsining mazmuni va tashkil etilishining tabiati u yoki bu muloqot uslubini qabul qilishga ta'sir qila olmaydi. Ta'limgarayonini talabalarning qobiliyatlarini ochish jarayoni sifatida qanday qurishni biladigan, shuning uchun kommunikativ rejimida faoliyatga umumiy ishtiyoq rejimida ishlaydigan ijodiy o'qituvchi o'z ishida ta'limgarayonining mazmuni jihatlariga e'tibor qaratadi. O'z o'rniда, bu esa ularning talabalarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari bilan bog'liqidir. Qo'shimcha qilib shuni e'tirof etish joizki, avtoritar o'qituvchi ta'limgarayonining barcha ishtirokchilarining o'zaro ta'siri va o'zaro tushunishini buzadigan o'qitish usullari va usullaridan foydalanadi va sinfda haqiqiy muloqotni tashkil et olmaydi.

Hamkorlik munosabatlariga kirishda o'qituvchi talabaning talaba sifatidagi funktsiyalariga emas, unga ko'ra u yu vazifasini o'rganishi va javob berishi, mashq bajarishi, matnni o'qishi va hokazolar emas, balki uning shaxsiyati va istiqbollariga e'tibor qaratadi. Bunday o'zaro ta'sir, qoida tariqasida, o'quv jarayonidan tashqariga chiqadi va chet tilidan amaliy foydalanishni rag'batlantiradigan turli xil faoliyat turlarida amalgaga oshiriladi. O'z o'rniда, o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan samarali o'qitish usullari:

- har bir talaba o'zini qulay va erkin his qiladigan va chet tilidan amalda foydalanish zarurligini his qiladigan muhitni yaratish;

- umuman talaba shaxsiga ta'sir qilish, uning his-tuyg'ularini, his-tuyg'ularini va his-tuyg'ularini o'quv jarayoniga jahb qilish, nutqini, kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish;

- talabaning faolligini faollashtirish, uni o'quv jarayonining bosh qahramoniga aylantirish, ushbu jarayonning boshqa ishtirokchilarini bilan faol munosabatda bo'lish va uni talabani o'rganilayotgan tilda matn faoliyatiga rag'batlantirish;

- o'qituvchi markaziy shaxs bo'Imagan vaziyatni yaratish;

- guruhda ishslashning turli shakllarini ta'minlash: individual, guruh, jamoaviy, talabalarning faolligini, ularning mustaqilligini, ijodkorligini va boshqalarni to'liq rag'batlantirish.

**Tahlil va natijalar.** Shunga ko'ra, o'qituvchining faoliyati rasmiy xarakterga ega .Agar o'qituvchi muayyan sharotlarni hisobga olmagan holda o'qitish harakatlarini amalgaga oshirsa yoki uning faoliyati o'z mazmunida o'quv va kognitiv faoliyatni boshqarish jarayonining optimal parametrlariga mos

keladi. Shunday qilib, o'qituvchining kasbiy kommunikativ faoliyatini tahlil qilish mantig'i shuni ko'rsatadiki, uchta asosiy harakat bo'limini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, faoliyat maqsadlarini belgilash, tushunish va konkretlashtirishga qaratilgan harakatlardan, shu jumladan alohida maqsadlar va vazifalarni aniqlash;

Ikkinchidan, bu talabalar faoliyatining shartlarini aniqlash va tahlil qilish va ularning aniq maqsadiga erishish uchun shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan harakatlardir. Bundan tashqari, o'qituvchining faoliyati talabalarning harakatlarini va ta'lif muloqotini tuzatishga qaratilgan harakatlarini dasturlash bilan bog'liq harakatlarni o'z ichiga oladi. Oldingi paragrafda biz chet tili o'qituvchisining kasbiy muloqot faoliyatining ob'ektiv mavjud tarkibiy qismlarini aniqladik va tahlil qildik: motiv, faoliyat maqsadi, faoliyat sharhlari, ma'lumotlarni baholash, faoliyatning borishi va natijalari borasida fikr yuritdik. Bu komponentlар doirasida o'qituvchi jarayonini tahlil qilish, dasturlash, rejalashtirish va tashkil etish bilan bog'liq bir qancha harakatlarni bajarishi kerak. Bu esa harakatlarni umuman didaktik-kommunikativ deb belgilashga asos beradi. Ular chet tili o'qituvchisining kasbiy va kommunikativ faoliyatining tuzilmasini tashkil qiladi. Shunday qilib, kasbiy kommunikativ faoliyatning asosiy tarkibiy qismlariga muvofiq, biz ushbu tarkibiy qismlarini ta'minlaydigan eng muhim didaktik va kommunikativ harakatlarni aniqlaymiz:

1. Maqsadni belgilashning didaktik va kommunikativ harakatlari.

2. Shartlarni tahlil qilishning didaktik-kommunikativ harakatlari.

3. Rejallashtirish va dasturlashning didaktik va kommunikativ harakatlari.

4. Natijalarni tahlil qilishning didaktik va kommunikativ harakatlari.

5. Tuzatishning didaktik va kommunikativ harakatlari.

Maqsadlarni belgilash harakatlari guruhiga maqsadni belgilash, bashorat qilingan natijaning tasvirini shakllantirish, bog'liq va ikkinchi darajali vazifalar va harakatlarni muvaffaqiyatini baholash mezonlarini belgilash bo'yicha harakatlardan kiradi ya'ni, uni modellashtiradi.

**Xulosa va takliflar.** Chet tili o'qituvchisi ishidagi ijodkorlik, ayniqsa, yo'naltirish va rejallashtirish bosqichida yaqqol namoyon bo'ladi. Darsda muloqotning maqsadi va bevosita motivlarini ilgari surish sifatida ob'ektivlashtiriladi. Didaktikada muloqotning maqsadli yo'nalishini belgilovchi eng muhim omillar sub'ektning psixologik yo'nalishi hisoblanadi. Tarbiyaviy nutqiy vaziyatda o'qituvchi ham, talaba ham nutqiy harakatlarning ma'lum nomenklaturasiga ega. O'qituvchi so'raydi, tushuntiradi, rag'batlantiradi va hokazo. Talaba javob beradi, takrorlaydi, o'z fikrini bildiradi. Shunday qilib, og'zaki muloqot ishtiroychilari ijtimoiy qabul qilingan xatti-harakatni amalga oshiradilar.

#### ADABIYOTLAR

1. IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 \* IAU HORIZONS. [https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau\\_horizons\\_ vol.24.1\\_en\\_light\\_.pdf](https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_ vol.24.1_en_light_.pdf)
2. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi
3. bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-sod Qarori.
4. Калаков Н. И. Проблема творческого развития личности : психолого- акмеологический аспект /Н. И. Калаков, Е. Н. Немова //Проблемы творческого развития личности в XXI веке: Сб. тр. участ. Междунар. науч.-практич. конф. 12-14 мая 2004г., г. Ульяновск. - М.; Ульяновск : УлГУ, 2004.-С. 38-46.
5. Давыдова М. А. Деятельностная методика обучения иностранным языкам /М. А. Давыдова. - М.: Высшая школа, 1990. - 175с. - (Библиотека преподавателя).
6. Корковцева Н. Ф. Анатомия учащегося в учебной деятельности по овладению иностранными языками как образовательная цель /Н. Ф.
7. Корковцева //Иностранные языки в школе. - 2001. - № 1. - С. 9-11.
8. Витлин Ж. А. Навыки и умения в психологии и методике обучения языкам /Ж. А. Витлин //Иностранные языки в школе. - 1999. - №1. - С. 21-26.
9. Горлова Н. А. Методика обучения иностранным языкам дошкольников как система, реализующая личностный подход /Н. А. Горлова //Иностранные языки в школе. - 2001. - № 3. - С. 24-33.
10. Axmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: diss... PhD T.:2020. – 65 b



Muhayyo QAMBAROVA,  
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti, PhD  
E-mail:mukhayyo.kambarova@gmail.com

O'zDJTU dotsenti, DSc, X.Paluanova taqrizi asosida

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ARXITEKTURA-QURILISH TERMINLARINING TARAQQIYOTI HAMDA TERMINOLOGIYA SOHASIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Arxitekturaga oid terminlar, so'zlar, so'z birikmlari insoniyat hayotida doimiy hamroh bo'lgan tarixni, urf-odat va ko'z o'ngimizda paydo bo'lib, o'z hashamati hamda salobati bilan barchani mahliyo qiladigan obidalarni eslatuvchi birliliklar hisoblanadi. Mazkur maqolada arxitektura-qurilish terminlari semantikasiga alohida to'xtalib o'tilar ekan, ularning qiyosiy tarjimasi aniq misollar bilan yanada boyitildi.

**Kalit so'zlar:** arxitektura, leksika, etimologik lug'at, enanteosemiya, terminologizatsiya, atama, diaxron rivoj

## DEVELOPMENT OF ARCHITECTURAL-CONSTRUCTION TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ALSO THEIR PLACE IN THE FIELD OF TERMINOLOGY

Annotation

Architectural terms, words, phrases reminding of the history, traditions and monuments that are a constant companion in human life and appear before our eyes and fascinate everyone with their luxury and elegance. are units. This article focuses on the semantics of architecture-construction terms, and their comparative translation is further enriched with specific examples.

**Key words:** architecture, lexicon, etymological dictionary, enanteosemy, terminologicalization, term, diachronic development.

## РАЗВИТИЕ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНЫХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ И ИХ МЕСТО В ОБЛАСТИ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация

Архитектурные термины, слова, фразы, напоминающие об истории, традициях и памятниках, которые являются постоянными спутниками жизни человека, предстают перед нашими глазами и завораживают своей роскошью и элегантностью. являются единицами. В данной статье основное внимание уделяется семантике архитектурно-строительных терминов, а их сравнительный перевод дополнительно обогащен конкретными примерами.

**Ключевые слова:** архитектура, лексика, этимологический словарь, энантосемия, терминологизация, термин, диахроническое развитие.

**Kirish.** Insoniyat sivilizatsiyasini insoniyat hayotida doimiy hamroh bo'lgan tarixni, urf-odat va ko'z o'ngimizda paydo bo'lib, o'z hashamati hamda salobati bilan barchani mahliyo qiladigan obidalarni eslatuvchi birliliklar aks ettirar ekan, ular lug'at boyligimizdir, ularning o'rganilishi esa nafaqat lingvistika sohasining balki moddiy va nomoddiy merosimizni o'rganuvchi sohalar tarix, etnografiya, etnologiya hamda arxitektura kabilarni ham rivojlanishiga olib keladi.

Qadim zamonlardan beri binolar va qurilish inshootlari insonning yashashi va mehnat sharoitlarini belgilab, u nafaqat yashash joy yoki faoliyat yuritish maskani sifatida axborot beradi, balki uning dunyoqarashi va dunyoqarashning shakllantirilishidagi muhim omillardan biri bo'lib, insonni ijodiy faoliyatiga asoslanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Arxitektura terminlarining xususiyatiga keladigan bo'lsak, ingliz, nemis, grek va rus tillarining mazkur sohaga oid terminlarini chog'ishtirma aspektida o'rgangan tadqiqotchi Stamatiadu Erasmania shunday ta'rif beradi: "Arxitektura leksikasi belgi funktsiyasiga ega bo'lib, binobarin arxitektura muhitni semiotikdir."<sup>[1]</sup> Shunday ekan, har bir arxitektura yodgorliklarining o'ziga xosligi ham aynan shu millat va elatning belgi, xususiyat hamda dunyoqarashini aks ettirishi bu haqiqatdir.

Tadqiqotchiz E.E.Mironovaning fikriga ko'ra esa "Asrslar davomida terminologiyaning boyib borishi, arxitektura leksikasining yetarli darajada tadqiq etilmaganligi hamda tarjimadagi xatoliklar ba'zi bir maxsus lug'atlardagi terminlarning tartibga keltirilishi va ularning kompleks unifikasiyasini amalga oshirishni taqozo etdi"<sup>[2]</sup> deb to'g'ri ta'kidlanadi. Shu kungacha inliz tilshunoslari va leksikograflari tomonidan bir qancha lug'atlar yaratilishiga qaramasdan, aynan arxitektura va qurilish

sohasiga oid terminlarning lug'atlarida ham bir qancha to'g'irlanishi lozim bo'lgan jihatlar mavjud.

Tadqiqotimiz davomida biz ham arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlar, iboralar, ularning talqinini o'rganishda M.Xarris tomonidan tuzilgan va nashr qilingan "Arxitektura va qurilish lug'ati" dan (Dictionary of architecture & Construction)<sup>[3]</sup> foydalandik, shuningdek Oksford universiteti nashriyoti tomonidan ham bosma ham onlayn shaklga ega lug'at Djeyms Stiven Ko'rl (James Stevens Curl) tomonidan yaratilgan bo'lib "Dictionary of Architecture and Landscape Architecture"<sup>[4]</sup> lug'ati ishlatishta qulay hamda doimiy ravishda yangilanib to'ldirib boradigan manba hisoblanadi.

Ingliz tilidagi arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarning taraqqiyoti va ulardag'i asosiy ma'lumotlarni to'liqroq o'rganish uchun etimologik lug'atlarga, jumladan Ernest Vikli tomonidan 1921 yilda yaratilgan «An Etymological Dictionary of Modern English»<sup>[5]</sup>, Ernest Klain tomonidan tuzilgan «A Comprehensive Etymological Dictionary of the English Language»<sup>[6]</sup> hamda «Barnhart Dictionary of Etymology»<sup>[7]</sup> (1988), Evropa hamjamiyati qo'llab-quvvatlashi natijasida yaratilgan onlayn lug'at «Etymologisches Wörterbuch der Englischen Sprache»<sup>[8]</sup> kabilardan olingan ingliz tilidagi so'zlarning etimologik onlayn lug'atiga murojaat qildik.<sup>[9]</sup> Shuningdek, mazkur sohada o'z tadqiqot ishimi olib borgan tilshunos Z.Xakieva arxitektura va qurilish sohasiga oid leksik birliliklarning nafaqat kelib chiqishi, balki ularning paydo bo'lishiga ko'ra davrlarga ajratib chiqqan. Aynan mazkur tadqiqotga tayangan holda biz ham shu davrlarni o'rganib chiqish jarayonida amin bo'ldikki, har bir davrdagi termin o'sha davrda yaratilgan va saqlab qolning inshootlarga oid bo'lib, davrlar o'tgan sari ularning matnlari va lug'atlarga kiritilishi natijasidagina

bizgacha saqlab qolning. Z.Xakievaning ta'kidlashicha, inglizzabon xalqning arxitektura va qurilishga oid terminologiyaning genezisi, taraqqiyoti hamda nutqimizda saqlanib qolishi quyidagi davrlarga bo'lingan: Birinchi davr – IV asrgacha, Ikkinchisi davr – VI-XI asrlar, Uchinchi davr – XII-XVII asrlar, To'rtinchisi davr XVI-XIX asrlar, Besinchi davr - XX-XXI asrlarga to'g'ri keladi.

Z.Xakieva ingliz tilidagi arxitektura va qurilish sohasiga oid terminologiyaning nafaqat davrlashtirish masalasi bilan balki, ularning boshqa jihatlarini o'rganishga ham harakat qilgan. Tilshunosning fikriga ko'ra qurilish terminologiyasining rivojlanish dinamikasidagi yana bir muhim jihat evolyutsion jarayonlarni aniqlash ekanligi ta'kidlanadi. Bunda aniqlanishicha, quyidagi semantik hodisalar sodir bo'lgan: Terminologizatsiya – 31%, Transterminologizatsiya – 38%, Metoforizatsiya – 19%, Determinologizatsiya – 6%, Metonimizatsiya – 6%.

Endi o'zbek tili xususida so'z yuritadigan bo'lsak, o'zbek tili taraqqiyotini shu til doirasidagi termin va atamalar taraqqiyoti, rivojlanish darajasidan ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Barcha sohada bo'lgani kabi arxitektura, qurilish sohasiga oid terminlar ham paydo bo'lisch, shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Biz tadqiq markaziga olib kirmoqchi bo'lgan arxitektura va qurilish sohasi terminlari ham o'ziga xos yuzaga kelish, shakllanish va sohaviylashish tarixiga ega bo'lib, ilmiy va badiiy ruhda yozilgan klassik durdonha asarlari hisoblangan Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy asarlari shu bilan bir qatorda XX asrgacha bo'lgan davrda yaratilgan qo'lyozmalarda ham qo'llanilgan o'rinnarini uchratishimiz mumkin. Quyida o'sha asarlarda qo'llanilgan atama va terminlarni misollar asosida tahlil qilishga harakat qilamiz.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kun leksikografiyasining tamal toshimi qo'yan, turkiy xalq va etlatlar nutqida qo'llanilgan so'z hamda tushunchalarning mazmuni yoritilgan, XI asrning tilshunoslik, etnografiya, dialektologiya kabi sohalarning nodir ma'lumotlarni o'zida jamlagan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida o'sha davr xalqi, qardosh xalqlarning kundalik muloqotida qo'llanilgan qurilish hamda arxitektura atamalarini uchratishimiz mumkin. E'tiborli jihat shundaki bu atamalar maxsus terminologiya sifatida emas, balki o'zaro muloqotning mahsuli sifatida nutqqa olib kirilgan tushuncha sifatida tahlil qilinadi. Asarning 1-qismida keltirilgan atamalar sirasiga: *yer* – ba'zi lug'atlarda *jér(jer)* shaklida ham qo'llanilgan bo'lib, bugungi kun adabiy tilida *yer*, qipchoq shevasida esa *jer* shakli ishlatalidi; *ul* – devor va uylar paydevori; *og'* – chodir (o'tov)ning yugori qismi bo'lgan uvuqlar, ya'ni chodirning yog'ochlari; *ashu* – qizil tuprog, qizil kesak; *endak*(o'g'uzcha) – sath, bir narsaning yuzi, ust tomoni; *arquq* – ustun, ikki devor yoki ustun orasiga qo'yilgan yog'och; *arzatal* – mo'yni to'ktirishga qo'llaniladigan aralashma. Ohak, zirnix; *eshiklik* – ostona va eshik uchun ishlataladigan yog'och; *o'kaklik* – sandiq yasaladigan yog'och; *o'kaklik tam* – ustiga qubbalar ishlangan devor; *irnaldi* – arralandi. Jig'ach *irnaldi* – yog'och arralandi; *temo'r* – temir; *baliq* (arg'ucha, o'g'uzcha) – loy. Bu atamaning *titik* variant ham bor; *siruq* – chodirning ustuni; *kerimi* – ziynat uchun devorlarga tutiladigan narsa, kirpech; *kerago'* – chodir. Turkmanlar chodir deb, ko'chmanchi aholi esa qishki uy deb atashgan; *qisq'ach* – qisqich, ombir; *kerpich* – kirkich, g'isht. Bishiq kirkich – pishiq g'isht; *tobraq* – tuprog; *ev* – uy; *irpadi* – arraladi; *qum*(chigilcha) – qum; *qabug'* – eshik; *bechko'm* – uying shipi; *bag'ram qum* – elangan qum. Mayin qum. Qashqar bilan O'rekent o'rtasidagi qumlikka Bag'ram qumi deyiladi. *qarshi* – shoh qasri. Shu bilan bir qatorda qarshi, teskari ma'nolarini ham anglatgan. *qapq'a* – qopqa, darvoza kabilardir.

Lug'atning 1- qismidagi termin hamda atamalarning afsariyati turkiy qabila va urug'lar tilida ishlatalgan bo'lsa-da, bugungi kun muloqot leksikasi uchun deyarli tushunarsiz holatga kelgan. Hozirgi leksik fondda saqlanib qolgalmari ham fonetik o'zgarish asosida iste'molga qabul qilingan.

"Devonu lug'otit turk" ning 2-qismida qo'llanilgan atamalar asosan harakat ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar bo'lib, unda fe'llarning turlari hamda yasalishi haqida mukammal

ma'lumot berilgan. Shu jihat bilan ham qolgan ikki qismidan ajralib turadi. Quyida devonda qo'llanilgan arxitektura hamda qurilish sohasiga oid terminlarga: *Ko'rgak* – kemachalarining eshkaklari. Shu bilan bir qatorda belkurak ma'nosini ham anglatadi. *Qazlindi* – qazildi. Jer qazlindi – er qazildi. *To'zlo'ndi*, *to'zo'ldi*, *to'zdi* – tekislandi (erga nisbatan). Bu atamaning to'g'rilandi, to'g'ri bo'ldi kabi ma'nolarini ham mayjud. *To'rpoldi* – to'g'ri bo'ldi. Jig'ach to'rpoldi – yog'och randalanib tekislandi. *Kertishdi* – kertishdi (yog'ochga nisbatan). Bu atamaning bahslashdi ma'nosi ham mulogotda qo'llanilgan. *Bug'rushdi* – kesishdi (yog'ochga nisbatan); *Kesto'rdi* – orttirma nisbat shaklidagi fe'l bo'lib, kestirdi(kesmoq) ma'nosini anlatadi. Bu fe'l kesmoq fe'li bilan qo'llaniluvchi barcha ismlar uchun aynan shu ma'noga ega. *Qazturdi* – qazimoq fe'lining orttirma nisbatda qo'llanilgan shakli bo'lib, ariq qazdirdi, chuqur qazdirdi, o'ra qazdirdi kabi qoliplarda qo'llaniladi. Asarda XI asrda bu fe'lning qazildi variant ham qo'llanilganligi keltirib o'tiladi. Bu fe'lning qazdi, kezdi variantlarini ham lug'atda uchratishimiz mumkin. *Tuzg'urdi* – o'zlik nisbatidagi bu fe'l turg'izdi, tikladi, qurd ma'nolarini izohlagan. Bu atama uy va shunga yaqin bo'lgan qazish inshootlarini qurish ma'nosida qo'llanilgan. *Telo'rdi* – teshtirdi. Bu fe'l termin tom, devorni teshtirdi ma'nolarida qo'llanilgan. *Bichturdi* – kestirdi (yog'ochga nisbatan); *bezandi-* insonga nisbatan o'ziga o'ziga oro berdi, yasandi ma'nosida hamda uy yoki shunga o'xhash inshootlarga nisbatan ko'rkmalandi, bezatildi ma'nolarida qo'llanilgan. *Chapildi* – chapildi, suvaldi ma'nolarini anglatib uysa nisbatan uyning suyuq loy bilan suvab chiqilishi nazarda tutilgan. Bugungi kunda ayrim shevalarda bu so'z chaplandi shaklida ham qo'llaniladi. *Teldi*, *telishdi* – teshdi, teshishdi (devorga nisbatan); teldi fe'li chorvachilikda qo'zichoqni emizish uchun sovlugqa qo'shdi ma'nosida ham qo'llanilganlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki, qurilish va arxitektura sohasiga oid bo'lgan harakat ma'nolarini ifodalovchi fe'llarning aksariyati asarda fe'lning noaniq shakli (-moq)da emas, balki ma'lum nisbat shakllarida ifoda etilgan. Bu jihat shundan dalolat beradiki, Mahmud Qoshg'ariy atamalarni xalq tilida qanday eshitgan bo'lsa, ana shu shaklda lug'at tarkibiga kirdizib ketaverган.

**Muhokama.** Ta'kidlaganimizdek, har bir davrning ijtimoiy, siyosiy hayoti, albatta, uning leksikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Bu holatniyuqorida keltirilgan ma'nosi va qo'llanilish shakli izohlangan lug'atda ham ko'rish mumkin. Ya'ni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xalq hayoti, turmush tarzida qo'llanilgan so'zlarining o'zbekcha yoki turkiyacha muqobil bo'lishiga qaramay, rus tilidagi varianti faol qo'llanilgan. Bu holatdan o'sha davr rus sovetining nafaqat siyosiy jihatdan, balki tilimizga ham o'z hukmini o'tkaza olganini ko'rishimiz mumkin.

Turli davrda o'ritilgan va tarjima mazmuni izohlangan lug'atlardan ham ko'rishimiz mumkinki, so'zlar hamda tushunchalar XXI asr leksikasiga davrlar yaqinlashishi bilan shakliy jihatdan bir xillikni yoki o'xshashlikni namoyon qilib borgan. Masalan, "Devonu lug'otit turk" da qo'llanilgan sandiq ma'nosini bildiruvchi yo'dro'k termini bugungi kun terminologiyasi uchun tamoman begona. Olim Usmonov, Shafik Hamidovlar lug'atida qo'llanilgan kompas termini bugungi kun leksikasi uchun ham begona emas. Lekin bu istiloh Navoiy asarlarda qiblanamo shaklida ifoda etiladi. Bu holatni lug'atlarda qaysi davr leksik fondi qamrab olinganligi nuqtai nazaridan izohlash mumkin. Shunday bo'lishiga qaramay asrlar osha bir xil yoki ayrim tovush o'zgarishi orgali etib kelgan leksik birliklar ham ko'zga tashlandi. Ya'ni "yer" leksemasi XI asrda shu kunga qadar aynan shu atama bilan qo'llanilib kelmoqda. XV asrda qo'llanila boshlagan "tom" (uyning tomi) atamasini haqida ham ayna shu fikrni bildirish mumkin.

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, arxitektura va qurilish sohasiga oid bo'lgan terminologik tizim boshqa yo'nalişlar terminologiyasi kabi davrlar o'tishi bilan takomillasib, zamон bilan hamnafas holda yangidan-yangi leksik birliklarning qabul qilinish jarayonini boshdan kechirdi. Tarixiylik

jihatdan o'rganish shundan guvohlik beradiki, XI asrdan XX asr boshigacha bo'lgan davrda qo'llanilgan leksika asosan so'g'diycha, mo'g'ulcha, arabcha, forscha va rus tiliga oid bo'lgan so'zlardan tashkil topgan. "Devonu lug'otit turk", "Tarjumon", "Navoiy asarlari lug'ati" hamda "O'zbek tili leksikasi tarixidan materiallar (XIX asrning oxiri - XX asrning

boshlari)" asarlarida qurilish hamda arxitektura sohasida qo'llaniluvchi terminlar bugungi kun shu soha terminologiyasi kabi mukammallikka erishmagan holda, ya'ni sodda, kunlik turmushda ham keng qo'llaniluvchi atama va terminlardan iborat bo'lganligi aniqlandi. Bu holat o'sha davr aholi turmush tarzi taraqqiyot darajasiga mos bo'lganligidan dalolat beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Стаматиаду Э. Лексико-семантические, структурные и функциональные особенности архитектурной лексики: на материале английского, немецкого, греческого и русского языков. Дисс. ... канд.филол.наук Россия. 2010, стр. 7.
2. Миронова Е.Е. Сопоставительный системный анализ английской и русской лексики: на материале лексики архитектурных конструкций. Дисс. ... канд.филол.наук Россия. 2001. Стр 8.
3. Weekly E. An Etymological Dictionary of Modern English. London 1921. 864 pages.
4. Klein E. A Comprehensive Etymological Dictionary of the English Language. Amsterdam. London. New York. 1966. 903 pages.
5. Barnhart R. The Barnhart Dictionary of Etymology. USA, 1988. 1326 pages.
6. Хакиева З.У. Англоязычная терминология строительства и строительных технологий: структура, семантика и динамика развития. Дисс. ... канд.филол.наук. 2013. Стр 186.
7. Муталибов С.М. Махмуд Кошгариј. Туркий сўзлар девони /Девону луготит турк/. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталибов С.М. - 1.1,-т.: ЎзССР ФА, 1960. - 499 с.
8. Нашрга тайёрловчи Юнусов А., Таржумон" - XIV аср ёзма обидаси. Тошкент: F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 128 с.
9. Шамсиев П., Иброхимов С. Навоий асарлари лугати. Тошкент: F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
10. Умаров Э.А., Эски ўзбек лугатлари. – Тошкент: Фан, 1992.



Nizomiddin QARSHIBOYEV,  
Jizzax politeknika instituti assistenti  
E-mail: wolkvagen1991@mail.ru

Andijon mashinasozlik instituti "Muqobil energiya manbalari" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi G.Umarova taqrizi ostida

## M-LEARNING TEKNOLOGIYALARI VOSITASIDA TA'LIM JARAYONINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

### Annotatsiya

Mobil texnologiyalar o'quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatganligi sababli, ushbu ish o'quvchilar faoliyatining turli shakllarini taqsimlash va ularning didaktik vazifalar bilan bog'iqligi asosida o'qitish usullarini tasniflashni taklif qiladi. Vizual dasturlash usullari dasturlash vositalari mifik taboqchalarining boshlang'ich asoslar haqidagi bilimlari asosida algoritmiq ko'nikmalarini rivojlanishiga imkon beradi. Ushbu maqolada M-learning texnologiyalar vositasida didaktiv vazifa o'qitish usuli tarkibiy jihatlari yorilgan.

**Kalit so'zlar:** M-learning texnologiyalar, bulutli texnologiya, simsiz aloqa, o'quv kurslari, texnikalar, tizimlar.

## МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИЙ М-ОБУЧЕНИЯ

### Аннотация

Поскольку мобильные технологии влияют на возможности организации образовательного процесса, в данной работе предлагается классификация методов обучения, основанная на распределении различных форм деятельности учащихся и их связи с дидактическими задачами. Метод визуального программирования позволяет учащимся развивать свои алгоритмические навыки на основе базовых знаний инструментов программирования. В данной статье описаны структурные аспекты метода обучения дидактическим задачам с использованием технологий M-learning.

**Ключевые слова:** Технологии M-learning, облачные технологии, беспроводная связь, обучающие курсы, методики, системы.

## METHODS OF DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS USING M-LEARNING TECHNOLOGIES

### Annotation

Since mobile technologies affect the possibilities of organizing the educational process, this work proposes a classification of teaching methods based on the distribution of different forms of student activity and their connection with didactic tasks. Visual programming method allows students to develop their algorithmic skills based on their basic knowledge of programming tools. This article describes the structural aspects of the didactic task teaching method using M-learning technologies.

**Key words:** M-learning technologies, cloud technology, wireless communication, training courses, techniques, systems.

Hozirgi kunga kelib mobil ilovalar orqali talim berish juda ommalashib bormoqda. Dasturlarni ishlab chiqishda mobil platformadan foydalanish talabalar uchun rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi, chunki bu Axborot texnologiyalari sohasining rivojlanish tendentsiyasini aks ettiradi.

Usulning maqsadi: Algoritmiq fikrlash va dasturlash qobiliyatlarini rivojlanish. Dasturlash asoslarini o'rganish uchun motivatsiya darajasini oshirish.

Usulni qo'llash shartlari: kompyuter qurilmalarining mavjudligi (mobil yoki statsionar), Internetga kirish.

#### O'qituvchining faoliyati:

- o'quv vazifalarini tayyorlash (yoki mobil qurilmalar uchun vizual dasturlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni o'zgartirish);
- mustaqil ish jarayonida talabalarga yordam va maslahat berish;

1-jadval

Mobil qidiruv usuli. Boshqa tabiatdagi ma'lumotlarni qidirish va ular bilan ishslash har qanday profilning zamonaviy mutaxassisining eng muhim ko'nikmalaridan biridir. Butunjahon Internet tarmog'iga ulangan mobil qurilmalar matnli so'rovdan tashqari ovozli va grafik qidiruv so'rovlaridan foydalanishni mumkinligi sababli ma'lumot qidirish uchun qo'shimcha 2-jadval

- vazifalarning bajarilishini tekshirish.

Talaba faoliyati:

- maqsadli platforma mobil qurilma bo'lgan vizual dasturlash muhitida amaliy ish.

Natijani kuzatish usuli va unga erishish mezonlari:

- mustaqil va ijodiy vazifalarini bajarish;
- olingan ko'nikmalaridan talabalarning loyihalash va tadqiqot faoliyatida foydalanish [1].

Mobil ovoz berish va ovoz berish usullari. Mobil so'rov xizmatlari testlarni yoki formativ baholashni ta'minlaydi va individual o'quvchilarga emas, balki butun sinfdan ma'lumotlarni yig'ish imkoniyatini beradi [3]. Tezkor mulohaza har bir talaba uchun taraqqiyotni yoki o'rghanishdagi qiyinchiliklarni real vaqtida kuzatib borish imkonini beradi (1-jadval)

imkoniyatlarni ochib beradi. "Qurilishda axborot texnologiyalari" fanining mazmuni, xususan, zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlar bilan ishslash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan [2]. Shuning uchun mobil qurilmalarini taqilash o'rniga, ta'limga maqsadlarida foydalanishni rag'batlantirish afzaldir (2-jadval).

Usulning maqsadi:	Usulni qo'llash shartlari:	O'qituvchining faoliyati:	Talaba faoliyati:	Natijani ku zatish usuli va unga erishish mezonlari:
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishslashni o'zlashtirish. Yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish	Internet-resurslardan va qidiruv xizmatlaridan foydalanan imkoniyati	hal qilish uchun qo'shimcha ma'lumot topishni talab qiladigan muammoli vaziyatlarni yaratish	optimal qidiruv usullari va xizmatlarini tanlash;	- talabalar tomonidan mobil qidiruv texnologiyasini o'zlashtirish

			- muammo yoki savolga yyechim izlash.	
--	--	--	---------------------------------------	--

Mobil dizayn usuli. Mobil qurilmalar va bulutli texnologiyalar loyiha faoliyatini yangi bosqichiga o'tkazishga imkon beradi, chunki ular har doim yonida bo'lgan yangi vositalarni va qulay tashkiliy shaklni taqdim etadi. Masalan, aksariyat smartfonlarda kompas, navigator, xarita, kamera, chiroq va boshqalar kabi o'rnatilgan vositalar mavjud. O'z navbatida, 3-jadval

Usulning maqsadi:	Usulni qo'llash shartlari:	O'qituvchining faoliyati:	Talaba faoliyati:	Natijani ku zatish usuli va unga erishish mezonlari:
Shaxsiy va guruhli loyihalash va tadqiqot ishlarni amalga oshirish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- maqsadli platformalar sifatida mobil qurilmalarning mavjudligi;</li> <li>- talabalar va o'qituvchilar o'tasida masofaviy ta'sir o'tkazish mexanizmlarining mavjudligi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalarning loyihalash va tadqiqot faoliyatini tashkil etish;</li> <li>- loyiha ishining belgilangan maqsadlariga erishish yo'lida talabalarga yordam berish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- dizayn va tadqiqot vazifalarini hal qilish (ham individual, ham bir guruh ish doirasida)..</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalarning mobil texnologiyalar bilan bog'liq ilmiy loyihalarni ishlab chiqishda ishtirok etishi.</li> </ul>

Podkast usuli. Videokostast va skravnast texnikasi o'quvchilarga, bir tomonidan, dasturly mahsulotlar bilan individual sur'atlarda tanishish, to'xtash va muammoli joylarga qaytish imkoniyatini beradi, boshqa tomonidan esa o'zlarining

4-jadval

Usulning maqsadi:	Usulni qo'llash shartlari:	O'qituvchining faoliyati:	Talaba faoliyati:	Natijani ku zatish usuli va unga erishish mezonlari:
Dasturly mahsulotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Dasturly ta'minot bilan ishlash	<ul style="list-style-type: none"> <li>- video yozish funksiyasi bo'lgan mobil qurilmalarning mavjudligi;</li> <li>- talabalar videotasvirga olish va ekranga translatsiya qilish bo'yicha asosiy ko'nikmalarga ega;</li> <li>- video nashr qilish uchun bulutli muhit.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- podkastlar shaklida ro'yxatdan o'tish uchun topshirilqlarini tayyorlash;</li> <li>- bajarilgan ishni ko'rib chiqish va talabaning harakatlarini tuzatish;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- vazifalarini bajarish va video yoki skravnastning shaklida hisobot tayyorlash.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- dasturly mahsulotlarni o'rganish sharoitida talabalar tomonidan podkastlardan foydalanish;</li> <li>- dasturly mahsulotlarni o'rganish bilan bog'liq uy vazifalari bo'yicha hisobot shakllari sifatida bulutli skridan va videokastlardan foydalanish.</li> </ul>

Mobil viktorina usuli. O'yinlarni o'rganishni tashkil qilish uchun mobil texnologiyalardan foydalanish interaktiv viktorinalar shaklida ham guruh, ham individual ishlarni tashkil etishga imkon beradi. Ushbu yondashuv talabalarning natijalarga

5-jadval

Usulning maqsadi:	Usulni qo'llash shartlari:	O'qituvchining faoliyati:	Talaba faoliyati:	Natijani ku zatish usuli va unga erishish mezonlari:
Auditor nazorati. Uy vazifasini tekshirish. Yangi materialning assimilyatsiya qilinishini tekshirish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalarning mobil qurilmalari mavjudligi;</li> <li>- Interneta kirish imkoniyati.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- viktorinalarni tayyorlash;</li> <li>- talabalar faoliyatini nazorat qilish va tashkil etish;</li> <li>- talabalarning harakatlarini muhokama qilish va tuzatish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- viktorinada qatnashish;</li> <li>- natijalarni muhokama qilish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- talabarni o'yin jarayoniga jalg qilish.</li> </ul>

Bulut tadqiqot usuli. Ushbu uslubning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, talabalar ma'ruza tayyorlash va sinf bilan gaplashish uchun o'quv mavzusidagi har qanday masalan yoki muammoli vazifani birligida yoki yakka tartibda o'rganadilar. Mobil va bulutli texnologiyalar bir nechta o'quvchilar va o'qituvchilar tomonidan tahrirlash uchun bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan hamkorlikdagi elektron hujjatlar va taqdimotlarni yaratishga imkon beradi. Jamoa ichida guruh

6-jadval

Usulning maqsadi:	Usulni qo'llash shartlari:	O'qituvchining faoliyati:	Talaba faoliyati:	Natijani ku zatish usuli va unga erishish mezonlari:
Beglilangan o'quv vazifalarini hal qilish yo'lida talabalarning o'zaro munosabatlarini tashkil etish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- o'quvchilar uchun mavjud bo'lgan bulutga asoslangan materiallarning mavjudligi;</li> <li>- Interneta kirish imkoniyatiga ega bo'lgan hisoblash moslamasi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- bulutli hujjatlarni tayyorlash va o'quvchilarga havolani tarqatish;</li> <li>- bulutli muhitda bajarish uchun o'quv topshirilqlarini tayyorlash.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- bulutda amaliy topshiriqni bajarish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ta'lim muammolarini hal qilish jarayonida bulut almashish manbalardan faol foydalanish.</li> </ul>

Interfaol video usuli. Zamonaliv mobil qurilmalar sizga video tarkibi ijro etish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, har qanday o'quv videosining qiymati interaktiv element yo'qligi sababli kamayadi, bu esa fikr bildirishi va tinglovchilar u yoki bu fragmentni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlashi

7-jadval

Usulning maqsadi:	Usulni qo'llash shartlari:	O'qituvchining faoliyati:	Talaba faoliyati:	Natijani ku zatish usuli va unga erishish mezonlari:
: Ta'lim jarayoniga qo'shimcha uslubiy o'quv resurslarini joriy etish. O'quv materiali ustida ishlash uchun maktab o'quvchilari uchun jozibali tashkiliy shaklni yaratish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Interneta kirish imkoniga ega bo'lgan talabalar uchun mobil qurilmalarning mavjudligi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- video materiallar va savollarni tayyorlash.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- videoning mazmunini o'rganish;</li> <li>- ko'rish paytida savollarga javoblar.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalar tomonidan interfaol video darslardan foydalanish;</li> <li>- so'rov natijalarini nazorat qilish.</li> </ul>

hisob otlari ni podk astlar shakli

mum kin.S o'rov nomalarni

K engayti rilgan reallik texnolo

giyalari o'quv mazmunini taqdim etish shakllarini kengaytirish va materialni yangilashga imkon beradi. Tasvirlar ko'rinishidagi yorliqlar yordamida talaba o'qituvchi tomonidan turli xil formatlarda: matn, grafik, video, audio va boshqalarda tayyorlangan materiallarga kirish huquqini oladi.

Mobil texnologiyalar asosida ko'rib chiqilayotgan o'qitish usullarining aksariyati nafaqat informatika darslarida qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, maktab kursidagi "Qurilishda axborot texnologiyalari" fanining predmetli o'ziga xosligi o'qituvchi oldida uning yechimi uchun xos bo'lgan bir qator didaktik vazifalarni qo'yadi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Амиров, А. Ж. Роль современных мобильных приложений в учебном процессе вуза / А. Ж. Амиров, А. М. Ашимбекова, А. Е. Темирова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 1 (135). — С. 13-15. — URL: <https://moluch.ru/archive/135/37927/> (дата обращения: 01.04.2024).
2. Голицына И. Н., Половникова Н. Л. Мобильное обучение как новая технология в образовании // Образовательные технологии и общество. 2011. № 1. С. 241–252.
3. Виневская А. В. Использование потенциала информационных технологий в создании мобильной образовательной среды // Концепт. 2012. № 9. С. 78–84.
4. Самарина, А. Е. (2015). STEM-игры с дополненной реальностью. Электронный ресурс. URL: <http://samarina-it.blogspot.ru/2015/07/stem.html> (дата обращения 07.08. 2019).
5. Холодная М.А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования // М.А.Холодная. - СПб.: Изд-во Питер, 2002 - 272с.



Nurmuhammad QARSHIYEV,  
O'zMU "Siyosatshunoslik" kafedrasi dotsenti v.b  
E-mail:nurmuxammad.qarshiev@mail.ru

S.f.d., professor V.Qo'chqorov taqrizi asosida

## THE GENERALITY AND SPECIFIC FEATURES OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF POLITICAL PARTY IDEOLOGIES IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES

### Annotation

For the emergence and development of statehood in different regions of the world, the mega-regions, which are convenient for the organization of other such integrated structures, are of particular importance. The Central Asian region has also been distinguished by the complexities of the construction of various states and societies since ancient times. The emergence and development of parties as an institution that forms the state and society management in the world political arena created them in the political life of this region and increased their importance. In any society, the diversity of thoughts and ideas creates ideological pluralism, which causes the emergence of many parties that promote them and represent different interests. Researching the generality and uniqueness of the formation and development of the ideologies of the political parties of the regional states is gaining urgent importance today.

**Key words:** Political party, Central Asia, region, state, ideology, party ideology, political system, civil society, democracy, integration, electorate.

## ОБЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ИДЕОЛОГИЙ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

### Аннотация

Для возникновения и развития государственности в различных регионах мира особое значение имеют мегарегионы, удобные для организации других подобных интегрированных структур. Центральноазиатский регион издревле отличался и своими сложностями построения различных государств и обществ. Появление и развитие партий как института, формирующего управление государством и обществом на мировой политической арене, создали их в политической жизни этого региона и повысило их значение. В любом обществе разнообразие мыслей и идей порождает идеологический плюрализм, что вызывает появление множества партий, их продвигающих и представляющих разные интересы. Исследование общности и своеобразия формирования и развития идеологий политических партий государства региона приобретает сегодня актуальную важность.

**Ключевые слова:** Политическая партия, Центральная Азия, регион, государство, идеология, партийная идеология, политическая система, гражданское общество, демократия, интеграция, избирательный округ.

## MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA SIYOSIY PARTIYALAR MAFKURALARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING UMUMIYILIGI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

### Annотасиа

Dunyoning turli mintaqalarida davlatchilikning vujudga kelishi va rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa shunday integratsion tuzulmalarni tashkil etish uchun qulay bo'lgan dini, tili, kelib chiqish tarixi bir-biriga yaqin millatlar yashovchi megahududlar alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osyo mintaqasi ham qadimdan turli davlat va jamiyat qurilishining o'ziga xos murakkabliklari bilan ajralib turadi. Jahon siyosiy maydonida davlat va jamiyat boshqaruvini shakllantiruvchi institut sifatida partiyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, mazkur mintaqaga siyosiy hayotida ham ularni vujudga keltirib, ahamiyatini oshirib bormoqda. Har qanday jamiyatda fikrlar, g'oyalar xilma-xilligi mafkuraviy pluralizmni keltirib chiqarishi asnosida ularni ilgari suruvchi, turli manfaatlarni ifodalovchi ko'plab partiyalarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Mintaqada davlatlari siyosiy partiyalari mafkuralari shakllanishi va rivojlanishining umumiyligi hamda o'ziga xosligini tadqiq etish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

**Kalit so'zlar:** Siyosiy partiya, Markaziy Osyo, mintaqqa, davlat, mafkura, partiya mafkurasi, siyosiy tuzum, fuqarolik jamiyat, demokratiya, integratsiya, elektorat.

Markaziy Osyo mintaqasi davlatlarida siyosiy partiyalarni tadqiq etish 1990 – yillarning boshlarida bir partiayivi tizim barham topib, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotida liberallasshuning kirib kelishi asnosida siyosiy partiyalarni paydo bo'la boshlaganligi bilan bog'liq. Umuman siyosiy partiya jamiyatning kuchli siyosiy instituti bo'lib, murakkab tuzilish va xususiyatlarga egadir, shuning uchun uni doimiy tadqiq etib borish talab etiladi. Mintaqada davlatlari siyosiy partiyalari mafkuralarining shakllanishi va rivojlanishi uning umumiyligi hamda o'ziga xosligi to'g'risida gap ketganda, albatta ularda yashovchi aholining mentaliteti, tili, dini, qadriyatlar, tarixidan shug'ullanib kelgan faoliyat turi kabi omillarni tahlil qilish lozim. Shuni ham alohida ta'kidlashimiz lozimki, aholining siyosiy madaniyati, unga ta'sir qilgan omillar, mustamlakachilik davrida singdirilgan g'oyalar ham e'tiborimizdan chetda qolmasligi lozim. Ta'kidlab o'tishimiz kerak, sobiq ittifoq partiayivi tizimi mintaqada davlatlari siyosiy hayotida muhim iz qoldirgan, ayrim hollarda

bugungi kunda ham uning ta'siri sezilmoqda. Markaziy Osyo mintaqasi davlatlari siyosiy partiyalari mafkuralarini shakllanishining umumiyligi xususiyatlaridan bira sifatida ularga sobiq ittifoq partiayivi tizimining mafkuraga yondashuv omili ta'sir ostida kechganligini keltirib o'tishimiz mumkin. Ayrim hollarda mintaqada davlatlarining ba'zilarida yuqorida keltirilgan omil vaqt o'tishiga qaramasdan hozirgi kunda ham o'z ta'sirini saqlab qolmoqda.

Markaziy Osyo mintaqasida joylashgan davlatlar ichida O'zbekistonda mavjud siyosiy partiylar, partiayivi tizim mustaqillikning dastlabki yillarda nisbatan tezroq rivojlandi, demokratlashdi deb ayta olamiz. Bu o'z-o'zidan siyosiy ong, siyosiy madaniyatni rivoji bilan bog'liq jarayonlar hisoblanib, mamlakatimiz boshqaruv tizimini isloh qilish zaruratini erta anglanganligi bilan bog'liqdir. So'nggi yillarda ham O'zbekistonda siyosiy partiylar faoliyatini yangi bosqichga ko'tarishga, partiayivi tizimda modernizatsion transformatsiya

jarayonlarini tezlashtirishga, siyosiy partiyalar mafkuralarini, elektoratni o'z ortidan ergashtira oluvchi yetakchi kuchga aylantirish borasida ko'plab islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, O'zbekiston mintaqasi davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik tamoyili asosida taraqqiyotga birligida erishishni maqsad qilgan. Bunga misol sifatida president Shavkat Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida "Yangi O'zbekiston orzusi va uning asosida ishlab chiqilgan strategiyada Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz, butun jahon hamjamiyati, uzoq va yaqindagi davlatlar bilan o'zaro manfaatlari hamkorlik, tobora globallashib borayotgan bugungi dunyodagi muammolarni birligida hal qilish, eng rivojlangan mamlakatlar safiga kirishdek amaliy sa'y -harakatlar mujassam"[1] deb ta'kidlab o'tilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Siyosiy partiyalar va partiyaviy tizimlarga doir muammolarni dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari, institutlari tomonidan bugungi kunda yangicha yondashuvlar miqyosida o'rganilib kelinmoqda. Ushbu mavzu siyosatshunos olimlar tomonidan qanchalik chiqur o'rganilgani sayin ularga xos yangi xususiyatlar shunchalik ochilib boraverган. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarda siyosiy partiyalar va ularning mafkuraviy sohadagi faoliyatini nisbatan yangi, kam o'rganilgan yo'nalishlardan hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning aksariyati mintaqasi davlatlarining mustaqillikni qo'lga kiritgandan kiyungi davriga to'g'ri keladi.

Umuman ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan siyosatshunos olimlarni shartli ravishda uch guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchi guruha siyosiy partiya va partiyaviy tizimlarni tadqiq qilishda yetakchi hisoblangan g'arb olimlari, ularga M.Dyuverje, M.Veber, J.Sartori, T.Parsons, T.Gobss, K.Janda, J.Brays, Devid Yum, K.Noyman kabilarni, ikkinchi guruha rus olimlaridan M.Ostrogorskiy, B.Isayev, S.Lansov, V.Malsev, I.Melishken kabilarni, uchinchi guruha o'zbek olimlariga Q.Nazarov, M.Qirg'izboyev, Sh.Paxrutdinov, N.Jo'rarev, I.Ergashev, V.Qo'chqorov, X.Odilqoriyev, B.Yakubov, U.Tilarov, X.Axmedov, U.Bo'tayev kabilarni kiritishimiz mumkin.

Umuman siyosiy mafkura, siyosiy partiya mafkurasi tushunchalarini uning ma'lum bir mintaqada shakllanishini, xususiyatlarini tahlil qilishdan oldin mafkura tushunchasiga to'xtalsak. "Mafkura" atamasi birinchi marta 1796-yilda Fransuz faylasufi D. de Treysi tomonidan ishlataligan. Bu atama odamlar fikrlarining kelib chiqishini o'rganishi kerak bo'lgan yangi "g'oyalar fanini" anglatardi[7]. Mafkuraga dastlabki ta'rifni K.Mark bergan unga ko'ra: "Mafkura -hukmron sinf g'oyalar tizimi"[7]. Bugungi kunda mafkura siyosiy jihatdan jamiyatning muayyan qatlami manfaatlarini ifodalovich, rasmiylashtirilgan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimini shakllantirish, mustahkamlash, o'zgartirishga xizmat qiluvchi g'oyalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy fanlarda siyosiy mafkura siyosiy partiyalar va siyosiy harakatlarning dasturly tuzulmalarining asosini shakllantiradi.

O'zbek olimlaridan A.Tashanova ko'ra, mafkura faoliyatining uchta darajasi mavjud: Nazariy darajada siyosiy nazariyalar ishlab chiqiladi, davlat va boshqa siyosiy institutlar faoliyatining tamoyillari asoslanadi, ijtimoiy ideallar shakllantiriladi; Dasturiy – siyosiy darajada nazariyalar va mafkuraviy tamoyillar siyosiy partiyalar dasturlari, saylovoldi platformalari, siyosiy yetakchilarning bayonotlari, shiorlarida konkretlashtiriladi; Oddiy (xulq – atvor) darajada mafkuraviy nazariyalar, g'oyalar, ideallar odamlarning e'tiqodiga aylanadi[2].

Zamonaviy jamiyatlarni uning eng muhim elementi bo'lgan partiyalsiz tasavvur qilish mumkin emas. Ammo, XIX-asning o'rtalariga qadar siyosiy tizimlar siyosiy partiyalsiz ham mavjud bo'lgan hamda boshqarilgan. Ya'mi, siyosiy tizim o'tmishda siyosiy partiyalsiz mavjud bo'lgan va prinsipial jihatdan bugungi kunda ham ularsiz mavjud bo'lishi mumkin. Zamonaviy dunyoda siyosiy partiyasiz davlatlarga misol keltirish bir muncha mushkul ish, chunki barcha zamonaviy davlatlar, jumladan, diktatura ham o'zini ajralmas demokratik atributti sifatida siyosiy partiyalarni joriy qilish orqali o'zini demokratik

davlatlar sifatida ko'rsatishga intildi. Biroq, shuni ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, siyosiy partiya va mafkura tushunchalari parallel ravishda rivojlanib bugungi kunda o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro tashkil etuvchi xususiyatlar bilan bog'langan. Mafkura siyosiy partiya faoliyatining asosi, uning markazi siyosiy kuchi bo'lsa, mafkuraning yaratuvchi institutlardan biri sifatida zamonaliv fonda aynan siyosiy partiyalar qaralib kelingan. Siyosiy partiyalarning ham mafkura tashuvchisi sifatidagi funksiyasidan kelib chiqadigan bo'lsak, jamiyatda mafkuraviy bo'shliqlarning paydo bo'lishiga javobgar siyosiy institut ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mafkura muloqotni tuzadi hamda vaqt va makondagi manfaatlarni birlashtiradi.

Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. larga ko'ra, "Siyosiy partiya faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri – partiyalarning dasturini, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy strategiyasini ishlab chiqishdir. Bunda malakaviy mafkurashunos xodimlardan foydalaniildi.

Partiyalar o'z g'oyaviy funksiyalarini bajarishda bir tomonidan g'oyalar ishlab chiqishga, ikkinchi tomondan, bu g'oyalar tarafdarlarini odamlar orasida ko'payishiga harakat qiladi. Bunda ular umuman jamiyatni taraqqiy ettirishning modellarini jamoatchilik va davlat e'tiboriga havola etadir, garchi bu modellar aslida muayyan ijtimoiy birliklarning manfaatlарini himoya etadigan modellar bo'lsa ham[3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotimizda qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimli-tarkibiy, funksional, institutsional, ob'ektivlik hamda kompleks yondashuv metodologiyalaridan foydalaniildi.

**Tahlil va natijalar.** Markaziy Osiyo davlatlari partiyaviy tizim evolyusiyasini shartli ravishda uch bosqichga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Shu o'rinda partiyaviy tizim tushunchasiga Moris Dyuverjening quyidagi ta'rifini keltirsak: "Mamlakatda siyosiy partiyalarning birligida yashash shakllari va usullari uning partiyaviy tizimini belgilaydi"[6]. Demak, birinchi bosqich 1917-1924 yillarda mintaqaga davlatlari hududida mustamlakachilikka qarshi paydo bo'lgan siyosiy partiyalar mohiyatini beruvchi turli ijtimoiy-siyosiy harakatlarning vujudga kelishi ayrim adabiyotlarda siyosiy partiyalar deb keltiriladi. Tadqiqotimizning ilgarigi qismlarida to'xtalib o'tilganidek, bularga, "Turon", "Ittihodi taraqqiy", "Birlik", "Sharq ozodligi", "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar", "Miftaq ul-maorif", "Alash-O'rda" liberal-demokratik harakati kiyinchalik "Alash", "Ush juz" sotsialistik partiyasi, "Sho'roi-islomiya", "Sho'roi ulomo" tashkilotlarini kiritishimiz mumkin. Mazkur ijtimoiy-siyosiy harakat va tashkilotlarning maqsadi mustamlakachilikka qarshi millat ziyyolilarini oyoqqa turg'azish, milliy ozodlik harakatini yo'lga qo'yish, rivojlantirish bo'lgan. Mazkur ijtimoiy-siyosiy harakat va tashkilotlarning mafkuraviy umumiyligi aynan milliy ozodlik g'oyalarini millat ziyyolilarini orqali ilgari surish va unga erishish bo'lgan bo'lsa o'ziga xosligi ayrimlari ushbu mafkuralarni targ'ib qilishda adabiyot, san'at, she'riyat kabi xalqqa yaqin vositalardan foydalangan. Ularga xos umumiy xususiyatlar sifatida aksariyati institutsional tashkilot sifatida tashkil etilish darajasigacha yetib bormagan, ko'pchiligi asosan funksional tashkilot sifatida namoyon bo'lgan. Ya'ni, muayyan maqsadni, funksiyani, amalga oshirishga yo'naltirilgan, muayyan g'oyalar atrofiga jipslashgan guruh sifatida faoliyat olib borgan. Ushbu tashkilotlarning aksariyatida institutsional jahatdan shtab kvartiralar, ixtisoslashgan bo'limlari va ularga yuklatilgan alohida vazifalar majmui bo'lmagan. Yuqorida keltirib o'tgan ijtimoiy-siyosiy harakatlar, tashkilotlarning yana bir umumiy jihatli ularning faoliyatini juda qisqa muddat davom etganligidadir. Mintaqaga davlatlari hududlarida mustamlakachilikning kuchayishi, bolsheviklarning hokimiyatga kelishi natijasida qat'iy mafkuraviy nazoratning vujudga kelishi, mazkur tashkilotlar faoliyatini batamom tugatib bir partiyali kommunistik tizimning mustahkamlanishiga hamda uning mafkurasini davlat va partiya institutlari orqali keng yoyilishiga olib keldi.

Shunga qaramasdan nisbatan institutsionallashgan, o'zlarining mafkuraviy platformasini raqobat asosida qat'iy himoya qilgan tashkilotlar ham kuzatilgan. Masalan, M.Baypakovga ko'ra, "Mafkuraviy va partiyaviy plyuralizm

Qozog'istonda 1917-yil fevral inqilobidan keyin qisqa vaqt davomida mavjud bo'lib, "Alash" va "Ush juz" partiyalari siyosiy maydonda harakat qilgan, ularning mafkuraviy platformalari bir-biridan sezilarlar darajada farq qilgan, siyosiy tizim va bir-biri bilan raqobatlashgan holda erkin faoliyat yurita olgan[4].

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi kundagi Markaziy Osiyo davlatlarida ko'ppartiyaviylik siyosiy tizimini qurishda XX-asrning dastlabki yigirma yilligida ilk novdalari paydo bo'lgan plyuralizmning rivojlanish tajribasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinch bosqich, 1924-1989 yillarni o‘z ichiga olib, ushbu bosqichda hukm surgan sobiq sovet ittifoqining totalitarizmga asoslangan bir partiyali tizimi, mazkur davda mafkuraviy va siyosiy plyuralizm xususiyatlari amalda bo‘limgan. Markaziy Osiyo davlatlari bevosita ittifoq tarkibida bo‘lganliklari sababli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, madaniy, mafkuraviy hayot bir-biridan farq qilmagan.

Uchinchi bosqich, 1990-yilda to hozirgi kungacha bo'lgan davr. Bu davrda Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy partiyalari genezisiga asos solinib, ular tarixida ilk bor siyosiy partiyalarning erkin mafkuraviy faoliyati yo'lga qo'yildi. Mintaqalarda davlatlari totalitarizmga asoslangan birpartiyaviy tizim faoliyatiga barham berilib, demokrтия asosidagi ko'ppartiyaviylik tizimiga qadam qo'yildi. Shunday bo'lsa-da, mintaqalarda ko'ppartiyaviylik asosidagi partiyalar mafkuralari va uning institutsional tuzilmalari tubdan tez o'zgardi deb ayta olmaymiz.

Markaziy Osiyo davlatlarda faoliyat yurituvchi siyosiy partiyalarga xos umumiylik sifatida ularda mavjud a'zolik va uning qat'iy hisob-kitob ostida yuritilishidir. Siyosiy partiyaga a'zolik masalasiga turli mintaqalarda turlicha yondashuv mavjud. Masalan, AQSh da siyosiy partiyalarni saylov vaqtidagina qo'llab-quvvatlovchilarni sonini aniqlash mumkin. Saylovlardan tashqari holatlarda qaysi siyosiy partiyani qo'llashini aniq ayтиш mushkul. "Hattoki, yevropadagi liberal va konservativ yo'nalişdagi partiyalar o'z a'zolari sonini aniq aytga olmaydi. Ko'plab davlatlarda o'zini biron-bir partiyaning a'zosi deb hisoblaydigan fuqarolar mazkur mamlakat aholisining juda ozchilik qismini tashkil etadi[5]. To'g'ri, bunda siyosiy partiyalarning qaysi tipga mansubligiga ham bog'liq, aynan sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan MDH davlatlarida siyosiy partiyalarga rasmiy a'zolik mayjudligi bilan xususiyatlani, aksincha, AQShdagи demokratlar va respublikachilarda hamda yuqorida ko'rib o'tgan yevropa davlatlari siyosiy partiyalarning aksariyatida rasmiy a'zolik mavjud emas. Bundan kelib chiqadiki, mafkuraviy sodiqlik mintaqaga davlatlari siyosiy partiyalarning elektoratida anche mustahkam va bunga ko'proq sobiq ittifoq partiyaviy tizimidan qolgan meros sifatida qarashimiz mumkin. Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy partiyalar mafkurasi va saylovoldi dasturlari o'rtaida kuchli bog'liqlik borligini kuzatishimiz mumkin. Aksincha, yuqorida keltririb o'tilgan g'arb davlatlari siyosiy partiyalar mafkuralari va saylovoldi dasturlari o'rtaida bog'liklik bo'lса-da u egiluvchan xususiyatni ya'ni, agar saylov natijalari siyosiy partiya mafkurasining transformatsiyalashuviga bog'liq bo'lса, katta ehtimol bilan uni o'zgartirish mumkin. Siyosiy partiya mafkurasi to'g'risida gap ketganda uning siyosiy pozitsiyasiga ham alohida to'xtalib o'tishimiz kerak. Tadqiqotimiz Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy partiyalarning mafkuraviy shakllanishi va rivojlanishiga yo'naltirilganligi uchun uning bugungi zamонави ko'rinishini ya'ni, ko'ppartiyaviylik nuqtai nazaridan tahlil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Umumani siyosiy partiyalar dasturya-mafkuraviy jihatdan o'nglar, so'llar va markaz partiyalariga bo'linadi. Aksariyat siyosatshunos olimlar tomonidan bu siyosiy partiyaning

ADABIYOTLAR

- АДАВИЙТЕЛЯК**

  - Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: “О’zbekiston” нашриёти, 2021. 464-бет.
  - Bo’taev U.X. Siyosatshunoslik [Matn]: darslik / U.X. Bo’taev – Toshkent: Info Capital Books, 2024. 480-bet.
  - Odilqoriyev X.T. Siyosatshunoslik. Oliy ta’lim muassasalarini talabalari uchun darslik/ Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. – (To’ldirilgan va qayta ishlangan nashr). – Т.:O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2009. 352-bet.
  - Байпаков М. Государство и партийная система независимого Казахстана. Диссертация на соискание степени доктора философии (PhD). Республика Казахстан Алматы. 2023. -125 с.
  - Гаджиев К.С. Политическая наука. Учебное пособие. 2 – е изд. – Москва: Международ. Отношения, 1995. – С. 150 – 152.

siyosiy pozitsiyasi sifatida e'tirof etiladi. Hyech bir partiya u qaysi jamiyatda faoliyat yuritishidan, siyosiy tizim sharoitlaridan qat'iy nazar ma'lum siyosiy pozitsiyaga ega bo'ladi. Yanada tushunarliroq qilib aytadigan bo'lsak, siyosiy partiyalar o'ng, so'l, markaz yoki gibrid kabi siyosiy pozitsiyalar doirrasining birida joylashgan bo'ladi. Mazkuz doiraga nisbatan markazdan o'ngroq yoki markazdan chaproq kabi siyosiy pozitsiyalar ham kiradi. Shuningdek, siyosiy partiyalar gibrid pozitsiyasida ham bo'lishi mumkin. Masalan, siyosiy partiya iqtisodiy jihatdan o'ng, dasturiy qurilishi jihatidan so'l yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Ko'p partiyaviylik tizimida har bir partiya o'ziga xos g'oyaviy-siyosiy yoki mafkuraviy mavqye va yo'nalishga ega bo'ladi. Unga binoan ayrim partiyalar o'ta "so'l" yoki "o'ng" bo'lishi mumkin. Qolgan partiyalar esa "o'ng" va "so'l" partiyalar o'rtaсидаги оралық о'рнини егалиядылар[9].

Umuman olganda mazkur siyosiy pozitsiyalarning kelib chiqish tarixi Fransiyaga borib taqaladi. “1789-yilda Fransiyada “fransuz inqilobi” yuz bergach, “Milliy assambleya” (parlament)ga turli qarashdagи siyosiy kuchlar yig‘ila boshlaydi. Ularning orasida qirol tarafdarlari, aslzodalar, boylar, dindordalar, koservator va hokazolar “Qirolning o‘ng qo‘l tarafi”ga joylashadilar. Chunki, ba’zi yakkaxudolik dinlارida bo‘lgани kabi ular o‘ng tarafni “halol” (xudo va uning yerdagi soyasi qirol nazarida) ya so‘l, ya ni chap tarafni “xаром” shayton taraf deb hisoblaganlar. Natijada, so‘l tarafga qirolga muxolif bo‘lgan, ijtimoiy tenglik va adolat tarafdoi bo‘lgan, xalq orasidan chiqqan progressist kuchlar joylashganlar[10].

Yuqorigidagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarda mayjud siyosiy partiyalarni erkin faoliyat yuritishlari, ularning tom ma'nodagi fujarolik jamiyatining demokratik instituti sifatida shakllanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda mintaqaga davlatlari siyosiy hayotida tub o'zgarishlar amalga oshirilib, jamiyatlarni yanada demokratlashtirish yo'lida muhim qadamlar qo'yilmoqda. Ular mafkuralarini shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari mintaqaga davlatlarining har birida turlichadir. Masalan, Qиргизистонда siyosiy partiyalar sonining ko'pligi mafkuraviy yo'nalishning ta'sir doirasini torayishiga sabab bo'lса, huddi shuning aksini ya'nи, katta auditoriyaga mo'ljalangan mafkuralarni siyosiy partiyalari soni ko'p bo'lмаган давлатларга хослиги билан хусусиятлаш мумкин.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida shuni ayтиб о'тшимиз мумкін, Маркази Осиyo давлатлари siyosiy partiyalarining mafkuraviy shakllanishining umumiyligi ularning sobiq ittifoq tarkibida usoq muddat mustamlaka sifatida kommunistik partiya mafkurasи bilan sug'orilib kelinganligi, keyinchalik ko'ppartiyaviylik asosida vujudga kelgan yangi siyosiy partiylar faoliyatida ham ta'siri sezilib turishi bilan xususiyatlani. Mintaqa mamlakatlari aholisining tili, dini, mentaliteti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot tarzi bir-biriga yaqinligi, siyosiy partiyalarning mafkuraviy faoliyatining shakllanishida o'ziga xos rol o'yagan. Dastlab aholi qatlamlarida yangi siyosiy g'oya va mafkulalarga ehtiyojning vujudga kelishi, demokratiya hamda uning g'oyaviy mafkuraviy yo'nalişlariiga ishonchni oshishiga xizmat qilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Markazi Osiyo davlatlari siyosiy partiya mafkuralarining shakllanishiga oid ilmiy tadqiqot ishlaring salmog'ini oshirish;

Mintaqa davlatlarida mayjud siyosiy partiyalarning hamkorligini kuchaytirish va bunda ularning mafkuraviy

6. Дюверже М. Политические партии / пер. с фр. – М.: Академический Проект, 2000. –558 с.
7. Манхейм К. Идеология и утопия// Диагноз нашего времени. М., 1994.-256 с.
8. Ойзерман Т.И. Марксизм и утопизм. – М., 2003.-30 с.
9. Киргизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юрглари талабалари учун ўқув кўлланма / М.Қирғизбоев: Андижон давлат университети. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 524 б.
10. Ўнглар ва сўллар: сиёсий тарафлар каердан келиб чиккан?. [https://uz.telegram-store.com/catalog/channels/uchzamon/ 1660/](https://uz.telegram-store.com/catalog/channels/uchzamon/)



Dildora QOSIMOVA,

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsent v.b.

E-mail:dildorak76@mail.ru

AJOU universiteti o'qituvchisi, PhD Y.Babelbayeva taqrizi asosida

## STRATEGIES FOR CORRECTING STUDENTS' ERRORS IN WRITTEN SPEECH IN A FOREIGN LANGUAGE

### Annotation

The article discusses the theoretical and practical foundations of the phenomenon of errors in written speech, the criteria and types of errors in speech, and the errors that students make in written and oral speech due to interference.

**Key words:** error phenomenon, interference, written speech, written assessment, foreign language.

## СТРАТЕГИИ ИСПРАВЛЕНИЯ ОШИБОК СТУДЕНТОВ В ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ

### Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и практические основы явления ошибок в письменной речи, критерии и виды ошибок в речи, а также ошибки, которые студенты допускают в письменной и устной речи вследствие интерференции.

**Ключевые слова:** явление ошибки, интерференция, письменная речь, письменное оценивание, иностранный язык.

## TALABALARNING CHET TILDA YOZMA NUTQIDA UCHRAYDIGAN XATOLARNI TUZATISH STRATEGIYALARI

### Annotatsiya

Maqolada yozma nutqda uchreydigan xatolar fenomeni nazariy amaliy asosolari, nutqda xatoni anglashni mezonlari, turlari, interferensiya tufayli talabalar yozma va og'zali nutqda uchreydigan xatolar muxokama etilgan.

**Kalit so'zlar:** xatolar fenomeni, interferensiya, yozma nutq, yozma baho berish, chet til.


**Kirish.** Tilshunoslarning nutqdagi xatolar fenomeniga bo'lgan qiziqishlari XIX asrning ohirida paydo bo'ldi. O'sha davrda olimlar asosan nutqda va uni qabul qilishdagi xatolarni tasvirlab beruvchi materiallar yig'ish bilan ko'proq mashg'ul bo'lganlar. XX asrning birinchi yarmida xatoga nutq jarayonida uchraydigan tabiiy hodisa degan qrashlar yuzaga kela boshladi, xato qilish deganda til adabiy normasining ma'lum sabablarga ko'ra buzilishi nazarda tutiladi.

Respublikamizda oliyoghorda xorijiy tajribalar asosida ko'p tillilik muhitida tillarni o'rganish, talabalarning interferentiv qobiliyatini rivojlantirish, o'quv mazmunini xalqaro ta'lim standartlari asosida takomillashtirish, ta'lim muassasalarining moddigi texniki bazasi kengaytirishning me'yoriy asoslarini yaratildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatlari ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaliviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash" [1] ustuvor vazifa etib belgilangan. Natijada ko'p tillilik muhitida talabalarning interferentiv ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Keyingi izlanishlarda olimlar o'z oldilariga chet tilda nutqda xatolar kelib chiqishi va ularni bartaraf qilish mehanizmlarini o'rganish vazifasini qo'ydi. O'z o'zidan chet til o'qitishda an'anaviy ta'limda xatoga "chet tilda to'g'ri dasturlangan fikri bayon qilishda til vositalarini noto'g'ri tanlash oqibati" deb qaralgan [2].

Biroq N.Kondakova o'zining dissertatsiya ishida aytilib o'tganidek XX asrning ohirigacha "xato" ga "norma"ning

Z.M.Tsvetkova xatolarni quyidagi turlarga ajratadi[5] (1-rasm):



1-rasm. Xatolar turlari.

Ilmiy adabiyotlarda an'anaviy ravishda xatolarni til interferensiysi tufayli kelib chiqadigan bir guruh xatolar keltiriladi.I.V.Gradova ta'kidlashicha ona tili va o'rganilayotgan chet til tizimida o'hshashliklar qancha kam bo'lsa interferensiyaning kelib chiqish ehtimoli shuncha ko'p bo'ladi. Shu interferensiya sababidan talabalarning chet tildagi nutqida xatolar kelb chiqaveradi [6]. Ter-Minasova fikricha til interferensiysi talabalarda chet tilda turg'un birikmalarini ishlatalishda alohida qiyinchiliklar tug'diradi: "Ona tilidagi odatiy so'z birikmalarini

chet tilga o'girish talabalar uchun yengib o'tilishi qiyin bo'lgan to'siqlardan bividir, shu so'z birikmlarni notog'ri talqin qilish orqali talaba chet tilda mavjud bo'limgan so'z birikmalarini yaratib olishi mumkin [7].

T.E.Kles tillararo interferensiya tufayli kelib chiqadigan xatolarni jiddiy deb hisoblaydi, chunki ular fikr qilish darajasida bo'ladi. Til ichki interferensiysi sababli yuzaga keladigan xatolarni yengil xatolar deb hisoblaydi, chunki ular fikrni ifoda qilayotgan paytning o'zida paydo bo'ladi[8].

Tarqalish doirasiga ko'ra O.G.Polyakov 1) fonetik,2) grammatik,3) leksik va 4) stilistik xatolarga ajratadi. Bundan tashqari til birliklari darajasidagi xatolar 1) uning shaklida, 2) uning ma'nosida ,3) uning qo'llanilishida, 4) uning to'g'ri yozilishida kelib chiqishi mumkin [9]. Fikrimizcha, xatolar yana lingvistik mezonlarga ko'ra ham kelib chiqishi mumkin, ularga 1) orgografik xatolar ,va 2) morfologik hamda sintaktik xatolar kiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shunday qilib biz xatolar tushunchasi mohiyatini , talabalarning chet tilda yozma nutqida uchraydigan xatolar tasnifining turli hil yondashuvlarini ko'zdan kechirdik. Endi esa talabalarning chet tilda yozma nutqida uchraydigan xatolarni tuzatish strategiyalarini ko'rib chiqamiz.

Talabalarning chet tilda yozma nutqida uchraydigan xatolarni to'g'rila hsga qaratilgan yozma baho berish (feedback) haqida batafsil to'htab o'tamiz. R.Ellis xatolarni ko'rsatib berish hamda ularni to'g'rila baho berishning quyidagi strategiyalarini tavsiya qiladi :

- bevosita yozma baho berish ( direct feedback)
- bilvosita yozma baho berish ( indirect feedback)
- metalingvistik yozma baho berish ( metalinguistic feedback)
- diqqat qaratilgan yozma baho berish ( focused feedback )
- diqqat qaratilmagan yozma baho berish ( unfocused feedback)
- elektron yozma baho berish ( electronic feedback)
- qayta shakllantirish ( reformulation).

Yozma baho berish (feedback) –talabalar yozuvidagi xatolarni to'g'rila pedagog tomonidan til birliklарini ishlatalishda qilgan xatoning to'g'ri bo'lgan variantini ko'rsatish hisoblanadi. Bu quyidagi yo'llar bilan bajarilishi mumkin:

- keraksiz bo'lgan so'z, so'z birikmasi yoki morfemani o'chirib tashlash orqali:
- yetishmagan so'z, so'z birikmasi va morfemani qo'yish orqali
- noto'g'ri matnni yoniga yoki tepasiga to'g'risini yozish orqali.

### a a the was

A dog stole | bone from |butcher.He escaped with having |bone.When he|

### a saw the

going through |bridge over the river he found | dog in the river.

J.Lambertning ta'kidlashicha bunday tog'rilovchi yozma baho berishning asosiy afzalligi shundaki ,talabaga matnga uni yaxshilash uchun qanday o'zgartirishlar kiritish muhimligi aniq va ravshan ko'rinish turadi [10]. D.Ferris va B.Roberts qat'iy ishonch bilan shuni aytishadiki,yozma baho berishning bunday turi chettil organizhning ilk bosqichlarida turgan talabalar uchun mos keladi [11]. I.Shin izlanishlari natijalariga ko'ra baho berishning ushbu

turi Grammatik ko'nikmalrni shakllanitishda juda qo'l keladi ,aniqroq qilib aytganda, artikllarni ishlatalishda [12] muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta bevosita to'g'rila baho berishning o'ziga hos kamchiliklari ham yo'q emas. R.Ellisning fikricha ushbu baholash usulidan tabadan faol tafakkur qilishni talab qilmaydi – xatolarni to'g'rila shda o'qituvchi hamma ishni matnni tayyor to'g'rila baho qo'yish orqali o'zi bajardi [13]. Bevosita to'g'rila baho berishdan farqli o'laroq bilvosita baholash usulida faqatgina xato qilinganlik ko'rsatib o'tiladi holos, u o'qituvchi tomonidan to'g'rila rilanmaydi. Pedagog bu bilan xatoning aniq joyini ko'rsatib o'tish kerak yoki kerak emasligi haqida o'zi qaror qabul qiladi, masalan noto'g'ri tanlangan so'z yoki so'z turkumining tagiga chizish bilan, yoki xatoga yo'l qo'yilgan qatorni o'zinigina ko'rsatib qo'yish orqali topshiriqni yana ham murakkablashtirish mumkin. Shunday qilib, baholashning ushbu turining afzalliklaridan biri qilib J.Lalande shuni aytadiki, ushbu usul til o'rganishda juda muhim sanalgan faollik va onglilik kabi umumdidaktik prinsiplarga to'la javob bera oladi.

A dog stole X bone from X butcher.He escaped with Xhaving Xbone.When the

dog was going X through XX bridge over X river he found X dog in the river.

X- missing word

X-X - wrong word

Shuni aytib o'tish joizki ,bilvosita baholash usuli qo'llanilganda talaba qaerda xato qilganini va uni qanday qilib tuzatish mumkinligini bilmasligi ham mumkin.Ushbu baholash usulini qo'llashdan oldin pedagog talabaning o'z xatosini to'g'rila olishi uchun yetarli bilimlari va manbaalari bor ekanligiga ishonch hosil qilgan bo'lishi zarur.Bundan tashqari, talabaga o'z xatosini aniqlash ,uning turini toppish va uni mustaqil ravishda to'g'rila imkonи berilgan paytda pedagog kelgusida bu ishni qayta ko'rib chiqishi va talaba o'z oldiga qo'yilgan topshiriqni uddalaganiga ishonch hosil qilishi zarurligini yodda tutishi lozim bo'ladi.

Xatolarni belgilashning mahsus belgilari odatda qisqartmalar yoki abbreviaturlari ko'rinishida bo'ladi, ular dafttar chetlari yoki matn ustiga qo'yiladi. Metalingvistik baho berishning ushbu usuli bevosita hamda bilvosita shaklga kira olishi mumkin- pedagog bunda xatoni o'zi to'g'rila baho qo'yishi yoki xatoni shunchaki ko'rsatib qo'yishi mumkin.

### 1-jadval. Xatolar turini ko'rsatishda mahsus belgilardan foydalanish

#### Art WW art

A dog stole bone from butcher.He escaped with having bone.When the

#### The the

dog was going through bridge over river he found dog in the river.

Art.x3,WW A dog stole bone from butcher.He escaped with having bone.

Prep. art. When the dog was going through bridge over river he

Art found dog in the river

Xatolarni ko'rsatishda belgilardan foydalanishning samaradorligini o'rganish maqsadida olib borilgan izlanishlarda J.Hattie til o'rganayotgan talabalar guruhida tajriba o'tkazildi, va shunday hulosaga keldiki xatolarni bevosita to'g'rila usulidan farqli o'laroq ularni belgilar yordamida ko'rsatib o'tish ayman o'sha yozma topshiriq qaytadan yozilganda xatolarning ancha kamayishiga olib kelgan [14]. Boshqa izlanishlarda ham xatolar turlarini belgilardan foydalangan holda ko'rsatib berish chet til o'rganayotgan talabalarning yozma savodhonligini oshirishda ijobji natijalar ko'rsatadi.

Ba'zi horijiy olimlar ta'kidlashicha barcha turdag'i xatolarni to'g'rila shda (ayniqsa agar ular ko'p bo'lmasa) talabalarning hafa qilishi yoki demotivatsiya qilishi mumkin. Ular pedagoglarga yozma ishdagi xatolarni tanlab to'g'rila shni va talabalarning ayni vaqtida dolzarb bo'lgan xatolarga diqqatini qaratishni tavsiya qilishadi. R.Ellis va I.Shin ikki hil tajriba guruhlarda izlanish olib

bordi, talabalarning birinchi guruhi to‘g‘rilovchi baholash va artikllarni qo‘llshdagi xatolarga qaratilgan baholash usuli qo‘llanildi , ikkinchi guruhg‘ esa hech qanday to‘g‘rilovchi baholash usuli qo‘llanilmadi. Olimlar shunday hulosaga keldilarki ikkala guruh talabalarining yozma savodhonligi baravar ko‘tarildi va diqqat qaratilgan hamda diqqat qaratilmagan baholash usullari baravar ravishda samarali bo‘lib chiqdi [13].

**Tahlil va natijalar.** Shunday bo‘lsada hamma olimlar ham diqqat qaratilgan baholash usulini to‘laqonli foyda beradi deb aytmaydilar. Xatolarni aniqlash va baho berishing bunday usulidan foydalanilganda talabalar ba‘zi bir xatolarga ko‘z yumib ketsa bo‘laveradi degan hulosaga kelib qolib, o‘zining noto‘g‘ri varianatini to‘g‘ri ekan deb qabul qilib olishi mumkin. Bunday holatlarda eng to‘g‘ri yo‘l xatolarni jiddiy va uncha jiddiy bo‘lmagan tularga bo‘lib olish, hamda talabalarga ularn qanday qilib to‘g‘rilash mumkinlig tushintirib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Qayta shakllantirish (reformulation) – to‘g‘rilovchi baholashning navbatdagi turi hisoblanadi, bunda pedagog matnning bir bo‘lagi yoki so‘z birikmasini to‘grilangan variantini qayta yozib chiqadi.

Hozirgi paytda chet tilga o‘rgatishni optimizasiya qilish uchun turli hildagi kompyuter va mobil texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. *Mark My Words* talabalarning yozma savodhonligini tekshirishning avtomatlashgan holda tekshirishni amalga oshiruvchi ilk kompyuter dasturlaridan biridir. Ushbu kompyuter dasturim o‘zida 100 ga yaqin ingliz tilini chet til siatida o‘rganayotgan hitoy talabalarida tez uchraydigan leksik – grammatick xatolarni jamlagan “ombor” hisoblanadi. Bundan tashqari mazkur tizim tayyor metalingvistik izohlardan

foydalanish imkonini yaratib beradi, va so‘zsiz pedagog vaqtini tejaydi va ishimi yengillashtiradi.

Shuni aytilib o‘tish muhumki, pedagog talabalar ishlarini baholashning elektron tizimidan foydalanish va yozma baho berish orqali o‘zidan yozma ishlarini to‘gri ekanini biluvchi yagona manbaa - “arbitr” rolini olib tashlaydi [13]. Bu esa o‘z o‘zidan baholash jarayonining ishonchliligini va obyektivligini oshiradi. Bugungi kunda ko‘pgina chet tilni baholovchi halqaro imtihonlarni tashkillashtiruvchilar yozma ishlarini tekshirishda maksimal darajada avtomatlashgan tizimdan foydalanishi bejiz emas(masalan TOEFL imtihoni,Pearson kompaniyasi testlari).

**Xulosa va takliflar.** Biroq shuni ham esda tutishimiz lozimki,talabalar yozma ishlarini avtomatlashgan tekshiruvini amalga oshiradigan tehnologiyalar va uskunalar odatda tekin bo‘lmaydi va hamma pedagogni ham uni olish imkonibor emas.Bundan ko‘rinadiki yozma ishlarini qo‘l bilan tekshirish va baholash va yozma izoh berish pedagogning zarur bo‘lgan mahoratlaridan biridir va bu mahorat pedagog tayyorlovchi kasbiy programmalar doirasida rivojlantirib boriladi.

Shunday qilib pedagogik yozma baho berish biz tomonimizdan pedagogik muloqotning baholash, o‘rgatish, to‘g‘rilash, boshqarish, stimul berish va ta‘lim berish vazifalarini bajaruvchi zarur komponenti sifatida qaraladi. Yozma pedagogik baho berishga talabalarni chet tilda yozma ishlarini tekshirish natijasida biz tomonimizdan pedagogning chet tildagi yozma nutqining kasbga yo‘naltirilgan janri sifarida qaraladi va ushbu dissertasiya ishi pedagogning kasbiy – kommunikativ malakalarini rivojlantrishning o‘ziga hos modelini ishlab chiqishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan.

#### ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantrish bo‘yicha Harakatlар Strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – №6 (766) -70-modda. – Т.: Adolat, 2017. – В. 38.
2. Бурденок, Г.М., Григорьевский, В.М. Языковая интерференция и методы ее выявления. - Штиинца, 1978.
3. Кондакова, Н.Н. Методика предупреждения ошибок в иноязычной пись- менной речи (английский язык, языковой вуз) : дисс. ... канд. пед. наук : 13.00.02 / Кондакова Наталья Николаевна. - Тамбов, 2006. — 184 с.
4. Чойбонова, Б.М. Языковые ошибки в речи обучающихся на начальном этапе интенсивного обучения английскому языку :Метод активизации лич- ности и коллектива : дисс. ... канд. пед. наук : 13.00.02 / Чойбонова Бэла Матвеевна. — Москва, 2004. — 261 с.
5. Цветкова, З.М. Советская методика преподавания иностранных языков.
6. Материалы IV-го Международного методического семинара преподавателей русского языка стран социализма. — М.: МГУ, 1964.
7. Градова, И.В. Норма, мультиформа и подготовка разнопрофильных специалистов / И.В. Градова // Язык и карьера. Мат-лы науч.-практ. конференции 28-29 марта 2002 года / Отв. ред. И.В. Градова. — Архангельск: Поморский госун-т, 2002. — С. 35-36.
8. Тер-Минасова, С.Г. Словосочетание в научно-лингвистическом идидактическом аспектах. Учебное пособие / С.Г. Тер-Минасова. — М.: Высшая школа, 1981. — 144 с.
9. Клец, Т.Е. Обратная связь как средство диагностики педагогических результатов иноязычного интерактивного общения // Труды Псковского по-литехнического института. — 2011. — №15. — Том 1. — С. 82-87.
10. Поляков, О.Г., Ильина, О.К., Петрова, А.А. Компетентностная модель обу- чения иностранному языку профессии на этапе магистратуры (на примере курса английского языка для журналистов) // Филологические науки. Во- прос теории и практики. Тамбов: Грамота. — 2019. — №Т.12 — Вып. 5. — С. 403-408.
11. Lambert, J. Written Corrective Feedback. Effective for Students, Timesaving for Teachers// Cambridge University Press ELT [Youtube]. URL: <https://www.youtube.com/watch?v=AZz3Td-Hc4k&t=1551s> (дата обращения: 13. 27.11.2020).
12. www.youtube.com/watch?v=AZz3Td-Hc4k&t=1551s (дата обращения: 13. 27.11.2020).
13. Ferris D., Roberts B. Error feedback in L2 writing classes: How explicit does it need to be?//D.Ferris, B.Roberts //Journal of second language writing. — 2001. — Т. 10. — №. 3. — С. 161-184.
14. Sheen, Y. The effect of focused written corrective feedback and language aptitude on ESL learners' acquisition of articles/Y. Sheen //Tesol Quarterly. — 2007. — Т. 41. — №. 2. — С. 255-283.
15. Ellis R. A typology of written corrective feedback types //ELT journal. — 2008. — Т. 63. — №. 2. — С. 97-107.
16. Hattie, J., Timperley, H. The power of feedback //Review of educational research. — 2007. — Т. 77. — №. 1. — С. 81-112.



Baxtigul MAVLONOVA,  
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida

## OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati, oliy ta'lismuassasalari talabalarida boshqaruv kompetensiylarini takomillashtirish, oliy ta'lismuassasalari talabalarida boshqaruv kompetensiylarini rivojlanishiga tayyorgarlik omillari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kompetentlik, kasbiy kompetentlik, boshqaruv kompetensiysi, shaxsiy tajriba, texnologiya, amaliy faoliyat, rivojlanish.

### ТЕХНОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

Аннотация

В данной статье раскрыта сущность понятия компетентности, совершенствованиеправленческих компетенций у студентов высших учебных заведений, факторы подготовки к развитию управляемых компетенций у студентов высших учебных заведений.

**Ключевые слова:** Компетентность, профессиональная компетентность, управляемая компетентность, личный опыт, технология, практическая деятельность, развитие.

### TECHNOLOGY FOR IMPROVING MANAGEMENT COMPETENCES IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

This article describes the essence of the concept of competence, the improvement of management competences among students of higher education institutions, the preparation factors for the development of management competences among students of higher education institutions.

**Key words:** Competence, professional competence, managerial competence, personal experience, technology, practical activity, development.

**Kirish.** Yuksak kelajak yaratish va jahon hamjamiyatidan munosib o'r'in egallashga shaxdam qadamlar bilan intilayotgan davlatimiz uchun yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash muhim va dolzarb masalalalardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lismuassasalari tahlil olayotgan talabalarning boshqaruv kompetensiylarini shakllantirish kutilgan natijalarga erishishga xizmat qiladi. Hozirgi pedagogik ta'limdagi vaziyatning murakkabligi, ijtimoiy tartib, me'yorlar, qoidalari, qadriyatlarining o'zgarishi, zamонавии islohotlar oliy ta'lismuassasalari talabalarida o'zini o'zi boshqarishda biroz muommollarga sabab bo'ladi. Pedagogik ta'lismizidagi boshqaruv mahorati talabalarning kelajakdagisi kasbiy rivojlanishida duch keladigan muammolarni hal etishda katta rol o'yndaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta'linda menejment sohasida professional kadrlarni shakllantirish muammosi kundan kunga dolzarb bo'lib bormoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Yoshlarimiz mustaqil fikrلaydigan, yuksak intellektualva ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", degan fikrlari ham yangi O'zbekistoni yoshlarini erkin fikrلashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e'tibordan holi emas. Shunday ekan biz o'qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni zamонавии yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagi yusaks vazifalardan biridir.

Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li - oliy ta'linda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv talabandan bilim va ko'nikmalarini alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash ta'lum jarayonida

qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillash-tirishni talab etadi[6].

Hozirgi kunda tashqi ta'sirlar dinamikasining kuchayishi, texnologik yutuqlarning uzuksiz rivojlanishi, ilg'or pedagogik yondashuvlarning murakkab ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarga integratsiyalashuvi ta'lum boshqaruvchilarining o'sishini taqozo etmoqda. Ta'kidlash joizki, so'nggi paytlarda "boshqaruv kompetensiylarini takomillash-tirish" tobora ommalashib bormoqda va bu mutaxassislik bo'yicha yetarli professional kadrlarning yetishmasligi ham dolzarbdir. Talabalarda boshqaruv ko'nikmalarini shakllantiradigan o'quv natijalarining yo'qligi ularning kelajakdagisi rivojlanishi va bu ko'nikmalardan foydalanshida noaniqlikni keltirib chiqaradi. Boshqaruv kompetensiylarini har qanday xodim o'zi ishlaydigan tashkilotda aniq vazifalarni bajarishi kerak bo'lgan maxsus qobiliyatlar bilan belgilanishi mumkin. Bunday hal qiluvchi masalani ta'lum-tarbiya kun tartibiga qo'yish pedagogik jarayonda talabalarning dunyoqarashi, bilimi, fikrلash tarzini o'zgartirishni taqozo etadi. Jamiyat ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash yoki institutsional muhitni o'zgartirishda yoshlarning zamонавии yondashuv va faoliyatlar doirasida o'z iste'dodli va uzoqni ko'ra bilish qobiliyatini namoyon etishi dolzarb ahamiyatga ega.

Talabalarning innovatsiya faoliyati ularga yangilik yaratish, mustaqil ishlarni tashkil etish, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlanishiga va kelajakdagisi global muammollarga javob berish imkoniyatini beradi, boshqaruv kompetensiylarini takomillash-tirishga olib keladi.

**Adabiyotlar tahlili.** So'nggi o'n yilliklarda kompetentlik va kompetensiylarini shakllantirishga e'tiborning kuchayishi nafaqat bilim va ko'nikmalarga, balki shaxsiy fazilatlarga ega bo'lgan talabalarning kuchayishi natijasidir, bu esa kompetensiyaiga asoslangan yondashuvni shaxsning bilimi tavsiyflash uchun konsepsiya va tizimli tushunchaning o'ziga xos turi sifatida ustuvorligini ta'kidlaydi [1].

Ta'limga "boshqarish" tushunchasi bugungi kunda "pedagogik menejment" tushunchasi bilan bog'liq. Inglizcha "management", "manager" - "leader" sifatida qabul qilinadi. M.X.Meskon, M.Albert, F.Xedouri va S.Moinat menejment kontsepsiyanining hozirgi tahlilini batasil tushuntirib beradilar va ta'limni boshqarish kelajakda mehnat, aql-zakovat, xulq-atvor motivlарidan foydalangan holda muayyan maqsadga erishish qobiliyati ekanligini ta'kidlaydilar. Talabalarda boshqaruv kompetensiyanini shakllantirishning kompleks yutug'i sifatida ta'limning yangi mazmuni va texnologiyasiga boshqaruv nazariyasi va fanlararo integratsiyani joriy etish ushu maqsadning asosiy mazmuni hisoblanadi.

G.Mirolyubova o'zining "Menejerlar madaniy kompetensiyanining rivojlanishi" deb nomlangan o'quv qo'llanmasida boshqaruvchining tayanch kompetensiyalari xususida zamonaviy, ilmiy jihatdan asoslangan qator fikr-mulohazalarini ta'kidlab o'tadi[4]. Shu bois ham, da'vogarning lavozimga loyiqlik mezonzlari xususida gap ketganda, mutaxassislar oldida boshqaruvchi shaxsiga xos quyidagi tayanch kompetensiyalarni aniqlash yoki o'rghanish masalasi ko'ndalang turadi:

1. Professional kompetensiya- bu o'zi boshqarayotgan soha faoliyatini mukammal darajada yo'lga quyish uchun tashkilot missiyasini aniqlashtirishga xizmat qiluvchi mavjud ma'lumot, bilim hamda malakalarga ega bo'lish.

2.Uslubiy kompetensiya- bu rahbarning bilgan narsalari, shaxsiy malaka va ko'nikmalari, turli loyihiyor xususidagi ma'lumotlar hamda topshiriqlarni tez, to'g'ri va tushunarli tarzda xodimlarga yetkaza olish qobiliyati.

3.Ijtimoiy-psixologik kompetensiya - bu shaxsnинг ijtimoiy-psixologik hodisalar hamda muomala qonuniyatlar, o'zgalarni bilish, to'g'ri idrok qilish, dilidagini anglash va shu asosda o'zaro hamkorlikni tashkil qilish borasidagi savodxonligidir.

"Amaliy ijtimoiy psixologiya" kitobining mualliflari ijtimoiy-psixologik kompetensiyaning 3 ta asosiy tarkibiy qismilarini ajratib ko'rsatishadi:

- a)kommunikativ kompetensiya;
- b)perseptiv kompetensiya;
- c)interaktiv kompetensiya.

B.I.Kanayev har bir kompetensiyanı har qanday ta'lim jarayoni mazmunining asoslarini tavsiflovchi elementar tarkibi nuqtai nazardan ko'rib chiqishni taklif qiladi: jamiyat tomonidan olingan bilimlar, faoliyatning ma'lum usullari, imkoniyatlar, ushu kompetensiya doirasidagi ijodkorlik, dunyo bilan bir xil chegaralardagi munosabatlari tajribasi nuqtai nazardan [2] K.A.Bajenova Yu.V.Krichevskiy, L.V.Lvov, O.V.Perevozova va A.I.Tayurskiylarning[3] fikricha, tashkiliy va boshqaruv kompetensiyalari tashkiliy-boshqaruv qobiliyatlarini bilan shakllanadi.

Shunday qilib, tashkiliy-boshqaruv kompetensiysi - o'z-o'zini tashkil etish jarayonida namoyon bo'ladigan, tashkiliy, boshqaruv bilimlari va ko'nikmalari, qadriyat yo'nalishlari asosida tashkil etish va boshqarishda kasbiy vazifalarni bajarish istagi va qobiliyatini aks ettiruvchi ajralmas shaxsiy xususiyatdir.

**Natijalar va muhokama.** Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda boshqaruv kompetensiyanini takomillashtirish texnologiyasi sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin.

-talabalarning o'quv jarayonida o'zini o'zi boshqarishning universitet tajribasini tashkil etish va talabalarning tipik xatolarini aniqlash;

#### ADABIYOTLAR

1. Смородинова, М.В. Формирование предметных компетенций учащихся основного общего образования. дис... канд. пед, наук 13.00.01/ Смородинова Мария Васильевна. – Москва, 2015. –193 с.
2. Канаев, Б.И. Педагогический анализ результата образовательного процесса: практикоориентированная монография. М.: Тольятти: Июрао, 2003.
3. Кричевский, В.Ю. Управление – деятельность профессиональная. Спб., 2001.
4. Миролюбова Г. С. Готовность субъекта к инструментальному использованию нормы как психологический фактор культурной компетентности : автореф. дис ... канд. психол. наук : 19.00.01 / Г. С. Миролюбова ; Урал. гос. ун-т им. А. М. Горького. - Екатеринбург: 2006. - 23 с.
5. Ijtimoiy psixologiya: O'quv qo'llanma / N. Ismoilova, D. Abdullayeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2013. - 168 b.
6. Ishmamedov R.J., Yuldashev M.A. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: Nihol, 2013.



**Shaxodat MADAMINOVA,**  
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
E-mail: madaminovashaxodat@gmail.com

**Gulnoza BEKMETOVA,**  
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
E-mail: bekmetovagulnoza@gmail.com

**Mohinur DOSCHANNOVA,**  
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
E-mail: doschanovamohinur343@gmail.com

Urganch davlat universiteti dotsenti, f.f.n. M.Jumaniyozova taqrizi asosida

## THE PROBLEM OF THE COMPETENCE APPROACH TO TEACHING STORIES IN READING CLASSES AND THE CONCEPT OF COMPETENCE

Annotation

The problem of improving the methodical support of the competence approach to teaching stories in the reading classes of primary education is analyzed. also, the technologies of the scientific and methodical foundations of teaching prose works based on the competence approach in primary school reading classes are shown.

**Key words:** competence, professional competence, artistic work, story, knowledge, skill, method, didactic material.

## ПРОБЛЕМА КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ РАССКАЗАМ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ И ПОНЯТИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Annotation

Анализируется проблема совершенствования методического обеспечения компетентностного подхода к обучению рассказам на уроках чтения начального образования. Также на начальных занятиях по чтению показаны технологии научно-методических основ обучения прозаическим произведениям на основе компетентностного подхода.

**Ключевые слова:** компетентность, профессиональная компетентность, художественное произведение, рассказ, знание, умение, метод, дидактический материал.

## O'QISH DARSALARIDA HIKOYALARINI O'QITISHGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV MUAMMOSI VA KOMPETENTLIK TUSHUNCHASI

Annotatsiya

Boshlang'ich ta'limgan o'qish darslarida hikoyalarni o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv masalasi metodik ta'minotini takomillashtirish masalasi tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qish darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida nasriy asarlarni o'qitishning ilmiy-uslubiy asoslarini texnologiyalari ko'satilgan.

**Kalit so'zлari:** kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, badiiy asar, hikoya, bilim, ko'nikma, metod, didaktik material.

**Kirish.** Jahon ta'limgan o'qish darslarida hikoyalarni o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv masalasi metodik ta'minotini takomillashtirish masalasi tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qish darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida nasriy asarlarni o'qitishning ilmiy-uslubiy asoslarini texnologiyalari ko'satilgan. Kalit so'zлari: kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, badiiy asar, hikoya, bilim, ko'nikma, metod, didaktik material.

mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatish ishlari bilan shug'ullangan Q. Husanboeva o'quvchilar tafakkuri mustaqilligi darajasini o'chashning taxminiy mezonini quyidagicha belgilagan: "Ma'lum vaqt oralig'ida mustaqil ravishda bajarilgan aqliy ish ko'lami va sifati (ishning pishiqligi, asoslarining kuchliligi) – tafakkur mustaqilligi darajasini o'chash mezonini bo'lib xizmat qiladi"[3]. Bu mezon haqida shuni aytish mumkinki, o'quvchilarining, bu ta'limgan qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, har qanday janrdagi badiiy asar tahlili asnosida aytgan fikrlaridagi o'ziga xoslik, o'zgalarning qarashlaridan xoli betakrorlik, sodda, qisqa bo'lsada ma'lum asoslarga ega bo'lgan mukammal javobini munosabatining tanqidiyligi darajasidan kelib chiqib baholash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rus olimlaridan L.B.Bulanova, O. M. Boronina, M. P. Voyushina, O. V. Sosnovskaya, E. L. Melnikova, T. N. Serebrennikova, S. M. Sivakova, N. F. Talizina, A. M. Fyodorova, E. V. Golovnevalar muammoli ta'lindan bevosita boshlang'ich sinflar ta'linda foydalanish yo'llarini izlaganlar.

Jahon pedagogikasida o'qitishning muammoli turi bo'yicha u yoki bu yo'naliishda: Heys D. C., Hmelo, X., Lohman M. C., Finkelstein M. (AQSh); Mc. Parland, M., Noble, L. M., muammoli ta'lindan bevosita boshlang'ich sinflar ta'linda foydalanish yo'llarini izlaganlar.

Ular boshlang'ich sinf o'quvchilarini intellektual faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj muammoli vaziyatlarda paydo bo'lishini nazarli jihatdan asoslashgan. Bunday ehtiyoj uning oldiga qo'yilgan murakkab masala mohiyatini bilishga bo'lgan

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida umumiy o'rta ta'limgan sifatini tubdan oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish hamda ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash kabi yo'naliishlar ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi[2]. Zero, bu ta'limgan dastlabki bosqichlaridan boshlab o'quvchilar nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirishni ham taqozo etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Uzlusiz ta'limgan tizimining o'rta bosqichi adabiyot darslarida o'quvchilarini

qiziqishdan tug'ilishini ta'kidlashgan. O'quvchi oldiga qo'yilgan muammoni o'zidagi ijodiy qobiliyat, intellektual imkoniyat va hayotiy tajribani to'liq safarbar etgan holda hal etishini ilmiy-amaliy jihatdan isbotlashga muammosini o'rganganlar. Bu esa albatta o'quvchilarni kreativ fikrashga, ularda fanga oid va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllanishi zamin yaratadi.

Hozirgi kunda ta'lif muassasalarida faoliyat olib borayatgan pedagoglar egallashi lozim bo'lgan talablardan biri bu kompetensiyadir.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lif sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zar munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi [3]. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarining egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'naliш bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

1980-yillarda virtual reallik texnologiyalarini NASAning bir qator loyihibarida, masalan, virtual reallik shlemni yaratish uchun ishlataligan. VPL Research kompaniyasi EyePhone virtual reallik ko'zoynaklarini va bosh, tana harakatlarni tahlil qilish hamda ular yordamida boshqariladigan kompyuter simulyatsiyasi doirasida efirga uzatish imkoniyatiga ega bo'lgan sensorlarni kostyumi DataSuitni yaratadi.

1990-yil virtual reallik texnologiyalarini o'yin sohasida qo'llanila boshlanadi. 1993-yilda Sega kompaniyasi virtual reallik texnologiyasidan foydalangan holda o'yin platformasi Genesis konsolini ishlab chiqdi. Afsuski, grafik va texnik tarkibiy qismlarining nomukammalligi foydalanuvchilarning ko'ngil aynish va bosh aylanishi olib keladi. Shuning uchun Genesis konsoli unchalik ommalashmadidi. Ularning yuqori narxi virtual reallik texnologiyalaridan vaqtincha voz kechishga olib keldi.

Virtual ta'limgoh sohasi - tashqi dunyoga keng tarqalib, hissiy, intellektual va intellektual qobiliyatini ishlataladigan o'quvchining faoliyati orqali o'zining tashqi sohalarini kashti eta olatigan makondir.

Virtual o'quv muhiti: o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarini tomonidan ta'limgoh maqsadlarida tashkil etilgan va foydalaniladigan mahalliy, korporativ va global kompyuter tarmoqlarining axborot mazmuni va kommunikativ imkoniyatlarini o'z ichiga oladi;

o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarini samarali muloqot qilish uchun yaratilgan va ishlab chiqilgan ta'limgohning an'anaviy usullaridan farqli o'laroq, ta'limgoh kommunikatsiyaning tabiatibilposita, ham uzoq, ham an'anaviy tarzda "ko'zdan-ko'zga" olib boriladi.

Virtual ta'limgoh vazifalar:

ma'lumot va trening (turli xil ta'limgoh ma'lumotlarining shakllarida taqdim etilgan); aloqa (o'quv jarayoni ishtirokchilarini bilan muloqotda bo'ldi);

nazorat va ma'muriy (bilim, ko'nikma va boshqaruv darajasini nazorat qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rilmoxda).

Virtual ta'limgoh muhitida informatika va axborot texnologiyalarini fani o'qituvchisining o'rni quyidagilardan iborat: informatika va axborot texnologiyalarini fani o'quv jarayonining tashkilotchisi, bilim oluvchisi va o'quvchilarning ijodiy faoliyatini baholaydi, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda virtual o'qitish muhitida o'qitish ishlarini olib boradi [4].

Virtual ta'limgoh muhitining afzalliklari. O'quvchi moslashuvchanligi quyidagicha ko'rsatib o'tilgan:



barchasi trenajor Internet texnologiyalarini orqali amalga oshirilganligi uchun qulay joyga joylashadi. O'quvchilar ta'limgoh muassasalariga joylashtirilishidan masofa samarali o'quv jarayoni uchun to'sqinlik qilmaydi; o'zlarini uchun qulay vaqtida qatnashadi. har bir inson o'z biologik "soatiga" ega va ulargaqarab sinflar vaqtini tanlashi va o'zgartirishi mumkin:

o'z didaktikasini qurish orqali o'tilgan nazariy va amaliy mashg'ulot jarayonlarini qayta ko'rib chiqadi, avvalgi darslardagi saqlangan materiallarga murojaat qila oladi va o'qituvchi bilan virtual makon orqali bog'lanishi oladi;

- muayyan bo'limlarga konsentratsiyalash, har bir bo'limni, modulni va zarur bo'lgan vaqtini blokirovkalash. sunday qilib, uni tezroq qilish orqali vaqtini tejash mumkin;

- o'quv mashg'ulotlarini amalga oshirish uchun talaba va ta'limgoh tizimining xarajatlari ta'limgoh sohasi, vaqt va texnik resurslardan samarali foydalanish maqsadida kamayadi[5].

O'qituvchining yangi roli. Yangi xususiyatlar:

- o'quv-uslubiy majmuani tayyorlash, virtual o'quv muhiti atrofidagi materiallarni joylashtirish;

- o'quv jarayoni virtual o'quv muhiti qanday amalga oshirilishini, o'qituvchilar dars materiallari bilan qanday tanishishi, topshiriqlarni qanday topshirishlari, forumlarda ishtiroy etishlari, muloqot qilishlari va boshqalar bilan tanishishlari uchun tanishiruvchi tashkiliy darsni o'tkazish;

- kelajakdagagi professional faoliyat muhiti o'rganish - o'quv muhiti ta'limgoh olish; Kurs materiallari samaradorligini kuzatish;

- o'quvchilarning mustaqil ishi bo'yicha topshiriqlarni bajarilishini nazorat qilish; kollektiv muhokamalarda ishtiroy etish, forumlar va suhbatlar, veb-seminarlar, veb-kvestrlar;

- munozaralarini, yuzaga kelgan savollarga javoblarini umumlashtirish;

- o'qituvchilar bilan forum, lahzali xabar almashish tizimi, Skype va boshqalar orqali muloqot qilish[6].

Virtual o'quv muhiti innovatsion salohiyatidan amaliy foydalanish: o'quv jarayonlarini zarus o'quv materiallari bilan ta'minlash; o'qituvchi va o'quvchi o'rtaSIDI munosabatlar; trening tizimidagi boshqaruv axborotlarini almashish; aloqa uchun xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish, professional pedagogik yordamni amalga oshirish, axborotni o'zlashtirishni nazorat qilish; virtual ta'limgoh muhiti, birinchi navbatda, mehnat muhiti va innovatsion ta'limgoh faoliyatiga aylanadi: "Doingle learning!" – "Doing o'rganing!" (Dewey printspisi, XIX asr); amaliyoti davomida o'z tajribangizni qurish; O'qituvchini malakasini oshirish, nou-xauga ega bo'lish va o'z faoliyatining natijalarini tezda baholash va zamona niy asbob-uskunalar va texnologiyalarni qo'llash orqali o'qitishning afzalliklarini o'rganish imkoniga ega bo'lganligi sababli o'qituvchini muvaffaqiyatli vaziyatga qo'yish [7].

Interaktivlik. O'qituvchilar, murabbiylar, ma'murlar bilan muntazam aloqada bo'lish jarayonida yangi ta'limgoh shakliga moslashish va kasbdagi virtual ta'limgoh muhiti innovatsion salohiyatidan foydalanish jarayonlarini tushunish; Talaba va

umuman tizim o'rtasida axborot almashinuviga tayanish; Ko'p tononlama o'zaro ta'sirni amalga oshirish[8].

Hozirgi kunda virtual reallik shlemlari (HMD-display, head-mounted display) chap va o'ng ko'zlar uchun tasvirlarni namoyish etadigan bir yoki bir nechta display, tasvir geometriyasini sozlash uchun obyektiv tizimi hamda qurilmaning fazoda yo'nalishini kuzatadigan nazorat tizimini o'z ichiga oladi. Tashqi ko'rinishi ko'zoynakka o'xshagini uchun ular VR headsets (VR-garnitura) yoki virtual reallik ko'zoynaklari deb nomlanadi.

Virtual reallik ko'zoynaklar uch guruhga:

1.Tasvirga ishlov berish va chiqarishni ta'minlaydigan ko'zoynaklar (Android, iPhone, Windows Phone). Bunda mobil qurilmalardan foydalilanadi. Mobil qurilmalar yordamida uch o'lchovli tasvirlarni mustaqil ravishda qayta ishlashga qodir bo'lgan yuqori samarali bo'lib, yuqori piksellar soniga ega. Deyarli har bir mobil qurilmaning virtual reallikdagi o'rnini aniqlashga imkon beradigan sensorlar bilan jihozlangan bo'ladи[9].

2.Tashqi qurilmalar (PC, Xbox, PlayStation va boshqalar) tononidan tasvirga ishlov beriladigan ko'zoynaklar. Tashqi qurilma axborotlarni operativ almashinish va pozitsiyali sensorlar bilan jihozlangan bo'ladи.

3.Avtonom ko'zoynaklar (Lenovo Mirage Solo, Oculus, Samsung Gear VR va boshqalar).

Virtual reallikni qo'llashdagi yangidan-yangi imkoniyatlarni aniqlash va ularni izchillik bilan amaliyatga tatbiq etib borish taraqqiy ettirishning zamонавија bosqichidagi muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'z navbatida, virtual reallik texnologiyalarining jadal taraqqiy etib borishi - ularni ta'lim

jarayonlarida keng qo'llanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda.

Virtual reallik texnologiyalarini o'quv jarayonidagi afzallakklarini aytib o'tadigan bo'lsak, bular [10]:

Xarajatlarni tejash. O'quv jarayonida uskunalar, laboratoriya xonalari, kerakli xomashyolar va boshqa qurilmalar yetishmasligi sababli ko'pgina tajribalarni amalga oshirish mumkin emas. Virtual reallik texnologiyalaridan foydalananib, o'quvchilar uydan chiqmasdan turli xil tajribalar o'tkazishlari, haqiqiy tajriba kabi kerakli natijalar olishi mumkin. Bu orqali ta'limga ajratiladigan mablag'larni sezilarli ravishda kamaytirishga erishish mumkin.

Xavflarning oldini olish. Real tajribalar yoki turli vazifalar ko'pincha har xil xavflar bilan bog'liq bo'lganligi sababli amalga oshirilmay qolinadi. Virtual reallik muhitida o'quvchilar turli xil xavf-xatarlar bilan bog'liq bo'lgan tajribalarni ishonchli bajarishlari mumkin. Masalan, parvoz simulyatori o'quvchilar xato qilganda samolyot halokati natjasida yuzaga keladigan jiddiy baxtsiz hodisalarning oldini olishga yordam beradi[11].

Makon va vaqt chegarasizligi. Virtual reallik texnologiyasi butun koinot bo'ylab sayohatlar tashkil etishi, atom zarralarini kuzatish, yillar yoki hatto asrlar osha virtual turlarni amalga oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, virtual haqiqat ongimizda sun'iy axborot bilan taqdim etilishi mumkin bo'lgan hayoliy muhitni yaratadi va uming haqiqatligiga ongimizni ishontiradi. Bir so'z bilan aytganda, yaqin kelajakda Virtual reallik taraqqiyoti ulkan bo'lishi kutilayotgan sohalardan biri, desak, adashmaymiz.

## ADABIYOTLAR

- Hamidov J.A., Murodova A.Y. (2023) Technology for development of professional and technical component of future engineers through virtual educational technology Atamuratov R.K. The educational advantages of virtual reality technologies. The Competing Science and Technology International Journal, 4 May 2023, 87-90 pp.
- Hamidov J.A., Ximmataliyev D.O., Qodirov I.D., Ravshanov J.F., Xikmatullayeva D. "Jahon ta'lim tizimi" fanidan elektron darslik. Davlat patent idorasu guvohnomasi. – T., 2022 №DGU 18218.
- Hamidov J.A., To'raqulov O.X. Ilg'or pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida. Uslubiy tavsiyanoma. – Jizzax, 2009. – 149 b.
- Murodova A.Y. (2023) Technology of development of professional and technical component of future engineers by means of virtual education technology. Science and innovations, 2023/2, 306-311 pp.
- Murodova A.Y. (2023) Virtualization in the training of engineers as a factor of increasing scientific efficiency. Academic Research Journal 2023. 184-189 betlar.
- Hamidov J.A., Murodova A.Y. (2023) Virtual ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompitentligini rivojlantirishning nazariy asoslari. Science and innovations, 2023/2, 182-189 pp.
- Murodova A.Y. (2023) Virtual ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashning tashkiliytuzulmaviy modelini yaratish. "Zamonaviy ta'limni raqamlashtirish: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. O'zDJTU. 188-191 betlar.
- Murodova A. B. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY LAYOQATLARIN SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIKHLARI //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 259-263.
- Hamidov J., Muradova A. TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNICAL COMPONENTS OF FUTURE ENGINEERS THROUGH VIRTUAL EDUCATIONAL TECHNOLOGY.
- Muradova A. TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNICAL COMPONENT OF FUTURE ENGINEERS BY MEANS OF VIRTUAL EDUCATION TECHNOLOGY //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B2. – C. 306-311.
- Abdurashovich H.J., Qizi M. A. Y. VIRTUAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 10. – C. 182-189.



**Adiba MUSAYEVA,**

Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: adibamusaeva5@gmail.com

Guliston davlat universiteti dotsent v.b, PhD Z.Norqo'ziyeva taqrizi asosida

## ASPECTS OF DEVELOPMENT OF REFLECTIVE COMPETENCES OF STUDENTS

### Annotation

This article aims to confirm successful reflexive competence in professional activities, guide future professionals to search for their professional development, how important it is to know a foreign language to improve their professional skills, and how self-organization is a person's. It is dedicated to the connection with the competence of organizing one's activity, to independently defining the goals and tasks of the activity.

**Key words:** reflexive competence, self-awareness, foreign language, independent education, cognitive process.

## АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

### Аннотация

Данная статья призвана подтвердить успешную рефлексивную компетентность в профессиональной деятельности, направить будущих специалистов к поиску своего профессионального развития, насколько важно знание иностранного языка для совершенствования своих профессиональных навыков, а также насколько важна самоорганизация человека. связь с компетентностью организации своей деятельности, с самостоятельным определением целей и задач деятельности.

**Ключевые слова:** рефлексивная компетентность, самосознание, иностранный язык, самостоятельное обучение, познавательный процесс.

## TALABALARNING REFLEKSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH JIHATLARI

### Annotatsiya

Ushbu maqola kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli refleksiv kompetensiyani tasdiqlashga, bo'lajak mutaxassislarni o'z kasbiy rivojlanish yo'lini izlashga yo'naltirishga, chet tilini yaxshi bilish ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun qanchalik muhim ekanligiga va o'zini-o'zi tashkil etish insonning o'z faoliyatini tashkil qilish kompetensiyasi bilan bog'liqligiga, faoliyatning maqsad va vazifalarini mustaqil ravishda belgilashga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** refleksiv kompetensiya, o'zini-o'zi anglash, chet tili, mustaqil ta'lif, kognitiv jarayon.

**Kirish.** Respublikamizda so'ngi yillarda bo'lajak chet tili o'qituvchilarining tanlangan ta'limga ijtimoiy ahamiyatini anglashga tayyorligini rivojlanish vazifalari, kasb-hunar va o'zini-o'zi tashkil etish, mustaqil kasbiy ta'lif qobiliyati, pedagogik faoliyatga motivatsion munosabatlari rivojlanish, shaxsiy va kasbiy o'sishi bo'lajak chet tili o'qituvchilariga chet tililarini o'rgatishning pedagogik imkoniyatlarini rivojlanishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, ta'lif sifatini oshirish bo'yicha ta'lif tizimini zamon tabalabriga moslashtirish" [1] ustuvor vazifa etib belgilangan. Bunday sharoitda olyi ta'lif oldiga – o'z kasbining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglaydigan, uning natijalari uchun mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan o'zini-o'zi anglaydigan, o'z kasbining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglaydigan o'qituvchi tayyorlash kabi dolzarb vazifa qo'yadi. Uni kasbiy va pedagogik faoliyatning faol subyekti bo'lishi, kasbiy ta'lifni rivojlanishning belgilangan strategiyasi pedagogik ta'lif bakalavriatinu tayyorlash zarurligini ochib beradi. Tabiiyki, bu holat bo'lajak chet tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda yangicha yondashuvlarni izlash va samarali texnologiyalarni ishlab chiqishni taqozo etdi.

Ushbu maqolada refleksiv kompetensiyalar metodikasini rivojlanish chet til o'qitish jarayonida o'rganildi. Hozirgi zamonaviy ta'limga nafaqat biror soha mutaxassis sifatida, balki chet tillarni va axborot texnologiyalarini ham yaxshi biladigan, dunyoqarashi va bilimi keng inson sifatida shakllanmog'i kerak. "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori [2] asosida ta'lif sohasida chet tillarni bilish darajasini amalga oshirilgan tub islohotlar jismonan sog'lam, ma'nan yetuk, har tomonlama barkamol zamonaviy shaxsniga

tarbiyalashga qaratilgan va yoshlarni ta'lif sohasida amalga oshirayotgan islohotlarining faol ishtiroychisiga aylantirishdan iborat.

Biz shaxsning o'zini-o'zi anglashini hisobga olgan holda, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli refleksiv kompetensiyani tasdiqlashi haqida ketmoqda, u yoki bu universitetda o'qish yillarda uning refleksiv kompetensiya qanchalik rivojlanganligi bilan bog'liq. Buning uchun bo'lajak mutaxassislarni o'z kasbiy rivojlanish yo'lini izlashga yo'naltirish kerak; chet tilini yaxshi bilish ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun qanchalik muhim ekanligiga ishontirish, bu ko'pincha ularning shaxsiy takomillasuviga bog'liq. Shuning uchun ham, xususan, tillarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ta'limga shaxsiy yondashuvning ustuvorligini ta'kidlash kabi tendentsiyani kuzatish mumkin. Va bu yerda chet tilini o'rganish samarali bo'lishining shartlaridan biri bu o'zini-o'zi ta'limga refleksli tayyorlikni rivojlanishga yo'naltirilganlidir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Haqiqat shundan iboratki, aniq bir professional sharoitda ro'y berayotgan o'zgarishlar jarayoni shunchalik jadal bo'ladiki, olyigohlarda olingan bilimlar ko'pincha o'z ahamiyatini yo'qtodi yoki shaxsning keyingi kasbiy faoliyati uchun yetarli bo'lmaydi. Shu tarqa doimiy ravishda V.I. Andreev ta'kidlashicha, refleksiv kompetensiya muhimligi muammosi har qanday mutaxassis uchun quyidagi xususiyatlar rivojlanganda paydo bo'ladi: yangi bilimlarni egallash qobiliyati; ushbu bilimlarni tizimlashtirishni tahlil qilish qibiliyati; o'z bilimining asl darajasini yetarli darajada o'zini-o'zi baholash; o'z ta'lif traektoriyasini rejalshtirish qobiliyati, shuningdek, unga kerakli, tuzatishlarni o'z vaqtida kiritish uchun uning natijalarining yutuqlari haqida fikr yuritish[3].

Shuni aytib o'tish joizki, hozirda chet tillarini o'rgatish usuli ta'lif qanday o'zgarib borayotgani va integratsiya

jarayonlari bilan bog'liq, bu yaxlit o'zini-o'zi rivojlantirish jarayonining mavjudligini asoslash imkonini beradi, bu aslida, faqat shaxsning o'zi tomonidan bajariladi va natija uning

rivojlanishida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan N.M. Axmedova, refleksiv kompetensiyanı quyidagi jihatlarını ajratib ko'rsatish mumkinligini ta'kidlaydi[7](1-rasm):



**1-rasm. Rafleksiv kompetensiya jihatlari**

E.V. Bagdai, refleksiv kompetensiya shaxsning mustaqil bilish faoliyati bo'lib, u quyidagi tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi: shaxsning avtonomligi asosida o'zini-o'zi rivojlantirish, uning asosi uning bilish qobiliyatining mavjudligi va o'zini-o'zi anglashning mavjudligi; amalga oshirilgan tadbirlarning ehtiyojlarini qondirish; muammoni shakllantirish, ijodiy izlanish hamda yangi narsalarni kashf qilish, jarayonda kognitiv zaruriyatlarini bilish asosida ishlab chiqarish faoliyati; o'zini-o'zi rivojlantirish jarayoni bilan bog'liq maqsadlarga erishish uchun maxsus tashkil etiligan havaskor bilish faoliyatiga[4]. Shunga ko'ra, tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, shaxsning avtonomligi va uning refleksiv kompetensiyaiga o'zaro bog'liqligi muammosi muhim ahamiyatga ega. Bu mustaqil faoliyat shaxsning ichki erkinligining muhim shartidir, chunki u kognitiv ehtiyojlar tarkibida, masalan, tillarni o'rganishda yuzaga keladi.

Shunga asoslanib, E.V. Bagdai, shaxs avtonomiyasining zarur komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin, ular uning maqsadli erkin faoliyatida ko'rildi deb ta'kidlaydi. Ushbu tarkibiy qismlar quyidagicha belgilanadi: a) buni amalga oshirish imkoniyatini bilish; b) shaxs tomonida o'z faoliyatining tashqi zaruratini ichki ishonch va shaxsiy manfaatlar bilan umumlashtirish; v) irodanining namoyon bo'lishi; d) tanlangan faoliyat turida o'zini-o'zi amalga oshirish hamda o'zizni-o'zi anglash istagi; (masalan, chet tilini o'zlashtirish). Demak, shaxs avtonomiyasining o'zini-o'zi rivojlantirishning asosiy sharti – bu shaxsning, o'zini-o'zi rivojlantirish asosida, ushbu avtonomiyanı tushunish qobiliyatidir[4].

Biroq, refleksiv kompetensiya faoliyatida, qoida shuki, maqsadni belgilashning ikkinchi versiyasi samarali bo'ladi, chunki o'zini-o'zi rivojlantirish har doim o'zini-o'zi tashkil etuvchi va o'zini-o'zi boshqaradigan kognitiv jarayondir. Shunday ekan, o'zini-o'zi tashkil etish insonning o'z faoliyatini tashkil qilish kompetensiyasi bilan bog'liq bo'lib, faoliyatning maqsad va vazifalarini mustaqil ravishda belgilash, ularga erishish metodlarini tanlash, o'z xatti-harakatlarini vaqtida aniqlash, o'zini-o'zi nazorat qilish va o'zini-o'zi tuzatishdan iboratdir[5].

Bundan kelib chiqqan holda, refleksiv kompetensiyanı rivojlantirishni ichki mexanizmi (uning tarkibiy qismlari o'zini-

o'zi rivojlantirish) bilan bog'lash mumkin, bu ongini qayta qurishning, muhim jihat bo'lib, uning mazmun mohiyati nafaqat yangi bilimlarni olish, qadriyat, maqsad, faoliyat dasturini amalga oshirish, balki bu yangi bilim va ko'nikmalarning yo'qligi bilan ham bog'liqdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shuni ta'kidlash joizki, refleksiv kompetensiya turli kasbiy qobiliyatlarga nisbatan hal qiluvchi rol o'ynaydi. Universitetda o'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, birinchi kursdan boshlab bo'lajak chet tili o'qituvchilarining fikrlashi o'z-o'zidan emas, balki maqsadli shakllantirilsin. Va bu yerda refleksiv kompetensiyaning ikki darajasini ajratish muhimdir: kognitiv faoliyati haqida mulohaza yuritish va chet tilidagi muloqotni tashkil qilish qobiliyati haqida fikr yuritish. Masalan, mulohaza yuritish jarayonda bo'lajak chet tili o'qituvchiga quyidagi savollar berilishi mumkin: "Faoliyatningiz jarayonda nimaga erishmoqchi edingiz?", "Haqiqatan ham nimaga erishdingiz?", "Rejalaringiz, kutganlarining va real natijalarining tasodif va muvofiqligi nimada?", "Muvofiqlik sabablarini nimada ko'rasiz?". Bu savollaring barchasi fikrlash natijalari bo'lajak chet tili o'qituvchining kognitiv faoliyatning keying bosqichlarini rejalashtirish ucun asos bo'lishi uchun muhindir.

Bunday faoliyatni ijodiy yondashuv bilan chet tilini o'rganishga bo'lgan doimiy xohish deb atash mumkin. Bundan tashqari, refleksiv kompetensiya odatda o'zizni-o'zi rivojlantirishning markaziy bo'g'inidir. Shuning uchun, bu faoliyat refleksiv faoliyat sifatida izohlanadi, uning komponentlari: o'zini-o'zi refleksiv anglash (genesis), keyin o'zini-o'zi bilish (faoliyat) keladi va bu o'zini-o'zi rivojlantirish (natija) bilan tugaydi.

Shaxsning faolligi hamda erkinligini rag'batlantiradigan, ichki motivlarning tegishli tizimini rivojlantirishga vositachilik qiladigan, refleksiv kompetensiyanı faollshtirish va yo'naltirish jarayoniga barqaror qo'shilishni ta'minlaydigan o'zini-o'zi anglashning refleksiv jarayonidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, refleksiv kompetensiyanı ikkita asosiy xususiyatiga e'tibor qaratish kerak: (1-jadval)

#### 1-jadval

##### Refleksiv kompetensiyaning ikkita asosiy jihatlari

Nº	Refleksiv kompetensiya jihatlari	Tasnifi
1.	Shaxsiy xususiyat	O'zini-o'zi rivojlantirishning mazmuni, strukturasi va jarayonini refleksiv faoliyat darajasida ko'rib chiqishga olib keladi.
2.	Maqsadlilik va tizimlilik	Shaxs o'zini-o'zi rivojlantirish jarayonini muhimligini tushunib yetgan taqdirdagina mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, chet tili darslarida refleksiv usullarning quyidagi xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Emotsional holat va kayfiyatni aks ettirish. U darsning boshida ham, oxirida ham amalga oshiriladi. Bu sizga auditoriya bilan hissiy aloqa o'rnatishga, talabalarni ishga tayyorlashga yoki faol miya faoliyatidan so'ng stressdan xalos bo'lishga imkon beradi.

2. O'quv materialining mazmuni haqida fikr yuritish. Darsning turli bosqichlarida foydalish mumkin. Ushbu turdag'i refleksiya o'tilgan materialni tushunish darajasini aniqlashga qaratilgan.

3. Faoliyatning aks etishi. Loyiha faoliyatida ishtirok etgandagi so'ng, uy vazifasi yoki mustaqil topshiriqlarni tekshirish paytida bajarilgan ishni tushunish uchun foydalaniladi.

Chet tili darslarida refleksiya turlari boshqa darslardagi refleksiya turlari bilan juda umumiyyatdir, lekin o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular asosan o'quvchilarining tilni bilish darajasiga bog'liq bo'lib, ular to'g'ri tarzda reflektiv ish olib borishga sezilarli darajada xalaqit berishi mumkin.

Bundan tashqari, refleksiv kompetensiya turini tanlashda darsning maqsadi, o'quv materiali darajasi, o'qitish usullari va shakkllari, o'quvchilarining yoshi va psixologik xususiyatlarini

hisobga olish kerak, shuningdek, bolalar mulohaza yuritishga qodir va tayyor.

**Tahlil va natijalar.** Shunday qilib, refleksiv kompetensiya xususiyatlari haqida gapirganda, o'qituvchining reflektsli va lingvistik muhitni yaratishi muhimdir. Reflektor ko'nikmalarini rivojlantirishning bir necha usullari mavjud, jumladan, o'qituvchining shaxsiy aks ettirish namunasi, darslarda tizimli aks ettirish, o'quvchilarga hissiy holatni, o'quv materialining mazmunini va o'z faoliyatini aks ettirish uchun shablondarni ko'rsatish.

Shunday qilib, psixologik nuqtai nazaridan, refleksiv kompetensiya shaxsning samarali faoliyati va masalani qo'yish, ijodiy izlanish va yangi bilimlarni kashf qilish nuqtai nazaridan, ushbu erkin jarayonning mantiqini tushunishi mumkin.

Bundan tashqari, refleksiv kompetensiya chet tilini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan o'z maqsadlariga ko'ra, shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, deb faraz qilinadi; bu jarayon davomida ular mustaqil ravishda tili materialini tanlaydi; uni o'rganish, strategiyasi va taktikasini aniqlaydi; kognitiv vazifalar, ularning murakkabligi o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lishi mumkin; bu bilan bog'liq qaramaqshiliklarni mustaqil ravishda bartaraf etadi; maktab o'quv predmeti sifatida chet tili haqida o'z qarashlarini shakllantiradi; o'zining dunyoqarashimi va unga bog'liq bo'lgan o'zini-o'zi o'zgartirishni refleksiya asosida tuzadi[6].

Mustaqil ta'larning ma'nosini anglash va bu boradagi muhim muvaffaqiyatlar bo'lajak chet tili o'qituvchi o'rganish

yo'lini maksimal darajada qoniqish bilan o'rganishi bilanoq boshlanadi. Shuningdek, fikr mulohaza yuritish orqali rivojlangan harakatlar va orttirlgan tajriba muxokama va o'zini o'zi tanqid ostiga oladi, ya'ni, bo'lajak chet tili o'qituvchilar o'zlarining bilish aktivligi haqida fikr yuritadilar va qaysi tili bilimlarini allaqachon o'zlashtirganliklari va ularning tili kompetensiyalarini rivojlanishning qaysi bosqichida ekanligini baholaydilar. Bu muayyan ta'lim vazifalariga ham, qoida sifatida bir vaqtning o'zida rivojlanmaydigan ta'lim harakatlariga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Shu munosabat bilan biz kognitiv faoliyatda o'zini-'ozi rivojlanish kontekstida refleksiv kompetensiyaning rolini ta'kidlaydigan quyidagi fikrlarini qayd etamiz: Refleksiya – faoliyatning o'zini rivojlanishning asosiy mechanizmlaridan biri; kognitiv faoliyat shartlarini o'zgartirganda, o'zini-'ozi nazorat qilish va olingan bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonini boshqarishda refleksiya zarur. Shunday qilib, bo'lajak chet tili o'qituvchilarning refleksiv faoliyati ularning o'zlarining kognitiv faoliyati muommolarini ko'rish qobiliyati rivojlanish; uni ichki resurslari hisobiga o'zgartirish; o'z tanlovini amalga oshirish; qarorlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish kabilardir.

Demak, kognitiv faoliyatda refleksiv kompetensiyani rivojlanish kelajakda mutaxassis bo'lishning asosiy vazifasiga aylanadi. Psixologik va pedagogik adabiyotlarda chet tililarii o'rganishda o'zini-'ozi rivojlanishning bir qismi sifatida shaxsning refleksiv faoliyati haqida fikrlar to'plangan.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sون farmoni / <https://lex.uz/docs/5841063>
2. 2021 yil 19 maydag'i PQ-5117-sон "O'zbekiston Respublikasida chet tililarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora- tadbirilari to'g'risida".
3. Андреев, В.И. Педагогика : учебный курс для творческого саморазвития/ В.И. Андреев. - Казань : Центр инновационных технологий, 1996. - 567 с.
4. Багдай, Е.В. Формирование рефлексивной позиции студента в процессе изучения гуманитарных дисциплин : дисс. ... канд. пед. наук / Е.В. Багдай. - Киров, 2007. - 163 с.
5. Xolmurodova D.X. Oliy ta'lim muassasasi talabalarining til qobiliyatlarini
6. rivojlanish jarayonining shaxsiy yondashuv nuqtayi nazaridan tahlili. Toshkent Davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari Ilmiy-nazariy jurnal, 2021/ 5-son, ISSN 2181-9580/ 96-104 b.
7. Богин, В.Г. Обучение рефлексии как способ формирования творческой личности/ В.Г. Богин // Современная дидактика: теория-практика / под науч. ред. И.Я. Лернера, И.К. Журавлева. - М. : Изд-во ИТП и МИО РАО, 1993.
8. Axmedova N.M. The pedagogical conditions of effective training of future
9. foreign language teachers for using game technologies in professional activity. O'zMU xabarlari ilmiy-uslubiy jurnal. №4 Т.: 2018, б. 110-115.



Dadaxon NASRIDDINOV,  
O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi dotsenti, PhD  
E-mail: dadahon20172019@mail.ru

CHDPU dotsenti, PhD M.Dustmuratov taqrizi asosida

## ROBOTICS DEVELOPMENT MODEL BASED ON PHYSICS

### Annotation

This article presents a model for the development of robotics based on physics. The development of creative abilities of cadets and students through the introduction of elements of robotics into the field of education is emphasized.

**Key words:** objects of application of robotics, elements of robotics, educational technologies, studying physics, robotics in educational physics experience, educational modules on robotics, educational projects on robotics, robotics, robotic laboratory devices, robotic experiments, robotic training, objects of robotics.

## МОДЕЛЬ РАЗРАБОТКИ РОБОТОТЕХНИКИ НА ОСНОВЕ ФИЗИКИ

### Аннотация

В данной статье представлена модель развития робототехники, основанная на физике. Подчеркнуто развитие творческих способностей курсантов и обучающихся путем внедрения элементов робототехники в сферу образования.

**Ключевые слова:** объекты применения робототехники, элементы робототехники, образовательные технологии, обучение физике, робототехника в учебно-физическом опыте, учебные модули по робототехнике, учебные проекты по робототехнике, робототехника, робототехнические лабораторные устройства, робототехнические эксперименты, робототехническое обучение, объекты робототехники.

## FIZIKA FANI ASOSIDA ROBOTOTEXNIKANI RIVOJLANTIRISH MODELI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada fizika fani asosida robototexnikani rivojlantirish modeli keltirib o'tilgan. Ta'lrim sohasiga robototexnika elementlarini joriy etish orqali kursant va tinglovchilarning ijodkorlik faoliyati rivojlanishi ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** robototexnikaning qo'llanish ob'yektlari, robototexnika elementlari, ta'lrim texnologiyasi, fizika fanini o'rganish, robototexnika o'quv-fizik tajribada, robototexnika bo'yicha o'quv modullari, robototexnika bo'yicha o'quv loyihalari, robototexnika, robotlashgan laboratoriya qurilmalari, robototexnik tajribalar, robototexnika mashg'ulotlari, robototexnik obyektlar.

**Kirish.** Fizika fanining mavzularini o'rganayotganda robototexnika asoslari bilan tanishish kursantlarga robototexnikaning elementar bazasidan turli robototexnik konstruksiyalarini loyihalashda ongli va unumli foydalanishga hamda ularning yanada ilg'or modellarini yaratishga, shu jumladan, ushu fanlarda o'z dizayn elementlaridan foydalanishga imkon beradi.

Biz fizika fani asosida robototexnikani o'rganishning to'rtta darajasini aniqladik. Fizika fani asosida robototexnikani o'rganishning to'rtta darajasi robototexnik tizimni tashkil qiladi va uning barcha funksionalligini ta'minlaydi. Ushbu tizim ishlashining ilmiy asoslari fizika mashg'ulotlarida o'rganish predmeti hisoblanadi.

Robotexnik tizimlarni loyihalash asoslарини o'rganish kursantlarga har xil turdag'i robotexnik ishlanmalar yaratish bilan bog'liq muammolarni yanada muvaffaqiyatlari hal qilish imkonini beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 mart kuni imzolangan PQ-5032-sonli "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlardagi muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy ishlar ko'lamini kengaytirish" hususida so'z yuritilgan bo'lib, bundan kelib chiqadiki O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi fizika fani mazmunini, yong'in xavfsizligi hamda texnosfera xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashdagi zamонавиyl talablardan kelib chiqib, tahlil qilib chiqish va uni sifat jihatdan yaxshilash dolzarb masala ekanligi shubhasizdir[1].

Shu bilan bir qatorda Fizika mashg'ulotlarida robototexnikaning texnik qo'llanilishini tahlil qilish orqali fizik hodisalar va tegishli harakat qonunlariga asoslangan robotlarning

turlarini o'rganish mumkin. Bunday imkoniyat o'qituvchiga deyarli barcha ta'lim mavzularida beriladi.

Robototexnikaning qo'llanish ob'yektlari quyidagilr bo'lishi mumkin:

- 1) jamiat hayotining turli sohalarida qo'llaniladigan texnik ob'yektlar;

2) o'quv eksperimentning robotlashtirilgan qurilmalari.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu ob'yektlarni o'rganish turli yo'llar bilan tashkil etilishi mumkin.

**Birinchi usul (demo).** Bu metoddan foydalanishda kursantlarga birinchi navbatda robot tuzilishi tushuntiriladi va uning fizik asoslari ochib beriladi. Keyinchalik robotning ishlaydigan modeli namoyish etiladi. Masalan, suv osti tadqiqotlari uchun mo'ljallangan robotlarni o'rganish mumkin. Shu bilan bir qatorda tajriba uchun robot qurilmalarini ko'rsatish mumkin. Masalan, prujina mayatnigining tebranish qonuniyatlarini, rezonans hodisasini, ishqalanish qonunlarini va boshqalarni o'rganish. Robot eksperimentini o'tkazishda o'qituvchi ushbu eksperimental ob'yektlar element bazasasi ishlashining fizik asoslarni tushuntirib beradi.

**Ikkinchi yo'l.** Bu metod asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o'qituvchi kursantlarga mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi. Kursantlar dizayn g'oyasini taklif qilishlari va ma'lum bir funksiyaga ega bo'lgan aniq robot modelini yig'ishlari kerak. Masalan, u yadroviy reaktorning modeli bo'lishi mumkin. Ushbu model reaktor dizaynining ba'zi elementlarini, shuningdek, uning quvvat blokidagi issiqlik uzatish jarayonlarini namoyish qilishi kerak.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida fizika fanini o'rganishda politexnik bilimlarni o'zlashtirish orqali kursantlar alohida texnik ob'yektlar bilan ishlashning boshlang'ich ko'nikmalariga ega bo'lishi, fizika faniga oid bo'lgan ilmiy izlanishlarda uskuna va orroratlari texnika ob'yektlari bilan ishslash

ko'nikmalarini egallashi lozim. Kursantlar ma'lum bir murakkablikka ega bo'lgan texnik vazifalarni yechish bilim va ko'nikmalarini egallashi, ma'lum bir yo'naliishdagi politexnik loyihalarda ishtirot etishi lozim.

Kursantlarning politexnik tayyorgarligi ularda texnik bilim va malakalarning shakllanishiga bog'liq. Bunday tayyorgarlik kursantlarda texnik innovatsiyalar bilan tanishish, ularni chuqur o'rganib chiqish orqali shakllanadi.

Zamonaviy texnomuhit shakllanishining muhim yo'naliishlaridan biri bu robototexnikadir. Robotozzlik ishlab chiqarishning mustaqil yo'naliishi sifatida vujudga keldi va doimiy rivojlanmoqda. Hozirgi kunda dunyo tajribasida robototexnika tamomilda yangi bosqichga o'tdi. Natijada, robotlashgan tizimlar universal va samarali, nafaqat ishlab chiqarish, balki maishiy ehtiyojlarda foydalanishga imkon beruvchi omillar yuzaga keldi.

Robototexnik tizimlar zamonaviy texnomuhitning ajralmas bo'lagiga aylanib bormoqda. Jamiatning robototexnik tizimlarga bo'lgan yuqori qiziqishi robototexnika rivojini aniqlab beradi.

**Tahlil va natijalar.** Tahlillar shuni ko'rsatadi, hozirgi kunda robototexnik tizimlar ishlashining fizikaviy asoslarini o'rganish olyi harbiy ta'limga muassasalarini oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Robototexnika elementlarini o'rganish uchun fizika fani o'quv dasturiga quyidagi masalalar kiritilishlozim:

1. Robototexnika tarixi va uning rivojlanish istiqbollari, robototexnik tizimlarning zamonaviy texnomuhitdagi o'rni va ahamiyati bo'yicha ma'lumotlar;

2. Robototexnikaning falsafasi va uslubiyati asoslarini, robotning texnik ob'yeqt sifatida o'ziga xos belgilari, robotlarning turlari, robototexnika qonunlari;

3. Robotning kibernetik modeli, robototexnik tizimlarni loyihalashga asosiy yondoshuvlar, robototexnikalarni yasash uchun maxsus to'plamlar va maxsus dasturiy ta'minotlar asosida robotlarni komp'yuter va tabiiy modellashtirish;

4. Robotlarni yasash va dasturlash sohasidagi zamonaviy yechimlar va texnologiyalar.

Izlanishlar davomida robot kibernetik modeling har bir tizimi ishini bajaruvchi asosiy qurilmalar ishlash prinsiplari va tuzilishi tahlil qilinadi. Natijada fizika fani o'qituvchilar uchun bu qurilmalarning ishlash prinsipini o'rgatuvchi asosiy fizik hodisa va qonunlar ko'rsatilgan ma'lumotlar ishlab chiqiladi[3].

Xozirgi kunda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari e'tibor bersak, ularni bajarishda robototexnikadan keng foydalanilayotganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Ilmiy tadqiqotlarni bajarishda robototexnikadan foydalanish zarurati robotning texnik ob'yeqt sifatida muxim funksiyalari bilan aniqlanadi. Robot insonnong o'ta og'ir, davomiy, xavfli va qiyin tajriba ishlardira o'mini bosishi mumkin. Robotlashtirilgan tajriba qurilmalari afzalliklariga shubhasiz tadqiqotlarning sifatiroq bo'lishi, ma'lumotlarni qayd etishning keng ko'lami va yuqori qiliqligi kiradi.

Kursantlar fizika fanining o'rganilayotgan mavzusini yuzasidan nazariy ma'lumtlarni chuqurroq o'rganganlaridan so'ng topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Mavzu materialini chuqur o'rganish maqsadida topshiriq taqdim etish mumkin. Agar kursantlarning ixtiyorida robotlashtirilgan dizayn to'plamlari bo'lsa dizayn topshiriqlari kursantlarga vazifa sifatida taklif qilinishi mumkin.

Robototexnika bo'yicha tashkil etilgan kurslar doirasida kursantlar loyihalar ustida ishlashi mumkin. Kursantlar tomonidan bajarilgan bunday loyiha ishlari natijalari fizika mashg'ulotlarida ko'rsatilishi va muhokama qilinishi shart.

Fizika fanida robototexnikani o'rganish ob'yekti sifatida, uni o'quv jarayonida qo'llash tahlilini sarhisob qilar ekanmiz, ushbu faoliyatning samaradorligi uchun shart-sharoitlarni yaratish lozimligi o'z isbotini topadi. Robotlarni modellashtirish va loyihalash jarayonining fanlararo tabiatini tushunish asosida robototexnikaning ilmiy asoslarini o'rganish, shu bilan bir qatorda fizika, matematika, informatika kabi fanlar alohida o'rinn tutadi.

Ta'limga sohasida robototexnikani rivojlanishining dolzarbli sanoat tarmoqlari uchun muhandislik-texnik kadrlarni

tayyorlash zarurati bilan bog'liq. Shu munosabat bilan ta'limga sohasi oldida robototexnikani ta'limga jarayonining turli darajalariga kiritish vazifasi turibdi. Yurtimizning bir qator mintaqalarida o'quv robototexnikasi juda jadal rivojlanmoqda: professor-o'qituvchilar tomonidan mutaxassislar tayyorlanmoqda, uslubiy materiallar ishlab chiqilmoqda, o'quv filmlari ishlab chiqarilmoqda, o'quv robototexnika dizaynerlarining professional tanlovlari va ko'rgazmalari tashkil etilmoxda, aloqalar o'rnatalmoqda. Olyi ta'limga muassasalarining o'quv robototexnikasi sohasidagi faoliyatini tashkil qilish uchun bugungi kunda bozorda bir qator konstrukturlar taklif qilinmoqda, ular o'quvchiga konstruktorsiyani tezda yig'ish, sensorlar va elektr motorlarini ulash, dastur tuzish va robot modelini ishga tushirish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, robotlarni yig'ish uchun deyarli barcha o'quv to'plamlari xorijda ishlab chiqarilgan[I]. Ko'pgina ta'limga muassasalarida robototexnika darslarini tashkil qilish uchun eng mashhur konstruktur bu LEGO MINDSTORMS konstruktori (Daniya) hisoblanadi. Ushbu konstrukturlar 1998 yildan beri ishlab chiqarilgan va nafaqat yurtimizda, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarda keng tarqalgan. LEGO qismlarining yuqori sifati yetarli kuch, xavfsizlik, maxsus asboblarini talab qilmaydigan yig'ish qulayligi bilan birlashtirilgan. Ammo ushbu tizimlardan faqat maktab yoshidagi o'quvchilar foydalanishi mumkin. Olyi ta'limga uchun esa ushbu tizimlarning analogini ishlab chiqish asosiy vazifa hisoblanandi. Konstrukturlarning dasturlash tizimlari bolalarning mos yoshiga moslashtirilgan. Bosqichma-bosqich ko'rsatmalar, o'quvchiga tavsiyalar, darslarni ishlab chiqish, o'quv kurslari ko'rinishidagi turli to'plamlar uchun uslubiy va didaktik yordam mavjud. LEGO to'plamlari bilan mos keladigan uskunalar ishlab chiqaradigan bir qator kompaniyalar (HiTechnic, Mindsensor, Vernier) mayjud bo'lib, bu sizga asosiy dizaynerning imkoniyatlarni sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Masalan, Vernier Software and Technology va LEGO Corporation o'rasisidagi hamkorlik natijasida Vernier sensorlarini MINDSTORMS konstruktorni boshqaruvchi NXT kompyuterlashtirilgan qurilmasi bilan ishlatish imkonini beruvchi adapter va dasturiy ta'minot yaratildi. MINDSTORMS dasturiy ta'minotining ikkinchi versiyasida ma'lumotlarni ro'yxatga olish va grafik taqdim etish funksiyasi qo'shildi. Shunday qilib, LEGO MINDSTORMSning asosiy to'plamidan o'quv eksperimentlarini o'tkazish uchun vosita sifatida foydalanish mumkin bo'ldi. Maktab o'quvchilarining dizayn va qurilish qobiliyatlarini rivojlanishiga uchun LEGO kompaniyasi LEGO Digital Designer kompyuter quvватли дизайн тизимини яратди, унда siz virtual rejimda kompyuterda istalgan LEGO to'plamidan dizayn yaratishingiz va keyin bosqichmabosqich ko'rsatmalar yaratishingiz mumkin. O'quv jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish uchun LEGO fizika va texnologiya bo'yicha bir qator maxsus to'plamlarni ishlab chiqaradi.

**Xulosa va takliflar.** Olib borilgan tad-qiqotlar natijasida quyidagi hulosalarni keltirib o'tamiz:

1. Olyi harbiy ta'limga muassasalarini kursant va tinglovchilarining texnik ijodkorligi robototexnik ob'yektlari infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari bilan bog'liqdirdi.

2. Pedagogik tajriba-sinov ishlari robototexnikani qo'shimcha ta'limga sifatida emas, balki asosiy ta'limga sifatida kiritilib, undan samarali foydalanishning yechimlarini topishga imkon beradi.

3. Robototexnikani tadbiq etishda fizika fani bo'yicha zarur o'quv qo'llanmalar, robototexnika ta'limi bo'yicha to'plamlar va maxsus dasturiy ta'minotlar zarurligi oydinlashdi. Texnologiya sohasidagi va tabiiy hamda matematika fanlar o'rasisidagi aloqani tiklash o'quv jarayonining samaradarligini oshiradi.

4. Robototexnikaning ilmiy asoslarini olyi o'quv yurtlaridagi fizika fanining asosiy o'quv dasturlarida kiritish ta'limga uzyviyligi ta'minlashning asoslaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, robototexnikani fizika fani bo'yicha o'quv jarayoniga joriy etish kursantlarda politexnik bilimning rivojlanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida soha

yuzasidan bir qancha innovatsion ishlanmalarni shakllanishiga olib keladi.

### ADABIYOTLAR

1. Ильин И. В. Оспенникова Е. В. Систематизация и метауровень обобщения технического знания как одно из направлений реализации принципа политехнизма в обучении физике // European Social Science Journal. 2012. № 3. С. 111–118.
2. Нанотехнологии как ключевой фактор нового технологического уклада в экономике / под ред. С. Ю. Глазьева и В. В. Харитонова. М. : Троянт, 2009.
3. Ньютон Б. Создание роботов в домашних условиях: пер. с англ. Е. А. Добролежина. М: НТ Пресс, 2007.
4. Параксевов А. В. Левченко А. В. Современная робототехника в России: реалии и перспективы // Политехнический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета. 2014. № 104(10). URL: <http://ej.kubagro.ru/2014/10/pdf/116.pdf>.
5. Предко М. 123 эксперимента по робототехнике: пер. с англ. В. П. Попова. М. : НТ Пресс, 2007.
6. Оспенников Н. А, Оспенникова Е. В. Формирование у учащихся обобщенных подходов к работе с моделями // Известия Южного федерального университета. Педагогические науки. 2009. № 12. С. 206–214.
7. Физические исследования с Vernier и LEGO Mindstorms NXT: лабораторные занятия по науке и технологиям, проектированию и математике с использованием датчиков Vernier. Бивертон: Vernier Software and Technology (США, штат Орегон), 2009.
8. Carberry, A.R. & McKenna, A.F. Exploring students' conceptions of modeling and modeling uses in engineering design. Journal of Engineering Education, 2014 Vol.103, No.1, pp.77-91. URL: <http://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1002/jee.20033/pdf>.
9. Шамало Т. Н., Мехнин А. М Формирование ценностных ориентаций учащихся в процессе политехнической подготовки на уроках и во внеурочной работе по физике // Педагогическое образование в России. 2012. № 5. С. 230–234.
10. Bers, M., et al., Teachers as Designers: Integrating Robotics in early Childhood education. Information Technology in Childhood Education, 2002: pp. 123–145.
11. Белиловская Л.Г., Белиловский А.Е. Программируем микрокомпьютер NXT в LabVIEW. – М.: ДМК-Пресс, 2013
12. Вязовов С.Я., Калягина О.Ю., Слезин К.А. Соревновательная робототехника: приемы программирования в среде EV3: учеб.-практ. пособие. – М.: Перо, 2014.
13. Ершов М.Г., Оспенникова Е.В. Образовательная робототехника как инструмент познания в учебном процессе по физике // Вест. Челяб. гос. пед. ун-та. – 2015. – № 3. – С. 109–124.
14. Ильин И.В., Оспенникова Е.В. Систематизация и метауровень обобщения технического знания как одно из направлений реализации принципа политехнизма в обучении физике // European Social Science Journal (Европейский журнал социальных наук). – 2012. – № 3. – С. 111–118.
15. Ноф Ш. (ред.) Справочник по промышленной робототехнике. – М.: Машиностроение, 1989
16. Оспенников Н.А., Оспенникова Е.В. Формирование у учащихся обобщенных подходов к работе с компьютерными моделями // Изв. Южн. федер. ун-та. Пед. науки. – 2009. – № 12 – С. 206–214.
17. Параксевов А.В., Левченко А.В. Современная робототехника в России: реалии и перспективы. // Политехмат. сетевой электрон. науч. журн. Кубан. гос. аграрн. ун-та. – 2014. – № 104 (10). – URL: <http://ej.kubagro.ru/2014/10/pdf/116.pdf> (дата обращения: 09.03.2015).
18. Физические исследования с Vernier и LEGO Mindstorms NXT: лабораторные занятия по науке и технологиям, проектированию и математике с использованием датчиков. – Vernier. Бивертон: Vernier Software and Technology (США, штат Орегон). – 2009.



**Zebo NURMONOVA,**

"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

E-mail:z\_nurmonova@gmail.com

O'zMU professori M.Nurmatova taqrizi asosida

## XOTIN-QIZLAR IQTISODIY FAOLLIGI VA IJTIMOIY INSTITUTLARDA DISKRIMINATSION ME'YORLAR: DUNYO TAJRIBASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijtimoiy institutlar va ulardag'i xotin-qizlarga nisbatan diskriminatsiya hamda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligiga ta'sir qiluvchi kamsituvchi ijtimoiy me'yorlarni tartibga solish bo'yicha xorijiy amaliyotlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Diskriminatsiya, ijtimoiy institutlar, kamsituvchi ijtimoiy me'yorlar, gender indeksi, xotin-qizlar iqtisodiy faolligi, SIGI indeksi.

## ЖЕНСКАЯ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ И ДИСКРИМИНАЦИОННЫЕ НОРМЫ В СОЦИАЛЬНЫХ ИНСТИТУТАХ: МИРОВОЙ ОПЫТ

Аннотация

В данной статье рассматриваются социальные институты и зарубежная практика по регулированию дискриминационных социальных норм, затрагивающих экономическую активность женщин и дискриминации женщин в них.

**Ключевые слова:** Дискриминация, социальные институты, дискриминационные социальные нормы, гендерный индекс, экономическая активность женщин, индекс SIGI.

## WOMEN'S ECONOMIC ACTIVISM AND DISCRIMINATORY NORMS IN SOCIAL INSTITUTIONS: WORLD EXPERIENCE

Annotation

This article examines social institutions and foreign practice in regulating discriminatory social norms affecting women's economic activity and discrimination against women in them.

**Key words:** Discrimination, social institutions, discriminatory social norms, gender index, women's economic activity, SIGI index.

**Kirish.** Dunyoda 30,5 foizdan ziyod oila o'z daromadlarining asosiy manbai bo'lgan xotin-qizlarning ish haqini hisobiga yashaydi. Yevropada 60,5 foiz oilada xotin-qizlarning daromadlari budgetning yarmini yoki undan ko'prog'ini tashkil etadi. Dunyoning 142 davlatida o'tkazilgan so'rovnomaga natijalariga ko'ra, xotin-qizlarning 29,0 foizi ish xaqi to'lanadigan ishda, 41,2 foizi oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish va ish bilan band bo'lish, faqat 27,5 foiz xotin-qizlar esa ish bilan band bo'lismi xohlasmaydilar[1].

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda xotin-qizlar orasidagi ishsizlik darajasi 5,3 foizni tashkil etadi, Qozog'istonda – 5,6%, Rossiya – 4%, Ozarbayjonda – 6,5%, Belorusda – 2,8%, Bangladeshda – 6,5%, Xitoyda – 4,3%[2].

Darhaqiqat, butun dunyoda xotin-qizlarning 40 foizi ijtimoiy institutlarda kamsitish darajasi yuqori yoki juda yuqori deb baholanadigan mamlakatlarda yashaydi[3]. Ijtimoiy institutlar jamiyatdagi xatti-harakatlarni tartibga soluvchi rasmiy va norasmiy qonunlar, me'yorlar va amaliyotlarning o'rnatilgan majmuuni anglatadi. Bu institutlardagi diskriminatsiya butun dunyo bo'ylab ayollar duch kelayotgan tengsizliklarning asosini tashkil etadi. Shuning uchun gender tengligiga erishish kamsituvchi ijtimoiy me'yorlarni gender teng huquqli me'yorlarga aylantirishni talab qiladi.

**Materiallar va metodlar.** Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan tuzilgan Ijtimoiy institutlar va gender indeksi (SIGI) 179 davlatda ijtimoiy institutlarda xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning mamlakatlارaro ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Indeksning asosiy principi shundan iboratki, ijtimoiy institutlardi gender muammolari, masalan, ishchi kuchi, qashshoqlik darajasi, ijtimoiy cheklash, ta'lim, zo'ravonlik va hukumatning amaldorlari pozitsiyalarini oldidagi zaiflik jamiyatda gender tafovutlariga olib keladi. Qonunlar, ijtimoiy me'yorlar va amaliyotlarni hisobga olgan holda, SIGI siyosatdagi inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun gender tengsizligining asosiy omillarini qamrab oladigan

zarur ma'lumotlarni taqdim etadi. SIGI indeksi to'rtta tarkibiy indeks(o'lchov)dan iborat. Bular quyidagilar:

1. Oilada diskriminatsiya(kamsitish) (diskriminatsion oila kodeksi);  
2. Jismoniy daxlsizlikni cheklash;
3. Ishlab chiqarish va moliyaviy resurslardan foydalanishning cheklanganligi;
4. Fuqarolik erkinliklarining cheklanganligi.

Nizoli oilalarning jamiyatda xavf guruhi kirishining muhim xususiyati shundaki, bunday oilaviy nizo ta'sirida noxush hodisalar: har xil asab tizimi bilan bog'liq kasalliklarning kelib chiqishi, har xil jinoyatlar, qotilliklar, o'z joniga qasd qilish, xiyonat, oilada begonalashuv, bolalar tarbiyasining buzilishi va shu kabi qator ko'ngilsiz holatlar kuzatiladi. Bu esa boshqa ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuningdek, oilada nizolashuvchi tomonlar jamiyatdagi yana boshqa tuzilmaning ishtirokchisi hisoblanar ekan, asosiy tuzilma bo'lgan oiladagi mavjud nizoli holat va kayfiyat o'z-o'zidan ikkinchi faoliyatga, tuzilmaga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham oilaviy nizo va ziddiyatlar nafaqat oilaga balki butun jamiyatga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha 2023-yil yanvar-sentabr oylarida 184,5 minga nikoh qayd etilgan bo'lsa, 37,7 mingda nikoh bekor qilingan. 2022-yil yakunlari bo'yicha natijalarni e'lon qildi. Unga ko'ra 2022-yil nikohni qayd etish ko'rsatkichlari undan oldindi yildan past natijani qayd etgan, shuningdek, oilaviy ajrim holatlari esa 2021-yilgi holatdan oshganini ko'rishimiz mumkin, xususan, 2022-yilda 296 689 nafar nikoh qayd etilgan bo'lsa, bu 2021-yilga nisbatan 2,8 % ga kamaygan. Oilaviy ajrim holatlari esa 48 734 nafarni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 23,9 % ga ko'paygan[2].

Ushbu raqamlar oilaviy nizolar va ularni oldini olish, shuningdek, bugungi oilaviy munosabatlarni tahlil qilish, oilaviy nizolarni o'ziga xosliklari, oilaviy nizolarni oldini olish, bartaraf etish yo'nalishlariga alovida e'tibor qaratishimiz, nizoli oilalar bilan ishslash texnologiyasini o'zgartirishimiz kerakligini ko'rsatmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi zamonaviy oilalardagi o'zaro munosabatlari, yuzaga kelayotgan nizolar, oilaviy ajrimlar va uning salbiy oqibatlari keyingi yillarda dunyo miqyosida ijtimoiy fanlar olimlarining asosiy tadqiqot obyektiiga aylanib bormoqda. Shu sababdan mazkur yo'nalishda ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu borada G'arb olimlaridan X.T.Kristensen, Garri Peterson, Lourens Stoun; rus olimlaridan S.V.Kovalev, N.N.Obozhev, Masherov, Yu.T.Timofeyevlar tomonidan oilalardagi bugungi munosabatlар, ajrimlar va nizolar ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilingan.

O'zbekistonda ijtimoiy ishning asosiy obyekti bo'lgan oila institutining sotsiologik tahlili, oilalardagi er-xotin va farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik tahlili, oilalarga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, shuningdek, oilaviy ajrimlar va ularning salbiy oqibatlari, nizoli oilalar bo'yicha professor M.M.Ganiyeva, professor N.M.Latipova, dotsentlar: A.A.Abduxalilov, V.S.Alekseyeva, E.X.Zaitov[3] kabi tadqiqotchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma'lumotlarning tizimli, tarixiy va qiyosiy tahlili, ekspert so'rovnomasi, hujjatlarni tahlil qilish usuli orqali shakllantirilgan.

**Tahlil va natijalar.** Oldingi davrlarda ham, hozirgi kunda ham oilaviy nizolarning aksariyatini er-xotin o'rta-sidagi nizolar tashkil etadi.

Mutaxassislar er-xotin o'rta-sidagi oilaviy nizolar natijasida yuzaga keladigan ajralishning birlinchi bosqichi hissiy aloqalarni yo'qolishi bilan boshlanadi. Keyingi bosqichda jismoniy ajralish bo'lib, bunda er-xotin birgalikda yashash tarzidan voz kechishgan jarayon bo'ladi. Mazkur jarayonning davom etishi keyingi bosqich - haqiqiy ajralish (oila xo'jaligini yuritish, oila byudjetini birgalikda boshqarishni tugatish, ba'zida bolalarni alohida tarbiyalash) ga olib keladi. Yakuniy bosqichda esa - qonuniy ajralish bo'ladi.

Oilaviy ajrimlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari mavjuddir. Bu xususiyatlari oilalarning buzilishiga olib keladigan sabablar, ularning amalga oshish jarayoni, oqibatlari, ajralishgacha va undan keyingi davrildagi er-xotinlarning ahvoli kabilarda ifodalanadi. Shunday xususiyatlardan biri ajralish niyatini bildirib rasmiy tashkilotlarga murojaat qiluvchi ajralish tashabbuskori kim ekanligida namoyon bo'ladi. Sharq oilalarida, ayniqsa o'zbek (qishloqlarda) oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq erkaklar bo'ladi va aksincha, Yevropa xalqlari oilalarida, yosh oilalarda va urbanizatsiyalashuv darajasi yuqori bo'lgan shahar oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq ayollar bo'ladi.[4]

Biz sizga ajralishlarning sabab-oqibatlari haqida fikrmulohazalarimizni bildirishdan oldin o'zbek oilalarda ajralishlarning o'ziga xos xarakteri, ya'ni boshqa (ayniqsa chet mamalakatlaridan) millatlardan farq qiluvchi jihatlariga to'xtalib o'tishni lozim topdik. Bu quyidagi obyektiv omillarga bog'liq bo'lishi mumkin:

- birinchidan, qishloq joylarda ajrashgan ayol erkakka nisbatan jamoatchilik tomonidan ko'proq tanqidiy muhokama qilinadi;
- ikkinchidan, qishloq joylarda ajralishgandan so'ng ayollarning ahvoli erkaklarga nisbatan yomonlashadi, negaki o'zbek millatidagi o'ziga xos urf-odatlar o'zbek ayolinining uy-joylarni eriga qoldirib, o'z ota-onasini kiga (uning aka-ukalari o'z oilasi, xotini, bolalari bilan yashayotgan va ajrashgan ayol uchun ahvolni yanada jiddiylashtiruvchi joyga) borib yashashga majbur bo'ladi;
- uchinchidan, qishloq ayollarida ajralishgandan so'ng qayta oila qurish imkonini nihoyatda kamdir.

Mana shu obyektiv sabablarini hisobga olgan holda qishloq joylardagi o'zbek ayollarini muammoli (er-xotin orasidagi munosabatlar niyoyatda ziddiyatlari, nizoli, ular orasidagi mehr-oqibat yetarli ifodalanmagan oila) nikohga ham ko'nikiib yashayveradilar. Ba'zi ayollar, aslida eri bilan birga yashamayotgan bo'lsalar-da (hatto yillab), erlaridan "o'ch olish" maqsadida, uning boshqaga uylanishiga yo'l qo'ymaslik uchun rasmiy ravishda, sud orqali ajrashishga ko'nmaydilar. Qishloq joylardagi ajralishgan erkaklar ayollarga nisbatan bir muncha imtiyozli vaziyatda bo'ladi: ular ajralishgandan so'ng o'z yaqinlari tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanadi. Bolasi yo'q bo'lgan holatda esa ajralishgan erkak uchun turmushga chiqmagan ayolga uylanish sezilarli darajada muammo tug'dirmaydi. Bundan tashqari u ajralishdan so'ng oldingi sharoitda o'z (ota-onasining) uyida qoladi va navbatdagi yangi oila qurish imkoniga ega bo'ladi. Shuning uchun qishloq joylarda ajralishlarning tashabbuskorlari ko'proq erkaklar bo'ladi. Agar ajralish "ozodlik" deb hisoblanadigan bo'lsa, unda hozirgi zamon nikoh-oila qonunchiligiga ko'ra bu "ozodlik" "kimga qanchaga tushadi?"

Oilaviy ajrimlar jamiyat uchun ham salbiy oqibatlarni olib keladi, xususan, noto'liq oilalar soni ko'payadi, oilalararo yoki qarindoshlararo adovat yuzaga keladi, bir jinsning ikkinchi jinsiga nisbatan nafrati paydo bo'ladi, fohishabozlik ortadi, teritanosil kasalliklarning ortishi kuzatiladi, shaxsnинг ijtimoiy faoliogi susayadi. Erkak uchun yolg'izlik hissining ortishi, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, turli kasalliklar, ayollar

uchun esa yolg'izlikni his qilishning ortishi, qayta oila qurish imkoniyatining cheklanganligi, nevrozlar, stresslar, turli xastaliklar, o'z joniga qasd qilish. Yuqoridagilar bilan birga, o'zbek oilalar ajralishganda o'zgacha xususiyatlari ham kuzatiladi.

Psixolog olim Fahriddin Ro'ziqurov ajralishning asoratlari mavzusida o'tkazgan maxsus tadqiqot natijalariga ko'ra aksariyatlari holda ajralish qurboni ayol bo'ladi. Ya'ni ajralish erkaklarga nisbatan ayollarni kelgusi oilaviy baxtiga, bolalarning tarbiyasiga, oila byudjetiga, ayloning salomatligiga, o'z ota-onasi bilan bo'lgan ota-onasi va farzand munosabatlariga, ajralishgan ayloning ruhiyatiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ayol uchun katta hayotiy muammolarini - qayta oila qurish va yolg'izlik muammosini keltirib chiqaradi. Bu qishloq va shahar ayollarida deyarli bir xil ifodalananadi. Ammo shaharlik ayollar shahar turmush tarzida jinsiy xulq jihatdan birmuncha erkin bo'lganlari hamda o'z kasb faoliyatlar bilan faol shug'ullanганлари тufayli qishloq ayollariga nisbatan yolg'izlikdan kamroq jabr ko'radilar.

Noto'liq oiladagi bolalar tarbiyasi. Noto'liq oila haqida gapirilganda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, noto'liq oilalar ham turlicha yuzaga keladi. Oilalar er-xotinlardan birining vafot etganligi tufayli yoki ularning ajralishi tufayli noto'liq bo'lib qolishi mumkin. Albatta, oilada ota yoki onanining vafot etishi bu ulkan fojia, avvalo, bu fojia hech kimning boshiga tushmasin, lekin bunday oilalarda marhumning ruhi hurmati, unga nisbatan, uning sha'niga ijobiy munosabatlar saqlanib qoladi. Biroq er-xotinning ajralishi sababli yuzaga kelgan noto'liq oilalarda "tirik yetim" bolalar qoladi. Birinchidan, "tirik yetimlik" jamoatchilik o'rta-sida, ayniqsa bolalar jamoalarida (bog'chada, maktabda, tengdoshlar davrasida) nisbatan kuchliroq qoralanadi. Ikkinchidan, bunday oilalarda ota yoki ona tomonidan, ularning yaqinlari tomonidan sobiq turmush o'rtog'i sha'niga, uning shaxsiyatiga salbiy bo'yoqlar beruvchi munosabatlar shakllanadi. Sobiq er-xotinlar tomonidan bir-birlarini qoralovchi fikrmulohazalar ko'proq bildiriladi. Bular albatta, bu toifa noto'liq oilalardagi o'zaro munosabatlarning shakllanishida qator noxushliklarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Ajralish faqtgina ajralgan er-xotinlar emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatar ekan. Ayniqsa ajralish otasiz o'sayotgan qiz bolaning his-tuyg'ulariga, otasiga bo'lgan mehriga, qiz bolada shakllanadigan ota obraziga va otasiz o'sayotgan qizning ruhiyatiga kuchli salbiy ta'sir qiladi. Bu esa nafaqat qiz bolaning bolalik davrida balki kelgusida o'zi mustaqil oila qurganda ham o'z asoratini ko'rsatishi mumkin. Ko'p tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha va rivoyatlarda ifodalanimishicha ilmiy jihatdan o'z tasdig'ini topganligi asosida o'z otasiga mehr va hurmati yetarli ravishda shakllanmagan qiz kelajakda oila qurganga turmush o'rtog'iga ham hurmatini yetarli ravishda ifodalary olmaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra ajralish oildagi otasiz o'sayotgan o'g'il bolaning o'qishiga va tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi kuchli bo'lar ekan. Shu bilan birga ajralish

Nizoli vaziyatni yuzaga keltiradigan qo'shimcha omillar yoki shart-sharoitlar nikoh hayotining ba'zi bosqichlari bo'lib, nazariyotchilar inqiroz bosqichlari deb atashadi: hayotning birlinchi yilidagi inqiroz (moslashish davri); oilada bolalarning paydo bo'lishi (keng doiradagi aralashish sharoitlari); o'rta yoshdagiligi inqiroz (monotoniya mojarosi); taxminan 20 yil yashaydigan oila inqirozi (yolg'izlik va yo'qotish mojarosi, hissiyotlar to'qnashuvu).

Shuningdek, turmush o'rtoqlarning ijtimoiy hayotining tashqi sharoitlari, ularning qiyinchiliklari bevosita oilaviy munosabatlarning tabiatida (mehnat muammolar, moliyaviy ahvolning yomonlashishi, uy-joy muammolar va boshqalar) aks etadi.

Oilaviy (er-xotin) nizolar bir necha turlarga bo'linadi.

Nizoli oila – bu ko'p sohalarda turmush o'rtoqlar manfaatlarining to'qnashuvu, munosabatlarda salbiy hiss-tuyg'ularning ustunligi.

Muammoli oila – bu turmush o'rtoqlar o'rta-sidagi munosabatlarning keskinlashuviga olib keladigan umumiy ijtimoiy muammolarning uzoq muddatli mavjudligi. Inqirozli oila

- faoliyatning eng muhim sohalarida turmush o'rtoqlar manfaatlarining keskin to'qnashushi, murosasiz munosabatlarning tarqalishi, turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlari, yon berishni istamaslik.

Nevrotik oila - bu turmush o'rtoqlarning farovonligini yomonlashtiradigan psixologik va ijtimoiy qiyinchiliklarning to'planishi, buning natijasida oilaning psixologik mikroiqlimi buziladi.

Shuningdek bugungi kunda ko'p tarqalib borayotgan oilaviy nizolardan biri ota-onasi va farzand o'rtasidagi nizolardir. Bu toifadagi nizolarga ota-onasi farzandiga o'z munosabati va tushunchalariga muvofiq xulq -atvorning ma'lum me'yorlari va qoidalarini singdirishga harakat qiladi. Aksariyat holatlarda ijtimoiylashuv jarayonidagi, o'sib borayotgan farzand kattalarning bosimini sezadi va nazoratdan chiqishga intiladi va erkinlik uchun, o'zi mustaqil ish yuritish uchun harakat qiladi. Ushbu jarayonlar ota-onasi va farzand o'rtasidagi ziddiyatning yuzaga kelishiga sababchi bo'ladi.

Bugungi kunda farzandlar quydagi ishlarni ota-onalari va boshqa yaqin qarindoshlaridan holi ravishda o'zi mustaqil bajarishga harakat qilishmoqda:

- dunyoqarashlar borasida, bugungi kun talabi doirasida kiyinish va tashqi qiyofa borasida;
- yoshlarning bo'sh vaqtini mustaqil tashkil etishi, do'st tanlashdagi mustaqillikka intilish;
- mehnat faoliyatida erkinlik hamda turmush o'rtoq tanlashdagi mustaqillik va boshqa jihatlarda ko'rish mumkin.

Farzandlar bu borada mustaqillikka intilib, ota-onalar tomonidan bo'ladigan nazoratni bajarmasligi, aks javob qaytarish va shunga o'xshash holatlар kuzatilmoqda. Bu esa bugungi kunda yoshlar tarbiyasining og'ib ketish jarayoni ota-onaga nisbatan munosabatning salbiylashushi, oilaga nisbatan yuzaki va engil qaraganligi sabab oila qurganda oilaviy ziddiyat va nizoga sabab bo'lmoqda. Ba'zi ota-onalar farzandlarini mehnat qilishga, kasb-hunarga o'rgatmaganligi ularning yengil-yelgi hayotga o'rganib qolganligi, keyinchalik ota-onalari oldidagi farzandlik burchini unutishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasida: "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatlari farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar"-deb ko'rsatilgan.

Shu o'rinda farzand tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan ayrim ota-onalarning ham tarbiyaga muhtoj ekanligini, farzandi uchun vaqt ajratmasligini, bo'sh vaqtini farzand tarbiyasiga ajratish o'rniga ijtimoiy tarmoqlarga, ish bilan bog'liq boshqa masalalarga band qilayotganligi, shuningdek, o'zlar farzand uchun namuna bo'la olmayotganligida ko'rish mumkin. Bu xususida buyuk jadid ma'rifatchisi A. Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir"-deb bejiz aytmagani.

G'.B.Shoumarovning "Oila psixologiyasi" darsligida oila psixologiyasining umumiy asoslari, oila tasniflanishi, nikoh oldi omillari xususiyatlari va ularning nikoh mustahkamligiga ta'siri, oilada shaxslararo munosabatlari va muloqot psixologiyasi, oilaviy

#### ADABIYOTLAR

1. D.Abdullayeva, R.Yakubov, "Oila psixologiyasi" "Tafakkur gulshani" 2015.
2. O'zbekiston Respublikasining demografik holati, 2022-yil yanvar-dekabr. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasini ma'lumotlari.
3. Kholmatovich Z. E. THE ESSENCE AND SIGNIFICANCE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL MENTALITY //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – T. 21. – C. 271-277. Kholmatovich Z. E. et al. The Role Of Guardianship And Trusteeship In The Social Protection Of The Interests Of Socially Orphaned Children //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – №. 2. – C. 2-2. ZAITOV E. Retrospective Approach to Scientific Researches on "Orphan hood" at Different Periods //Ecless Online 2020a. – 2020. – C. 103. Заитов Э. Х. Институционал Муассаса Билимчиларини Жамиятга Ижтимоийлашувининг Устувор Йўналишилари //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2020. – №. SI-1.
4. Kovalev S.V. Psixologiya sovremennoy semi. –M.: 1988.
5. Oilani o'rganish psixodiagnostika metodikalari. Tuzuvchilar: N.A.Sog'inov, F.G.Habibullaev. –T.: 1996. –38 b.
6. Shoumarov Sh.B., Shoumarov G'.B. Muhabbat va oilaviy hayot. –T.: —Ibn Sinol, 1996. –96 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80 b.
8. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi: Akademik litsey va hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. / G'.B.Shoumarov tahriri ostida/ Toshkent: "Sharq", 2008. -296 b.

nizolar, ajralish, uning sabab va oqibatlari xususida bat afsil so'z boradi. Muallif, ayniqsa, qaynona-kelin nizolarining sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish alohida ahamiyatga molik masala ekanligini ta'kidlaydi va qaynona-kelin munosabatlariagi kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi ayrim sabablarni ko'rsatadi:

1. Ba'zi qizlarda nikohgacha oilaviy hayotga, qaynonaga, qaynona-kelin munosabatlariiga nisbatan salbiy tasavvur shakllangan bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar qaynonani oldindan faqt salbiy qiyofa sifatida tasavvur qiladilar. Keyin esa oila qurib, tasavvuridagi emas, balki hayotdagi qaynona bilan yashay boshlaydilar. Oqibatda ular o'z tasavvuridagi qaynonaga xos bo'lgan kamchilik va illatlarni hayotdagi qaynonadan axtara boshlaydilar. Natijada bu keyinchalik qaynona va kelin o'rtasida nizoga olib kelishi mumkin;

2. Qaynona-kelinning dunyoqarashlari va uy-ro'zg'or tutishlari orasida kelishmovchilik paydo bo'ladi va keskinlashadi;

3. Ba'zi kelinlar kelinlik va onalik vazifalarini bajarishga tayyor bo'lmaydilar;

4. Ayrim hollarda qaynona-kelin bolalar tarbiyasi masalasida kelinsha olmay qoladilar;

5. Ba'zan katta xonadonda ovsinlar, qaynona iltifotini qozonish yo'lida bir-birlaridan rashk qilishlari asosida kelishmovchiliklari kelib chiqadi;

6. Qaynona kelinning yosh xususiyatlari, qiziqishini, orzu-havaslarini, ishlashi yoki o'qishini hisobga olmaydi.

7. Ayrim kelinlarning yangi oilaga moslashishi qiyin bo'ladi, oqibatda qaynona-kelin orasida kelishmovchiliklari kelib chiqadi.

Har bir oilaning o'ziga xos muhiti, qonun-qoidalari, an'analari, atrofda yuz berayotgan voqe'a-hodisalarga beradigan baho mezonlari, hatto shu xonadon a'zolari tushunadigan, shartli ravishda qabul qilingan so'z va iboralar bo'ladi. Yangi kelin yangi hayotga kirganda, yangi oilaga kelganda o'zi o'sgan oilaning muhitini, odat va ko'nikmalarini ham olib keladi. Shunga ko'ra, ayrim hollarda kelin va qaynonanining oilaviy muhitlari mos kelmay qoladi.

Shuningdek, oilaviy nizolar toifasiga aka-uka yoki opasingillar o'rtasidagi nizolarni ham keltirish mumkin. Lekin bu toifadagi nizolar ijtimoiy dolzarbliji jihatdan muhim hisoblanmaydi, chunki bunda nizolar oila boshliqlari - ota-onalar tomonidan bartaraf etiladi. Bunday turdag'i oilaviy nizolarni mediativ kelishuv orqali hal qilishga hojat qolmaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, oilaviy munosabatlarda nizoli vaziyatini oldini olish, oilaviy qadriyatlarini saqlab qolish muhim masala bo'lib bormoqda. Nizoli oilalar yoki ajrashgan oilalar esa jamiyatda xavf guruhi sifatida, ularning farzandlari jiyatchilikka moyilliqtirishmoqda, ta'lim va tarbiya jihatda orqada qolishmoqda. Biz ushbu holatda vaziyatni to'g'ri baholab, oilaviy nizolarni bartaraf etish va oldini olish bo'yicha muhim choralarini ko'rmas ekanmiz, oila deb atalmish muqaddas dargohga darz etadi.



G'olib TULISHOV,

O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

"Renessans" ta'lif universiteti dotsenti PhD J.Jo'raqulov taqrizi asosida

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIV KOMPETENTLIK TUZILMASI, MAZMUNI VA O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Mintaqa iqtisodiyotini hozirgi inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishlari doirasida ta'lif tarbiya va innovatsiyalarni joriy qilishda kreativlik insonning "nostandard vaziyatlardagi faoliyati, ijodiy imkoniyatlari (qobiliyatlar)" sifatida ta'riflanadi. Ular tafakkurda, his-tuyg'ularda, muomalada, faoliyatning alohida turlarida yuzaga chiqishi, shaxsning yaxlit yoki alohida tomonlari, faoliyat mahsulotlari, ularni yaratish jarayoni sifatida xarakterlanishi haqida fikir mulohaza yuritamiz.

**Kalit so'zlar:** Kompetentlilik, kreativ qobiliyatlar, kompetensiya va kompetentli yondashuv tushunchalar, kreativlik, kreativlik-ijodiylik, ijod, ijodiy faoliyat, ijodiy qobiliyatlar, kreativ salohiyat, kompetent yondashuv.

## СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ И ЕЕ ХАРАКТЕРИСТИКА ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

Креативность определяется как «деятельность, творческие возможности (способности) человека в нестандартных ситуациях» в рамках современных направлений развития человеческого капитала региональной экономики. Мы думаем о том, как они проявляются в мышлении, эмоциях, поведении, в отдельных видах деятельности, как целостные или отдельные стороны личности, как продукты деятельности, как процесс их создания.

**Ключевые слова:** Компетенция, творческие способности, понятия компетентности и компетентностного подхода, креативность, творчество-творчество, креативность, творческая деятельность, творческие способности, творческий потенциал, компетентный подход.

## CREATIVE COMPETENCE STRUCTURE, CONTENT AND ITS CHARACTERISTICS CONTENT OF CONCEPTS OF FUTURE TEACHERS

Annotation

Creativity is defined as "activities, creative possibilities (abilities) of a person in non-standard situations" in the framework of current human capital development directions of the regional economy, education and innovation. We think about how they appear in thinking, emotions, behavior, in particular types of activity, as whole or individual aspects of a person, as products of activity, as a process of their creation.

**Key words:** Competence, creative abilities, concepts of competence and competent approach, creativity, creativity-creativity, creativity, creative activity, creative abilities, creative potential, competent approach.

**Kirish.** Ta'lif tizimiga qaratilayotgan e'tibor izchil davom ettiriladi. Bu borada ham tenglik ta'minlanishi, ... O'zbekistonda keng ko'lamlı, ortga qaytmas tus olgan islohotlar dasturini amalga oshiriyapmiz. Unda asosiy e'tiborni demokratik jamiyat institutlarini mustahkamlash, iqtisodiyotni liberallashtirish, xalqimizning turmush darajasini yuksaltirishga qaratmoqdamiz, deb ta'kidladi davlatimiz rahbari. Shuning uchun tadqiqot ishining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda bo'lajak o'qituvchi kreativ kompetentligi fenomeni asosida yotgan qator nazarli tushunchalarni aniqlashtirish va taysiflash muhim va dolzrab masala hisoblanadi. Inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishlari doirasida ta'lif tarbiya va innovatsiyalarni joriy qilishda kreativ qibiliyatlar zarur keryativ-bu individ uchun yangi faoliyat jarayonida (yangi masala, muammolarni yechish jarayonida) paydo bo'ladigan, shaxsning yangi holatlari (tafakkurda, idrokda, hayotiy faoliyat tajribasida, motivasion sohada) va individual-psixologik xususiyatlari sintezidir. Bu yangi mahsulotning (g'oyalar, predmetlar, badiiy asarlar va h.k.) sub'yektiv ob'yektiv paydo bo'lishi yoki uning muvaffaqiyatli bajarilishiga olib keladi degan N.V.Kondratyev [1].

Mintaqada ta'lif tarbiya va innovatsiyalarni joriy qilishda ijodiy qibiliyatlar taraqqiyoti jarayoni kreativlikning, ijodiy qibiliyatga nisbatan yuksak darajadagi motivatsiyaga ega bo'lgan shaxs turg'un xususiyatining paydo bo'lishiga olib keladi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda kreativ qibiliyatlar har qanday individga xos bo'lib, ular faoliyat jarayonida paydo bo'лади va rivojlanadi. Ijtimoiy, ta'limiylar tarbiyaviy muhit ijodiy qibiliyatlarning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Kreativ kompetentlik tushunchasining ta'rifi, uzlik siz ta'lif tizimida uning shakllanishi va rivojlanishi masalalari, shuningdek ilgari o'tkazilgan tadqiqotlarning konkret predmeti sifatida ko'rib chiqilishiga ehtiyoj mavjud. Bizning fikrimizcha, bunday tushunchalar quyidagilar: "kompetentlilik", "kompetensiya", "kompetentli yondashuv", "kreativlik", "ijod", "ijodiy faoliyat". Mintaqa iqtisodiyotini hozirgi inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishlari doirasida ta'lif tarbiya va innovatsiyalarni joriy qilishda "Kompetentlilik", "kompetensiya" va "kompetentli yondashuv" tushunchalari ilmiy va metodik adabiyotlarda; amaliy pedagogik, psixologiya va pedagogika va boshqa tadqiqotlarda, shuningdek olimlar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va mutaxassislarining kasbiy muomalasida o'tgan asrning ikkinchi yarimlarida 1950-1990 y.y.) ishlatala boshlandi. A.A.Pecherkina, E.E.Simanyuk, Ye.L.Umnikova (2011) lar fikriga ko'ra, "kompetentlilik" tushuncha sifatida XX asrning 50-yillarida ilmiy leksikonda paydo bo'ldi.

Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rtaida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar (Kim, 2005 y.). "Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi va uning negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni egzulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yuye, 2000 y.).

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Garchi g'arblik va sharqliarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.). J.Rovenning fikriga ko'ra (2002), kompetentlilik o'zida tor maxsus bilimlар, malakalar, tafakkur usullari va o'z harakatlari uchun mas'uliyatini tuyushga tayyorgarlikni mujassamlashtirgan konkret predmet sohasidagi konkret harakatlarni amalga oshirish uchun zarur [2]. Biroq, Landsheyer V. (1988) ta'kidlaganidek, g'arb adabiyotida bugungi kunda kasbiy kompetentlikka "chuqurlashtirilgan bilim", "masalalarni adekvat yechish holati", "faoliyatni aktual amalga oshirish qobiliyati" deya berilgan ta'riflar mavjud. G.K. Britell, R.M. Jueger, W.E. Blank va boshqalar mazkur tushunchaning mazmunini to'liq konkretlashtirmaydilar ham [2].

A.V. Xutorskoyning (2003) "Asosiy kompetensiyalar shaxsga yo'nalgan ta'limning komponentlari sifatida" (2003) maqolasida kompetensiya sompetenti shunday masalalarni o'zida mo'jassamlashtiradi, buning natijasi o'laroq inson yaxshi ma'lumotga ega bo'ladi, bilim va tajribani egallaydi. Kompetensiya shaxsning o'zaro bog'liq bo'lgan sifatlari to'plami (bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, faoliyat usullari) dan iborat bo'lib, ular predmet va jarayonlarning ma'lum doirasiga nisbatan munosabatni shakllantiradi va shu munosabatlar bo'yicha sifatli produktiv faoliyat uchun zarur"-degan fikrni ilgari suradi.

Kompetentlik (lot. Competens-mos keluvchi, mos tushuvchi, qobiliyatli, biluvchi) – inson tomonidan mos bo'lgan kompetensiyaning egallanishi bo'lib, u o'zida kompetensiya va uning faoliyat predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatni mujassamlashtiradi. Kompetentlilik faoliyat xarakteristikasi sifatida xodimming real kasbiy faoliyatida egallangan bilimlar, ko'nikmalar, malakalarni hayotga tatbiq qilishga nisbatan qibiliyati va tayyorgarligini belgilaydi. Kompetentlilik-bu shaxsning shakllangan sifati va berilgan sohada faoliyatning minimal tajribasidir [3].

Belaya R.S. (2013) ning fikriga ko'ra, ta'lim taraqqiyotining hozirgi bosqichi kompetentli yondashuv bilan uzyvi bog'liq bo'lib, mohiyatan ta'limdagi nazariy bilimlar bilan kasbiy-amaliy faoliyatning real mayjud ehtiyojlar o'rtaida muvozanatni o'rnatishga nisbatan harakatdir. "Kompetentli yondashuv" kategoriyasini quydagicha interpretatsiya qilish mumkin: bu ta'lim maqsadlarini ta'riflash, ta'lim mazmunini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholashning umumiyligi prinsiplari to'plami [6].

**Natijalar.** Shunday qilib, Zimnyaya I.A. (2004) ta'limda kompetentli yondashuvning paydo bo'lishi va foydalamanishing qator bosqichlarini ajratib ko'rsatadi (kompetentlik tushunchasini ko'rib chiqishga nisbatan yondashuvning o'zgarishlariga bog'liq holda).

Birinchi bosqich (1960-1970 y.) "kompetensiya" kategoriyasining ilmiy apparatga kiritilishi, kompetensiya, kompetentlilik tushunchalarining farqlanishi asoslarini yaratilishi bilan xarakterlanadi. Shu vaqtidan boshlab D.Xayms tomonidan kiritilgan "kommunikativ kompetentlik" tushunchasining lisoniy kompetentlik turli xil turlarining tadqiq qilinishi boshlandi. Ikkinci bosqich (1970-1990 y.) – kompetensiya, kompetentlik kategoriyalari boshqaruvda, rahbarlikda, menejmentda, muomalaga o'qitishda professionalizm bilan xarakterlanadi.

Zimnyaya I.A. (2004) "kompetentlik" tushunchasini ko'rib chiqar ekan, unda ikkita modelni ajratib ko'rsatadi – shaxs va faoliyat modellari, shuningdek kompetentliklarning uchta surʼuhini farqlaydi:

- 1) shaxs sifatida, hayotiy faoliyat sub'yekti sifatida o'z o'ziga nisbatan munosabat bo'yicha kompetentliklar;

- 2) insonning o'zga kishilar bilan o'zaro ta'siriga nisbatan munosabat bo'yicha kompetentliklar;

- 3) inson faoliyatining barcha shakllari va tiplarida yuzaga chiqadigan faoliyatga nisbatan munosabat bo'yicha kompetentliklar.

**Muhokama.** Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaliv pedagogikada "kompetensiya", "kompetentlik" tushunchalarining mohiyati, strukturasi va

mazmunining yagona ilmiy-nazariy talqini ham, shuningdek ular orasida farq ham yo'q. Bu narsa kompetentli yondashuvning ta'lim muassasalarida, pedagogik xodimlarni, shu jumladan maktab o'qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlarida samarali amalga oshirilishini qiyinlashtiradi. Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, kompetentlik tushunchasi kreativlik (kreativ kompetentlik), ijod (ijodi kompetentlik) va ijodiy qobiliyatlar (imkoniyatlar) bilan uzyvi aloqadadir.

Kreativlik nazariyasini ijodkorlardan biri J.Gilford (1965): "kreativlik- ijodiy tafakkurga yordam beradigan shaxs xarakteristikalarining to'plami" -deya ta'rif beradi; Olim fmikricha, "kreativlik turli xil aqliy operatsiyalar, ayniqsa divvergent tafakkurga tayanadi". Rojkova S.V. (2018) "kreativlik"ni quydagicha xarakterlaydi. "Kreativ" tushunchasi ijodiy, yaratuvchilik ma'nolarini anglatadi, inglizcha so'z bo'lgan "creativity" tarjimada shaxsning nisbatan turg'un xarakteristikasini tashkil etadigan ijodiy salohiyat darajasi, ijodga qobiliyat ma'nolarida keladi. N.A. Muslimov fikricha, pedagogik kreativ faoliyat bo'lajak o'qituvchi rivojlanishining bosh mexanizmi bo'lib xizmat qiladi, chunki kreativ pedagog doimiy holda quydagi jarayonlar orqali o'z kasbiy darajasini oshiradi: o'zini o'zi tashkil etish, ijodiy jihatdan o'zini o'zi realizatsiya qilish, kasbiy rivojlanish, faoliyatning yangi bilimlari, metodlari egallanadigan o'ziga o'zi ta'lim berish va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o'tadi.

Bo'lajak o'qituvchini kreativ faoliyatga yo'naltirishda quydagi uchta sohani farqlash lozim:

- 1) metodik ijod (paydo bo'ladijan pedagogik vaziyatlarni tahlil qila bilish ko'nikmasi, metodik modellarni to'g'ri tanlash va qurish, usullarini qura bilish, ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganish hamda ularni pedagog va bolalar jamoasining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda savodxonlarcha amaliyotda qo'llash bilan bog'liq).

- 2) kommunikativ ijod (bolalar bilan o'zaro ta'sir) (mazkur ijod ham bolalar bilan, ham ularning ota-onalari bilan, ham hamkasabalar, ma'muriyat bilan pedagogik jihatdan maqsadga yo'nalgan va samarali muloqotni tashkil qilish; o'zini o'zi regulyerasiya qilish qobiliyati bilan bog'liq).

- 3) ijodiy o'zini o'zi tarbiyalash (konkretni ijodiy individuallik sifatida o'zini anglash, kelajakda takomillashtirish va korrektirovki talab qilinadigan o'z kasbiy-shaxsiy sifatlarini aniqlash, shuningdek uzliksiz o'ziga o'zi ta'lim berish tizimida shaxsliy o'zini o'zi takomillashtirishning uzoq muddatli dasturini ishlab chiqish).

Kreativ tafakkurga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilar:

- boshqa talabalarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi;
- o'zlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi;
- g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi;
- muammoning yechimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlaydi.

N.Qurbanov (2021)ning fikricha, pedagogning kreativ salohiyati – bu ta'lim jarayonini tashkil etish, kasbiy hamkorlik bilan bog'liq bo'lgan turli xil masalalarning innovasion yechimi uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar to'plamidir. Pedagogning ijodiy salohiyati uchta komponentning integratsiyasida o'z ifodasini topadi va shaxsiga taalluqli bo'lgan dinamik strukturaga ega bo'ladi:

- a) pedagogga xos bo'lgan qadriyatl-iijodiy tasavvurlar va afzalliklarni o'zida aks ettiradigan qadriyatl komponent;

- b) pedagog tomonidan uning mehnatining ijodiy xarakterga ega ekanligini tushunishiga yordam beradigan va kasbiy faoliyatini ijodiy tashkil qilishiga ta'sir ko'rsatadigan bilimlar to'plami hisoblangan kognitiv komponent;

- v) ijodiy salohiyatni pedagogning kelgusida rivojlanishi uchun imkoniyatlar yashiringan aktualizatsiya holatiga (pedagogning o'zini kasbiy-shaxsiy realizatsiya qilishi)

ko'chirishga yordam beruvchi elementlarni o'zida jamlagan faoliyat komponenti.

**Xulosa.** Shunday qilib, yuqorida ko'rib chiqilgan tushunchasi va terminlar, bizning fikrimizcha, yaxlit holda bo'lajak o'qituvchilarining kreativ kompetentligining mazmuni, strukturasi va o'ziga xosligini, shuningdek texnologik yondashuv asosida uning diagnostikasi va rivojlanishini belgilab beradigan birlamchi (asosiy) tushunchali-terminologik tizimini tashkil etadi.

Kreativlik tushunchasi turli xil ta'riflarga ega. Ular bir-biridan farq qiladi, biroq ularda ayrim o'xshash elementlar ko'zga tashlanadi, masalan, quyidagilar: o'qituvchining odatdag'i va noan'anaviy vaziyatlardagi faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlab beradigan integrativ kasbiy-shaxsiy xarakteristikasi (Tutolmin A.V., 2009); o'qituvchining innovasionlilik, mobillik, kreativlik singari sifat xarakteristikalarini o'zida jamlagan bo'lajak o'qituvchining integrallashgan kasbiy-shaxsiy xarakteristikasi (Moroxova I.V., 2015); kasbiy ijodiy faoliyatni amalga oshirishga nisbatan pedagogning tayyorgarligini ta'minlab beradigan, maxsus bilim, ko'nikma va motivlarning tizimini hamda kasbiy jihatdan muhim bo'lgan sifatlar to'plamini o'zida mujassamlashtiradigan shaxsning integrativ sifati (Paxtusova N.A., 2015 noan'anaviy vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatini, ta'lim olayotganning bilimlari va tajribasiga tayangan ijodiy faoliyatga nisbatan qobiliyatni va tayyorgarligini aks ettiradi (Plešuev V. V., Rassamagina F. A., 2016).

O'qituvchining zarur bo'lgan kasbiy kompetentligi fenomeni asosida yotgan tushunchalar tizimiga quyidagi tushunchalar kiradi: "ijod", "kreativlik", "ijodiy faoliyat", "ijodiy qobiliyatlar", "kreativ salohiyat", "kompetentlik", "kompetensiya", "kompetent yondashuv". Kompetentli yondashuv – bu ta'lim maqsadlarini aniqlash, ta'lim mazmunini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholashning umummiy prinsiplari to'plamidir.

Tahlillardan kelib chiqib, mualliflik pozisiyasida kreativ kompetensiya atamasiga quyidagicha ta'rif berildi:

O'qituvchi ijodiy faoliyatining ucta sferasi farqlanadi:

- metodik ijod – (paydo bo'ladigan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, metodik modellarni to'g'ri tanlash va qurish, o'quv-tarbiyaviy jarayonda ta'sir qilishning mazmunini va usullarini konstruksiya qilish;

- kommunikativ ijod (bolar, samarali kommunikatsiyani va o'zini o'zi regulyasiya qilishni amalga oshirish qobiliyati bilan bog'liq);

- ijodiy o'zini o'zi tarbiyalash (o'zini konkret ijodiy individuallik sifatida anglash, o'z kasbiy-shaxsiy sifatlarini aniqlash, shuningdek shaxsiy o'zini o'zi tarbiyalash va o'zini o'zi takomillashtirish dasturini ishlab chiqish).

Kreativ kompetentlig tuzilmasi, mazmuni va o'ziga xosligi bo'lajak o'qituvchilarida tushunchalar mazmuni kreativ kompetentlik shaxsning ko'p omilli xususiyati, insonning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan va ko'plab original, nostandard va foydali g'oyalari hamda mahsulotlarni umumlashtirish imkoniyatini beradigan, shuningdek hayotiy va kasbiy vaziyatlarda insonning ijodiy harakat qilishga nisbatan tayyor shaxsning intellektual, emosional, axloqiy, irodaviy, shaxsiy sifatları, bilimlari, ko'nikmalari, malakalarini va tajribasi tizimi sifatida belgilanadi. Shunay qilib, kreativ kompetensiya o'zida quyidagi kompetentlarni mo'jassamlashtiradi:

kreativ (ijodiy) sifatlar – ilhomlanganlik, fantaziya, aqlning egiluvchanligi, qarama-qarshiliklarga sezgirlik;

fikrlar, his-tuyg'ular, harakatlardan ozodligi; tanqidiylik; proqnoz qilishlik;

o'z fikriga egalik. Tadqiqot uchun asosiy, murakkab va muhim jihatlaridan biri bo'lajak o'qituvchilarida kreativ kompetentligini aniqlash va amaliyotda kreativlikni rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik masalalar sirasiga kiradi.

## ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika. - Toshkent: fan va axborot texnologiyalari, 2010-yil. 278 b.
2. Abdullayeva Sh. A. Hokimlik pedagogikasi. - Toshkent: fan va axborot texnologiyalari, 2017. 178 b.
3. Andreyev A. Использование аутентичных материалов для изучения ономатопеи на начальном этапе обучения корейскому языку студентов вуза //корееведение в россии: направление и развитие. – 2022. – т. 3. – №. 4. – с. 61-66.
4. Анохина Н.К. Педагогика.-М.: Университет, 2019. -232c.
5. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии.-М.Академкнига, 2010.-246c.
6. Djuraev R.X. Talimda interfaol texnologiyalari. -Toshkent, 2010. –76 b.
7. Djo'rayev R. X., Turgunov S. T. talim menejmenti. - Toshkent: Voris-Nashriyot, 2012 Yil. 167 b.
8. Grishina E.A. варианты, используемые в непринужденной речи // Инструментарий русистики: корпусные подходы. Slavica Helsingiensia 34 Helsinki, 2008 P. 63–91.
9. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. -T.: Me'ros, 2011.-144 b.
10. Kichuk N.V. Творчество как мировой бренд современного образования / Н. Кичук // Теория и практика эстетического воспитания в учебных заведениях: материалы Всеукраинской научно-практической конференции (21 мая 2021 год, г. Кропивницкий) / под ред. А. С. Радул. - Кропивницкий, 2021- 275c.



**Nigora TURSUNOVA,**

O'zDJTU katta o'qituvchisi

E-mail:nigoratursunova75@gmail.com

**Zaynab VALIYEVA,**

O'zDJTU katta o'qituvchisi

O'zMU "Ekologiya" kafedrasi v.b.dotsenti (PhD) J.A.Mirzayev taqrizi ostida

## INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENVIRONMENTAL SCIENCES IN UNIVERSITIES

### Annotation

This article, which is brought to your attention, discusses innovations that are widely used in the modern education system and issues related to their development in the education system.

**Key words:** Innovation, education system, science and education, innovative environment, innovative education, innovative technology, problematic educational technology, integrated educational technology, differentiated educational technology, case study, situational task.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ НАУК В ВУЗАХ

### Аннотация

В данной статье, которая предлагается вашему вниманию, рассматриваются инновации, которые широко используются в современной системе образования, и вопросы, связанные с их развитием в системе образования.

**Ключевые слова:** Инновация, система образования, наука и образование, инновационная среда, инновационное образование, инновационные технологии, проблемная образовательная технология, интегрированные образовательные технологии, дифференцированные образовательные технологии, кейс-стади, ситуационная задача.

## OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

### Annotatsiya

Ushbu e'tiboringizga havola qilinayotgan maqolada bugungi kun ta'limgiz tizimida keng qo'llanilayotgan innovatsiyalar, ularni ta'limgiz tizimida rivojlantirish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, ta'limgiz tizimi, ilm-ma'rifat, innovatsion muhit, innovatsion ta'limgiz, innovatsion texnologiya, muammoli ta'limgiz texnologiyasi, integratsiyalashgan ta'limgiz texnologiyalari, tabaqalashtirilgan ta'limgiz texnologiyalari, keys stadi, vaziyatlari masala.

**Kirish.** O'zbekiston respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, ayniqsa yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan avlod va bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy shakllanishiga alohida e'tibor qaratmoqda.

"Bugungi kunning dolzarb muammosi mamlakatimizda barcha sohalarda islohotlarni amalga oshirish, insonlarning dunyo qarashini o'zgartirish va zamonaviy talablarga javob beradigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashni taqazo etadi. Respublikamizda ta'limgiz tizimini mustahkamlash, uni zamon tabalabri bilan uyg'unlashtirish davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari darajasiga ko'tarilib bormoqda. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, savyasini oshirish uchun avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat, albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, engkattameros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzlusiz hayotiy ehtiyoja aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda" [1].

"Innovatsion ta'limgiz deganda, odatda, o'quv jarayoniga yangi (foydalevi) elementlar olib kirish tushuniladi. Innovatsiya inglizcha «innovation» so'zidan olingan bo'lib, yangilik kiritish, yangilik ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek, bu atama yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib-qoidalar, texnologiyalar ko'rinishida ham uchraydi. Innovatsiya tushunchasini kengroq tarzda tahlil qilib, quyidagicha talqin etish ham mumkin. Innovatsiya bu maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy

birlik – muassassa, uyushma, jamoa va guruhlarga yangi va nisbatan barqaror bo'lgan elementlar, umumiy holda xalqning ma'daniy-ma'naviy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir" [2].

Bilamizki, milliy va jahon ta'limgiz rivojlanishida ko'plab o'zgarishlar yuz bermoqda. Ta'limgiz tizimiga internetlashtirish va raqamli texnologiyalarning kirib kelishi ta'limgiz sifatini oshirishda juda katta yordam bermoqda.

Ekologiya fanini o'qitish jarayonida innovatsion ta'limgiz texnologiyalaridan foydalanish ta'limgiz jarayonini qiziqarli olib borish, har bir talabaga individual yondashish imkonini beradi. Bu borada, ta'limgiz rivojlanish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, mashg'ulotlar jarayonida talabalar faolligini oshirish, o'tilayotgan mavzularni tez va oson o'zlashtirishlari uchun pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanimoqda. Ekologiya fanini o'qitishda virtual vositalardan foydalanish yer yuzida sodir bo'layotgan ekologik favqulodda vaziyatlarni talabalar bilishi, ekologik muammolarni oldindan aniqlashi, ular yuz bermasligini oldini olish choradibiralarini bilishi, shuningdek, ekologik omillarning inson hayotiga, ularning hayotiy faoliyatiga va sog'liga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishiga doir bilimlarga ega bo'lishi va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan.

Zero, kundan kunga rivojlanib, takomillashib borayotgan mamlakatimiz ta'limgiz tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – bu o'zlashtirgan bilimlarini o'zlarini tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrلaydig'an mutaxassislar tayyorlashdir.

Nomutaxassis oliy ta'limgiz muassasalarida Ekologiya fanini o'qitish birmuncha murakkabliklar tug'diradi. Bunday vaziyatlarda pedagogning ta'limgiz berish mahorati, bilim darajasi, o'tilayotgan mavzuni talabalarga yetkazib bera olish va

innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish qobiliyati juda muhim o'rinni tutadi. Ayniqsa, "Ekologiya" fanini talabalarning o'zlarini egallayotgan kasbiiga yo'naltirib o'qitish, talaba tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarni kelgusi kasbi faoliyatida tutgan o'minini tushunib yetishiga, nazariya bilan amaliyotning birligiga erishishga, talabaning istiqbolli motivatsiyasini vujudga keltirish orqali shaxsnинг barkamolligini ta'minlanishiga erishiladi. O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti xorijiy til va adabiyoti, filologiya va tillarni o'qitish, tarjima nazariysi va amaliyoti, media va kommunikatsiya kabi bir qator yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi. Tabiiy fanlar kafedrasida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning asosiy maqsad va vazifasi turli soha yo'nalishlarida bilim olayotgan talabalarda ekologik bilim va madaniyatni rivojlantirishdan iborat. Negaki, ekologik tushunchalarini talabalar ongida shakllantirish orqali ularda ekologik madaniyatni rivojlantirish bugungi kunning talabi, dolzarb muammosidir.

"Ekologik madaniyatning asosiy g'oyasi, inson va tabiat o'rtaсидаги bog'liklik moddiy tomonдан emas, balki ma'naviy jihatdan bo'lishi kerak. Tabiatga zarar bermaslik va global o'ylash har bir insonning burchi bo'lishi lozim. Yerda abadiy hayot borishi uchun, insoniyat o'zi yashaydigan yerni doimo asrashi, qayta yashartirishi va ekologik madaniyatni rivojlantirishi zarur"[3].


Tabiatga shavqatsizlarcha munosabatda bo'lish, unga har tomonlama zarar etkazish, insonning o'ziga, kelajagiga yetkazayotgan zarari ekanligini talabalarga tushintirib borish orqali, asosiy maqsad bioxilma-xillikni saqlash, tabiatni asrash va

dunyoning uzlksizligini ta'minlash ko'nikmalarini rivojlantirish kerak. Bu vazifalarni bajarish albatta, ma'lum ta'lim texnologiyalarini talab qiladi.

Bilamizki, bugungi kun ta'lim tizimida ham an'anaviy, ham innovatsion pedagogik o'qitish texnologiyalari juda ko'plab qo'llanilmoqda. Ulardan biri muhimroq, ikkinchisi muhim emas, yoki ijobjiy natijalarga erishish uchun faqat shu texnologiyadan foydalanishgina kutilgan natijani beradi, boshqasi mumkin emas, degan noo'rin tushunchalardan yiroq bo'lishimiz zarur. Muayyan texnologiyani tanlash va ularni qo'llash orqali ko'zlangan natijalarga erishish talabalar kontingenti, ularning yoshi, tayyorgarlik darajasi, dars mavzusi kabi ko'plab omillarga bog'liq. Eng yaxshi variant – turli xil texnologiyalardan, turli yo'llar bilan foydalanish hisoblanadi.

Yuqoridaagi fikrlardan hulosa qilgan holda, biz ekologiya darslarini olib borish jarayonida quydagi texnologiyalardan ko'proq foydalananiz va kutilgan natijalarga erishamiz:

Aqliy hujum. Ushbu ta'lim texnologiyasidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydalinish mumkin. Chunki aqliy hujum metodi auditoriyadagi barcha talabalarni faol holatga keltiradi va butun diqqat-e'tiborini darsga jamlay oladi, ko'p vaqt talab qilmaydi, muhokamaga qo'yilgan muammo echimiga qarab 5-10 daqiqa davom etishi mumkin. Bu texnologiya yana shunisi bilan ahamiyatli, talabalar tomonidan berilayotgan javoblarga o'qituvchi yoki boshqa talabalar aralashuviga, fikr bildirishlariiga yo'l qo'yilmaydi, natijalar baholanmaydi. Ta'lim texnologiyasini qo'llashdan maqsad o'tilayotgan mavzu bo'yicha talaba o'zining mustaqil fikrini erkin bayon eta oladi.




Ko'rib turganingizday ushbu metoda muammoli savol beriladi, fikr va g'oyalar bildiriladi, jamlanadi, guruhlanadi, aniq va to'g'ri javoblar tanlab olinadi.

O'yin texnologiyalaridan foydalanish. Mavzuga kognitiv qiziqishni rivojlantirishga imkon beradi. Darslarning o'yin shakli auditoriyada talabalarni o'qishga undash, rag'batlantirish vositasi sifatida harakat qildigan o'yin texnikasi va vaziyatlar yordamida yaratiladi. Ekologiyadan amaliy mashg'ulotlarda "Nima uchun?", "Baxtli imkoniyat", "Nima?", "Qayerda?", "Qachon?", "Qutqaruvchilar", "Sayohat" kabi intellektual o'yinlardan

foydalanish mumkin. Bu o'yinlar talabalariga o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi.

"Nima uchun?" deb nomlangan usul-bu butun mulohazalar zanjiri bo'lib, uning maqsadi muammoning boshlang'ich sababini ochishdir.

Bu usulda ochiq-oydin ko'rinish turgan muammo o'rtaga tashlanadi va nima uchun savoli beriladi. Savolga hayolingizga birinchi kelgan javobni yozasiz. Ushbu jarayon muammoning yashirin sababiga etib borilmaguncha davom ettiriladi.



Darajalarni differensiallash texnologiyasi. Hech kimga sir emaski, talabalar bilimlarini bir xil talablarga moslashtirish ularning aqliy rivojlanishini sekinlashtiradi va o'quv faoliyatini pasaytiradi. O'quv jarayonini qanday qilib yanada moslashuvchan, har bir talabaning bilim darajasiga mos qilish mumkin?

Bu savolga aynan ushbu texnologiya tomonidan javob berilgan.

Darajalarni farqlashdan foydalanish o'quv ehtiyojlarini, topshiriq darajasini tanlash huquqini ta'minlashga imkon beradi, muvaffaqiyatga intilishi ta'minlaydi, bir so'z bilan aytganda, talabalarda o'zini-o'zi qadrlashni shakllantiradi. Bu usulda ko'p bosqichli test topshiriqlaridan foydalanish mumkin.

4. Integratsiyalashgan ta'lismi texnologiyasi. Integratsiya texnologiyasi zamonaliviy talabaning yangi interfaol fikrlash usulini shakllantirishga juda yaxshi imkon beradi. Integratsiyalashgan darsda talabalar turli mavzulardan olgan ma'lumotlardan foydalangan holda, voqe va hodisalarini butunlay yangicha tushunish, chuqur va ko'p qirrali bilimlarga ega bo'lish imkoniyatiga erishadi. Bunday usulda olib borilgan darsda bilimlarni sintez qilish imkoniyati mavjud bo'lib, bilimlarni bir sohadan boshqasiga o'tkazish qobiliyati shakllanadi. Aynan shu ta'lismi texnologiyasidan foydalanish orqali ijodiy, mustaqil, izlanuvchan, mas'uliyatlari, bag'ri keng shaxsni shakllantirish amalga oshiriladi.

5. Loyiha va ilmiy tadqiqot faoliyati texnologiyasi. Bu loyiha ishtirokchilari uchun muhim bo'lgan har qanday muammoni hal qilishda umumiy natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, talabarning birkalidagi o'quv, bilim, tadqiqot, ijodiy faoliyati hisoblanadi. Har bir ta'lismi loyihasi ma'lum bir muammoga asoslanadi, bu talabarning loyiha faoliyatining maqsadi va vazifalarini nazarda tutadi. Loyiha usuli muammoli usulga xos bo'lgan barcha xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Loyiha ta'limalidan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

- o'rganishni individuallashtirish;
- talabada mavjud bilim va ko'nikmalarini yangilash;
- har bir talabaga o'quv jarayonida ishtirok etishga imkon berish;
- isjni har kimning o'z ritmida bajarish;
- olingan bilimlardan amaliyotda foydalana olish;
- faoliyatizingizni aniq rejalashtirish va vaqtini, resurslarni, faoliyat usullari va texnikasini hisobga olish;
- birkalidagi faoliyatning dastlabki, oraliq va yakuniy natijalarini ko'rish;
- rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun alohida bosqichlarni ishlab chiqish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

Ekologiya fani mashg'ulotlarida ushbu texnologiyadan foydalangan holda, talabalar loyihaning maqsad va vazifalarini o'zlari belgilaydilar, kerakli ma'lumotlarni turli manbalardan qidirildilar. Loyiha texnologiyasining vositalari quyidagilar bo'lishi mumkin: vaziyatlari masalalar, tabiatni asrashni targ'ib qiluvchi bukletlar, videoroliklar, ekologik omillar va ularning

inson salomatligiga ijobiy va salbiy ta'siri haqida taqdimotlar, biosferada sodir bo'layotgan ekologik vaziyatlar va ularga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ko'rsatmalar, Qizil kitobga kiritilgan hayvonot va o'simliklar dunyosi haqida ma'lumotlar v.h.k.

6. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Ta'lismi jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish zamonaliviy ta'limga dolzarb muammosi hisoblanadi. Bugungi kunda har bir o'qituvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniib, dars tayyorlashi va o'tkazishi zarur. Bunday dars ko'rgazmali, rang-barang, informatsion, interfaol bo'lib, o'qituvchi va talabaning vaqtini tejaydi, talabaga jadal sur'atda ishlashga imkon bersa, o'qituvchiga o'quv natijalarini o'z vaqtida kuzatib borish va baholash imkoniyatini yaratadi.

Ekologiya darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari:

- o'qitish sifatini oshiradi; o'quvchilarning yangi axborot muhitida samarali ishlashga tayyorligi va qobiliyatini oshiradi.

Ekologiya fanini o'qitishda Keys stadi va vaziyatli masala texnologiyalaridan foydalanish ham juda muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Keys stadi ta'lismi texnologiyasi. Keys-stadi (inglizcha case- to'plam, aniq vaziyat, stadi-ta'lism) keysda bayon qilingan va ta'lismi oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi echimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq, real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lismi uslubi.

Keysda tavsiflangan aniq vaziyat o'rganishni voqelikka bog'lab qo'yadi: sizga muammoni hal etish bo'yicha vaziyatni tahlil qilish, taxminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash, qo'shimcha ma'lumotni yig'ish, taxminlarni aniqlashtirish va aniq loyihalashtirish imkononi beradi[4].

Mashg'ulotni olib boorish jarayonida talabarga ma'lum bir ekologik muammoning mayjudligi yoki biror-bir ekologik vaziyat haqida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan holatlar beriladi. Shundan so'ng, talabalar o'z bilimlaridan foydalaniib, bajarilishi zarur bo'lgan vazifalarini aniqlaydi va chora-tadbirlar to'plamini belgilaydi.

Nima uchun biz ta'lismi jarayonida innovatsion o'qitish usullaridan foydalanishga ehtiyoj sezamiz?

Birinchidan, bugungi kun yangilik va yangiliklar zamonalidir. Chunki biz har kuni, har soatda yangi bilim, yangi g'oyalarga duch kelamiz. Shu sababli, ta'lismi jarayoni ham, o'qitish usullari ham o'z-o'zidan shunga mos ravishda bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, talabalarda ta'lismi tizimidagi yangiliklarga nisbatan ochiq fikrlashni rivojlanishida innovatsion o'qitish usullariga odatlanish, mashg'ulotlar davomida ulardan doimiy va o'z o'rniда foydalanish juda kata imkon beradi.

Uchinchidan, innovatsion o'qitish usullari bugungi kunda eng zamonaliviy faol o'qitish usullari hisoblanib, pedagogik ta'lismi jarayonida ularning ustunligi tasdiqlangan. Soha

mutaxassislarining fikricha, innovatsion o'qitish usullaridan foydalanib olib borilgan dars jarayonida talabalar o'zlashtirishi zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'qish orqali 10% ini, eshitganlarining 20% ini, ko'rganlarining 30% ini, eshitish va ko'rish orqali 50 % ini, shu bilan birga, axborotni faol idrok etish bilan 80% ini, o'zlari aytib va amalda bajargan holda 90% ini xotirasida saqlab qolishi mumkin ekan.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida amin bo'ldikki, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mashg'ulotlar davomida o'z o'rnidagi maqsadli foydalansilsa, har qanday pedagog faoliyatida ijobiy natija beradi va ko'zlangan natijaga erishiladi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabalari bilan Ekologiya fanidan olib borilgan o'quv jarayonlari samaradorligini oshirishda, talabalarning fan mavzulari bo'yicha xabardorligi va tayyorlarligi darajasini oshirishga va o'rganishni individual-lashtirishga yuqorida sanab o'tilgan ta'lim texnologiya-larining barcha elementlari ijobjiy natija berdi.

Umid qilamizki, foydalaniqlik innovatsion ta'lim texnologiyalari talabarni o'quv jarayoniga jalb qilishga, Ekologiya faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, Ona-tabiatiga, uning boyliklarini asrab-avaylashga bo'lgan munosabatlarini ijobjiy tomoniga o'zgarishiga xizmat qiladi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., 2020
2. Djurayev R.H., Turg'unov S.T., Nazirova G.M. Pedagogika. T., 2013
3. Ekologiya va bugungi kun ta'lomidagi ekologik muammolar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari T., 2017
4. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o'qitishning pedagogik texnologiyalari to'plami. Metodik qo'llanma / Seriya "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida innovasion texnologiyalar". – T.: TDIU, 2013.



**Rozimuhamed TOXTASINOV,**  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi maqsadli doktoranti  
E-mail: rozimuhamed4964@gmail.com

Islomshunoslik fanlari bo'yicha PhD A.Inoyatov taqrizi asosida

## THE VIEWS OF THE HANAFI SCHOLARS ON THE USE OF PRECIOUS STONES

### Annotation

In this article, rulings on the use of precious stones and metals such as gold, silver, ruby, sapphire, diamond, iron, copper, etc. are scientifically analyzed based on the views of jurists of the Hanafi school. The views of the Maliki, Shafi'i and Hanbali madhabas are also mentioned, and opinions in accordance with or against the Hanafi madhab are studied. Answers to the arguments against the Hanafi sect are given.

**Key words:** Imam Bukhari, Imam Tirmidhi, sihah sitta, Mavarounnahr fiqh sources, rulings on the use of precious stones, women's jewelry.

## МНЕНИЯ ХАНАФИТСКИХ УЧЕНЫХ НА ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДРАГОЦЕННЫХ КАМНЕЙ

### Аннотация

В данной статье на основе взглядов правоведов ханафитской школы научно анализируются постановления об использовании драгоценных камней и металлов, таких как золото, серебро, рубин, сапфир, алмаз, железо, медь и т.д. Также упоминаются взгляды маликитского, шафиитского и ханбалитского мазхабов, изучаются мнения в соответствии или против ханафитского мазхаба. Даны ответы на аргументы против ханафитской секты.

**Ключевые слова:** Имам Бухари, Имам Тирмизи, Сихах Ситта, источники фикха Моваруннахр, правила использования драгоценных камней, женские украшения.

## QIMMATVAHO TOSHLARDAN FOYDALANISHGA OID HANAFIY FAQIHLAR QARASHLARI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada tilla, kumush, yoqut, zabarjad, olmos, temir, mis kabi qimmatbaho tosh va metallardan foydalanish borasida hukmlar hanafiy mazhabni faqihlari qarashlari asosida ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek molikiy, shofeiy va hanbaliy mazhabni qarashlari ham kelitirilib, hanafiy mazhabiga muvofiq yoki qarshi fikrlar o'r甘ilgan. Hanafiy mazhabiga qarshi bo'lgan dalillarga javoblar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Imom Buxoriy, imom Termiziy, sihohi sitta, Mavarounnahr fiqh manbalari, qimmatbaho toshlardan foydalanish hukmlari, ayollar ziynati.

**Kirish.** Islom shariati ayollarni ziynatlanish, o'z mahramlariga chirolyi suratda ko'rinish tabiatini bor ekanini e'tiborga olgan. Shunga ko'ra yer yuzida ular uchun bezanish, ziynatlanish uchun vositalar bisyor. Lekin bu ziynatning shariat chegarasida bo'lishini talab etadi. Isrofarchilikka yo'l qo'yuman, haddidan oshmagan bo'lsa, bo'lgani. Ayollar uchun ziynatlanishdagi chegara albatta islom huquqi, xususan Mavarounnahr fiqh manbalarida batafsil bayon etilgan. Quyida ana shu manbalarga suyangan holda ayollar foydalanishi muboh – ixtiyorli, manhiy – taqiqlangan holatlarni fiqhiy mazhablar ixtilofiga ko'ra bayon qilinadi. Shuning uchun masalani ikki qismiga – ayollar foydalanishi muboh bo'lgan va ular foydalanishi mumkin bo'lmagan taqinchoqlar mavzusiga ajratib bayon qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavarounnahr fiqh manbalaridan "Hidoya", "Badoeus sanoe", "Muhit" va boshqa bir qancha manbalarida ayol kishining tillo va kumushdan taqinchoq sifatida foydalanishi joiz ekaniga ittifoq qilingani zikr qilinadi. Balki, ayrimlar bunga ijmo bog'langanini ham ayrib o'tganlar [1]. Shunga ko'ra, bu borada to'rt mazhab orasida ixtilof yo'q ekan tushuniladi. Ammo mutaaxxir (keyinroq yashab o'tgan) ayrim faqihlar halqali tillo ayollarga harom bo'ladi degan gapni aytganlar. Ular halqali deganda: "Uzuk, bilaguzuk, braslet, marjon, sirg'a va boshqa taqinchoqlar kabi halqa shaklida yasalgan tillo mahsulotlarni" nazarda tutganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Albatta ikki tomon ham o'z mazhabini oyat hadislar bilan dalillagan. Ushbu dalillarni o'qish orqali qaysi mazhabning qarashi ustunroq ekanini mulohaza qilish mumkin. Jumhur ulamolar o'zlarining gaplariga dalil sifatida quyidagilarni keltiradilar:

Abu Muso r.a. rivoyat qilinadi: "Rosululloh s.a.v.: "Ummatimming ayollariga tillo va ipak halol qilindi. Erkaklariga

esa, haromdir", dedilar" [2]. Bu hadisning ko'p turuqlari bo'lib, ayrim ulamolar bu hadisni mutavotir ham deyishgan [3].

Bu hadisda Rosululloh s.a.v. ayollarga tilloning muboh ekanini ayrib o'tmoqdalar. U zot ishlatgan lafz umumiy bo'lib, tilloning har qanday turini, u xoh halqali bo'lsin, halqasiz bo'lsin, o'z ichiga oladi. Usul qoidasiga ko'ra, umumiy lafzlar umumiyligicha qabul qilinadi. Qaydlab, xoslab qo'yilmaydi [4]. Shuning uchun hadisda kelgan "tillo" so'zini halqali bo'lmaganlarga tegishli deb xoslab qo'yish mumkin emas.

Ibn Abbos r.a.dan rivoyat qilinadi: "Nabiy s.a.v. bilan birga hayit namoziga qatnashdim. U kishi namozdan oldin xutba o'qidilar. So'ng ayollarning oldiga kelib, ularni sadaqa qilishga buyurdilar. Ular uzuk va bilaguzuklarini Bilol (r.a.)ning kiyimlariga tashlay boshladilar".

Bu hadisda ayollar har qanday uzuk taqishlari mumkin deyilmagan bo'lsa-da, taqish joizligiga dalolat bor. Chunki o'sha paytda ayollarning qo'llarida uzuk, bilaguzuk borligiga va buni taqib yurish joizligiga dalil bor. Chunki Nabiy s.a.v. ularni qo'llarida turgan taqinchoqlarni ko'rib turib, uni taqishdan qaytarmadilar. Bu esa, ularning taqriri sunnatlari bo'ladi. Zero, u zot nojoiz ishni ko'rsalar qaytarmasdan qolmasdilar. Buni usul ilmida dalolatun nas (matnining dalolati) bilan dalillanish deyiladi.

Halqali tilloni harom degan ulamolarning ham keltirgan dalillari bo'lib ular quyidagilardan iboratdir:

Rosululloh s.a.v.: "Ey ayollar jamoasi! Sizlar nimadan yasalgan taqinchoqni taqyapsiz. Ogoh bo'ling ayol kishi tillo taqib uni oshkor qilar ekan. (Qiyomat kuni) aynan o'sha (taqinchoq) bilan azoblanadi" [5].

Nabiy s.a.v.ning tillo taqqan ayolni qattiq ogohlantirishlari, azogba girifdor bo'lishi haqida ta'kidlashlari bu taqinchoqning harom ekaniga dalil bo'ladi.

Abu Hurayra r.a.dan rivoyat qilinadi: U Nabiy s.a.v. bilan birga bo'lib turgan vaqtida qo'liga tillo bilaguzuk taqib olgan bir ayol kelib qoldi. Shunda Nabiy s.a.v. "Olovdan bo'lgan bilaguzuk" dedilar. Ayol esa: "Unda tillodan yasalgan marjon haqida nima deysiz?", dedi. U zot "Olovdan bo'lgan marjon", dedilar. "Tillo sirg'agachi?", deb so'radi yana ayol. U zot "Olovdan bo'lgan sirg'a", deya javob qaytardilar. Shunda haligi ayol qo'sidagi tillo bilaguzugini tashlab yubordi va "Yo Rosulalloh agar biz erlarimiz uchun ziynatlanmasak, ularning qalbidan joy ololmay qolamizku?", dedi. Nabiy s.a.v.: "(Uning yo'li oson) Kumushdan yasalgan ikki sirg'ani olib uni za'faron bilan bo'yaysan. (shunda u tillo ranga kiradi)", deb javob berdilar".

Ushbu hadisda Nabiy s.a.v. haligi ayolga bilaguzuk, sirg'a, marjon taqishni man qilmoqdalar. Bu taqinchoqlarning hammasi halqali tillodan iborat edi. Agar tillodan bo'lsa, taqqan ayol do'zaxga tashlanishidan ogohlantirilmoqda. So'ngra unga ziynatlanishning halol yo'lini o'rgatib, kumush uzukni za'faronga bo'yashni, natijada u tilloga o'xshab ko'rinishini aytmoqdalar.

**Tahil va natijalar.** Ushbu dalillarni sinchiklab o'rganib chiqqandan so'ng ularning ichida sahihlari ham, zaiflari bor ekaniga guvoh bo'lismumkin. Shuning uchun jumhur ulamolar bu hadislarga quyidagicha javob qaytarishadi:

Birinchidan, ayollarning tillo taqinchoqdan foydalanishi harom ekaniga dalolat qilayotgan hadislari islomning avvalgi davriga tegishli bo'lib, keyinchalik nasx qilingan.

Ikkinchidan, tilloni haromligi haqida kelgan hadislар erkak va ayolga umumiyyidir. Ammo ayollarga tilloni mubohlighini ifoda etadigan hadislari xos bo'lib, umumiylari hadislarning bir qismini xoslaydi. Shuning uchun imom Nasoiy o'z kitobida tilloning erkaklarga haromligi borasidagi hadislari bilan ayollarga ziynatni (begonalarga) ko'rsatish makruhligi to'g'risidagi hadislarni alohida-alohida bobga jamlaganini ko'rish mumkin.

Uchinchidan, Nabiy s.a.v. tillo uzuk taqishdan qaytargan sahobiyya ayollar Oisha, Fotima, Ummu Salama (roziyallohu anhum)larning hadislari boshqa sahib hadislarga muoriz (zid) emas. Chunki ular Nabiy s.a.v.ning oila a'zolari bo'lib, ularga nisbatan bunday bernalol (boylarcha) yashashga ruxsat bermaganlar. U zot oila a'zolarni tillodan harom bo'lgani uchun qaytargan emaslar. Buning boshqa sababi bor bo'lgan.

Ushbu gapni Uqba r.a.dan rivoyat qilingan hadis ham quvvatlaydi: Nabiy s.a.v. oila a'zolarni taqinchoq bilan bezanish, ipak mato kiyishdan qaytarar edilar. Va "Agar bu dunyo hayotini va uning ziynatini iroda qilsangiz", oyatini o'qir edilar.

Undan tashqari tillo buyumlarni ayollar turli islom diyorlarida, turli zamонларда, to hozirgi kungacha mubah sifatida foylanib kelayotgani ma'lum. Bu esa, uning harom emasligiga ochiq-oydin dalidir. Chunki bu ummat zalolatga birlashmaydi. Shuningdek ayollarga tillodan foydalanishni mubah qiluvchi dalillar maqsadiga aniq ravshan dalolat qilgan sahib hadislardir. Harom deguvchilarining dalillari esa, ta'nadan holi emas. Shuning uchun bu o'rinda jumhurning dalillarini rojih (quvvatlari) deyish mumkin bo'ladi.

*Yoqut, zabarjad, marjon, va boshqa qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlardan foydalanish hukmlari*

Ma'lumki, taqinchoqlar, zeb-ziynat buyumlari faqatgina tillo va kumushdan yasalmaydi. Undan tashqari qimmatbaho toshlar ham bisyorki, ulardan bejirim, nafis taqinchoqlar yasash mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, Mavarounnahr fiqh manbalarida ayol kishining tillo va kumushdan boshqa qimmatbaho toshlardan foydalanish hukmlari ham alohida bahs qilingan. Bu bo'yicha ham fiqhiy mavzular ikkiga ajratilgan. Yoqut, javojir, zabarjad kabi ma'danlardan yasalgan taqinchoqlarning hukmlari alohida, temir, mis, qo'rg'oshin kabি ma'danlardan yasalgan taqinchoqlarning hukmi alohida, bayon qilinadi. Bu taqsimotni "Fatavoyi Qozixon" asarida ham ko'rish mumkin. Asarda tillo va kumush mahsulotlari, temir, mis, qo'rg'oshin mahsulotlari alohida hamda boshqa qimmatbaho toshlardan tayyrolangan mahsulotlar hukmi alohida zikr qilingan [6].

Mavarounnahr fiqh manbalar, xususan, "Hidoya", "Badoeus sanoe", "Muhit" asarlarida javohir, yoqut, zabarjad kabi

ma'danlardan yasalgan qimmatbaho toshlardan foydalanish joiz ekanai aytigan [7]. Ushbu fikrga boshqa mazhaboshbilarni ham qo'shilgani manbalarda zikr qilinadi. Ushbu ma'danlardan yasalgan taqinchoqlarning iste'moli joiz ekaniga quyidagicha dalillar keltirilgan:

1. Baqara surasi 29-oyatida yer yuzidagi barcha narsalar insonlar uchun yaratilgani aytigan: "U shunday zotki, sizlار uchun Yerdagi barcha narsalarni yaratgan" [8].

Ushbu oyatni imom Qurtubiy o'z tafsirida "Shuningdek, Alloh taolo javohir marjon va boshqa ma'danlarni ham insoniyat foydalanishi uchun yaratgandir", deya sharhlaydi [9].

2. Yana boshqa bir oyatda: "U dengizni siz undan toza go'sht yeyishingiz. Undan taqadigan taqinchoqlar chiqarib olishingiz uchun bo'yundirib qo'ysi" [8], deydi.

3. Yana bir o'rinda esa: "U yangi go'sht (baliq go'shti) yeyishlaringiz va taqadigan taqinchoqlar chiqarib olishlaringiz uchun (sizlarga) dengizni ham bo'yin sundirib qo'yan zotdir", deb marhamat qiladi.

Bu ikki oyatda nazarda tutilgan dengizdan chiqarib olinadigan taqinchoq bu marjon, javohirlardir. Oyatda bu taqinchoqlarni ziynatlanish maqsadida taqish joiz ekanha qaida aytimoqda.

Shu dalillarga asoslangan holda to'rt mazhab sohiblari ayol kishi yoqut, javohir va marjon kabi qimmatbaho toshlardan foydalanishi mumkin ekanini aytganlar.

*Temir, mis, qo'rg'oshindan yasalgan taqinchoqlardan foydalanish hukmlari*

Ayol kishining temir, mis va qo'rg'oshindan yasalgan taqinchoqdan foydalanishi borasida esa Mavarounnahr fiqh manbalarida ikki xil qarash bor ekanai aytib o'tilgan. "Badoeus sanoe" va "Fatavoyi Qozixon"da zikr qilinishicha hanafiy mazhabasi faqihlarining nazidda erkaklarga ham ayollarga ham temir, mis va qo'rg'oshindan tayyorlangan uzuk hamda boshqa taqinchoqlarni taqish joiz emas [6]. Manbalarda hanbaliylarni ham shunday fikrda ekan kuzatiladi. Ayrim shofeiy mazhab olimlari esa bunday taqinchoqlarning iste'moli joiz degan.

Hanafiylarining dalillari quyidagichadir:

Burayda ibn Hasib r.a.dan rivoyat qilinadi: Bir kishi Nabiy s.a.v.ning huzuriga keldi. Uning qo'lida misdan yasalgan uzuk bor edi. U zot: "Men sendan sanamlarning hidimi sezyapmanmi?", dedilar. Shunda haligi kishi uzugini tashlab yubordi va keyingi safar temirdan yasalgan tillo uzuk taqib keldi. Nabiy s.a.v.: "Men senda do'zax ahlining taqinchog'i ni ko'ryapmanmi?", dedilar. Kishi bu uzugini ham tashlab yuborib: "Yo Rosullalloh, unda nimadan yasalgan uzukni taqay", deb so'radi. "Kumushdan (uzuk taqgin). Vazni bir misqolga yetmasin", deb javob berdilar [10].

Mana bu hadisda tillo, temir, misdan tayyorlangan uzukni taqishdan qaytaraytilar. Chunki temir do'zax ahlining libosidir. Misdan esa, o'sha vaqtarda odatda sanamlar yasalgan. Shuning uchun ham hanafiy va hanbaliy mazhabasi sohiblari mis, temirdan tayyorlangan uzukni taqish mumkin emas, deb aytganlar. Qo'rg'oshinni esa, ularga qiyosan joiz emas, deganlar. Bu cheklow faqat erkaklarga tegishli emas, balki hadislari umumiy bo'lgani uchun ayollarga ham oid ekanini aytganlar [11]. Ayollarga tillo taqinchoqlarning mubahligi esa alohida boshqa dalillar bilan sobit bo'lgan.

Shofeiy va ayrim hanbaliylar esa, bunday taqinchoqlarning mubah ekaniga quyidagi dalillarni keltiradi:

Sahl ibn Sa'd r.a.dan rivoyat qilinadi: "Bir ayol Payg'ambarimiz s.a.v.ga o'zini ta'riz qildi. Shunda bir sahobiy: "(xohishingiz bo'lmasa) uni menga nikohlab bering", dedi. U zot: "(Uylanish uchun) nimang bor", dedilar. U esa, menda hech narsa yo'q, dedi. Nabiy s.a.v. "Bor, garchi temirdan bo'lsa ham uzuk topib kel", dedilar [12].

Ushbu hadisda Nabiy s.a.v. uylanmoqchi bo'lgan kishiga kelinga mahr bo'lishi uchun temirdan yasalgan uzukni bo'lsa ham topib kelishga buyuryaptilar. Agar temir uzuk taqish makruh bo'lganda, u zot topib kelishga buyurmagan bo'lar edilar.

Mavarounnahr fiqh manbalar xulosasiga ko'ra, to'rt mazhab faqihlarining nazidda tillo va kumushdan hamda yoqut,

zabarjad kabi ayrim qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlardan foydalanishi muboh ekan.

**Xulosa.** Xulosa o'rniда shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda amal qilish uchun hadisning sahih kitoblarda mayjud bo'lishining o'zi yetarli emas. Hanafiy manbalar asosida ularga qanday hukm berilganiga e'tibor qilish kerak bo'ladi. Chunki hadis sahih bo'lib, o'zidan keyin kelgan boshqa hadis bilan naxx qilingan bo'lishi, yoki o'zidan kuchliroq dalilga (oyat yoki

hadisga) zid bo'lishi mumkin. Bunday masalalarning javobi esa fiqhiy manbalardan olinadi. Shuning uchun Movarounnahr olimlari ishni ikki tomoniga ham chuqur e'tibor qilib, sahih hadislarni alohida kitoblarda zikr qilib, uning hukmlarini alohida zikr qilganlar. Bundan maqsad har bir masala uchun uning ahliga murojaat qilinadi. Shunday ekan muhaddislarga hadislarning taxriji uchun murojaat qilinsa, faqihlarga hadislarning hukmini bilish uchun murojaat qilinadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Burhoniddin Mahmud ibn Ahmad Buxoriy. Muhit. Bayrut: "Dorul kutubil ilmiyya", 2004.
2. Muhammad ibn Abdurahmon Muborakfuriy. Tuhfatul Ahfaziy. – Bayrut: "Dorul kutubul ilmiyya". 2008. 3\132.
3. Abul Fayz Kattoniy. Nazmul mutanosir minal hadisil mutavotir (Mutavotir hadislardan tuzilgan tarqoq (hadis)larning nazmi (shodasi)). – Bayrut: "Dorul kutubul ilmiyya", 2010. – B. 298.
4. Mulla Jiyvon Siddiqiy. Nurul anvor. Pokiston: "Bushro", 2021. 1\189.
5. Jaloliddin Suyuti. Sunani Nasoiy sharhi Suyuti. Ziynat kitobi. Ayollar ziynatlarini ko'rsatmog'i makruhdir bobi. – Bayrut: "Dorul fikr", 2011.
6. Faxriddin Qozixon. Fatavoyi Qozixon. – Bayrut: "Dorul kutubil ilmiya", 2009.
7. Alouddin Kosoniy. Badoeus sanoe. Misr: "Al-Jamoliya", 1328. 6\519.
8. A.Mansur. Qur'onii Karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri. –T.: TIU, 2018. – 624 b.
9. Muhammad ibn Ahmad Ansoriy Qurtubiy. Jamiu li ahkomil Qur'on. – Qohira: "Dorul kotib arabiy", 2006. – J. 1-24.
10. Sulaymon ibn Ash'as. Sunani Abu Dovud. Uzuk kitobi. Temir uzuk haqida vorid bo'lgan hadislар bobi. – Bayrut: "Dorul fikr", 2009.
11. Ibn Obidin. Raddul Muxtor. – Misr: "Mustafo Bobiy", 1966.
12. Ibn Hajar. Sahibi Buxoriy bisharhi Fathul boriy. Libos kitobi. Tillo uzuklar bobi. – Misr: "Maktabatus salafiya", 1390. 10-juz. – B. 317.



Nafisa KHALIMOVA,

National Institute of Fine Arts and design named after Komoliddin Bekhzod The teacher of English language

E-mail:halimovanafisa4500@gmail.com

Based on the review by N. Jurayeva, associate professor of Alfraganus University

## FOUR LEVELS THAT CAN HELP EVALUATE THE TRAINING: REACTION, LEARNING, BEHAVIOUR, AND RESULT

### Annatation

In today's world, everybody is living an active life that wants to change their life for the good side. As Ralph Marston mentioned, "What you do today can improve all your tomorrows." It means people should try to create the things and methods that ease their lives and develop them in the future. Don Kirkpatrick also did such a necessary creation in evaluating training that can help to show results and development of training. Even this method consists of just four steps: Reaction, Learning, Behavior, and Result it works effectively if we do it to obtain goals that are expected before a project.

**Key words:** Methods, reaction, change behavior, project, conducting trainings

## ЧЕТЫРЕ УРОВНЯ, КОТОРЫЕ ПОМОГУТ ОЦЕНİТЬ ТРЕНИНГИ: РЕАКЦИЯ, ОБУЧЕНИЕ, ПОВЕДЕНИЕ, РЕЗУЛЬТАТ

### Аннотация

В современном мире все живут активной жизнью и хотят изменить свою жизнь в хорошую сторону. Как заметил Ральф Марстон: «То, что вы делаете сегодня, может улучшить все ваше завтра». Это значит, что люди должны стараться создавать вещи и методы, облегчающие их жизнь, и развивать ее в будущем. Дон Киркпатрик также сделал такое необходимое творение в оценке тренингов, которое может помочь показать результаты и развитие тренинга. Даже этот метод состоит всего из четырех шагов: Реакция, Обучение, Поведение и Результат. Он действительно работает эффективно, если мы делаем это для достижения целей, которые ожидаются перед проектом.

**Ключевые слова:** методы, реакция, изменение поведения, проект, проведение тренингов

## TRENINGLARNI BAHOLASHGA YORDAM BERADIGAN TO'RRT DARAJA: REAKTSIYA, O'RGANISH, XATTI-HARAKATLAR, NATIJA

### Annotatsiya

Bugungi dunyoda hamma o'z hayotini yaxshi tomonga o'zgartirishni xohlaydigan faol hayotda yashamoqda. Ralf Marston ta'kidlaganidek, "Bugun qilayotgan ish ertangi kunlaringizni yaxshilaydi." Bu degani, odamlar o'z hayotini yengillashtiradigan va kelajakda uni rivojlantiradigan narsalar va usullarni yaratishga harakat qilishlari kerak. Don Kirkpatrick ham mashg'ulotlarni baholashda natijalarni ko'rsatish va mashg'ulotlarning rivojlanishiga yordam beradigan shunday zarur ijodni amalga oshirdi. Hatto bu usul atigi to'rт bosqichdan iborat: Reaksiya, O'rganish, Xulq-atvor va Natija, agar biz buni loyihadan oldin kutilgan maqsadlarga erishish uchun qilsak, u haqiqatan ham samarali ishlaydi.

**Kalit so'zlar:** Usullari, reaktsiyasi, xulq-atvorini o'zgartirish, loyiha, treninglar o'tkazish

**Introduction.** By evaluating training programs at each of these four levels, organizations can gain a comprehensive understanding of the effectiveness of their training initiatives and make informed decisions about future training investments. The Four Levels of Training Evaluation, also known as the Kirkpatrick Model, is a widely used framework for evaluating the effectiveness of training programs.

Context of the Program: Time by time the knowledge of the world is updated and improving as Ravinder Tulsiani mentioned "Training sessions are vital to the learning process but they are only one step in the learning process and this should never be forgotten" To clarify this point of view I can say there are many innovations and changes in every sphere because of training programs which leads to great results. I have decided to make my evaluation plan for medical trainees who are taught in the training. Mainly, the training involves medical knowledge and skills, communication rules, policies and procedures, time management, and hands-on experience. After getting such knowledge, nurses have the great opportunity to improve their experience in their field because every lecture is conducted face-to-face. Moreover, there are organized conferences, meetings with medical celebrities, and productive presentations held by trainers. As it is unimaginable medicine without practice trainees can do some practice during their courses.

**Research methodology.** As stated above nursing sphere is considered one of the developing spheres in the world. To stay up-to-date knowledge, nurses must participate in such training and

they have to be evaluated. The main aim of the evaluation process is to test participants on how much they acquire from given information and how they use this knowledge when they come back to their jobs. Again there is one question of whether intended goals are achieved from the training which is put before organizing it.

When evaluating training programs, it's important to consider the following key aspects:

1. Objectives: Clearly define the objectives of the training program. What specific knowledge, skills, or behaviors are expected to be developed or improved as a result of the training?

2. Data Collection: Use a variety of methods to collect data at each level of the Kirkpatrick Model. This can include surveys, interviews, pre and post-training assessments, performance evaluations, observations, and organizational metrics.

3. Relevance: Assess the relevance of the training content to the participants' roles and the organization's needs. Determine if the training is aligned with current best practices and industry standards.

4. Participant Engagement: Evaluate the level of participant engagement during the training. Consider factors such as participation rates, interaction with the material, and overall enthusiasm for the training content.

5. Learning Outcomes: Measure the knowledge, skills, and attitudes gained by participants as a result of the training.

Look for evidence of increased competence and confidence in applying new knowledge.

6. Application of Learning: Assess whether participants are applying what they learned in their work environment. Look for changes in behavior, performance improvements, and the integration of new skills into daily tasks.

1. Reaction. Reaction is attitude towards training which is conducted to trainees. This step is considered one of the most important processes that without good reaction ,in terms of work explained, can not be expected good results and desire to implement it. There are two types of reaction they are positive and negative. Each has its influence on learning and behavior for instance it is said on the article that positive reaction is very important to develop a project as a successful project in the future .However, negative reaction leads to prevent from learning if a person does not have a positive attitude towards the training it means he has not got motivation to start a project . So while conducting a trainings instructors should take participants needs into account without thinking only giving new information . In order to check participants reaction there are so many ways whether they get interested in that project or not. First of all, ranking the the quality of the training by several methods : people should tick one of the possible answers like excellent ,good , poor by answering such questionnaires session is conducted alive and interesting or there is an opportunity to use communicative skills ,that is an friendly and helpful manner and so on. Another method, giving full feedback who do not like short reactions towards a project that is also good way to collect information while evaluating the client's reaction. When I worked as a tutor in my private school I used the first method to clarify my student's attitude to my classes in case I know my weak points and change them in the future. I think it was workable. As reaction is based on motivation and people's needs and interests that is a very important level while we are working with our customers. In every sphere, we can see customers' needs should be at the top of the stages.

2. Learning. Every trainee should put an aim before themselves:

What knowledge did I learn?

What skills have I improved?

How I could change my behavior?

One can find answers to those questions in the learning process. So it is very crucial to measure learning because it is said that no behavior change occurs as long as specific knowledge is gained related to a project. When we evaluate the participant's learning stage we use different methods to collect information about what customers could get from the project. One of the popular methods is taking pretests at the beginning of the training and to compare the results of learning skills instructors should take such a test at the end of the project. Through this way it can be seen improvement in learning and behavior. On consequences of such testing, it is seen not only results of participants but also effectiveness of instructors too. So in order to achieve positive changes in behavior and show exact results measuring leaning process is vital.

3. Behaviour. The third level in Kirkpatrick's model is behavior. This level is considered by far more complicated than other two levels. As after having a positive reaction to the project and having gained some knowledge in terms of that work the following step will be to implement this change in behavior When that person comes back to the job. The most difficult side of that is it takes a lot of time to measure whether there is a behavior change or not. To find out an answer to this question and collect some information it is better to use a survey or interview people who know you well. It will be better if a supervisor interviews because they know their customer's attitudes before the training and they can easily analyze what improvements are there after the training. For instance, we can see in exhibit 6.1 according to Kirkpatrick's model there are some questionnaires for evaluating behavior.

**Analysis and results.** The last process is evaluating the result. Finding the answers to those questions given at the

beginning of the project what are obtained through the project. The best way of evaluating the result is to take measurements both before and after a project this will be easier compared to the first three levels because a participant in a training already knows how her reaction to a project, what knowledge she has gained, and what changes she feels in her behavior after three main evolution it can be obvious what results she achieved.

Assessing the progress of the English program and determining whether objectives have been met is a critical aspect of ensuring the quality and effectiveness of the program. At our institution, we utilize a variety of assessment methods to evaluate the program's progress and outcomes. Some of the key assessment strategies we employ include: 1. Student Learning Outcomes Assessment: We regularly assess student learning outcomes related to English language proficiency, critical thinking skills, writing abilities, communication skills, and cultural understanding. We use a combination of direct assessments (such as exams, essays, and presentations) and indirect assessments (such as surveys, and focus groups) to measure student achievement. 2. Course Evaluations: We collect feedback from students through course evaluations at the end of each semester. This feedback helps us gauge student satisfaction, identify areas for improvement, and make necessary adjustments to the curriculum and teaching methods. 3. Faculty Assessment: We conduct evaluations of faculty members teaching in the English program to assess their effectiveness, professionalism, and commitment to student success. Faculty members are encouraged to engage in professional development activities to enhance their teaching skills and stay current with best practices in English education. 4. Program Review: We conduct periodic reviews of the English program to evaluate its overall effectiveness, relevance, and alignment with institutional goals. These reviews assess curriculum design, course offerings, student outcomes, faculty qualifications, resources, and program sustainability.

5. Alumni Feedback: We gather feedback from program alumni to assess the impact of the English program on their academic and professional success. Alumni surveys, interviews, and focus groups provide valuable insights into the strengths and weaknesses of the program and help us make informed decisions for continuous improvement. By utilizing these assessment strategies, our institution can effectively monitor the progress of the English program, evaluate whether objectives are being met, and make data-informed decisions to enhance the quality and relevance of the program for students, faculty, and stakeholders. After an instructor has departed from the English program, it is essential to have a plan in place to ensure continuity and quality in program delivery. Here are some steps that can be taken to follow up on the program after an instructor has left:

1. Transition Plan: Develop a transition plan to smoothly hand over responsibilities from the departing instructor to a new instructor or existing faculty member. This plan should outline key tasks, course materials, syllabi, and student records that need to be transferred.

2. Review Course Materials: Review the course materials, lesson plans, assignments, and assessments created by the departing instructor to ensure they align with program objectives and standards. Make any necessary updates or revisions to maintain consistency and quality in teaching.

3. Faculty Training: Provide training and support to new instructors or existing faculty members who will be taking over the courses previously taught by the departing instructor. Offer guidance on curriculum design, teaching methodologies, assessment strategies, and student engagement techniques.

4. Student Support: Communicate with students enrolled in courses affected by the departure of the instructor to provide information about the transition plan, introduce the new instructor, and address any concerns or questions they may have. Offer academic support services to help students succeed in their studies.

5. Program Evaluation: Conduct a program evaluation to assess the impact of the departing instructor's teaching on student learning outcomes, course effectiveness, and overall program

quality. Use feedback from students, faculty, and stakeholders to identify areas for improvement and make necessary adjustments.

**Conclusion.** As I stated above D. Kirkpatrick did his best in creating four four-level of evaluation model that impacts on training programs. To clarify my point of view, the reaction is the desire that unwillingly a person attitudes towards training it leads to getting nothing through it. Without knowing anything participants can not do positive changes in their life. If a person is

not able to change his behavior it means the training was useless. So to show the effectiveness of a training trainees should follow three of models which is clearly explained and created by D. Kirkpatrick. By following these steps and implementing a comprehensive follow-up plan after an instructor has departed, the English program can maintain its quality, continuity, and effectiveness in delivering high-quality education to students.

#### REFERENCES

1. Donald Kirkpatrick and James D. Kirkpatrick "Evaluating training programs"
2. Ralph Marston "What you do today can improve all your tomorrows."
3. Ravinder Tulsiani mentioned "Training sessions are vital to the learning process but they are only one step in the learning process and this should never be forgotten".



Miralisher XASANOV,

O'zbekiston Milliy universiteti Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i

E-mail:miralisherkhasanov@gmail.com

Siyosiy fanlar doktori (DCs), dotsent K.Mirzaaxmedov taqrizi asosida

## APPROACHES TO SCIENTIFIC RESEARCH OF POLITICAL INSTITUTIONS AND PROCESSES

### Annotation

In this article, the importance of political institutions for the development of the country, the existence of state power, and the fact that the state covers all members of society with its activities, fully expresses the interests of all classes and social groups, and forms a wide management apparatus that regulates various spheres of life. Directions, scientific and theoretical studies of the state as an "institutionalized power" in the management system were based.

**Key words:** Political institution, political power, mechanism, state power, management institution, institutionalized power, management power, political parties.

## ПОДХОДЫ К НАУЧНОМУ ИССЛЕДОВАНИЮ ПОЛИТИЧЕСКИХ ИНСТИТУТОВ И ПРОЦЕССОВ

### Аннотация

В данной статье подчеркивается значение политических институтов для развития страны, существование государственной власти, а также то, что государство охватывает своей деятельностью всех членов общества, полностью выражает интересы всех классов и социальных групп, формирует широкий аппарат управления, регулирующий различные сферы жизни. Направления, были основаны научно-теоретические исследования государства как «институционализированной власти» в системе управления.

**Ключевые слова:** Политический институт, политическая власть, механизм, государственная власть, институт управления, институционализированная власть, управлеченская власть, политические партии.

## SIYOSIY INSTITUTLAR VA JARAYONLARNI ILMYI TADQIQ ETISHGA BO'LGAN YONDASHUVLAR

### Annotatsiya

Mazkur maqolada siyosiy institutlarning mamlakat taraqqiyoti uchun ahamiyatni, davlat hokimiyatining mavjudligi hamda davlat o'z faoliyatini bilan jamiyatning barcha a'zolarini qamrab olishi, barcha tabaqalar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarini to'la ifodalashi, hayotning turli sohalarini tartibga soluvchi keng boshqaruv apparatini shakkantirishi kabi tadqiqot yo'naliishlari, boshqaruv tizimida aynan davlatga "Institutsionalashgan hokimiyat" sifatidagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar borasidagi izlanishlar asoslandi.

**Kalit so'zlar:** Siyosiy institut, siyosiy hokimiyat, mehanizm, davlat hokimiysi, boshqaruv instituti, institutsionalashgan hokimiyat, boshqaruv hokimiysi, siyosiy partiyalar.

**Kirish.** Bugungi kunda siyosiy institutlarni o'rganish muammosi siyosatshunoslik, falsafa, huquqshunoslik va sotsiologiya kabi fanlarning eng asosiy muamolaridan biri sifatida namoyon bo'limoqda. Ayniqsa, siyosiy institutlarning mamlakat taraqqiyoti uchun ahamiyatiga nisbatan qiziqish, bu boradagi tadqiqot yo'naliishlari kun-sayin o'sib, kengayib borayotganligini alohida qayd etmoq lozim.

Ma'lumki, har qanday davlat o'z siyosiy institutlariga ega. Siyosiy tizimning taraqqiyot darajasi siyosiy institutlar soni va ko'rinishlarining faolligiga bog'liq. Hozirgi davrda siyosiy institutlar deganda ma'lum bir tuzilishga va bo'yunishga ega bo'lgan, vaqt o'tishi bilan tashkilotlar va insonlar o'tasidagi siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar va qoidalari majmui bilan qayta ishlab chiqarilgan muassasalar, tashkilotlar yig'indisi tushuniladi. Demak, siyosiy institutlar uchlik yaxlitlikka - tashkilot, normalar, munosabatlarni yig'indisidan iboratdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Institut" tushunchasi lotincha "institutum", so'zidan olingan bo'lib, "o'rnatish" yoki "ta'sis qilish" ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda institutlarga etimologik jihatdan so'zma-so'z talqinni bergan olim M. Veber bo'lib, u davlatni institutting eng sof misoli sifatida ko'rsatadi va uni ratsional me'yorlar, konstitutsiya, qonunlar va boshqalarga asoslanadigan xulq-atvorga ega bo'lgan odamlarning hamjamiyatini tashkil qiluvchi sifatida baholaydi[1]. E.Dyurkgeom esa institutlar bir tomonidan, odatlar va e'tiqodlar ko'rinishidagi ideal tashkilotlardan iborat bo'lsa, ikkinchi tomonidan, ushbu odatlar va stereotiplar o'z navbatida turli vaqtin va xalqlarning ijtimoiy tashkilotlari faoliyatida moddiylashadi, deya hisoblaydi[2]. Mana shunday fikrlari bilan E. Dyurkgeom Fransiyada 1950-1970 yillarda bosqichma-bosqich vujudga

kelgan fransuz "ijtimoiy institutsionalizm" maktabiga asos soldi[3].

Siyosiy fanlarda odatda, siyosiy institutlarning uch asosiy mazmuni qabul qilingan:

- institutlar siyosiy tuzilma sifatida;
- institutlar siyosiy muassasa sifatida;
- institutlar siyosiy xulq-atvorming barqaror turi sifatida.

Siyosiy institutlar odatda davlat hokimiyatini institutlari va bevosita ishtirok etuvchi institutlar turiga bo'linadi. Birinchisiga turli ierarxik (gorizontal va vertikal) darajalarda davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi institutlar kirsa, ikkinchisiga esa, fuqarolik jamiyatni tuzilmalari kiradi. Shu bois, siyosiy institutlarning yig'indisi jamiyatning siyosiy tizimini tashkil etadi.

Siyosiy hokimiyat mexanizmi sifatida siyosiy institutlar faoliyatining tabiatini, ular foydalanadigan vositalar va usullar bilan belgilanadi. Asosiy hokimiyat instituti - davlat hisoblanib, u davlat hokimiyatining mavjudligini amalga oshiradi[4]. Davlat o'z faoliyatini bilan jamiyatning barcha a'zolarini qamrab oladi, barcha tabaqalar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarini to'la ifodalaydi, hayotning turli sohalarini tartibga soluvchi keng boshqaruv apparatini shakkantiradi.

Ma'muriy davlat boshqaruvi nazariysi evolyusiyasining Fransiyada rivojlangan dastlabki bosqichlaridan biri "institutlar nazariysi"dir. Parij universitetining professori Moris Dyuverje institutlar nazariysi borasidagi tadqiqotlar doirasini kengaytirib, uning yo'naliish va xususiyatlarini ochib berishga harakat qildi. "Shu kundan boshlab,-yozadi M.Dyuverje-nafaqat qonumi belgilangan institutlar, balki shu institutlarga o'xshash hamda undan quyida turuvchi boshqaruv institutlari ham o'rganilmoqda"[5].

XX asrning 70-yillari boshida M.Dyuverje institutlarning yangi tushunchasini ishlab chiqdi. U siyosiy strukturalizm nazariyasi ta'siri ostida vujudga kelgan bo'lib, ham o'zining xarakteriga, ham xajmiga ko'ra an'anaviy institut tushunchasidan farq qiladi. M.Dyuverje fikricha, "institutlar-insoni munosabatlarning mashhur modelidir. Ular institutlarning modellar doirasidan tashqarida yuzaga kelgan munosabatlardan farqlanib, ushbu munosabatlar tasodifiy va beqarordir"[6]. Shuning uchun ham, M.Dyuverje ma'muriy davlat boshqaruvida "institusional" yondashuvni taklif etadi hamda ushbu nazariya orqali Fransiyada "boshqaruvning institusional konsepsiysi" shakllana boshlaydi. Bu konsepsiya, davlatning konstitutsiyaviy huquq normasi doirasida ishlab chiqilgan yuridik shaxs sifatidagi talqini o'rniga vujudga keldi. Natijada, boshqaruv tizimida aynan davlatga "institusionallashgan hokimiyat" sifatidagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar vujudga kelgan.

Ma'lumki, davlatning institutsiyaviy unsuri, bu-davlat hokimiyat tizimini amalga oshiradigan pog'onaviy tashkilotlar majmuasidir[7]. Shu ma'noda davlat hokimiyatini amalga oshiradigan tashkilot "davlat hokimiyat organlari", "davlat apparat" yoki "davlat boshqaruv ma'muriyati", "davlat boshqarivi" kabi tushunchalar orqali ifodalanadi.

Institusionalizm nazariyasi asoschilaridan biri bo'lgan yana bir fransuz professori Moris Oriu "jamiyatni" juda ko'p sonli institutlar yig'indisi deb hisoblaydi[8]. Uning fikricha, ijtimoiy mexanizmlar - bu insonlarni o'z ichiga olgan tashkilotlar yoki institutlar, shuningdek, g'oya, ideal, prinsip bo'lib, bu insonlarning xulq-atvorini ajratib turadigan o'ziga xos vosita bo'lib xizmat qiladi. Agar dastlab u yoki bu shaxslar doirasida birgalikda harakat qilish uchun birlashgan holda tashkilot tuzsa, unda unga kirgan shaxslar o'zlarining birlashgan ongiga singib ketgan paytdan boshlab, u allaqachon institut sifatida paydo bo'ladi. Fransuz huquqshunosи "rahbarlik g'oyasini institutning alohida ajralib turadigan xususiyati", deb hisobladi.

Davlat va boshqa ijtimoiy institutlar o'rtasidagi munosabatlarning masalasini M.Oriu "tenglar orasida birinchi" g'oyasi orqali tushuntirishga harakat qiladi. Uningcha "davlatga suverenitet sifatida emas, balki institutlar ichida bosh institut sifatida qarash kerak"[9].

Rossiyalik olim S.S.Frolovning fikricha, institutlar – jamiyat a'zolari (aniq bir qatlama misolida) ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qiladigan, an'analar va bajarilishi lozim bo'lgan o'zaro munosabatlarning normalarning tartibga solingan ko'rinishidir[10]. Bizningcha, siyosiy institut inson ongi va tafakkurini yo'naltiruvchi o'ziga xos, tartiblashgan yagona mexanizmlar yig'indisi. Jamiyatning tarraqqiyoti uning murakkabligi, uning a'zolari, shuningdek, ularni birlashtiruvchi (yo'naltiruvchi) institutlarning xilma-xilligi bilan izohlanadi. Siyosiy jarayonlarda ijtimoiy institutlarning muhimligi shundan iboratki, ular jamiyatning siyosiy jarayonlarda bevosita va bilvosita ishtirok etuvchi qatlama shakllantirishning birlamchi manbasi ekanligidir.

Har qanday institut (siyosiy, ijtimoiy) o'z faoliyatini bevosita institutsiyaviy lashuv (davriy qonuniyatlarini asta-sekin moslashtira borish) jarayoni orqali mustahkamlaydi. Institutsiyaviy lashuv – ichki qonuniyatlar va tajribaviy jarayonlar asosida paydo bo'ladi. Xatt-i-harakatlarning nazarat qilish, tartibga solish, shuningdek, boshqarish imkoniyatini beradigan xatti-harakatlar bilan almashinuvdir[11].

G'arblik mashhur olim M.Veber jamiyat istiqbolini bevosita inson omili bilan bog'lagan holda, siyosiy institutlar tarkibini quyidagicha tahlil qiladi[12]:

1) avvalo rasmiylik, ya'ni insonlar o'rtasidagi munosabatlarning belgilab qo'yilgan qonun-qoidalar, ramziy belgilar vositasida birlashadi, barcha a'zolar shu qonun-qoidalarga amal qilishi, ramziy belgilarni hurmat qilishi nazarat qilinadi;

2) instrumental – insonlar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum maqsadlar asosida birlashtirish mexanizmi;

3) konseptual – bu holat insonlarning munosabatlari turli nazariya, aql, empirik bilimlar asosiga qurilgan ko'rinishi;

4) substansional – yuqorida jarayon insonning o'z qarashlari, xatti-harakatlari, qadriyatlar, axloqiy me'yorlar asosiga qurilishi.

R.Mills institutlarning tarkibiy qismini ijtimoiy rollarning umumiyligi deya e'tirof etadi[13]. P.Berger esa institutlar tarkibiy jihatlarini maxsus, tashkiliylik xususiyatlari bilan ajaralib turadigan, ijtimoiy harakatlar uyg'uligini, birdamligini ta'minlovchi maqsadlar to'plamini, masalan, yuridik qonun, nikoh, ijtimoiy qatlamlarni tushunadi[14].

Tadqiqotchilar Dj.Bernard va L.Tompsonlar esa institutlarning tarkibiy qismlarini qoidalar va axloq me'yorlari majmui sifatida e'tirof etishgan.[15] Ayni vaqtida yuqorida qarashlar an'anaviy siyosiy institutlar to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantiradi, deyish qiyin. Zero, siyosiy qarashlar asosan ilmiy-nazariy xarakterga ega. Bu o'rinda shuni qo'shimcha qilish mumkinki, institutlarning tarkibiy qismalari faqatgina qoidalar va axloq me'yorlaring o'zi bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni insonlarning nuqtai nazarlarini mohiyatini anglagan holda, jamiyatning umummilliy tamoyillarini to'g'ri yo'naltirish, o'rnatilgan tartib qoidalarga amal qilish madaniyatini shakllantirish kabi muhim vositalar yig'indisi bilan izohlasak bo'ladi.

Biyuk bobokalonimiz Amir Temur o'zining «Tuzuklari»da «Saltanatim binosini islam dini (ijtimoiy institut), to'ra va tuzuk (siyosiy institutlar) asosida mustahkamladim»[16], deb ta'kidlagan.

An'anaviy jamiyat institutlari G'arb manbalarida konservativizm natijasi sifatida talqin etilsa-da, an'anaviy jamiyat institutlari milliy totuvlik, sarhadlar barqarorligi, eng asosisi, davlat va jamiyat munosabatlarning tayanchi sifatida yuzaga chiqqanligini ko'rsatish lozim.

Siyosiy institutlar jamiyatning asosini tashkil etgan holda, davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos siyosiy jarayonlarni shakllantirish hamda rivojlantirish omili sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon, ayniqsa, zamonaivylashuv munosabatlarga kirayotgan davlatlar uchun muhim bo'lib, hukumatning qay tarzda shakllanishi hamda uning turli idoralar qanday huquqlarga ega ekanligini, shuningdek, undan qanday foydalananish mexanizmlarini belgilaydi[17]. Siyosiy institutlar har bir jamiyatda yangicha g'oyalarni shakllantirish xususiyatiga ega ekanligi bilan o'zgarishlarda (yangilanishlarda) burilishi yasay oladi. Boshqaruv hokimiyatining ta'sirini oshirishda asosiy mezon vazifasini bajarishi nuqtai nazaridan alohida strategiyaga ega. Bunda ularni qanchalik demokratik tamoyil va qoidalarga asosida faoliyat ko'rsatishi muhimdir. Amerikalik siyosatshunoslar X.Lins va A.Stepanlarning tadqiqotchi har qanday jamiyatda siyosiy institutlarning transformatsiyalashuvni oxir-oqibatda quyidagi natijalarni ta'minlab beradi: a) faol fuqarolik jamiyat; b) qisman mustaqil siyosiy jamiyat; v) huquqiy davlat; g) faol davlat va fuqarolik mexanizmi; z) iqtisodiy jamiyat[18].

Amerikalik tadqiqotchi T.Parsonsning fikriga ko'ra, «siyosiy institutlar, ayniqsa, davlatning zamonaivylashuv va taraqqiyot jarayoniga kirishuvida avvalo «integratsiyaviylik» xususiyatini bilan ajralib turishi hamda yangicha munosabatlarni yo'naltirishda boshchilik qilishi bilan ifodalanadi»[19].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dunyoda sodir bo'layotgan so'nggi voqe-a-hodisalar siyosiy institutlarning transformatsiyalashuvni hamda ularning siyosiy munosabatlarga integratsiyalashuvni talabini qo'ymoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu yangilanishlarni o'zlashtirmay hamda chuqr tadqiq etmasdan turib, bugungi globallashuv jarayonida rivojlanishga erishib bo'lmaydi.

Har bir jamiyatda siyosiy institutlarning faoliyati, yo'naliishlari uning tizimi bilan bog'liq ravishda rivojlanishi lozim. Zero, har qanday qoidalarga tizima solingan, tartiblashtirilgan bo'lishi shart. Tizim tushunchasining siyosiy institutlarga xos birinchi belgisi – institutlarning o'zi tartiblashgan qoidalari umumiyligi ekanligidir. Bunda tizimning elementi muhim ahamiyat kasb etib, unda ko'ra aniq bir maqsadni amalga oshirishni muvaffaqiyatlari yakunlash uchun alohida qismlarga ajaratilishi tushuniladi[20].

Jumladan, davlat siyosiy institut sifatida bir qator belgilarga ega va ana shu belgilari orqali ham tavsiflanadi:

Birinchidan, davlat albatta muayan hududga va aholiga ega bo'lgan tashkilot. Davlat hokimiyati muayan hudud va shu hududda yashovchi aholini qamraydi. Davlatning yaxlitligi fuqarolik instituti bilan ta'minlanadi. Har qanday davlat geografik chegaraga ega;

Ikkinchidan, siyosiy hokimiyatning bir turi sifatida davlat jamiyatni boshqarishga ixtisoslashgan ommaviy hokimiyat institutlariga ega: qonunchilik, ijro, sud hokimiyati institutlari. Mamlakatda tartibni saqlash, havfsizlikni ta'minlash va zarur bo'lganda kuch ishlatalish uchun armiya, tartibni saqlash va nazorat xizmatlari amal qiladi;

Uchinchidan, davlat ijtimoiy hayotni huquq asosida tashkil etadi. Faqt davlatgina barcha uchun majburiy qonunlar qabul qilish huquqiga ega. Bu talablarni davlat ma'muriy apparat va sudlar yordamida amalga oshiradi;

To'rtinchidan, davlat oliy hokimiyat egasi. Bu - davlat hokimiyati hokimiyatning boshqa turlaridan ustunligi, barcha uchun majburiyligi, boshqa hokimiyatlar qarorlarini bekor qila olishida, bir qator mutloq huquqlarga egaligi (masalan, soliq solish, kuch ishlatalishga qonuniy huquqi, qonun chiqarish) da namoyon bo'ladi;

Beshinchidan, davlat jamiyat barcha a'zolarining doimiy manfaatlarni ifodalovchi yagona institut. Qolgan institutlar shu ma'noda xususiy deb qaralishi mumkin. Masalan, siyosiy partiylar muayan qatlamlar manfaatini ifodelaydi. Davlat shu tariqa legitimlash instituti hamdir.

**Xulosa va takliflar.** Yangilanayotgan O'zbekistonda siyosiy institutlar transformatsiyalashuvi, avvalo, bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlarning davlat boshqaruvida oid tajribalarini qo'llash, shu bilan birga, siyosiy institutlar faoliyatini inson manfaatlarini yetakchi o'runga qo'yish orqali yangi bosqichga ko'tarish masalalari uzoq istiqbolga mo'ljallangan strategik maqsad bo'lishi kerak. Zero, Prezident Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Yangi O'zbekiston orzusi amaliyotga, real voqeqlika aylanmoqda. Ammo bu osonlikcha, o'z-o'zidan bo'ladigan ish emas. Yangi jamiyatni barpo etish, avlodlarimiz uchun yorug' kelajakni yaratish ehtiyoji barchamizdan ulkan mas'uliyat, fidoyilik va bunyodkorlikni talab qilmoqda»[21].

Bu jarayon O'zbekistonda siyosiy islohotlarning yangicha tabiatini belgilab beradi. Uning asosiy mazmuni, fikrimizcha, «inson – jamiyat – yangicha siyosiy tafakkur» ko'rinishida aks etadi.

Odatda, institutlar faoliyati aniq bir jamiyat uchun xarakterli bo'lgan siyosiy jarayon sikllari ro'y berib turishini ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, umumdaylat, umumjamoaviy qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni, avvalambor, yetakchi siyosiy institutlar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, demokratik mamlakatlarda siyosiy jarayon, qoidaga binoan, saylovlar sikllariga bog'liq holda shakllanadi va yashaydi. Aholi siyosiy faolligining eng avjiga chiqqan payti davlat hokimiyatining oliy qonun chiqaruvchi va ijroiya organlariga saylovlardan davridir.

Institutlarning siyosiy jarayondagi funksiyalarining mufassal modeli taniqli olimlar G.Almond va G.Pauell tomonidan ishlab chiqilgan. Ular siyosiy jarayonda u yoki bu funksiyani bajarish bilan bog'liq siyosiy o'sish sur'ati va institutlarning beshta funksional bosqichini bir-biridan ajaratib ko'rsatdi. Birinchi bosqich-individual va guruhiy manfaatlarni artikulyatsiyalashda ularni ifodalash va funksiyalar sohibi sifatida guruhiy birlashmalar («manfaatlarni guruhlari») ijtimoiy kengliklarga chiqadi. Bunga tadbirkorlar uyushmalari, kasaba uyushmalari kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Keyingi bosqich - manfaatlarni agregatsiyalash asosan siyosiy partiylar faoliyati bilan bog'liqidir. Bunda turli individrlar va guruhlarning har xil manfaatlari saralanadi va yaxlit partiyaviy-siyosiy yo'l sifatida (nuqtai nazar) birlashadi. Bu kabi holatlar ommaviy (masalan, sotsial-demokratik) partiylar misolda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Siyosiy yo'lni ishlab chiqish bosqichida integratsiyalash rolini vakillik va qonun chiqaruvchi institutlar bajaradi. Ular jamoaviy qarorlarni shakllantiradi.

Qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bosqichi asosan ijroiya hokimiyat institutlari faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bunda zaruriy tadbirlar amalga oshiriladi va kerakli resurslar izlab topiladi.

## ADABIYOTLAR

1. Weber W. Spannungen und Krafte im Westdeutschen Verfassungssystem. Humboldt, 1970. - P. 52.
2. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. М., 1991. - С. 283-284.
3. Современная буржуазная политическая наука: Проблемы государства и демократии // Под общ. ред. Шахназарова Г.Х. М., 1982. Гл. 4. - С.116
4. Соловьев О.М. Политические институты: Учебное пособие. М., СПб., 2003.
5. Duverger M. Institutions politique et droit constitutionnel. // Paris, 1970. Р. 7.
6. Duverger M. Sociologie politique. // Paris, 1970. - Р.103.
7. Мирзаахмедов К. “Ўзбекистонда давлат бошқаруви жараёнларини демократиалаштириш эволюцияси” мавзуусидаги сиёсий фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Т.:, 2019.
8. Ориу М. Основы публичного права. Монография, ИНФРА -М, 2021 г. ISBN: 978-5-16-011647-1.
9. Ориу М. Основы публичного права. Монография, ИНФРА -М, 2021 г. ISBN: 978-5-16-011647-1. - С. 77.
10. Фролов С. Социология. - М.: Наука,1994. - С.122.
11. Фролов С. Социология. - М.: Наука,1994. - С.124.
12. История социологии в Западной Европе и США. – М.: 1993. - С. 180.
13. Чарлз Р. Властвующая элита. -М.: Издательства иностранной литературы. 1959., – С. 17.
14. Бергер П.Л. Приглашение к социологии: Гуманистическая перспектива/Пер. с англ. под. ред. Г.С.Батыгина. -М., 1996. – С.84
15. Bernard J., Thompson L.F. Sociology. Nurses and their Patients in Modern Society.-Saint Louis: The C.V. Mosby Co., 1970. - P.125.
16. Темур тузуклари / форсчадан тарж. А.Согуний ва Ҳ.Караматов. – Т.: Шарқ, 2005. – Б.64.
17. Джеймс А. Робинсон. Почему одни страны богатые, а другие бедные. Происхождение власти, процветания и нищеты: ACT; – Москва; 2015. – С. 189.
18. Линц Х., Степан А. «Государственность», национализм и демократизация // Политические исследования. 1997. № 5. – С. 9-30
19. Парсонс Т. О структуре социального действия. – М.: Академический проект. 2018. – С. 301.
20. Волкова В.Н., Денисов А.А. Теория систем и системный анализ: учебник для академического бакалавриата. 2-е. – М.: Юрайт, 2014. – С. 616.
21. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Т: O'zbekiston нашриёти, 2022. – Б. 23.



**Musallam XASANOVA,**

O'zMU nemis tili kafedrasи katta o'qituvchisi

E-mail: [hmmusallam@mail.ru](mailto:hmmusallam@mail.ru)

TDYU professori, ped.f.d. Xoshimova D.U. taqrizi asosida

## THE QUESTION OF IMITATION IN THE TEACHING OF THE GERMAN LANGUAGE: IMINATIONATIVE AND NONIMITATIVE METHODS

### Annotation

The article examines the importance of imitation in the process of teaching German language in higher educational institutions. It analyzes the difference between imitation and non-imitation language teaching methods, their role in language teaching and their impact on language learning by students.

**Key words:** German language, Linguistics, higher education, imitation, pedagogical methods, imitative methods, non-imitation methods.

## ВОПРОС ИМИТАЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА: ИМИТАЦИОННЫЕ И НЕИМИТАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ

### Аннотация

В статье рассматривается значение подражания в процессе преподавания немецкого языка в высших учебных заведениях. В нем анализируется различие между имитационными и неимитационными методами обучения языку, их роль в обучении языку и их влияние на изучение языка учащимися.

**Ключевые слова.** Немецкий язык, Лингвистика, высшее образование, подражание, педагогические методы, подражательные методы, неимитационные методы.

## NEMIS TILINI O'QITISHDA IMITATSIYA MASALASI: IMINATSION VA NOIMITATSION METODLAR

### Annotatsiya

Maqolada oliv ta'lif muassasalarida nemis tilini o'qitish jarayonida imitatsiyaning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Bunda til o'qitishning imitatsion va noimitatsion metodlarining o'zaro farqi, til o'rgatishdagi o'rni va talabalar til o'rganishiga ta'siri tahsil qilingan.

**Kalit so'zlar.** Nemis tili, tilshunoslik, oliv ta'lif, imitatsiya, pedagogic metodlar, imitatsion metodlar, noimitatsion metodlar.

**Kirish.** Til insoniyatning eng asosiy muloqot, anglash va tushuntirish vositasidir. Insoniyat evolyutsiyasi natijasida har qanday jamiyatda til yangi avlod, ya'ni bolalar tomonidan kattalarga taqlid qilish, ular orqasidan qaytarish orqali o'rganib kelingan va bu jarayon davom etmoqda. Imitatsiya insoniyat uchun tilni muhim bir ijtimoiy hodisa va ko'nikma sifatida avloddan-avlodga yetkazishga eng katta xizmat qilayotgan uslubdir. Zero, imitatsiya avvalo harakat va ovozlatrni takrorlash orlqai nafaqat ona tilini, balki ikkinchi tilni ham o'rganish va o'rgatishda qo'llanilib kelinayotgan eng qadimgi usullaridan bira hisoblanadi. Imitatsiya shuningdek, parafraza va metafraza bilan birgalikda tarjimashunoslikda qo'llaniluvchi eng fundamental uch metoddan biri sanaladi. XXI asrda operatsiyalar va protsedralarning rasmiy takrorlanishi bilan bog'liq mazkur hodisa ko'plab mamlakatlarda ma'lum darajada tarqalmoqda va ijtimoiy falsafiy tahsil va talqinni talab qiladi. Imitatsiya siyosat, iqtisodiyot, fan, ta'lilda o'zini namoyon qila boshladi va ona tili bilan bo'lgani kabi, xorijiy tillarni o'rganish va o'qitishda ham imitatsiya va u bilan bog'liqi metodlar ahamiyati juda yuqori hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xorijiy tillarni o'rganishda imitatsiya masalalari, imitatsion va noimitatsion metodlarning dars jarayonida qo'llanishi mavzulari mahalliy ilmiy doiralarda kam o'rganilan mavzu sananaladi. Ammo, ko'plab xorijiy ilmiy manbalarida aynan imitatsiya va shaxs kommunikatsiyasi, imitatsiya va o'yin nazariyasi doirasida chet tillarini o'qitish masalasi keng tadqiq etilgan. Jumladan, rus olimi V.S. Korostelyov chet tillarini o'rganishda imitatsiya va noimitatsiya talabalarda psevdokommunikatsiya va kommunikatsiya malakasining shakllanishi bilan bog'liqligini ta'kidlasa [1]. Boshqa bir Rossiyalik tadqiqotchi L.I. Notkin til o'rganishda imitatsion metodlar birinchi navbatda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishini va aynan motivatsion asos birlamchi ekanini qayd etib o'tgan [2]. AQShlik mutaxassis J.Kelly fikricha, imitatsiya insonning eng fundamental

malakalaridan biri bo'lib, chet tillarini o'rganishda imitatsion usullardan foydalanan talabalarda aynan shaxsiy va ijtimoiy muloqot konstruktchlari doirasida sodir bo'ladi [3].

Demak, imitatsion va noimitatsion metodlar til o'rganishda nazariyasining eng muhim kategoriysi sananladi va ushu pedagogik usullar shaxslararo muloqot qilish ehtiyoji asosida shakllangan hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuqorida qayd etib o'tilgan metodlar o'quvchilarga tilning konstruksiysi, madaniy va ijtimoiy komponentlarini aniqroq anglashga yordam beradi. Imitatsiya atamasи aslida lotinchha "imitatio" ya'ni taqlid qilish so'zidan olingan bo'lib, biror kishiga yoki biror narsaga o'xshatish, nimanidir takrorlash, nusxalash, shuning modellasshtirish, usulblashtirish kabi ma'nolarni ham beradi [4]. Shuningdek, mazkur termin boshqa narsa yoki shaxsga o'xshashga intilish jarayonini ham anglatadi [5].

Imitatsiya masalasining tilni o'rganishdagi ahamiyatini xorijiy manbalarda tilga taqlid qilish haqidagi adabiyotlar orasida nemis olimi Tiedemann (1897) ning izlanishlari fundamental hisoblanadi. U olti oylik farzandining onasi nigohiga ergashishga va "ma" va "da" bo'g'ini talaffuz qilishga urinishlarini kuzatgan [6]. Mavzu bo'yicha so'nggi adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, quyidagi vazifani bajarishda yaxshiroq ishlaydigan chaqaloqlar so'z boyligini hayratlanarli darajada tez sur'atlarda egallaydilar. Imitatsiya hayotning birinchi yilining ikkinchi yarmida paydo bo'lgan boshqa odamning diqqat markaziga ergashish qobiliyat sifatida belgilanadi [7].

**Natijalar va muhokama.** Xorijiy tillarni o'rganishda imitatsion va noimitatsion metodlar faqatgina til tashuvchilarini (xorijiy tili asosiy ona tili bo'lgan shaxslariga) taqlid qilishdan yoki qilmaslikdan iborat emas. Ikki turdag'i metodlar anchayin keng uslublarni o'ez ichiga oladi.

Imitatsion metodlar o'z nomi bilan taqlid qilish jarayonidan iborat. Mazkur metodlarni o'yin va o'yindan tashqari ikki guruhg'a ajratish mumkin. O'yin orqali olib boriluvchi

imitasion metodlarga oldindan bo'lingan rollarni o'yinash, ish yuritish o'yinlari, musobaqa kabi metodikalarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda talabalar o'zlariga ajratilgan rollar orqali turli sun'iy vaziyatlarga yechim toppish va mazkur vaziyatlarni nemis tili orqali tushunish va tushuntirib berishni o'rganadigan.

O'yindan tashqari imitasion metodlar aniq vaziyatlarni maxsus tayyorlangan holda tahlil qilish va situation/vaziyatlari masalalarni yechishdan iborat. Asosiy farq, ushbu metodika qo'llanganda talabalar vaziyat haqida oldindan xabdordor bo'ladilar va unga tayyorgarlik ko'rib keladilar, lekin vaziyat ishtirokchilariga taqlid-imitasiya elementi saqlanib qoladi.

Nemis tilini o'qitishda noimitatsion metodlar orasida biz muammoli xarakterga ega ma'ruzalar va tadqiqot faoliyatini alohida jaratib ko'satish mumkin. Mazkur holatda talaba boshqa bir shaxs va vaziyatga taqlid qilmasdan til o'rganishni doimiy ravishda o'zi nomidan olib boradi. Shuningdek, dars jarayonlarida bahs-munozara, adabiyotlar bilan mustaqil ishslash, loyiha faoliyati, elektron manbalar bilan ishslash kabi mashg'ulotlar ham noimitatsion, ya'ni taqlid elementisiz amalga oshiriladigan til o'rgatish uslubi hisoblanadi.



#### 1- chizma. Nonimitation methods classification

Jadvaldan ham ko'rish mumkinki, noimitatsiya metodlari, kasbiy mahorat va ko'nikmalarni o'rganishni o'z ichiga oladi va kasbiy faoliyatni modellashtirish bilan bog'liq. Ularni qo'llashda kasbiy faoliyatning holatlari ham, kasbiy faoliyatning o'zi ham modellashtiriladi.

Imitatsion va noimitatsion metodlarni shuningdek quydagicha tasniflash ham mumkin. Nemis tilini o'qitishning noimitatsion usullari quydagilar bilan tavsiflanadi: o'rganilayotgan jarayon modeli taqlidining yo'qligi, "savol-javob" rejimida aloqadir. Noimitatsiya usullari quydagilarni o'z ichiga oladi:

- suhbat (intellektual, evristik, muammoli);
- ma'ruza (ikkilik, ma'ruza-maslahat, didaktik ma'ruza, tayyorgarlik va boshqalar);
- seminar (intellektual hujum, o'zaro o'rganish, "munozara" va boshqalar).

Imitatsion usullari quydagilarga xosdir: o'rganilayotgan jarayonning simulyatsiya modeling mavjudligi, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirokchilarning faol o'zaro ta'siri mayjudligi [8: 60]. Faol o'rganishning imitatsion metodlari o'yin va o'yin usullariga bo'linadi. O'z navbatida, o'yin bo'Imagan usullar quydagilarni o'z ichiga oladi [9: 201]:

- muayyan vaziyatlarni tahlil qilish;
- individual trening;
- pedagogik muammolarni hal qilish;
- simulyatsiya mashqlari;
- hodisa.

Faol ta'limning o'yin simulyatsiyasi usullari quydagilarni o'z ichiga oladi:

- professional trening;
- tashkiliy va faoliyat o'yini;
- o'yin dizayni;
- simulyatsiya o'yini;
- rollarni ijro etish;
- biznes o'yini.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, imitatsiya orqali tilni o'qitish to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etish printsipiiga asoslanadi, bu o'qituvchini har bir talabani o'quv jarayonining ishtirokchisiga aylanadirishga, o'rganilayotgan muammolarni hal qilish usullari va usullarini izlashga majbur qiladi.

Dars jarayonida ushbu metodlardan keng foydalanish talabalarni til tashuvchisi sifatida o'zini xis etishga va turli sun'iy, biroq real hayotda uchraydigan vaziyatlarni orqali tilni mavzular bo'yicha o'rganish, og'zaki nutqni yanada rivojlantirishga, o'zining ichki qo'rquvini yo'qotishga xizmat qiladi. Shuningdek, imitatsion o'yinlar talabalarni dars jarayonlarida yanada faolroq ishtirok etish va xorijiy tilning nima uchun kerakligi haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishiga yordam beradi. Noimitatsion o'yinlar esa tilni chuqurroq o'rganish, uning muayyan jahbalarini tadqiq qilishdagi eng asosiy usullardandir. Noimitatsion metodlar nafaqat pedagogik asosga ega, balki akademik faoliyatda birlamchi o'ringa chiquvchi metodlar sirasiga kiradi. Zero, har qanday tadqiqotning asosini noimitatsion metodlar tashkil etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Коростелев В.С. Коммуникация и псевдокоммуникация // Иностранные языки в школе. 1991. № 5. С. 17-21.
2. Ноткин Л.И. Процессуальное и личностное в мышлении человека // Психологические аспекты человеческой деятельности. М.: Ин-т упр. нар. хозяйством: Институт психологии АН СССР, 1978. С. 75-83.
3. Kelly G. The psychology of personal constructs. - Rech Publ.; 2000. 249 p.
4. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/236597>
5. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/imitation>
6. Tiedemann D. (2018). Dietrich Tiedemanns Beobachtungen Über die Entwicklung der Seelenfähigkeiten bei Kindern (German Edition). Forgotten Books, p. 302
7. Schwab J. F., & Lew-Williams, C. (2016). Language learning, socioeconomic status, and child-directed speech. Wiley Interdisciplinary Reviews: Cognitive Science, 7(4), 264-275.
8. Лазарева И.А. Возможности повышения качества учебного процесса при использовании методов активного обучения // Инновации в образовании. - 2004. -№ 3. - С.52–60.
9. Морева Н.А. Педагогика среднего профессионального образования / Н.А. Морева. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – с.201



Ozoda XOLMURODOVA,  
TDPU mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: xolmurodova.ozoda32@gmail.com

TVPYMO 'MM o'quv va metodik ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari, PhD D.Sarimova taqrizi asosida

## TALABALarda KREATIV KOMPETENSIyALARINI MASALA VA MASHQLAR YECHISH ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kreativlik tushunchasining mohiyati, krayativlikni rivojlantirish yo'llari, talabalarda biologik masala va mashqlar yechish orqali kreativ kompetensiylarini rivojlantirish metodikasi bilan bir qatorda, kreativ kompetensiylarini rivojlantirishda foydalilanligan biologik masala va mashqlardan namunalar va ularni yechish usullari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lif sifati, samaradorlik, kreativlik, kerativ kompetensiya, Venn diagrammasi, masala, mashq, qon guruhlari, qon aylanishi, qon bosimi.

### METHODOLOGY FOR DEVELOPING CREATIVE COMPETENCES OF STUDENTS THROUGH SOLVING THE TASKS AND EXERCISES

Annotation

The paper involves the essence of the concept of creativity, ways to develop creativity, methods of developing students' creative competencies by solving biological problems and exercises, as well as examples of biological tasks and exercises used in the development of creative competencies and methods of solving them.

**Key words:** quality of education, efficiency, creativity, creative competence, Venn diagram, task, exercise, blood groups, blood circulation, blood pressure.

### МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ РЕШЕНИЕ ЗАДАЧ И УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация

В статье раскрыта сущность понятия креативности, пути развития творческих способностей, методы развития творческих компетенций учащихся путем решения биологических задач и упражнений, а также приведены примеры биологических задач и упражнений, используемых при развитии творческих компетенций, и методы их решения.

**Ключевые слова:** качество образования, работоспособность, креативность, творческая компетентность, диаграмма Венна, задание, упражнение, группы крови, кровообращение, артериальное давление.

**Kirish.** Jahon ta'lif va ilmiy tadqiqot muassasalarida mantiqiylar va kreativ fikrlash layoqatiga ega bo'lgan, o'zlashtirgan bilim, ko'nigma va malakalarni o'zining hayoti davomida qo'llay olish qobiliyatlari rivojlangan yetuk mutaxassislar tayyorlash, kasbiy – metodik kompetentiligi yuqori darajada shakllangan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoxda.

Ma'lumki, har bir mamlakatning kelajagi, iqtisodiy va ijtimoiy hamda siyosiy taraqqiyoti bevosita o'quvchi-yoshlarning qay darajada ta'lif olishlariga uzviy bog'iq hisoblanadi. Mamlakatimiz ta'lif tizimida ham ta'lif samaradorligini oshirish, xalqaro andozalarga mos ravishda kreativ kompetensiyalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimiz oliv ta'lif muassasalarida talabalarning kreativ kompetensiylarini rivojlantirish, kasbiy kompetensiylarini takomillashtirish, o'qitish jarayonida innovatsion va axborot kommunikatsion texnologiyalarini ta'lif amaliyotiga bevosita joriy qilish, nazariya va amaliyotning uyg'unlagini ta'minlash, har bir faoliyat sohalari bo'yicha talabalarga innovatsion bilim berish, kasbiy ko'nigma va malakalarni mutazam takomillashtirib borish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur vazifalarni pedagogik ta'lif amaliyotiga joriy etish jarayonida uzlusiz ta'lif tizimining barcha bosqichlarda qolaversa har bir fan va o'quv fanlari kesimida tadqiqotlarni va o'quv jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi. Barcha fanlar kabi biologik ta'lif oldiga ham yuksak vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu masalalar yuzasidan MDH va xorijiy rivojlangan davlatlarning ilmiy-tadqiqot muassasalarida o'qituvchilar va bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-metodik va ularda kasbiy

kompetensiylarini takomillashtirish muammolari B.A.Kan-Kalik, O.A.Kozireva, E.F.Zeer, V.A.Yakunin, V.A.Slastenin, I.V.Grishina, R.X.Tugeshev, B.Bishop, J.Miller, M.Clores boshqa olimlar tomonidan atroflichka o'rganilgan[2].

Xususan, B.A.Kan-Kalik pedagogik faoliyatning kasbiy xususiyatlari ijodiy muammolarni hal qilish jarayoni sifatida pedagogik ijodkorlikning zarur shart-sharoitlari o'qituvchi va o'quvchi o'ttasida hamkorlikda yaratish va o'qituvchining ijodiy sa'y-harakatlarini butun pedagogik jamaoa ijodi bilan muvofiqlashtirish lozimligini ta'kidlaydi[2].

Shu nuqtai nazaridan bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida masala va mashqlar yechish orqali kreativ kompetensiylarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Biologiya va uni o'qitish metodikasini takomillashtirish, uzlusiz ta'lif tizimida biologiyadan masala va mashqlar yechish, fanlararo integratsiyasi bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish bilan bir qatorda xalqaro baholash dasturlari asosida biologiya fanlarini o'qitishning ilmiy-nazariy tayyorgarligini takomillashtirish muammolari doirasida A.T.G'ofurov, J.O.Tolipova, G.A.Shaxmurova, S.S.Fayzullaev, O.Mavlonov, I.T.Azimov, U.E.Raxmatov kabi soha mutaxassislari maxsus tadqiqotlar olib borgan.

Kompetensiya o'z bilimlarini qat'iy tartibda oshirishni, fandagi so'nggi yangiliklarni o'zlashtirishni, ayni davr talablarini his etishni, yangidan - yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni zarur hollarda qayta ishslashni hamda o'z kasbiy faoliyatida qo'llashni talab etadi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis mavjud muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirgan ayni shu sharoitga mos metodlar va usullardan foydalananishni bilishi, shu vaqt talabiga mos keladigan metodlarni saralab mos

kelmaydiganini ajratishi, mavjud muammoga tanqidiy ko'z bilan fikr bildirishi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi[1].

Ma'lumki, shaxsda kreativ kompetensiyalar o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Har qanday muammoga tezkorlik bilan munosabatda bo'lishi va kutilmagan noodatiy murakkab vaziyatdan chiqishning nostandard usullarini topishi kreativ kompetensiyalarni rivojlanishiga olib keladi. Shunday ekan, ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni rag'batlantrish, ruhlantirish, yangi-yangi g'oyalarni ilgari surishga undash, muammoli vaziyatlarni tez-tez vujudga keltirish orqali kreativ kompetensiyalar rivojlantiladi[3]

Talabalarda kreativ kompetensiyalarini rivojlantrishda biologiyaga oid masala va mashqlardan foydalanishning zaruriy sharti quyidagilar:

– fan sohasidagi axborot hajmining ko'pligi, kengligi va tezda rivojlanib borayotganligi;

– texnik taraqqiyotning tezligi, zamona viy laboratoriya jihozlarini tez taraqqiy qilayotganligi;

– o'qitishning turli texnik vositalari taraqqiy qilib bormoqda;

– tashqi ta'sirlar, o'quvchilar uchun o'qituvchining qotib qolgan bilimidan qiziq telefon, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va h.k.lar mavjud. Bunday ta'sirlar bugungi kun darslarini zamon talabi darajasida o'tishni talab qiladi[4].

Mamlakatimizda keng ko'lamda biologik ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan maxsus tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, ammo bo'lg'usi biologiya o'qituvchilari masala va mashqlar yechish orqali kreativ kompetensiyalarini rivojlantrish yuzasidan maxsus tadqiqot o'tkazilmagan. Shu munosabat bilan quyida tirik organizmlarda ro'y beradigan hodisa va jarayonlarni dinamikasi aks ettirilgan masala va mashqlar yechish orqali bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kreativ kompetensiyalarini rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan masala va mashqlardan namunalar keltirsak maqsadga muvofiq sanaladi.

*Masala.* “Qon guruhining irlsiyanishi” va biologiya sohasidagi bilimlardan foydalanib, quyidagi test topshirig'ining javobini aniqlang.

		Otaning qon guruhi				
		I (0)	II (A)	III (B)	IV (AB)	
Onaning qon guruhi	I (0)	I (0)	II (A) I (0)	III (B) I (0)	II (A) III (B)	Bolaning qon guruhi
	II (A)	II (A) I (0)	II (A) I (0)	barchasi	II (A), III (B), IV (AB)	
	III (B)	III (B) I (0)		III (B) I (0)	II (A), III (B), IV (AB)	
	IV (AB)	II (A) III (B)	II (A), III (B), IV (AB)	II (A), III (B), IV (AB)	II (A), III (B), IV (AB)	

1) Agar ota va ona III guruhga ega bo'lsa, bola III yoki I guruhga ega.

2) Agar bolada IV qon guruhi bo'lsa, u holda ota-ona faqat IV qon guruhiga ega.

3) Agar ota va ona I guruhga ega bo'lsa, bola faqat I guruhga ega.

4) Bolaning qon guruhi ota-onalarning qon guruhiga bog'liq emas.


A) 1-yo'q; 2 -ha; 3-ha; 4-yo'q B) 1-ha; 2 - yo'q; 3-ha; 4-yo'q

C) 1-ha; 2-ha; 3-yo'q; 4 - yo'q D) 1-yo'q 2-yo'q; 3-ha; 4-ha

*Masalaning metodik yechimi:* bu tipdag'i genetik masalalar yechish natijasida bo'lajak biologiya o'qituvchilari o'zlarida kreativ kompetensiyalar shakllanishiga zamin tayyorlaydi. Chunki, ota - ona qon guruhlariga qarab ularning farzandlarida vujudga keladigan qon guruhlarini oldindan aytish lozim bo'ladi. Shu boisdan, bo'lajak biologiya o'qituvchilari mazkur genetik masalani yechish uchun kreativ yondashuvni amalga oshirishi lozim. Bunda quyidagi fikri tahlil qilishdan boshlaylik. 1) *Agar ota va ona III guruhga ega bo'lsa, bola III yoki I guruhga ega.* Ushbu fikr o'z isbotini kamida ikki variantda topadi. Birinchi variantda ota ona quyidagi genotipga ega bo'lsa

$I^{B^B} \times I^{B^B}$  ulardan albatta III qon guruhli farzandlar tug'iladi. Ikkinchi variandta esa ota ona quyidagi genotipga ega bo'lsa  $I^B I^O$  x  $I^B I^O$  ulardan quyidagi kombinatsiya natijasida I qon guruhli ( $I^O I^O$ ) farzand tug'ilishi (1ga javob "ha")ni tasavvur qila olishlari lozim. 2) *Agar bolada IV qon guruhi bo'lsa, u holda ota-ona faqat IV qon guruhiga ega.* Bu javobga kreativ jihatidan yondoshilmasa talaba javob topishda xato qiladi. IV qon guruh hamma vaqt ham IV qon guruhli ota onadan tug'ilavermaydi chunki, ikkinchi va uchinchi qon guruhli ota onalar nikohidan ham IV qon guruhli farzand tug'ilishi (2 ga javob "yo'q") aniqlangan. 3) *Agar ota va ona I guruhga ega bo'lsa, bola faqat I guruhga ega.* Bu javobda ota onalarning genotipi faqat bir xil ya'ni  $I^O I^O$  bo'ladi, bundan ko'rinish turibdiki(3 ga javob "ha") farzandlar faqat I qon guruhli bo'ladi. 4) *Bolaning qon guruhi ota-onalarning qon guruhiga bog'liq emas.* Bu fikrni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilish uchun G.Mendelning irlsiyat qonunlarini o'zlashtirgan bo'lishi (4 ga javob "yo'q") lozim. Yuqorida tahlillar asosida biz masalaning javobi **B) 1-ha; 2 - yo'q; 3-ha; 4-yo'q** ekanligini aniqlash mumkin. Bu turdag'i tahlillarga asoslangan masalalar talabalarga har darsda berib borilishi bevosita kreativ kompetensiyalarni rivojlanishiga olib keladi.

*1-mashq.* Quyidagi Venn diagrammasida berilgan 1,2,3 raqamlariga mos tushunchalarni aniqlang.



A) 1-sutemizuvchi; 2- poykiloterm hayvon; 3-qush

B) 1-qush; 2-poykiloterm hayvon; 3-sutemizuvchi

C) 1-sutemizuvchi; 2-gomoyoterm hayvon; 3-qush

D) 1-qush; 2-gomoyoterm hayvon; 3-sutemizuvchi

Ushbu test ko'rinishdagi mashqni bajarish jarayonida avval olgan bilimlaridan yangi vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Chunki, biologiya ta'lim

yo'nalishi talabalari zoologiya o'quv fanini II kursda o'tgan. Shunga ko'ra talabalari hayvonot dunyosiga oid tushunchalarni analiz va sintez qilish va xulosa yashash orqali to'g'ri javobni aniqlashi mumkin. Bu diagrammada boltayutar qushlar, silovsin esa sut emizuvchilar sinfining vakili ekanligini aniqlashi lozim. Shundan so'ng ularning o'xshashligining umumiy jihatni moyoyoterm ya'ni ikkalasi ham issiqqonli hayvonligini anglashi

natijasida javob **D)1-qush; 2-gomoyoterm hayvon; 3-sutemizuvchi** ekanligini belgilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqoridagi namuna sifatida berilgan masala va mashqlarda faqatgina 60110900-biologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lg'usi biologiya o'qituvchilar o'quv rejasidan o'rinn o'lgan "Biologiyadan masala va mashqlar yechish" fanidagina emas balki barcha biologik savodxonlikni shakllanishiga asos bo'ladijan majburiy va tanlov fanlarini o'qitish jarayonida tirk organizmlarda ro'y beradigan jarayonlarni mohiyatini aks ettiradigan kreativ fikrashga yo'naltirilgan masalalar va mashqlardan har bir professor - o'qituvchilar o'zining pedagogik faoliyati davomida samarali ravishda uzlusiz foydalaniishi natijasida talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlanishiga zamin tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil o'lg'usi biologiya o'qituvchilar kelajakdag'i pedagogik faoliyatiga moslashib boradi va umumta'lim maktablarida biologiya fanidan tashkil etiladigan darslarda o'quvchilarini kreativ fikrashlarini asosida tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllanishiga poydevar yaratadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kreativ kompetensiyalarni rivojlanirish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining bilimlarini muntazam oshirib borishi, o'zining faniga doir so'nggi yangiliklarni to'plashi qolaversa ularni mazmunan tahlil qilishi, bugungi kun bilan bog'liq bo'lgan muhim talablarni aniqlay olishi hamda o'zining ilmiy-pedagogik faoliyatida keng qamrovda tadbiq etishni taqozo etadi[1].

Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilar o'zlarida kreativ kompetensiyalarni rivojlanirish jarayonida muayyan tipdagi biologik masala yechish va mashqlarni bajarish orqali ularni takror va takror bajarishi natijasida erishadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bo'lajak biologiya o'qituvchilarida kreativ kompetensiyalarni rivojlanirish uchun professor-o'qituvchilar talabalarga biologiyadan masalalarni ayrim fanlardan emas balki botanika, zoologiya, Odam anatomiyasi va fiziologiyasi, rivojlanish biologiyasi, biokimyo, molekulyar biologiya, genetika va seleksiya asoslari, biologiya o'qitish metodikasi, biologiyadan masalalar yechish fanlarida tizimli ravishda qo'llanilgandagina muayyon bir maqsadga erishadi[5].

**Xulosa.** Bugungi kunda axborotlar globallashuvi shiddat bilan rivojlanib bormoqda bunday o'zgaruvchan muhitda bo'lg'usi biologiya o'qituvchisilari o'zining kelgusidagi ilmiy pedagogik faoliyatini faol tarzda o'zgartirish orqali ushu o'zgargan muhit sharoitiga tez va adekvat tarzda moslasha olishi, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan biologiya darsligidan o'rinn o'lgan biologik masala va mashqlarni mazmunan anglab yetishi, kreativ kompetensiyalarni shakllanishga imkon beradigan biologik masala va mashqlarni tanlab olish mezonlari va ko'rsatkichlarini o'zlashtirgan bo'lishi, kreativ kompetensiyalarni rivojlanirishga yo'naltirilgan biologik hodisa va jarayonlarni ifodalaydigan masala va mashqlardan dars jarayonida foydalaniishning yuqori darajaga ko'tarishi, kreativ kompetensiyalarni rivojlanirish maboynda biologik masala va mashqlarning integrativ xususiyatlarini namoyon etuvchi sifatlarni o'zlarida shakllantirgan va uni rivojlanishini kuchaytirishi lozim.

## ADABIYOTLAR

1. Kholmurodova, O. S., & Rakhmatov, U. E. (2022). Problems of improving teaching in the process of biological education. Current research journal of pedagogics, 3(02), 62-67.
2. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении. М. : Просвещение, 1987. С. 6–26.
3. Tolipov O', Aliboyev T. Kreativlik tushunchasining mohiyati. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. –T: 2020 yil, 10-15-b.
4. Ergashevich, R. U., Salimovna, P. M., & Mamayusufovich, A. S. (2023). Ways to use pedagogical technologies at the local level in biology lessons. European International Journal of Pedagogics, 3(05), 22-29.
5. Rakhmatov, U. E., & Shakhmurova, G. A. (2020). Methodical Instructions of Improving Biology Teachers' Professional Competence for Conducting Modern Lesson (based on Solutions of Issues and Tasks). Eastern European Scientific Journal, 3, 123-16.
6. Omonqulov, U. b. (2024). bo'lajak biologiya o'qituvchilarining iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga metodik tayyorlashning konseptual asoslari. News of UzMU journal, 1(1.2), 177-180.
7. S.Jumayev. (2022). Pedagogical foundations of the development of educational and creative activities in the teaching of molecular biology in the continuing education system. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7309412>
8. Doniyorov, M. (2023). "Biologiya darslarda pisa topshiriqlaridan foydalaniш". Biologyaning ZamonaVi Tendensiylari: Muammolar Va Yechimlar, 1(5), 789–791. Retrieved from <https://inashr.uz/index.php/bztny/article/view/467>
9. Zayniyev, S. (2023). Methodology of preparing students for international olympiads through solution of problems related to the hardy-weinberg law. European International Journal of Pedagogics, 3(05), 16-21.
10. ОМОНҚУЛОВ, У. (2024). Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodikasi. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(2).
11. Islombek o'g'li, Z. S. (2023). Content and analysis of the organization of the olympiad in biological sciences in the 2023-2024 academic year (III stage). American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 23, 125-131.
12. Jumayev, S. (2023). Molekular biologiyani o'qitishda innovatsion yondashuvlar asosida masala va mashlardan ta'lim sifatini oshirishda qo'llanilishi. Biologyaning ZamonaVi Tendensiylari: Muammolar Va Yechimlar, 1(5), 828–831. Retrieved from <https://inashr.uz/index.php/bztny/article/view/479>



**Saboxat XORUNOVA,**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va dizayn instituti o'qituvchisi*

**Farhod AZIMOV,**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va dizayn instituti talabasi*

*MRDI professori, t.f.d M.Muxammedova taqrizi asosida*

## TASVIRIY SAN'ATDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Annotatsiya

Ushbu maqolada tasviriy san'atda innovatsion texnologiyalarni zamonaviy pedagogika asosida qo'llash muammolari va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion, texnologiya, tasviriy san'at, zamonaviy pedagogika, usul, uslublar.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются проблемы использования инновационных технологий в изобразительном искусстве в современной педагогике, а также особенности и методы.

**Ключевые слова:** инновационная, технология, изобразительное искусство, современная педагогика, сотрудничество, методы.

## TRAINING USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FINE ARTS

Annotation

This article discusses the problems of using innovative technologies in professional education in fine arts and the prospects for their solution, as well as the features and solutions of the formation of cooperation in modern pedagogy.

**Key words:** innovative, technology, visual arts, modern pedagogy, cooperation, method, methods, method.

**Kirish.** Zamonaviy pedagogikada, shu jumladan, tasviriy san'atda innovatsion texnologiyalarni qo'llash davr talabiga aylanib bormoqda. Bunda ijodkorning bilim egallahsga bo'lgan tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash va uni rag'battantirish, ijod qilishi uchun shart-sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbga yo'naltirib o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, yaratish va ularni boshqarish ta'limg-tarbiyaning bugungi dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Shuni aytish kerakki, O'zbekiston badiiy pedagogikasi nafaqat ta'limg taraqqiyoti bilan, balki vatanimizda ro'y berayotgan tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy o'zgarishlar bilan ham chambarchas bog'liq. O'lkamiz o'tmishida tasviriy san'at keng rivojlangan bo'lib, har bir davr o'z mazmuni, shakli, xarakteri jihatidan alohida maktabalarni yuzaga keltirgan. Haqiqiy tasviriy san'at o'zida takrorlanmas mo'jizani jamlaydi. Bu mo'jizaning sir-asrorlarini bilish, tushunish uchun kompozitsiya haqida ma'lumotga ega bo'lishni talab etiladi. Kompozitsiya tuzish, joylashtirish, ijod qilish san'atning alohida qisimlarini mantiqan bir butunlikka keltirishni anglatadi. Busiz uni tasviriy san'at asari sifatida baholab bo'lmaydi. Shu bois tasviriy san'at yo'nalihsida pedagogik innovatsiyalarni izlab topish, o'rganish, tahlil qilish yaxshi samara beradi va ularni amaliyatda qo'llash orqali kutilgan natijaga erishiladi. Tasviriy san'at fani o'qituvchisi talabani faollashtiradigan yo'l, usullar, ta'limg shakkllari va vositalarini takomillashtiradi.

Aslida innovatsiya bir tizimda shakkllangan yangicha yondashuv, ta'limg mazmuni rivoji uchun istiqbolli hisoblanadi, shu bilan birga, ta'limg tizimi rivojiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Interfaol ta'limg davomida talabalar jarayoning barcha sub'ektllari bilan faol munosabata bo'ladi. Interfaollik darajasi kancha yukori bulsa, ta'limg berish jarayoni shuncha ko'p natija beradi. Bu metod o'quvchida belgilangan vazifani bajarishning eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakkllantiradi. Har kanday mazmunga ega muammoli vaziyatlarni o'rganish va tahlil qilishga, uning yechimini topish uchun mustaqil izlanishga, shu orqali aniq yoki muqobil qarorga kelishga o'rgatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jahon tasviriy san'at olamida keys-stadi (inglizcha sase - vaziyat, holat, study-o'rganish) degan atama mavjud bo'lib, bu ta'limg berish, axborotlar,

kommunikatsiya va boshqaruvda bayon kilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv jarayonlarini o'z ichiga olgan o'qitish texnologiyasidir.

Uzlusiz ta'limg tizimining barcha bo'g'inlarida, yoshlarga fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanimokda. Innovatsion pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari yetarlicha rivojlanib borayotgan bir paytda o'z-o'zidan ularning integratsiyasi vujudga keladi. Tasviriy san'atda kompozitsiya juda keng ma'noga va o'ziga xos, ayni paytda juda muhim bo'lgan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatning diqqatga sazovor jihat shuki, tasviriy san'atning har bir yo'nalihsida yoki janrida kompozitsion tuzilishining ma'lum darajada umumiylig va ayni paytda bir-biridan farqli jihatlari mavjud bo'lib, yo'nalihi yoki janrga ko'ra kompozitsianing muayyan konuniyatlariga amal qiladi.

Tasviriy san'at asari kompozitsianing oddiy qonunlaridan bo'uning murakkab me'yoriy talablarigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Kompozitsion tugallangan tasviriy san'at asarida rassomning maqsadi, o'y-fikrlari namoyon bo'ladi. Asar mazmunini ochib beruvchi tasviriy vositalar uning kompozitsion yechimini favqulodda hal etadi. Asar kompozitsiyasini hal etishda rassomning dunyoqarashi o'ziga xos uslubda ifoda etiladi, ayni paytda rassom o'z asari orqali tomoshabinlarni estetik mulohaza kilishga chorlaydi. Tasviriy san'at ustalarining dunyoqarashi, shuningdek, ularning mahorati yaratilayotgan asar kompozitsiyasining mukammaligi bilan belgilanadi. Asar tomoshabin tomonidan idrok qilinayotganda ba'zan ijodkor xayoliga kelmagan fikr-mulohazalar ham yuzaga kelishi mumkin. Buning uchun, avvalo, tomoshabin, tasviriy san'at ixlosmandlari klassik namunalarni hamda tasviriy san'at tarixidagi va zamonaviy namunalarni estetik idrok etish va to'g'ri tahlil qila olish uchun ulardan kompozitsiya haqidagi nazariy tushuncha va bilimga ega bo'lishni talab qilinadi.

**Tahlil va natijalar.** Tasviriy san'at asarida mazmun va shaklni birlashtirish uchun qo'llanilgan vositalarni asarning bosh g'oyasiga bo'yusdirish kompozitsiyaga xos asosiy qonunlardandir. Rassomning bosh mavzusi doimo inson, insonni har jihatdan o'rganish bo'lib kelgan. Shuning uchun insonni tasvirlashda ijodkorlar va barcha tasviriy san'at ixlosmandlari

plastik anotomiyanı bilishi o'ta muhim hisoblanadi. Ana shunda inson obrazi, odamning ma'naviy, ruhiy qiyofasini ifodalovchi asar yaratilayotgan bir paytda musavviri uning kompozitsiyasini innovatsion texnologiyalar asosida to'la-to'kis yorita oladi.

O'zbekiston tasviriy san'at tarixida kompozitsiya jihatidan mukammal, badiiy qimmatga ega asarlar mavjud. Ayniqsa, miniyatURA san'atiga oid murakkab namunalarida ham o'ziga xos kompozitsiyalar zamirida ma'lum bir g'oyalarda namoyon bo'ladi. Jumladan, Kamoliddin Behzodning mashhur asarlaridan biri – Sulton Husayin Boyqaro portretidagi reallik bu mumtoz musavvirning inson qiyofasini yaratish borasida tengsiz san'atkor ekanligini ko'rsatadi. Behzod Alisher Navoiy, Sulton Husayin Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, Abdurahmon Jomiy, Abdulla Xotifly portreti kabi asarlarini mahorat bilan chizishda o'sha paytda urf bo'lмаган innovations texnologiyalarni o'zi bilmagan holda qo'lllagan bo'lishi mumkin.

Tasviriy san'atning o'ziga xos sirli olamini falsafiy anglash salohiyati musavvirlari ma'naviy kamolotga yetaklaydi. Kezi kelganda yana shuni takidlash kerakki, tasviriy san'at zamon va makonda hech qachon qotib qolmaydi. Ilmiy o'sish va izlanishlar, dunyoviy tajribalar, zamon bilan hamoxanglik tasviriy san'at namoyondalarini jozibadorlikka chorlaydi. Davr taqozosi, san'atkornig ijodiy izlanishlari natijasida ma'lum darajada zamonga moslashgan xolda o'zgarib boraveradi.

Aslida, tasviriy san'atda kompozitsiya o'ta murakkab va shunday serqirraki, bu borada zamonaviy san'atshunos, rassomlarning munozara va mulohazalari, qarashlari har xil bo'ladi. Shunday ekan, san'atshunoslik hamda pedagogika fani uni ilmiy-nazariy va boshqa jihatlardan ham o'rganadi. Bu ijod turi ma'lum bir mezonlar asosida pedagogdan fan va metodika usullarini muttasil takomillashtirib borishini taqazo etadi.

Kompozitsiyadagi muhim jihatlarga ega bo'lgan sohalardan biri badiiylik, nur va bo'yqlar muammosidir. Kompozitsions jiddiy saviyaga ega bo'lgan har bir san'at asarida ma'lum darajada o'ziga jalb qiluvchi badiiy nur qiyofasi mavjud bo'ladi. Bu, albatta, rassomning bo'yoqlarni ishlatalish mahorati, nur va soya imkoniyatlardan foydalanish mahoratiga ham bog'liq.

**Xulosa va takliflar.** Ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar innovations jarayonlarning faollashuviga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ta'limming innovations rivojlanish tartibotiga o'tishi faqat nazariyotchi pedagoglarninggina emas, balki uzuksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga taalluqlidir.

Endilikda pedagogik yangiliklardan foydalanishga bo'lgan xohish-istik, ularni qo'llashdagi faoliykgina emas, balki pedagogik ijodiyot bilan shug'ullanish, o'zlarini yangiliklarni yaratish amaliyotchi pedagoglar faoliyatining muhim belgilariidan biriga aylanmoqda. Ayni chog'da pedagogik yangiliklarni yaratish, ularning pedagogik jamoatchilik tomonidan o'zlashtirilishi hamda baholanishi, o'qitish va tarbiyalash

jarayoniga qo'llash va tatbiq etish uzviylikni taqozo etadi. Ta'lim muassasalaridagi innovations faoliyatni tashkillashtirish tajribasini atroficha tahlil qilish pedagogik jamoalar, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'z faoliyatiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga intilishlarini ko'rsatadi.

Muammoga ijtimoiy amahiyat va mohiyat nuqtai-nazardan qaraydigan bo'lsak, xalq pedagogikasi ta'limidagi innovations jarayonlarda "pedagogik yangilik" sifatida o'zining munosib o'rnini olishi kerak. Xalq pedagogikasi chinakam o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Unda turli xil tarbiya metodlari va vositalardan foydalaniladi, bu metod, vositalar niyoyatda rang-barang bo'lib, ko'p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki, bu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1.Tushuntirish (o'rganish, odatlantirish, mashq qildirish)  
2.Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).

3.Nasihat qilish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, tilak- istak bildirish, ma'qullah, tashakkur bildirish. duo qilish, oq yo'l tilash va hokazo

4.Qoralash va jazo (ta'qilash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish. qo'rqtish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar sinchiklab qaralsa, yuqorida keltirilgan to'rt xil metod umum bir yaxlitlikni ifodalaydi. Chunki ta'lim muassasalaridagi yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq har qanday yangilanishlar milliy ta'limning tub mohiyatinini, uning ijtimoiy axamiyatga molik vazifalarini inkor etolmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni, jahon xalqlarining ilg'or tajribasini o'zlashtirish vazifasi ham hech qachon o'quvchi-yoshlarning milliy o'zligini tarkib toptirish vazifalariga zid bo'lmaydi. Demak, ta'limdagi innovations jarayonlar milliy ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish bilan hamohang bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarda, ayniqsa, ko'proq xorijdan kirib kelayotgan ta'lim-tarbiya usullarida o'zbekona tarbiya tizimiga. mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan xususiyatlar ham tiqilib yotibdi. Shuning uchun tasviriy san'atda innovations texnologiyalarga berilib ketish, milliy an'analarimizga xos bo'lnagan, sharqona tarbiyaga zid bo'lgan "ommaviy madaniyat"ni targ'ib qilish, ustozga hurmat, qat'iy intizom kabi sharqona odatlarimizning e'tibordan chetda qolishi yomon natijalarga olib keladi. Shuni aytish kerakki, zamonaviy ta'lim jarayonida, tasviriy san'atda innovations texnologiyalarni qo'llash hozirgi davrda ayniqsa dolzarblik kasb etmoqda. Butun dunyo taraqqiyotning mazkur bosqichida ta'limga innovations jarayonlarning tatbiq etilishi jamiyatni rivojlanirishga, Vatan kelajagini ta'minlashga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi Farmoni.
2. "Ilmiy va innovations faoliyatni rivojlanirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
3. Zaxidov P.Sh. Me'mor san'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
4. Kulibokim T.M. Risunok i osnovy kompozitsii. – M.: Vysshaya shkola, 1988.
5. Oydinov N. Uzbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavxalar. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
6. Abdurahmonov K.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - T.: Mehnat, 2004. - 672 b.
7. Azizova G. Sh. "Scaffolding as an interactive method in teaching a foreign language". CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES 2(7): 10-12, May 2021 DOI: <https://doi.org/10.37547/philological-crjs-02-07-03>
8. G.Sh.Azizova "The Impotence Of Scaffolding Method In Improving Esp Students' Communicative Competence" Journal of positive school Psychology Vol. 6 No. 10 (2022)
9. <https://www.journalppw.com/index.php/jssp/article/view/13676>
10. Abdulkhayrov B. H. Importance of Positive Teacher-Student Relationships 1 , Ikromova Kamola Askarovna ALISHER NAVOI INTERNATIONAL CONGRESS OF SOCIAL SCIENCES & HUMANITIES TASHKENT CHEMICAL-TECHNOLOGICAL INSTITUTE May 22-23, 2023 / tashkent. ISBN: 978-625-367-106-8 Impact Factor: 9.2 ISSN-L: 2544-980X
11. Shoxafizova N. АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ВЗГЛЯДОВ НА ТЕРМИНОЛОГИЮ РУССКОГО ЯЗЫКА И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22257>
12. [www.vgik.info](http://www.vgik.info)

- 13. ye-mail mail@ vgik.info
- 14. www/tdpu/uz
- 15. www.pedagog.uz
- 16. www.ziyonet.uz
- 17. www.edu.uz



**Mumin HOSHIMXONOV,**  
*Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, falsafa fanlari doktori*  
*E – mail: ziyadullag@bk.ru*

*Professor, sotsiologiya fanlari doktori A.Xolbekov taqrizi asosida*

### **PROPHET MUHAMMAD (PBUH) AND LATE CALIPHS IN THE INTERPRETATION OF THE LEGACY OF THE THINKER MASHRAB**

#### Annotation

This scientific article analyzes the political views and efforts of the poet and thinker, scholar and mystic, Sufi Boborahim Mashrab, prophet Muhammad (pbuh) and our caliphs.

**Key words:** Holy Qur'an, Allah, Muhammad (pbuh), Quraysh, divine, verse, Islam, noble lineage, tribe, Gabriel, miracle, prophet, surah, saint, charyar, caliph, Rasulullah, Ali sir, Siddiq, Usman, Umar.

### **ПРОРОК ПОСЛЕДНЕГО ВРЕМЕНИ ПРОРОК МУХАММАД (МИР ЕМУ И БЛАГОСЛОВЕНИЕ АЛЛАХА) И ПОЗДНИЕ ХАЛИФЫ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ НАСЛЕДИЯ МЫСЛИТЕЛЯ МАШРАБА**

#### Аннотация

В данной научной статье анализируются политические взгляды поэта и мыслителя, учёного и мистика суфия Боборахима Машраба, последнего пророка Мухаммада (мир ему и благословение Аллаха) и четырёх халифов относительно обращения масс и их усилий в этом направлении.

**Ключевые слова:** Qur'oni karim, alloh, Muhammad (s.a.v), quraysh, ilohiy, oyat, islomiyat, oliy nasab, qabila, Jabrail, mo'jiza, payg'ambar, sura, avliyo, choryor, xalifa, rasululloh, hazrati Ali, Siddiq, Usmon, Umar.

### **SO'NGGI ZAMON PAYG'AMBARI MUHAMMAD (S.A.V.) VA CHORYOR XALIFALAR MUTAFAKKIR MASHRAB MEROSI TALQINIDA**

#### Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada shoir va mutafakkir, alloma va mutasavvif, so'fiy Boborahim Mashrabning so'nggi zamon payg'ambari Muhammad (s.a.v) va choryor xalifalar bilan ommani denga kiritish va bu yo'ldagi sa'y – harakatlari haqidagi siyosiy qarashlar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Qur'oni karim, alloh, Muhammad (s.a.v), quraysh, ilohiy, oyat, islomiyat, oliy nasab, qabila, Jabrail, mo'jiza, payg'ambar, sura, avliyo, choryor, xalifa, rasululloh, hazrati Ali, Siddiq, Usmon, Umar.

**Kirish.** Ma'lumki, Qur'oni karim Alloh taolo tomonidan payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga 23 yil mobaynida sura, oyat tarzida elchi farishta – Jabroil (a.s.) orqali ilohiy vahiy sifatida, arab tilida, og'zaki nozil qilingan. Islom dini ta'limotining asosiy manbalari (Qur'on, Sunnat, Ijmo', Qiyyos)ning birinchisi sanalmish bu Kalomi sharifning til va bayon jihatidan ilohiy mo'jizaligi ham uni arab tilida o'qib, fikr yuritgandagina to'la namoyon bo'ladi. Boshqa har qanday tilga o'girilganda Qur'on tiliga xos xususiyatlar, nazmiy uslub, maftunkor ohang va ruhiy ta'sir kuchini yo'qtodadi. Tarjimon har qancha mahoratli, tajribali, lug'atga boy bo'lmasin, oyatlarining arabcha holidagi mazmunini boshqasida tilda mukammal ifoda eta olmaydi. Bu inkor etib bo'lmaydigan haqiqat.

Arab tilida o'qib anglash esa, hammaning ham imkoniyat darajasida emas. Hatto arablarning o'zlarini ham Qur'on oyatlarini to'la tushuna olmasliklarini tan oladilar. Ulug' sahabolar ham ko'pdan – ko'p oyatlar mazmunida bahslashib, bir yechimga kela olmay, Rasul alayhissalomning o'zlaridan so'rab, aniqlab olnanlari to'g'risida sahif hadislar mavjud.

**Mavzuga oid adabiyyotlar tahlili.** Dunyoga kelishi insoniyat uchun sharaf bo'lgan mo'tabar zot Muhammad (s.a.v)ning otalari Abdullohh, onalari esa, Quraysh qabilasi Zuhra urug'iga mansub "Omina binti Vahb" ismli olyinasab ayol edi. Payg'ambar (s.a.v)ning otalari-Abdulmuttalib o'g'li Abdullohh Qurayshning Maxzum urug'idan bo'lgan "Fotima binti Amr" ismli olyinasab ayolning farzandi edi. Abdullohning otasi Abdulmuttalib Quraysh qabilasining mo'tabar oqsoqollaridan bo'lib, qabiladoshlari o'z muammollarini uning fikr va mulohazalari yordamida hal qilar edi. Ayniqsa, dolzarb va juda muhim ishlarni uni yetakchi sifatida tanlab olar edilar. Mashrab Muhammad (s.a.v) eng yaqin odam deb, uni elchisi deb atagan:

Jabrail kelturdi vahiy, aydiki: Rabbul olamin,  
Xalqi olamg'a sani qildi rasuli mursalin,  
Bo'ldilar ummat Muhammadga hama ro'yi zamin,  
Haq taolag'a aningdek o'zgasi yo'qtur yaqin,  
Chun Muhammad ikki dunyoga erur durri yatim.

Tarixga nazar solar ekanmiz, har bir xalq, jamiyat Allohnning payg'ambarlari haqida ko'proq bilishga intilganining shohidi bo'lamiz. Sho'rolar zamonidagi dahriylarning hukmi ostida aziz avliyolar, payg'ambarlar yolg'onchi, firibgarga chiqarildi va ularga nisbatan bo'hton hamda ig'vo toshlari otildi. Bu qarashlarni aholi ongiga singdirishga harakat qilindi. Nafaqat payg'ambarlar, balki ularning merosxo'rлari bo'lmish ulamolar, ruhiy-ma'naviy jahbaga taalluqli barcha narsalar haqarat qilindi va tahqirlandi.

Nabiyalar va rasullar (payg'ambarlar) Alloh taolo insonlar orasidan saralab olgan zotlar bo'lib, ular Alloh taolonning da'vatlarini bandalarga yetkazuvchilardur. Payg'ambarlar Alloha imon keltirib, yaxshi amallar qilgan kishilarga bu dunyoda va oxiratda Yaratganning mukofotlari xushxabarini yetkazadilar. Alloho inkor etib, yomon amallar qilganlarni dunyo va oxiratda shiddatli azoblar kutishidan ogohlantiradilar.

Alloh taolo "An'om" surasining 48-oyatida bunday deydi: "Biz payg'ambarlarni faqat xushxabar olib kelguvchi va ogohlantiruvchi qilib yuborurmiz. Kimki imon keltirib, yaxshi amallar qilsa, undaylarga hech qanday xavf yo'q. Va ular hech g'amgin bo'imaslar".

Dunyo yaralib, Yer yuzida turli dinlar paydo bo'lib, Allohnning payg'ambarlari insonlarni shu dinlarga da'vat etganlar. Hozirgi kunda bir necha dinlarning mavjudligi va bu dinlarga millionlab kishilarning e'tiqod qilishining o'ziyoq payg'ambarlik haqiqatan bo'lganligiga dalildir. Chunki hozirda mavjud

dinlarning barchasi kelib chiqish jihatidan payg‘ambarlikka borib taqaladi. Demak, payg‘ambarlarsiz birorta din yuzaga kelmagan. Payg‘ambarlik Ilohiy fazl bo‘lib, Alloh taolo o‘zi xohlagan bandasini yoki farishtani bunga musharraf qilur. Payg‘ambarlikka na aql, na kasbu mahorat, na meros yo‘li bilan erishib bo‘ladi. Balki Alloh o‘z bandalaridan xohlaganini tanlab oladi va payg‘ambarlik darajasiga ko‘taradi. Bu darajaga faqat Allohnинг tavfiqiyu ilhomni ila yetishilur.

Alloh taolo bu borada Qur’oni karimda zikr qilgan: “Alloh elchilarni farishtalardan tanlaydi, insonlardan ham. Darhaqiqat, Alloh eshituvchi va ko‘rvuchidir!”.

Payg‘ambarlik butun insoniyat uchun tegishli. Alloh taolo muayyan bir xalqning emas, balki butun insoniyatning egasi bo‘lganidan, dunyo yaratilibdiki, barcha xalqlarga oralaridan payg‘ambarlar chiqarib turdi. Alloh taolo bu haqda xabar qiladi: “Darvoqe, Biz har bir ummatga: “Allohgа ibodat qilingiz va shaytondan yiroqlashingiz!” (degan vahiy bilan) payg‘ambar yuborganmiz. Shunda ular orasida Alloh hidoyat qilganlari ham, shuningdek, yo‘ldan ozishi ham qat‘iy bo‘lganlar ham bo‘lgan. Bas, Yer yuzida sayr qilib, (payg‘ambarlarini) yolg‘onchiga chiqqarganlarning oqibati qanday bo‘lganini ko‘ringiz!”

Mashrab Allohgа munojot qilib, unga shukronalik keltiradi:

Zohidi xushk aytadur: “Ayla Xudoni shukrini,  
So‘zlama o‘zgani taqi, ayla Xudoni zikrini”,  
Chiqsa sanam jilva qilib, oladur aqlo fikrini,  
Shohini rohidin bo‘lak bormu hadi shotirini,  
Ham yelibon – yugurbon yuruganim – ibodatim.

Qur’oni karim, bilamizki, arab tilida nozil etilgan. Ammo aslini olganda, u Alloh taolo tilida yaratilgan. Faqat Xudoni sevib, Undan qo‘rqanlargina Qur’oni karim ma’nolarini anglay oladi. Faqat Yaratganga yaqin insonlarga uning tilini tushunib yetgan.

Qur’oni karim mo‘jizalaridan biri shundan iboratki, uni besh yoshli bola ham yodlay oladi. Kitob 114 sura, 6666 oyatdan iborat. Biror kitob shu qadar osonlik ila o‘qilib, yodlanmagan. Har asrsa minglab, yuz minglab Qur’onnini yod olgan insonlar-qorilar, qur’onxonalar bo‘lgan. Insonlar o‘tkinchi, Qur’on abadiy. Negaki, u-Tangri taoloning kitobi.

Qur’on oyatlari har voqeа va har hodisa munosabatlari bilan vahiy etilar edi. Tushunmovchiliklar, savollar tug‘ilib qolgan qiyin vaziyatlarda yana yangi oyatlar tushib, qiyin masalalar tezda hal etilar edi. Ijtimoiy, siyosiy, diniy va ma‘rifiy masalalarning hammasi Qur’on hukmlari vositasida yechilar edi. Qur’on to‘g‘ri va Haq yo‘lni ko‘rsatuvchi yagona qo‘llanma sifatida e’zozlanardi.

Uning shaxsisi hayotida ham, xarakteri va targ‘ibotida ham muayyan silqishlar bo‘lganligi suralardan aniq. Ammo Qur’on suralarining oyatlari orasida mazmun va syujet jihatidan uzyviy birlik nisbatan saqlangan. Kalomulloni eng jiddiy tadqiq qilgan akademik I.Yu.Krachkovskiyning fikricha, suralarda tili va uslubidagi ba’zi har xillikka qaramasdan, kelib chiqadigan bosh mazmun va asosiy g‘oyaning muayyan birligi aniq sezildi. Shuning uchun ham Qur’on asrlar osha yaxlit bir asar sifatida bizgacha yetib kelgan.

**Tahlil va natijalar.** Barcha arabshunoslar va Yaqin Sharqni o‘rganuvchi tadqiqotchilar uchun Qur’on ilk islam davri tarixiga oid eng asosiy va yagona yozma manba sifatida xizmat qilib kelgan. O‘z mohiyati jihatidan u arab prozasi, arab tilining biringchi noyob obidasidir. Ko‘p sharqshunoslar mazkur kitobni badiyi asar sifatida yuksak baholaydilar. Atoqli sovet arabshunosi I.Yu.Krachkovskiy arab adabiyotining tarixi va taraqqiyoti to‘g‘risida gapirib, “Qur’on-Sharqda eng ko‘p tarqalgan jahon adabiyoti obidasи”, -deb alohida qayd qiladi. Boshqa sovet tadqiqotchisi I.M. Filshitskiyning ta’rificha, “Arab ijodiyoti tarixiga Qur’on dastavval yozma ravishida ifodalangan biringchi nasriy asar sifatida kirib keldi. Qur’onning paydo bo‘lishi yagona arab adabiy tili shakllanishini tezlashtirdi va uning ham grammatic, ham uslubiy tuzilishining asrlar osha mustahkamlanishiga yordam berdi”. Ko‘philik ilm ahlining fikricha, o‘rtalarda yaratilgan adabiy obida sifatida Qur’onga teng keladigan asar kam. Chunki bitta asarda poetik til bilan nasriy uslubda turli muhim voqealarni to‘plab bayon etilishi

noyob voqeа. Musulmon olamida hozirgacha Qur’onni go‘yoki barcha davrlarga oid ham mazmun, ham uslub jihatidan mislisiz asar deb hisoblaydilar. O‘ziga xos adabiy xususiyatlari va mavqeи tufayli Qur’onni, qadimiye poeziya singari, boshqa tillarga muvaffaqiyatlari tarjima qilish qiyin. Bu asar keyingi arab va boshqa musulmon xalqlarining adabiyotiga zo‘r ta’sir ko‘rsatganligini juda ko‘p tadqiqotchilar qayd etib o‘tganlar.

Mashrab tavba, vara, istig‘for ayish kabi tazarrular Alloh tufayli afv etilishini, Allohnинг karami keng ekanligini insoniyatga eslatib turgan:

Tavbani og‘zingga olsang, zarra qolmasdur gunoh,  
Har gunohing bo‘lsa afv etgay ani ul Podshoh,  
Chun Nasuhning tavbasin Qur’onda yod etti Xudo,  
Tavbadin ayrilsa har kim, bil, topolmas hech roh,  
Jumlay shohu gadoning soyaboni tavbadur.

Payg‘ambar (s.a.v.) tozalikda, xushbo‘ylikda, ifloslik va nujosatdan yiroqlikda alohida xususiyatlarga ega edilarki, bunday fazilatlar u zoti muborakdan boshqa kishida topilmasdi. Alloh taolo Rasulullohni shariatining pokizaligi bilan yanada yuksak kamolotga erishitrdi. Payg‘ambar(s.a.v.): “islom dini pokizalik asosiga qurilgan”, deya marhamat qilganlar. Anas: “payg‘ambar alayhissalomdagi xushbo‘y hid men hidlab ko‘rgan anbarlarning, iforming va boshqa mushku anbarlarning atridan yoqimliroq edi”, degan. Jobir esa “Payg‘ambar alayhissalom yuzimni silab qo‘yan edi, u kishining qo‘lidan xuddi attor (atir sotuvchi)ning qutisidan taralgandek dimog‘imga gup etib xushbo‘y is urilgan”, -deydi. Ko‘plarning ta‘kidlashicha, Sarvari Olam xushbo‘y narsalarni ishlatsalar ham, ishlatmasalar ham u kishi bilan ko‘rishgan odamning qo‘lidan kechgacha yoqimli hid kelib turarkan. Agar rasululloh biron bolaning boshini silab qo‘ysalar, kechgacha o‘rtoqlari uning yonidan ketolmay qolisharkan. Imom Buxoriy “Katta tarix”ida Jobirdan rivoyat qilishicha, mushk-anbar ufurib turgan ko‘chadan yurgan odam bu yerdan shubhasiz Rasululloh o‘tganlarini bilar ekan.

Choryorlar (fors.-to‘rt do‘st)-Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan keyin arab xalifaligida hokimiyat tepasida turgan dastlabki 4 xalifa (Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon, Ali). Bu xalifalarni choryorlar deb atash Eron, Afg‘oniston va O‘rta Osiyodagi oddiy dindorlar orasida rasm bo‘lgan. Choryorlar arab tilidagi diniy manbalarda “xulafo ar-roshidin” (“to‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar”) nomi bilan tilga olinadi. Choryorlar xalifalikni boshqarish va kengaytirish, qo‘shni yerkarni fath etib islam bayrog‘i ostida birlashtirishga rahnamolik qilgan siyosatchi hukmdorlardir. Musulmonlar choryorlarni “payg‘ambar noiblari” hisoblaydilar. Islom an‘anasida choryorlar hukmronlik davri islonning oltin asri deb yuritiladi. Bu davr 30 yil bo‘lgan.

Choryorlar zamонидан payg‘ambar (s.a.v.) boshlab bergan futuhotlar oxiriga yetkazilgan, daylat qurilishi mukammal bo‘lgan, islam yetib borgan o‘lkalarda barqarorlik o‘rnataligan.

“Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islam”da jadid mutafakkiri Abdulla Avloniy Nuh, Yusuf, Muso va Iso alayhissalomlarning hayoti va bani Odamni Haq yo‘lga boshlash borasidagi faoliyatları, bu borada chekkan jabru-jafolari tasviriga alohida e’tibor beradi. Buning boisi, bizningcha, avvalo shundaki, bu payg‘ambarlarning faoliyatları insoniyat kelajagi uchun o‘zgalaridan ko‘ra kattaroq ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, Nuh payg‘ambar butun olam to‘toni chog‘ida insoniyat va hayvonotni yo‘q bo‘lib ketishdan saqlab qolgan. “Hozirda insonlar hazrati Nuhning bu uch o‘g‘illaridan tarqaldi. Xom ismli o‘g‘illaridan habash va zanjilar, Som ismli o‘g‘illaridan arab, fors va rum qavmlari, Yofas ismli o‘g‘illaridan turk, totor, mo‘g‘ul xalqlari tarqaldi. Shuning uchun Nuh alayhissalom “Ikkinchi Odam” deyilur”, -deb e’tirof etadi muallif. Hazrati Nuhning insoniyat oldidagi xizmati Odam alayhissalomga tenglashtirilar ekan, bunda zarracha mubolag‘a yo‘q, balki uning muborak ruhi oldida har bir inson bir umr qarzdordir, degan tabiiy xulosa kelib chiqadi.

Rasululloh (s.a.v.) bu xususda: “Men dushmanba kuni ertalab turib, namoz o‘qidim. Hadicha o‘sha kuni kechqurun imon keltirib, u ham ibodat qildi. Seshanba kuni sahar vaqtி Ali ham Haq taoloning amriga itoat etib, Unga toat qildi”, -deb marhamat qilganlar.

Shu boisdan bo'lsa kerak, Rasululloh (s.a.v.): "Ey Ali! Sen menga imon keltirganlarning avvali va qiyomat kunida ham musofaha etuvchilarning avvali bo'lganing uchun siddiqi akbarsan!" deb marhamat qilib, unga nisbatan muhabbatini va qolaversa, uning yuksak maqomga ega bo'lganini bildirganlar. Sharq olamida asrlar bo'yи munozaralarga sabab bo'lgan, nomiga inqiloblar amalga oshirilgan, mazhab va saltanatlardan solingen bu buyuk zotni haqiqiy ma'noda anglash ham islomi, ham insoniy burch sanaladi. Mashrab choryorlardan judo qilmaslikni Xudodan so'ragan:

Dilimni, yo Iloho, xavfi Mahshardin judo qilma,  
Iyomon – gavhar erur, bandangni gavhardin judo qilma,  
Adashganlarni, yo Rab, yo'lda rahbardin judo qilma,  
Iloho Osiy, ummatni Payambardin judo qilma,  
Abu Bakru Umar, Usmonu Haydardin judo qilma.

Ali ibn Abu Tolib Muhammad (s.a.v.) payg'ambar amakisining o'g'li hamda u kishining kuyovlaridir. Ali miliodiy hisobda 598 yilda tug'ilgan, 661 yilda vafot etgan, xulafoyi ar-roshidiynning to'rtinchisi bo'lib, 656-661 yillar orasida xalifalik qilgan.

Alining otasi Abu Tolib Abdulmattolibning o'g'lidi. Onasi esa Fotima nomli ayol bo'lib, Asad ibn Hoshim degan kishining qizidir.

Ali ibn Abu Tolib aslida payg'ambar tarbiyasida o'sgan, o'zi ham uning payg'ambarligini dastlab tan olganlardan biri edi. Keyinchalik Ali payg'ambarning qizi Fotimaga uyylanib, unga kuyov bo'lgan.

Manbalarning ko'rsatishicha, u kishining Abu Turob degan kunyasi ham bo'lgan. Payg'ambar makkaliklar zulmidan ochib, 622 yili Madina shahriga hijrat qilganda Ali payg'ambar

uyida yashagan va uning barcha yurishlarida hamrohlik qilgan. Shu xususda mutafakkir Mashrab:

Umidim ko'p erur, ruhum hama qolabni yo'qlar deb,  
Tamomi mujtahidlar tolibi mazhabni yo'qlar deb,  
Karamli podshohim oshiqi mattabni yo'qlar deb,  
Sira kelmas edim, man Ahmadi Muxtor uchun keldim,  
Nabiymning soyasi ummatlariga bor uchun keldim.

**Xulosa va takliflar.** Islom dunyosida ixtilof uchinchi xalifa Usmon ibn Affonning Qur'on o'qib o'tirganlarida qatl qilinishlaridan boshlandi. Mana shu ixtilof sababli islam mamlakati ikkiga taqsimlanib ketadi. Chunki hazrati Usmon tarafkashlari xalifalik mansabiga u zotning qarindoshlari, Abu Sufyon o'g'illari Muoviyani qo'yishni talab qilsalar, payg'ambarimiz alayhissalomning avlodlari u zotning amakivachchulari hamda kuyovlari hazrati Alini xalifa bo'lishlarini istar edilar. Uzoq davom etgan bu ixtilof Muoviyani xalifa qilish bilan tugadi. Oqibat natijada islam ummati ikkiga bo'lindi. Hazrati Ali tarafkashlari shialar deb yuritila boshlandi. Ularning eng birinchi toifasi xavorijlar edilar. Islom tarixida hamon davom etib kelayotgan ixtiloflar diniy ixtiloflar emas, balkim siyosiy ixtiloflardir. Xalifalik hokimiyatini qo'Iga kiritmoq uchun ikki oila abbosiylar-payg'ambarimiz alayhissalom avlodlari va umaviylar-hazrati Usmon avlodlari o'rtasida uzoq davr kurash bo'lib kelgan.

Mutasavvif shoir Boborahim Mashrab avvalo, Muhammad (s.a.v.) va choryor xalifalar Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib kabi xalifalarni she'rlarida ehtirom bilan tilga oldi va dinimiz ravnaqi yo'lida xizmatlarini yuqori maqomda tasvir etdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Shayx Muhammad al-Xuzariy. Rasululloh alayhissalom siyrati Nurul yaqin. –T.: “Sano-standart”, 2018.
2. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi. An'om surasi, 48-oyat. –T.: “Toshkent islam universiteti” nashriyoti, 2001.
3. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi. Haj surasi, 75-oyat. –T.: “Toshkent islam universiteti” nashriyoti, 2001.
4. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi. Nahl surasi, 36-oyat. –T.: “Toshkent islam universiteti” nashriyoti, 2001.
5. Mashrab. Kulliyot. Mirzo Kenjabek so'zboshisi. -T.: “Muhrir nashriyoti”, 2017.
6. Коран. Перевод и комментарии И.Ю.Крачковского. М., “Наука”, 1963.
7. Фильтинский И.М. История арабской литературы. М., “Наука”, 1985.
8. Islom ensiklopediyasi. –T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
9. Barakaev Rahmatulla. “Muxtaras tarixi anbiyo va tarixi islam” O'zbek bolalar adabiyoti namunasi sifatida // O'zbek tili va adabiyoti, 2002, № 6.
10. Muxammad Kamol. Sodiq sahobalar qissasi. –T.: Sharq, 2019.
11. Irisov Abdusodiq. Chahoryorlar. –T.: Fan, 1993.
12. Yunusov Akbar, Abduqahhor G'affor o'g'li Shoshiy. Islomdag'i mazhablar //Muloqot, 1991, № 10.



Gulnora XUDOYBERGANOVA,  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dots.v.b., PhD  
E-mail: gulnora2801@mail.ru

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi bo'lim boshlig'i PhD Z.Faxriddinov taqrizi asosida

## XRISRTIANLIKDA MONAXLAR IJTIMOIY FAOLIYATLARINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Xristianlikda monaxlik instituti rivojlanishi to'rt bosqichda kechgan. Dastlabki asketlar jamiyatdan ajralmagan holatda faoliyat olib borgan bo'lsalar, I va III asrlardagi Rim hukumati ta'qiblari davriga kelib ularning amaliyotlari shaklan o'zgarishga uchragan. Bu davorda asketlarning o'z uylari hamda yaqinlarini tark etishlari, sahro, tog'lari, g'orlardan makon topishlari kuzatilib, bu anaxoretlik davri deyiladi. IV asr boshlari xristianlikda monastrizm shakllanib, asketizmiga turg'un va doimiy shakl berilgan, bu esa o'z navbatida asket (monax)larning tashqi dunyodan ajralishiga olib kelgan. O'rta asrlarda esa monastir nizomlari va monaxlik ordenlari joriy etilishi, monastir hamda monaxlarning davlat va jamiyatdagisi mavqe ortishi, xristianlik ta'limotining keng ko'lamda yoyilishi kuzatilgan.

**Kalit so'zlar:** monastir, monax, asketizm, xristianlik, ilohiyot, abbat, ibodat, liturgiya, psalma.

## МОНАХИ СОЦИАЛЬНО В ХРИСТИАНСТВЕ ХАРАКТЕРИСТИКА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

Развитие института монашества в христианстве проходило в четыре этапа. Хотя первые подвижники действовали в государстве, не отделенном от общества, их практика претерпела формальное изменение в период гонений со стороны римского правительства в I и III веках. В этот период наблюдается, что подвижники покидают свои дома и родных, находят место в пустыне, горах, пещерах, и это называется периодом отшельника. В начале IV века в христианстве сформировалось монашество, а аскетизму была придана устойчивая и постоянная форма, что в свою очередь привело к отделению подвижников (монахов) от внешнего мира. В средние века вводились монастырские уставы и монашеские ордена, повышался статус монастырей и монахов в государстве и обществе, наблюдалось распространение христианства.

**Ключевые слова:** монастырь, монах, аскетизм, христианство, богословие, аббат, молитва, литургия, псалом.

## MONKS SOCIALLY IN CHRISTIANITY CHARACTERISTICS OF ACTIVITIES

Annotation

The development of the institution of monasticism in Christianity took place in four stages. Although the first ascetics operated in a state not separated from society, their practice underwent a formal change during the period of persecution by the Roman government in the first and third centuries. During this period it is observed that ascetics leave their homes and relatives and find a place in the desert, mountains, and caves, and this is called the hermit period. At the beginning of the fourth century, monasticism was formed in Christianity, and asceticism was given a stable and permanent form, which in turn led to the separation of ascetics (monks) from the outside world. In the Middle Ages, monastic statutes and monastic orders were introduced, the status of monasteries and monks in the state and society increased, and the spread of Christianity was observed.

**Keywords:** monastery, monk, asceticism, Christianity, theology, abbot, prayer, liturgy, psalm.

**Kirish.** Monastirlarda monax o'z hayatini butkul timimsiz ibodatga bag'ishlashi talab etilgan. Ibodat jamoaviy (liturgiya, psalmalarni o'qish) yoki yakka holda bo'lishi mumkin. Benedikt nizomi yoki boshqa an'analarga amal qiluvchi monastirlarda monaxlarning jismoniy mehnatlariga ham alohida e'tibor berilgan. Mehnat bilan mashg'ul bo'lish nafaqat yashash uchun ozuqa topish, balki, monax uchun asosiy xavflardan hisoblangan dargasalik va umidsizlikni yengishda asketizmning shakli hisoblangan.

Monaxlar abbat tomonidan belgilangan vaqtida ovqatlanishi va uxlashi talab etilgan. Ularni tungi ibodat uchun qo'ng'iroq (kolokol) ovozi uyg'otgan. Shunday chaqiriqlar ularni bir kunda 7 marta ibodat uchun jamlagan. Monastirda yil, hafta, kun o'ziga xos taqsimot asosida qabul qilingan. Monaxlar ibodatining asosini 150 psalmadan iborat bo'lgan Psaltir<sup>[1]</sup> tashkil etgan. Monaxdan bir hafta davomida 150 psalmani o'qib tugatish talab etilgan. Monaxlarning kun tartiblari fasllar (qish va yoz) ga ko'ra farqlangan.

Umumiyligi holatda monaxlarning ibodat vaqtleri quyidagicha taqsimlangan:

tonggi (matutinae) – tun yarimidagi ibodat (00:30 da boshlangan);

madhlar (laudes) – quyoshning ilk nurlari chiqish vaqtida; birinchi soat (prima) – kun chiqqandan keyin;

uchinchchi soat (tertia) – ertalabki soat 9 atrofida;

oltinchi soat (sexta) – tush vaqtida;

to'qqizinchi soat (nona) – kunduzgi soat 15 atrofida; kechki (vesperae) – quyosh botishidan oldin; tungi (completorium) – quyosh botishi va qorong'ulik o'rtaida.

Monaxlar hayatini va ibodat jarayonlarini aniq belgilash uchun vaqtini aniqlash talab etilgan. Eng qiyini tungi ibodat vaqtini aniqlash hisoblangan. Kunduzi quyoshgaga, soyaga, kechqurun yulduzlarga qarab aniqlangan. Lekin bulutli havoda bu usullar yordam bermagan. Bunday sharoitda vaqtini aniqlash uchun turli qurilmalar – qum soatlar, murakkab suv mexanizmlari (klepsidrlar), shamlar, keyinchalik esa haqiqiy inqilob sanalgan mexanik soatlardan foydalananilgan. Ibodatga chorlovchi qo'ng'iroqlar ham turlicha bo'lgan. Berilgan vazifaga ko'ra qo'ng'iroqlar turlicha chalingan, masalan, birinchi soat va tungi ibodat uchun bir marta qo'ng'iroq chalingan, uchinchi, oltinchi va to'qqizinchi ibodat uchun uch marta. Bundan tashqari monastirlarda yog'och taxtacha (tabula) bo'lib, uni monaxlardan biri o'lim to'shagida ekanligi xabarini bildirish uchun urilgan. Alohida kelliyyada yashagan monaxlar jamoaviy ibodat uchun haftaning shanba va yakshanba kunlari yig'ilganlar, qolgan kunlari esa o'z kelyalarida ibodat qilganlar. Lekin monax uchun faqat kechqurun va tunda 12 ta psalmanni o'qish majburiy bo'lgan. Bu xristianlikning ilk davrlarida yashagan asketlarning ahdlari bo'lgan. Psalmalarni o'qish jarayonida har olti psalmadan so'ng bitta "Alliluia"<sup>[2]</sup> ni kuylangan. Shanba va yakshanba kunlari monaxlar "Sirlar marosimlar" uchun cherkovda to'planganlar. Misr

monastirlarida jamoaviy ibodatlar kuniga ikki marta - kechki va tungi vaqtida o'tkazilgan. Tungi ibodat xo'roz qichqirig'idan oldin boshlanib, quyoshy chiqquncha davom etgan. Qish faslida tun uzun vaqtarda ibodatlar xo'roznинг тортинчи qichqirig'iga qadar davom etgan. Ibodatlarda jami 12 psalma kuylangan. Agar kuylovchi ikkita bo'lsa, har biri 6 psalmadan, 3 ta bo'lsa, 4 psalmadan, 4 ta bo'lsa 3 psalmadan kuylangan. 4 tadan ortiq kuylovchi bo'Imagan. Tinglovchilar pastak о'rindiqlarda o'tirganlar. Har bir psalma oxirida kuylovchi duo o'qigan, shu vaqtida barcha tinglovchilar o'rinalardan turib tik turgan holda ibodat qilganlar va ta'zim qilganlar[3].

12 psalmadan kuylangandan so'ng Eski Ahd va Yangi Ahddan o'qilgan. Shanba va yakshanba kungi ibodatda esa faqat Yangi Ahddan (Havoriyalar maktublari va havoriyalar faoliyatidan yoki Injil) o'qilgan. Ibodat uch karra duo qilish va tiz cho'kish bilan tugagan. Shanba va yakshanba kunlari uchinchi soat yevxaristiya (poklanish) marosimi o'tkazilgan. Barcha monaxlar ilk marta monaxlikka qabul qilinganda kiyigan liboslarini kiyib, yalangoyoq cherkovga borganlar. Cherkovga kirishda ularni oyolarini diakonlar maxsus jomda yuvganlar. Yevxaristiya vaqtida uchun monaxlar belbog' va milotni yechib qo'yanlar, har biriga alohida non (Isoring tanasi) va vino (Isoring qoni) diakon tomonidan berilgan. Bemor monaxlarni poklash uchun ularning kelyalariga kelganlar, cherkovdan uzoqda yashaydigan, safarga chiqqan monaxlar esa yevxaristiya (maxsus tayyorlangan, liturgiya vaqtida iste'mol qilinadigan non) o'zlarini bilan olganlar.

Kunduzgi ibodatdan so'ng ba'zan maxsus kechalar tashkil qilingan. Bunda monastirga dunyoviy kishilardan qilingan ehsonlar, dehqonlarning hosilni yig'im terim vaqtida monaxlar uchun hadya qilgan oziq-ovqatlari kabi mahsulotlardan tanovul qilingan. Bu kechalarda dasturxon bezalgan, monaxlar o'zlaridagi ba'zi narsalarni jamoaga yangi qabul qilinganlarga tortiq qilganlar, vafot etgan monaxlarning buyumlari tarqatilgan. Bu kechalardagi dasturxon monaxlarning odatiy dasturxonidan farq qilgani uchun aksariyat monaxlar ishtirok etishni istamaganlar, ular ibodat tugagandan so'ng o'z kelyalariga ketganlar[4].

Yakshanba kunlari monastirlarda monaxlarning majlislari tashkil etilgan. Bu majlislar monastirning eng katta presviteri olib borgan va barcha monaxlarga tegishli masalalar muhokama qilingan. Nitriyskiy tog'idagi monastirda IV asrda sakkizta presviter bo'lgan, lekin majlisni faqat bitta presviter olib borish huquqiga ega bo'lgan. Qolgan presviterlar majlisdida fikr bildirish, qaror qabul qilish huquqiga ega bo'Imaganlar. Bunday majlislarda asosan quydagi masalalar muhokama etilgan:

presviteri tayinlash;  
e'tiqod va aqidaga taalluqli masalalar;  
ba'zida majlislar alohida tutiladigan ro'za masalalariga bag'ishlangan;

gunohkor hisoblangan monaxlarga hukm chiqarish.

Monaxlarga beriladigan eng og'ir jazo monaxlar safidan chiqarilish hisoblangan. Lekin bunday jazo berish yoki monaxlarning aybirlari ustidan hukm chiqarish aksariyat monaxlik asoschilari tomonidan yoqlanmagan. Masalan, avliyo Antoniy "ortimda qolgan gunohlarim ko'p, men esa birodarimnnig ozgina gunohini muhokama qilib jazolaymanmi. Yaxshisi o'z gunohlarimni kechirishini so'rab Yaratganga iltijo qilaman" deydi[5].

IV-V asrlar solnomachilari Misrda ikki turdag'i monaxlik turmush tarzini farqlab ko'rsatadilar, anaxoretlar va kinovitlar. Anaxoretlar monastir jamoasidan ajralib chiqib, barchadan uzoqlashgan holda o'nlab yillarda davomida inson zotini ko'rmay, sahroning kimsasiz (chuqur) joylarida yashaganlar. Ular yovvoyi o'simliklarni iste'mol qilganlar, ichish uchun suvni toshlar va o'simliklarga tushgan shudringdan olganlar. Anaxoretlarning aksariyati bir joyda doimiy yashamaganlar, balki ko'chib yurganlar. Jamoadan ajralgan monaxlarni dastlabki davrda "monastir otalari" nazorat qilish uchun vaqt-i vaqt bilan borib ko'rganlar. Ba'zan anaxoretlar orasida vasvasaga uchrashlik holati kuzatilgan. Shunday vaziyatda monaxni cherkovga olib kelgingan. "Cherkov otalari" jomga suv solib unda qo'llarini yuvganlar va o'sha suvni monax ustidan quyganlar. Buni vasvasadan xalos bo'lish yo'li sifatida ko'rganlar.

Sahroda yashagan monaxlar ba'zilar g'orlarni, ba'zilari vayronalarni, mozorlarni makon tutganlar. Lekin ko'pchilik monaxlar o'zlarini uchun toshlar, g'isht, loy yoki barglardan alohida kichik turar joy (kelliya, skit) qurib olganlar. Makariy Aleksandriyskiy, Illarion, avliyo Antoniy kabi mashhur monaxlarning kelliylarini juda kichik, hatto oyoq uzatishning imkon bo'Imagan darajada tor bo'lganli haqida ma'lumotlar bor. Lekin odatiy holda monaxlarning turar joylari bir nechta xonadan iborat bo'lgan. Unda kirish yo'lagi, oziq-ovqat uchun, asbob-anjomlar (qo'l mehnati uchun) saqlanadigan xonalar mavjud bo'lgan.

Monaxlar ibodat bilan birga jismoniy mehnat bilan ham mashg'ul bo'lganlar. Masalan misrlik monaxlar hayoti ibodatdan tashqari taomlanish ehtiyojini qondirish, hech kimga malol kemaslik maqsadida arqondan, daraxt shoxlaridan savatlar to'qish bilan shug'ullanганlar. Shuningdek, qo'l mehnati orqali monaxlar yo'lovchilar, qashshoqlar va mahsularga yordam berganlar. Monaxlarning mashg'ulotlari ularni turli vasvasalarga uchrashlaridan ham saqlagan. Lekin monaxlar uchun asosiy faoliyat ibodat hisoblangan. Ular mehnat qilayotgan vaqtlarida ham duolar va zikrlarni takrorlaganlar.

Jamoaviy monastirlarda yashovchi monaxlarning o'z kelyalaridan tashqari o'zlariga tegishli buyumlari, kichik xo'jaliklari bo'lgan. Ba'zilari yillik ozuqa sifatida un yoki boshqa mahsulotlar, shuningdek mehnat anjomlari, kitoblar, oz miqdorda bo'lsa ham pul jamg'arib qo'yganlar. Shuning uchun manbalarda kelyalarni o'g'rilari tunagani eslatib o'tiladi[6]. Lekin bu ehtiyojlar monaxlarni dunyoga bog'lash uchun xizmat qilmagan. Monaxlar o'z ehtiyojlarini cheklashga harakat qilganlar, shu sababli qo'l mehnatining eng oddiyalarini tanlaganlar. Masalan, ular xurmo shoxlaridan savat, elak, panjaralar to'qiganlar, ba'zilari kulolchilik bilan shug'ullanlangan, boshqalari esa shamlar yasagan, ular orasida yozuvchilar ham bo'lgan. Shuningdek, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan monaxlar ham bo'lgan. O'z mahsulotlarini gohida sotish uchun monaxlarning o'zlarini borganlar[7]. Ehtiyoj tug'ilganda bir-birlaridan mahsulot olib turganlar. Yakshanba va shahidlarni xotirlash kunlarida mehnat bilan shug'ullanmaganlar.

Monaxlarning odatiy taomlari asosan sabzavotlar, ko'katlar, non, mevalar va mayda tuzlangan baliq bo'lgan. Suyuq taomlar dukkakli o'simliklardan tayyorlangan, juda kam hollarda moy yoki asal qo'shilgan. Yumshoq non hashamat belgisi hisoblangan, katta jamoalarda non yopish xonalari bo'lgan. Lekin aksariyat monastirlarda paksama (arpa unidan tayyorlangan, quruq, mayda non) iste'mol qilingan. Paksama qattiq bo'lgani uchun uni yeishidan oldin suvg'a bo'ktirish kerak bo'lgan. Monaxlar uchun bir kunda ikkita paksama iste'mol qilish me'yor hisoblangan. Paksamalarni uzoq muddat saqlash mumkin bo'lgan. Kunduzgi soat to'qqizgacha monax tanovul qilishi mumkin bo'Imagan. Soat to'qqizda ibodat va psalma kuylashni bajargandan so'ng tanovul qilganlar. Chorshanba va juma kunlari hech qanday taom iste'mol qilmaganlar. Aksariyat oqsoqollar (starsi) qaynatilgan taom iste'mol qilmaganlar. Monaxlarning uyqu vaqtlarida odatda 3-4 soat davom etgan.

Betob bo'lgan monaxlar shifokor yordamidan foydalanganlar. Nitriyskiy monastirida o'z shifokorlari bo'lgan. Monax betob bo'lganda uning kelyasiga borib, kerakli yordam ko'rsatilgan. O'lim to'shagida bo'lgan monaxlarni barcha jamaa a'zolari uning so'nggi so'zlarini eshitish maqsadida o'rav olganlar. Vafot etgan monaxlar uchun xotira kechalar o'tkazilgan[8].

Xulosa o'mida aytish mumkinki, xristianlikdagi dastlabki asketizmda inson tanasini ruhiy kamolot to'sig'i deb hisoblab, uni tahqirlash, undan nafratlanish tuyuglari o'rta asrlarga qadar ustuvor bolgan. Bu davrlarda tanaga ozor berish monaxlik hayotining asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan.

Zamonaviy hayot tarzi xristianlikdagi asketik amaliyotlarga ham tuyayyan darajada ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda xristian asketizmi inson tanasini jismoniyga mashaqqat yetkazishdan ko'ra, ko'proq ruhiy amaliyotga e'tibor qaratmoqda. Bugungi kun monaxlari ko'proq intellektual asketizmga ahamiyat beradilar. Shuning uchun zamonamiz monaxlari asketizm haqida beradilar.

gapirganlarda ko‘proq ruhiyat, ma’naviyat muolajasini nazarda tutmoqdalar.

Yuqoridagi o‘zgarishlarga qaramay, asketizmning asosiy tamoyillari monaxlik hayotida saqlanib qolgan va hamon xudojo‘ylar uchun taqvodor hayot mazmuni bo‘lib qolmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Psaltir (yun.ψαλτήριον, psalteriya musiqa asbobi nomidan oilngan: yahudiylidka - Tegilim, ibr. תהלים — «madh qilmoq») – Tanax va Qadimgi Ahd tarkibidagi kitob. 150 yoki 151 paslma - o’shiq yoki madhiyalardan iborat. Bibliyada Psaltir Yahyo kitobidan keyin o‘rin olgan. Yahudiylarda Tanaxnnig uchinchi qismi Ketuvimda joylashgan. Islomda Psaltir Zabur deb ataladi.
2. Alliluiya (ibr. xalelu Yax – Yahveni ulug‘lash), lot. alleluia- ibodatni olib boruvchining jamoani Xudoni madh etishga chaqiruvi.
3. Казанский П. С. Общий очерк жизни иноков египетских в IV и V веках. – М.: Тип. В. Готье, 1872. – С. 26
4. Казанский П. С. Общий очерк жизни иноков египетских в IV и V веках. – М.: Тип. В. Готье, 1872. – С. 26
5. Казанский П. С. Общий очерк жизни иноков египетских в IV и V веках. – М.: Тип. В. Готье, 1872. – С. 29
6. Казанский П. С. Общий очерк жизни иноков египетских в IV и V веках. – М.: Тип. В. Готье, 1872. – С. 29
7. O’sha manba. – В. 48
8. Казанский П. С. Общий очерк жизни иноков египетских в IV и V веках. – М.: Тип. В. Готье, 1872. – С. 48



Baxrom XO'JANIYOZOV,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti assestant-o 'qituvchisi

E-mail: xojaniyozovbahrom@gmail.com

Xalqaro innovatsiyalar universiteti professori, p.f.d P.Jalolova taqrizi asosida

## THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE CREATIVE DEVELOPMENT OF CHILDREN IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

### Annotation

The development of the Republic of Uzbekistan is determined by the rich spirituality and universal values of the people, as well as the creation of effective education based on the latest achievements of modern culture, education, science, technology and production. An important condition for the development of Uzbekistan is the training of personnel faithful to the idea of national independence, possessing powerful intellectual strength, capable of thinking and observing on the basis of modern scientific achievements, as well as perfect control over humane, highly qualified personnel. In a society where science is accelerating, modern information and communication systems are widely introduced, knowledge in various fields of science is quickly updated, students are constantly and independently engaged in the search for knowledge, as well as its rapid acquisition.

**Key words:** Creative abilities, creativity, imagination, ability, logical thinking, thinking.

## РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТВОРЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

### Аннотация

Развитие Республики Узбекистан обусловлено богатой духовностью и общечеловеческими ценностями народа, а также созданием эффективного образования на основе новейших достижений современной культуры, просвещения, науки, техники и производства. Важным условием развития Узбекистана является подготовка кадров, верных идеи национальной независимости, обладающих мощной интеллектуальной силой, способных мыслить и наблюдать на основе современных достижений науки, а также совершенный контроль за гуманными, высококвалифицированными кадрами. В обществе, где наука ускоряется, широко внедряются современные информационно-коммуникационные системы, быстро обновляются знания в различных областях науки, студенты постоянно и самостоятельно занимаются поиском знаний, а также быстрым их приобретением.

**Ключевые слова:** Творческие способности, творчество, воображение, способности, логическое мышление, мышление.

## UMUM TA'LIM MAKTABALARIDA BOLALARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARING O'RNI

### Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi davr madaniyati, ma'rifati, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lif tizimini barpo etish bugungi kun talabidir. Ilm fan jadal taraqqiyetayotgan, zamonaviy axborot-alloqa tizimlari, vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lif oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasi qo'yilmoqda. O'zbekistonning kelajagi va ravnaci ko'p tomonlama undagi kadrarning bilimdonligi, kasb tayorgarligi va ma'naviy yetukligiga bog'liq. Shu jihatdan qaraganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar orasida Kadrler tayyorlash sohasidagi islohotlar muhim o'rinni tutadi. Jumladan, uzuksiz ta'lif borasidagi yo'riqnomalar har tomonlama yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashda alohida o'rinni tutadi.

**Kalit so'zlar:** Ijodiy qobiliyatlar, ijodkorlik, tasavvur, qobiliyat, mantiqiy fikrlash, tafakkur.

**Kirish.** Ta'lif hozirgi zamon jamiyatining bosh tayanchi hisoblanadi. Ta'lif tizimi informatsiyaga aylanadigan bilimlar bilan bog'liq, chunki mazkur informatsiyalar zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarish uchun resurs sifatida himmat qiladi. Ta'lif o'z ichiga bilim va ko'nigmalarini kirituvchi -inson kapitalini shakllantiradi.

Bu o'rinda ta'lilda innovation va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati ortib bormoqda. O'quvchilarga bilim berishning ahamiyati to'g'risida so'z borganda Prezident Sh.Mirziyoevning –“Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”, -degan so'zlarini ta'kidlash o'rindilidir. Agar jamiyat ma'rifatlari bo'lsa, bu jamiyatning istiqboli, kelajagi yorug'ligini anglatadi.

Bugungi kunda o'quvchilarga ta'lif-tarbiya berishda zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Darhaqiqat, ta'lilda zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lif jarayonining unumdarligini

oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi. Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga imkoniyat yaratса, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

XXI asr axborot texnologiyalari asri, deb bejiz atalmayapti. Bugungi kunda dunyo miyqosida axborot kommunikatsiya tizimi yuksak darajada rivoj topib bormoqda va bu boshqa sohalar qatori ta'lif sohasiga ham jadal kirib borib, uni yanada sifatlari tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kun o'qituvchisi AKTdan foydalanishni chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratish darajasida bilimli bo'lishi, darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson, qiziqarli usullarini tanlashi va qo'llay olishi, zamonaviy AKT va multimedia vositalari, kompyuterlardan foydalanishi, o'quvchilarni ijodiy, mustaqil ishslashga undashi juda muhim omil hisoblanadi.

Prezidentimiz aytganidek, –“Bugun yosh avlodning har bir vakili haqida qayg'urishimiz kerak. Yoshlarga oid davlat siyosati ham aynan shunga yo'naltirilgan. Bu siyosatni amalga

oshirishda hokimiyatning barcha bo'g'ini, vazirlik va idoralar, -fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, ya'ni hamma ishtirok etmoqda".

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'limgizidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'limgizining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz mabtadan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisadiyat tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkonini tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi mabtadan boshlanadi desam, o'yaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Pedagog olimlardan O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdieva, E.Yuzlikaeva, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarda ta'limgiz oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning bo'lajak mutaxassislarini kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o'ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, ta'limgiz oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta'minoti, shuningdek pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan. Innovatsion ta'limgiz va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta'limgiz oluvchilarda o'z-o'zini ijodiy faolashdirish, kreativ ishlannalar(mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan erkin ta'limgiz muhitimi tashkil etish. A.Abduqodirov, N.Azizxodaeva, U.Begimqulov, J.Yo'ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O'.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjaev, Ya.G'affarov, M.Tilakova, S.Toshtemirovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan. Nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatadi, Umum ta'limgiz maktablarida bolalarning ijodiy qobiliyatini va iqtidorini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalaming o'mni to'liq tadqiq etilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamondan madaniyat, ma'rifati, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'limgizini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega. Milliy istiqqlol g'oyaga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrлarni taylorlashning mukammal tizimini shakllantirish. O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Ilm fan jadal taraqqiy etgan, zamonaviy axborot-aloha tizimlari, vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'limgiz olida ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasi qo'yilmoqda. O'zbekistonning kelajagi va ravnaqi ko'p tomonlama undagi kadrлarning bilimdonligi, kasb tayorgarligi va ma'naviy yetukligiga bog'liq. Shu jihatdan qaraganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar orasida Kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlar muhim o'rinn tutadi. Jumladan, uzuksiz ta'limgiz borasidagi yo'rqnomalilar har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashda alohida o'rinn tutadi.

**Tahlil va natijalar.** Ijodkorlik ko'plab fazilatlarning birlashuvidir. Inson ijodining tarkibiy qismlari masalasi hali ham ochiq, garchi hozirgi vaqtida bu muammo bo'yicha bir nechta farazlar mayjud.

Ijodkorlik uchta asosiy guruhgiga bo'linadi:

- 1) motivatsiya bilan bog'liq qobiliyatlar (qiziqishlar va moyilliklar);
- 2) temperament (emotionsallik) bilan bog'liq qibiliyatlar;
- 3) aqliy qibiliyatlar.

R. Sternberg ijodkorlik jarayoni uchta maxsus intellektual qobiliyat mavjud bo'lganda mumkin bo'lishini ta'kidlaydi:

Muammolarni yangi nuqtai nazaridan ko'rish va odatiy fikrlash tarzidan ochish uchun sintetik qobiliyat;

G'oyalarni yanada rivojlantirishga arziydimi yoki yo'qligini baholashning analitik qobiliyat;

G'oyaning ahamiyatiga boshqalarni ishontirishning amaliy-kontekstli qobiliyat.

Agar shaxs analitik qobiliyatni qolgan ikkitasining zarariga juda rivojlangan bo'lsa, u zo'r tanqidchi, lekin ijodkor emas. Sintetik qobiliyat, analitik amaliyot bilan qo'llab-quvvatlanmaydi, ko'plab yangi g'oyalarni keltirib chiqaradi, ammo tadqiqot tomonidan tasdiqlanmagan va foydasiz. Qolgan ikkitasi amaliy qobiliyat yorqin ifodalangan, ammo "yomon" g'oyalarga olib kelishi mumkin. Ijod tafakkurning stereotiplardan va tashqi ta'sirlardan mustaqil bo'lishini talab qiladi.

Ijodkorlik muammosining taniqli mahalliy tadqiqotchisi A.N. Luk taniqli omlar, ixtirochilar, rassomlar va musiqachilarning tarjimai holiga asoslanib, quyidagi ijodiy qobiliyatlarini ta'kidlaydi:

1) muammoni boshqalar ko'rmaydigan joyda ko'rish qobiliyat;

2) aqliy operatsiyalarni o'chirish, bir nechta tushunchalarini bittasiga almashtirish va axborot nuqtai nazaridan tobora ko'proq sig'imga ega bo'lgan belgilarni qo'llash qobiliyat;

3) bir masalani yechishda olingan ko'nikmalarni boshqa masalani yechishda qo'llash qobiliyat;

4) voqelikni qismalgarda ajratmasdan, yaxlit holda idrok etish qobiliyat;

5) uzoq tushunchalarini osongina bog'lash qobiliyat;

6) xotiraning kerakli vaqtida kerakli ma'lumotlarni ishlab chiqarish qobiliyat;

7) fikrlashning moslashuvchanligi;

8) muammoni tekshirishdan oldin uni hal qilish uchun alternativalardan birini tanlash qobiliyat;

9) mavjud bilimlarni tizimiga yangi idrok etilgan axborotni kiritish imkoniyati;

10) marsalarni qanday bo'lsa, shunday ko'ra bilish, kuzatilayotgan narsani izohlash orqali olib kelinayotgan narsadan farqlay bilish;

11) g'oyalarni yaratish qulayligi;

12) ijodiy tasavvur;

13) tafsilotlarni aniqlashtirish, asl g'oyani yaxshilash qobiliyat.

Psixologiya fanlari nomzodlari V.T. Kudryavtsev va V. Sinelnikov keng tarixiy-madaniy materialga (falsaфа tarixi, ijtimoiy fanlar, san'at, amaliyotning alohida sohalari) asoslanib, jarayonda shakllangan quyidagi universal ijodiy qobiliyatlarini aniqladilar.

1) tasavvurning realizmi - shaxsning u haqida aniq tasavvurga ega bo'lishidan va uni qat'iy mantiqiy kategoriyalar tizimiga kiritishidan oldin, integral ob'ektning qandaydir muhim, umumiyy tendentsiyasi yoki rivojlanish naqshini obrazli tushunish;

2) qismlardan oldin butunni ko'rish qobiliyat;

3) ijodiy yechimlarning suprasituatsion-transformativ tabiatini, muammoni hal qilishda shunchaki tanlash emas, balki mustaqil ravishda muqobil yaratish qobiliyat;

4) eksperiment - ob'ektlarning oddiy vaziyatlarda yashiringan mohiyatini eng aniq ochib beradigan sharoitlarni ongli va maqsadli yaratish qobiliyat, shuningdek, ushbu sharoitlarda ob'ektlarning "xulq-atvori" xususiyatlarini kuzatish va tahlil qilish qobiliyat.

**Umum ta'limgiz maktablarida bolalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari**

Ijodiy qobiliyat yuksak kreativ rivojlanish omili bo'lib, faoliyatning turli jahbalarida, jumladan, nutqiy, yozma-ijodiy va boshqa ko'pgina turlarda ifodalananadi. Umum ta'limgiz maktab o'quvchilarida kreativ qobiliyatni rivojlantirish, birinchi navbatda, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni, emotsiyonal-psixik kayfiyatni, faol, ijodiy tasavvurni, o'z-o'zini faollashtirish, mustaqillik, o'z o'zini nazorat qilish, namoyon qilish, ifodalash, baholash, o'quv

jarayonida ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi.

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat.

Tadqiqotchi G.Ibragimova interfaol o'tish jarayonida ta'lim oluvchilarida kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o'tgan:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta'lim oluvchilarida kreativ faoliyat, kreativ faoliyatlari va ijodkorlikka bo'lgan moyillikni qaror toptirish, ta'limdagi innovatsion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g'oyalarning tug'ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta'lim oluvchilaridaqagi tadqiqot-chilik, ijodiy faoliyatlari, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko'nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llash, baholash, tahvil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo'naltirilgan strategik rejalarini tuzish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim oluvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida interfaol ta'lim jarayoni ahamiyatli sanaladi. Interfaol ta'lim – ta'lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini o'zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlariga asoslangan o'qitish metodlari tizimidir. Bunda o'zaro harakat ta'lim oluvchilarining faollaishi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o'rnatish kabi tamoyillarga tayanadi. Interfaol o'qitish metodlari o'z ichiga: aqly hujum, muammoli bayon; Keys-stadi; tadbirkorlik o'yinlari; POPS-formula; debat; bliis-so'rov; Suqrot dialogi; o'quv loyihalari; aniq vaziyatlar tahibili (AVT), SWOTtahlil va boshqalarni qamrab oladi.

Mavjud metodik manbalar va ish tajribalarini o'rganish asosida ta'lim oluvchilarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan quyidagi interfaol ish shakllarini taklif qilish mumkin: ijodiy topshirqlarni bajarish; kichik guruhlarda ishlash; energezator mashqlar; treninglar; videotreninglar; taqdimotlar; viktorinalar; briefing; media anjumanlar; master-klass; ijodiy loyihalash mashg'ulotlari; interfaol ekskursiyalar; interfaol ma'ruzalar; vebinar; davra suhbatlari; fokus-gruppa va boshqalar. Demak, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari vositasida ta'lim oluvchilarida kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim sharti ta'lim jarayonida erkin-ijodiy muhitning yaratilishi, professor-o'qituvchilar, o'qituvchi va ta'lim oluvchilarining birgalikdagi munosabatlari va o'zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishdan iborat.

Ta'lim oluvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator omillar mavjud bo'lib, quyida ayrimlarini keltirib o'tish mumkin:

- kreativ fikrash ko'nikmalarini rivojlantirish;

-kreativ faoliyatlari shakllantirish;

-o'quv jarayonini izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo'nalishlarini kuchaytirish;

-ta'lim oluvchilarining muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;

-ta'lim oluvchilarining kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;

-ta'lim oluvchilarining kasbiy ko'nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo'naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini bilish, o'z mavqeiga ega bo'lish, ta'lim oluvchilarining mustaqil ishlash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrashlariga erishish;

-ta'lim oluvchilarining kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy-hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilar.

**Xulosa.** Yuqorida fikrlardan kelib chiqib va tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi umumiylar xulosalarga kelindi:

Ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi fanning barcha sohalarini axborotlashtirishni, o'quv faoliyatini intellektuallashtirishni, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni, ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomil eladi.

O'quv jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarning qo'llanishi, o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni his qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiyi, o'qishga, fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Ta'lim va tarbiya jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'tmish allomalarimizning g'oya va qarashlaridan foydalanish o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashni yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Jamiyatda yuzaga kelgan talabga javob sifatida umumiy ta'lim maktablari sun'iy intellekt muammosi, bilimlarni axborot texnologiyalari yordamida ifodalash va ular bilan boshqarish usullari paydo bo'ldi. Bularni barchasi ta'lim sifatini oshirishga qaritilgan. Axborot texnologiyalarining tez shiddat bilan rivojlanishi ta'lim tizimini ham oldinga qadam qo'yishga majburlayapdi. Axborot texnologiyalarining vositalarining imkoniyatlari bir nechta fanlararo bog'liqliklarni yaqqol ko'rish imkoniyatlarini yaratib berdi.

#### ADABIYOTLAR

- SH. Mirziyoev 2022 — 2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida farmoni. Toshkent sh.11.05.2022 yildagi PF-134-son
- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Barkamol avlod— O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997. Kadrler tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod— O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori (Toshkent shahri, 2017 yil 20 aprel)
- Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston ijodkor ziellilari vakillari bilan uchrashuvdag'i ma'rzasidan.—Xalq so'zi, 2017 yil 4 avgust
- Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» T., «O'zbekiston» 1999.
- Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat—yengilmas kuch. —T.: “Ma'naviyat”,2008. -176 b.
- Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.—T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
- Toshtemirova C.A. (2020) Ta'lim sifati samaradorligini oshirishda innovatsion g'oyalarning ahamiyati. 1(1). 56-61.
- Mukhamedov G., Khodjamulov U., Toshtemirova S. (2020). Innovative cluster of pedagogical education. Monograph, -T.: University, 280 p.
- Toshtemirova, S. (2020). “Maktab-laboratoriya”lar mintakaviy ta'lim sifatini oshirish modeli sifatida. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 25-31.
- Mardonov, S. K., & Toshtemirova, S. A. (2020). Classifying the educational system as an innovative approach. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (92), 180- 182.
- Toshtemirova C.A. (2020) "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba-sinov maydonchalarida "iqtidor" loyihasini shakllashtirish mexanizmlari.
- Toshtemirova, S.A. (2020). Pedagogika sohasida klaster modeli asosida talabalarni kasbga yo'naltirish. Science and Education, 1(7), 632-638.



G'olib XUSANOV,

Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

## OILA TUSHUNCHASINING IJTIMOYI-FALSAFIY TAFAKKUR TARIXIDAGI O'RNI

Annotasiya

Maqolada insoniyat tarixida eng katta inqilobiy o'zgarishga olib kelgan oila tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tadqiq etilgan. Har bir davr oralig'ida qadimdan to bugungi kundacha bo'lgan tarix g'ildiragi ko'plab xalqlarning oilaviy munosabatlari xilma-xil ko'rinishlarda vujudga kelishiga va rivojlanishiga sabab bo'lganligini yaxshi bilamiz. Shu jihatlarning falsafiy tafakkur tarixida tutgan o'rnining nazariy va amaliy tomonlari ijtimoiy-axloqi yuqtai nazardan tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, jamiyat, tarix, Xitoy, Hindiston, millat, xalq, etnoan'analar, madaniyat, axloq, manaviyat, sivilizasiya, erkak va ayol, farzand, qadriyatlar, huquq, shaxs.

## МЕСТО ПОНЯТИЯ СЕМЬИ В ИСТОРИИ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЙ МЫСЛИ

Аннотация

В статье исследуется социально-философская сущность понятия семьи, приведшая к крупнейшим революционным изменениям в истории человечества. Мы прекрасно знаем, что колесо истории с древнейших времен до наших дней вызывало возникновение и разное развитие семейных отношений многих народов. С социально-этической точки зрения изучены теоретические и практические аспекты роли этих аспектов в истории философской мысли.

**Ключевые слова:** Семья, общество, история, Китай, Индия, нация, народ, этнотрадиции, культура, мораль, духовность, цивилизация, мужчина и женщина, ребенок, ценности, закон, человек.

## THE PLACE OF THE CONCEPT OF FAMILY IN THE HISTORY OF SOCIAL AND PHILOSOPHICAL THOUGHT

Annotation

The socio-philosophical essence of the concept of family, which led to the biggest revolutionary change in the history of mankind, is researched in the article. We know very well that the wheel of history, from ancient times to the present day, caused family relations of many peoples to appear and develop in various ways. The theoretical and practical aspects of the role of these aspects in the history of philosophical thinking have been studied from a socio-ethical point of view.

**Key words:** Family, society, history, China, India, nation, people, ethno-traditions, culture, morality, spirituality, civilization, man and woman, child, values, law, person.

**Kirish.** Insoniyatning tarixida oila o'zining qadimiyigli, uzoq o'tmishga egaligi bilan elat, millat va xalqlar hayotida o'zining alohida o'rni ega bo'lib kelgan. U ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojida markaziy o'rinni egallab, jamiyatning eng kichik bug'ini sifatida rivojlanib boruvchi muqaddas dargoh sanaladi. Bu tushunchada turli jamiyatlarining qadriyati, madaniyati, axloqi, huquqiy me'yordi va hokazolar o'zining aksini topgan. "Oila jamiyatning birinchi va birlamchi zarrasidir. Jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Lekin u shanchaki zarra emas, tirik vujudlar ittifoqidir"[1]. Unda qadimgi sivilizasiyalardan tortib, insonlarning zamonaviy postindustrial va axborotlashgan jamiyatgacha shaxslararo, jamaalararo va ijtimoiy qatlamlarning tuzilishi mujassam bo'lgan.

**Adabiyyot tahlili.** Dastlabki oila bilan bog'liq qarashlar Mesopotamiya, Misr, Gresiya va Rim, Xitoy, Hindiston, Turon kabi qadimgi sivilizasiyalarda rivojlangan. Bu hududlarda oila ko'pchilikka asoslangan jamiyatning asosiylari bug'ini sifatida shakllangan. Oilada shaxsnинг axloqiy va ijtimoiy rivojlanishi, madaniy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar va axloqiy me'yordi avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bundan tashqari, u jamiyatda hal qiluvchi iqtisodiy birlik sifatida xizmat qilgan va oilaviy aloqalarni mustahkamlash maskani sanalgan.

Eramizdan oldingi III minginchchi yillarda qadimgi Xitoyda yog'och taxtachalarga o'yib yozilgan bitiklar va yozuvlarda turli urushlarda ishtirot etayotgan askarlar o'z uylarini, oilasini sog'inayotganligi aks etgan[2]. Bu esa, oilaning muqaddas dargoh sifatida xitoyliklarda e'zozlanganligini, eng yaqinlari yashaydigan makon bo'lganligini ko'rsatadi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, qadimgi xitoyliklarning solnomalarida oila bo'lib yashash, Vatan haqidagi tasavvurlar, davlat boshqarivi keng yoritilgan. Ularning sharq xalqlariga xos bo'lgan axloqiy qarashlarida Konfusiy g'oyalari muhim o'rinni tutadi. Uningcha,

"Oliyjanob er", ya'ni hukmdor, oila boshlig'i, ritual-analarni asrovchisi ushbu triadaga xizmat qiladi. Konfusiy butun davlatni bir oila sifatida ta'kidlaydi. Davlat ham, oila ham ma'lum bir an'analarga muvofiq idora etiladi, ushbu an'analarning buzilishi boshboshdoqlikni, nizolarni keltirib chiqaradi, xizmatkor hukmdorga, o'g'il otaga bo'ysunmay qo'yadi[3]. Uning bu dunyoqarashida o'ziga xos jamiyatning falsafasi, real hayotga nisbatan insonlarning ijtimoiy munosabatlari doimo nazorat qilib borish masalasi turadi. Chunki oila singari davlat ham o'zining muayyan qonuniyatlariga ega bo'lib, o'z fuqarolarining yashashi, turmush tarzi, axloqiy ideollarini tartibga solishi, o'zining vazifasini barcha sohalarda izchillik bilan huquqiy me'yordi mas tarzda bajarishi maqsadga muvofiqdir. Konfusiy "Uydan chiqayotganingga, o'zingni xuddi eng aziz mehnmonlarni kutib olayotganday tut. Odamlarga xuddi buyuk rasm-rusumlarni ado etayotgan kabi muomala qilgil. O'zing istamagan narsalarni o'zgalarha ham ravo ko'rma. Shunda davlatda ham, oilada ham norozilik bo'lmaydi"[4] deydi. Bu donishmandona aytligan fikrlar insonning o'z qadrini ulug'lashida oilaning muqaddas ekanligi, ijtimoiy hayotda har bir shaxsning o'z burchlarini sidqidildan bajarishi lozimligi bilan ifodalanadi.

Qadimgi Hindiston sivilizasiyasida ham oilaning shakllanishi bilan bog'liq turli falsafiy qarashlar shakllangan. Hind xalqining tarixiy-madaniy hayot tarzi, oilada ayollarga bo'lgan munosabat va ma'naviy taraqqiyot masalalar buddavyilik ta'sirida rivojlangan. Qadimgi hindlarning "Mahobhorot" va "Rigveda" eposlarida oila va oilaviy munosabatlari yorqin aks etgan. Masalan, "Mohobhorot" eposi qahramoni Draupadining aka-ukalarga turmushga chiqqani o'sha paytlardagi poligamiyadan darak beradi. Bu arxaik nikoh oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilgani, qahramonlarning dashmanlariga

qarshi mardonavor jang olib borgani, oila sha'nini himoya qilish bilan bog'liqidir[5].

Hind xalqining ijtimoiy-falsafiy tafakkurida monogamiya bilan birga poligamiya ham bo'lgan. Ularda ko'pgina an'analar keyingisiga amal qilgan, yosh qizchalarini oilali, badavlat erkaklarga berish odatigi hol hisoblangan. Aslida oila qurish asosini sevgida, yoshlarning bir-birlarini yoqtirishida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. U ikki jinsning qovushishida hayotga bo'lgan muhabbatning, ularning yon-atrofdagi go'zallikdan zavk olib, lazzat topib, bir-birlarini ardoqlab, sevib yashash manbaini ko'radi. "Hindlar erkak va ayol qovushishidan hissiy estetik go'zallik, maftunkorlik hamda zavq qidirganlar, uni jamiyatdagi barqarorlik, osoyishtalik, an'analarini saqlash va oilaviy hayotni mustahkamlashning hal qiluvchi omillaridan biri sifatida bilganlar"[6].

**Natijalar va muhokama.** Kishilik jamiyat shakllanishing har bir bosqichida poligamiya, poliginiya, guruhiyatnik nikoh, endogamiya kabi oilalar mavjud bo'lganligini tadqiqotlar tasdiqlaydi. Oilaning monogamiya instituti sifatida shakllanishi jarayonida ko'plab ibtidoiy atlardan taqiqlanadi. Bu tablabning ijtimoiy hayotdan joy olishi turli etnoslarda turlicha kechgan, ba'zi etnologik va etnografik kuzatishlar ularning qoldiklari hamon uchrashini tasdiqlaydi. Asta-sekin oila evolyusiyaga uchrab, insoniyat axloq va g'ayriaxloq, ezzulik va yovuzlik o'rtasidagi farqlarni ajrata boshlagach, chin insoniy tuyg'ular boshqa etnoslarga, qabilalarga va ulardagи shaxslarga qaratilishi zarurligi anglangach, oila va uning tarkibi haqidagi tasavvurlar ham o'zgargan. Shuning uchun kishilik jamiyat evolyusiyasi oila evolyusiyasida o'z aksini topgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan mehnat jarayonlarida rang-barang tarzda shakllangan.

O'rta asrlarda oila tushunchasi bevosita yaqin qarindoshlik, er-xotinning bir-biriga sadoqati kabi qarashlar bilan o'zaro bog'lanib ketdi. Bunda oilaviy tuzilmalar jamiyatni o'ziga xos tomonlarini aks ettirib, o'zaro majburiyatlarni bajarishga doir tartiblarni shakllantirdi. Bu borada faylasuf Foma Akvinskiy nasroniylik ta'lomitiga asoslanib, nikoh va oilaning Xudo tomonidan belgilab qo'yilgan muqaddasligini ta'kidlaydi. Uningcha, xudo har bir insonning dunyoga kelishida oilaga bog'liq ilohiylik kasb etishi, uning ijtimoiy ahamiyati muayyan shartlangan majburiyatlarni bajarishda ifodalishidir. Oilada er va xotinning nikohi ilohiy irodaga bo'ysnaligan muqaddas ittifoqi sanaladi. Shu boisdan, Foma Akvinskiy oilani axloqiy tarbiya maskani deb ataydi va ijtimoiy munosabatlarni saqlashdagi rolini alohida o'ringa qo'yadi.

Ma'rifatparvarlik davrida esa oila konsepsiyasida bir qator o'zgarishlar vujudga keldi. Bu davr mutafakkirlari an'anaviy iyerarxik tuzilmalarga o'zlarining e'tirozlarini bildira boshladilar va individual rasionallikni ta'kidlay boshladilar. Jumldan, Jan-Jak Russo an'anaviy oilaviy tartiblarni shubha ostiga qo'yib, oilaviy munosabatlarni boshqarishda davlatga bo'lgan ehtiyoj zarurligini ko'rsatadi. U oilada farzand tarbiyasiga ko'proq ota-onas mas'uliyatini ta'kidlab, ularning bola parvarishida teng huquqligini va bola tarbiyasiga yo'naltirilgan falsafiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatldi. Bu davrda oila bilan bog'liq liberal g'oyalarning paydo bo'lishi davlatning oilaviy hayotni tartibga solishdagi rolini mustahkamlashga olib keldi. Har bir oilada shaxs huquqlari hurmat qilinishi, jamiyatning birdamligi oilalar o'rtasidagi muvozanat bilan uyg'unligi ilmiy bahs-munozazaralarga boy bo'ldi. Jamiyatda oila haqidagi tushunchalar yangi g'oyalalar va ilmiy kashfiyotlar ta'sirida yangilanib bordi. Rene Dekart va Giovanni Piko della Mirandola kabi faylasuflar esa mutafakkirlar oiladagi shaxsiy erkinlik va shaxsiy rivojanishga katta ahamiyat berdilar. Ular oilaning tuzilishi va funksiyalarida o'zgarishlar kelajak uchun xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

XIX-XX-asrlarda sanoatlashtirish rivojanishi, urbanizasiya jarayonlarining kengayib borishi natijasida gender tenglikning amal qilishi oila dinamikasida chuqur o'zgarishlarga olib keldi. Bu davrda oilani iqtisodiy munosabatlardan parallel boshqarish, oiladagi zo'ravonlik va gender tengsizlik muammolarini hal qilish asosiy o'ringa chiqdi. Zamonaiv davrda oila tushunchasi globallashuv, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy

normalarning o'zgarishiga javoban rivojanishda davom eta boshladi. Nikoh tengligi, reproduktiv huquqlar va turli xil oila tuzilmalari atrofidagi bahsler oila birligi haqidagi an'anaviy tushunchalarni kuchaytirdi. Shuningdek, reproduktiv texnologiyalar va qarindoshlikning muqobil shakllarining rivojanishi oilaviy munosabatlardan chegaralarini qayta belgilaydi.

Bugungi kunda o'zbek oilasi etnoa'analari negizida oila genezisi bilan bog'liq jarayonlarni retrospektiv tahlil qilish lozim. Etnoan'analarning o'zi mohiyatan tarixiy-madaniy voqyelik sifatida ko'plab fundamental tadqiqotlar o'tkazilishiga, oila va undagi qadriyatlar to'g'risida yangi fikrlar shakllanishiga yo'l ochdi. Shuning uchun oila mavzu doirasini falsafada, ijtimoiy hayotda sezilarli iz qoldirgan ta'lomitlar vujudga keldi. Bundan tashqari, turli ijtimoiy muhitlarda mafuraviy ta'sirlar doirasida faylasuflar, oilashunoslar o'zlarining subyektiv yondashuvlarini ilgari surdilar. Ular bir tomondan, an'analarga, qadriyatlarga, madaniy merosga obyektiv yondashishni ta'minlaydi, ikkinchi tomondan, mavzuga zamonaiv ruh olib kirgan holda kengroq falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Jamiyatda bir er va bir xotindan oilaning shakllanishi xam ijtimoiy taraqiyotning muayyan davridagi imkoniyatlar, extiyolar, ma'naviy e'tiqodlar tufayli yuzaga kelgan. Tarixiy taraqqiyot o'z rivojanish yo'lida oilaviy munosabatlarni ham boshqarshni kun tartibiga qo'ydi. Shu tariqa nikoh bilan borliq munosabatlardan chikdi. Nikoh qurayotgan ikki yosh o'rtasidagi munosabatlarni davlat, jamiyat tomonidan muayyan axloqiy-huquqiy mezonnar asosida boshqarish zaruriyat tufayli vujudga kelgan marosimdir. Oilada bolalar tarbiyasi katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Bolalar aqli odobli mehnatsevar halol ota-ona ham butun jamiyat ham manfaatdor. Chunki jamiyat taraqqiyotining ma'naviy jismoniy sog'lom yoshlari ta'minlaydi.

Oilada qarindosh urug'likka asoslangan munosabatlardan shakllanadi. Bu ham insoniyat uchun g'oyat muhim hayoti va taraqqiyotda katta o'rin tutadi. Ularning burch va ma'suliyatiga asoslangan hamkorligi hamjihatligi munosabatlarni barqarorlashtirishning muhim shartidir. O'zbek oilalarda munosabat masalasiga xuquqiy burch nisbatan axloqiy ma'suliyat ustuvorlik kiladi. O'zbeklarda kelin yoki kuyov sihat-salomatligini surishtirish ham ajoyib va nisbiy an'ana bo'lgan. Bu an'analar yoshlarning oilaviy turmushi jamiyat va farzandlarning oiladagi burchlari bilan bog'liq mas'uliyatlarini oshiradi. Sog'lom oilaning ma'naviy mustahkam bo'lganligi sababli er va xotinning ajarlib ketishi farzandlarning qarosvs qolishi uchraydi.

Oilaning ijtimoiy institut sifatidagi tarixiy, huquqiy, axloqiy-demografik shakllanishi borasida ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa-da, uming ko'plab muammolari hal ham uchraydi. Olimlar ma'lum bir ilmiy, falsafiy konsepsiyalar yaratish asosida oilani ijtimoiy birlik sifatida shakllanish bosqichlarini tadqiq etish etnologiyaning predmeti hisoblanadi[7], deydi. Bu jarayonlar etnologik munosabatlarsiz, etnoan'analarsiz kechmaydi. Demak, ijtimoiy-falsafiy va etnologik, etnoan'anaviy sog'lom oilaning ma'naviy mustahkam bo'lganligi sababli er va xotinning ajarlib ketishi farzandlarning qarosvs qolishi uchraydi.

Oilaning institusional shakllanishida erkak va ayol, ular o'rtasidagi jinsi, ma'naviy-axloqiy va mulkiy munosabatlardan qiluvchi rol o'ynaydi. Mazkur munosabatlardan esa ma'lum bir madaniy etnik va ijtimoiy muhitda shakllanadi. Shu nuqtai nazaridan oilaning institut sifatida shakllanishi mazkur munosabatlarning tadrijiy mahsuli hisoblanadi. Oilaga axloqiy xususiyatlar milliylik, lokal yoki umummilliylik, umuminsoniylik baxsh etadi, tarixiy-madaniy rivojanishning ajralmas atributi sifatida etnoan'analarga aylanadi. Oila bilan bog'liq jinslararo munosabatlardan avlodlararo munosabatlardan avval paydo bo'lgan bo'lib, jinsi ymosabatlardan avlodlararo aloqalarning ibtidosi, birinchisi inson o'zini ongli mavjudot sifatida anglamagan davrlarda ham mavjud bo'lgan. Olimlar fikricha, inson tanasining 96% hayvonlarniga aynandir[8]. Qadimdan xalq ertaklari yoki afsonalarda yarim odam singari mavjudotlarning tasvirlangani bejizga emas. Oila haqidagi ilmiy, falsafiy va etnologik qarashlarning barchasi oilaning erkak va ayol birligi, ittifoqi, ularning birgalikda xo'jalik yuritishi sifatida tan oladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oila tushunchasi ijtimoiy-falsafiy tafakkurda uzoq va boy tarixga bo'lib, uning

evolyusiyasi ijtimoiy-madaniy va falsafiy qarashlardagi o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Oila har bir davrda ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim omil bo'lib qolmoqda va doimiy ravishda qayta ko'rib chiqiladigan zamonaviy dunyoning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashadigan institutdir. U vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada rivojlanib, insoniyat jamiyatlar va madaniyatlarining dinamik tabiatini o'zida aks ettirib kelmoqda. Oilaviy rishtalarining asosiy ahamiyati doimiy bo'lib qolsa-da, oilalarning tuzilishi va tarkibi o'zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy va

madaniy sharoitlarga moslashishda davom etmoqda. Oila konsepsiyaning evolyusiyasini tushunish insoniy munosabatlarning murakkabliklari va jamiyat dinamikasini tushunish imkonini beradi. Oila tushunchasi jamiyatlarning o'zaro munosabatlarini, ijtimoiy tashkilot sifatida individual o'zlikni anglaydigan obyektiv reallikni ifodalaydi. Jamiyatlar rivojlanishda davom etar ekan, oila atrofidagi nutqlar ham o'zgaruvchan qadriyatlar, mafkuralar va madaniy amaliyotlarni o'zida aks ettirib boradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ватан туйғуси. –Тошкент : Ўзбекистон, 1996. 81-бет.
2. История Древнего Востока. От ранних государственных образований до древних империй. -М: Изд.фирма “Восточная литература” Ран, 2004. -С.154.
3. Мыслители древнего и средневекового Китая.-М: ACT, 2005. С.53-113.
4. Конфуций. -Минск: Современное слово,1998. -С.115-116.
5. Махобхорот. -Тошкент: F.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. 7-9 бетлар.
6. Алимасов В. Фалсафа Ҳаёт Ижод. -Тошкент: ЎзР ФА Асосий кутубхонаси нашриёти, 2018. 203-бет.
7. Аширов А. Этнология. -Тошкент: Фан, 2008. 54-бет.
8. Аллан и Барбара Пиз. Как заставить мужчину слушать, а женщину молчать. Почему мы такие разные, но так нужны друг другу.-М: Эксмо. 2006.



Rustamjon CHORIQULOV,

Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: choriqulovrustam9@gmail.com

TDPU professori, pedagogika fanlari doktori B.Xodjayev taqrizi asosida

## TALABALARING MUSTAQIL TA'LIMINI KREDIT-MODUL TIZIMIDA TASHKIL ETISHNING MAVJUD HOLATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kredit-modul tizimi, tizimda mustaqil ta'limdi tashkil etish, talabalarining mavjud holatda nimalar qilishi kerakligi, mustaqil ta'lindi qay holatlarda qanday tashkil etish, uni tashkil etishdagi materiallar, professor olimlar tomonidan o'tkazilgan turli xil tajribalar ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** keyslar, intervyyu, crossword, topshiriqlar, viktorina, esse, dayjest, taqdimotlar, ESTS, ERASMUS, differnsial o'qitilish, Foydalishni muddati, O'quv axborotining hajmi, O'quv materiali.

## THE CURRENT STATE OF ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A CREDIT-MODULE SYSTEM

Annotation

This article shows the credit-modular system, the organization of Independent Education in the system, what students should do in the current state, how to organize independent education in what cases, the materials in its organization, various experiments carried out by professor scientists.

**Keywords:** Keys, interview, crossword, assignments, Quiz, Essay, dayjest, presentations, ESTS, ERASMUS, differential training, duration of Use, Volume of training information, Study Material.

## ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПО КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация

В данной статье показана кредитно-модульная система, организация самостоятельного обучения в системе, что должны делать учащиеся в сложившейся ситуации, как организовать самостоятельное обучение в каких ситуациях, материалы по его организации, различные эксперименты, проведенные учеными-профессорами.

**Ключевые слова:** кейсы, интервью, кроссворд, задания, викторина, эссе, дайджест, презентации, ECTS, ЭРАСМУС, дифференциальное обучение, срок годности, объем учебной информации, учебный материал.

**Kirish.** So'nggi o'n yillikda, dunyo hamjamiyatida O'zbekiston Respublikasi har tomonlama rivojlanayotgan va kelajagi porloq mamlakat sifatida ko'zga tashlamoqda. O'zining porloq kelajagiga mustahkam poydevor qurish uchun o'sib kelayotgan vatan kelajagi bo'lgan yosh avlodning ilmli va har taraflama yuksalishi uchun davlat ta'lim tizimida ko'plab o'zgartirishlar, tuzatishlar va yangiliklar kiritilayotganligi sir emas. Bularning barchasi vatan tarqaqqiyoti va rivojlanishi uchun ulkan qadam hisoblanadi. Ta'lim tizimidagi eng kata o'zgarishlardan biri an'anaviy ta'lim tizimidan kredit-modul tizimiga o'tish jarayonidir. Buni Prezidentimiz SH. Mirziyoyev 2019 -yil 8-okeytyabrdan "O'zbekiston Respublikasi olyi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" nomli Farmonlari bilan tasdiqlab berganlar. Aynan ushbu farmonga ko'ra mamlakatimiz hududidagi olyi ta'lim muassasalarining 85% 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Hozirgi kunda deyarli barcha ta'lim muassasalarida bu jarayon amalga oshirilmoqda. Bu jarayon asosida o'quv soatlari tashkillash-tirilmoqda.

Kredit modul tizimining joriy qilinishi mamlakatimizdagi olyi ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, shuningdek raqamli texnologiyalarni rivojlantirishni gaytaytirishda ahamiyat kasb etadi. An'anaviy ta'lim tizimida doim o'qituvchi markazda turgan holda darsga tayyorlanib, bugun talabani qanday usulda o'qitsam ekan deb bosh qotirgan bo'lsa, kredit-modul tizimida esa talaba markazda turadi va o'rta ga talaba qanday o'qishi kerak degan savol ko'ndalang qo'yildi. Ko'rinish turibdiki, kredit-modul tizimida talabaning mustaqil izlanishi va bajarayotgan mustaqil ishi muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil ish sifatida keyslar, intervyyu, crossword, topshiriqlar, viktorina, esse, dayjest, taqdimotlar ham talabalar tomonidan bajarililib topshiriladi. Hattoki, hisob ishi, hisob-chizma

ishi, kurs loyihasi, kurs ishi, ilmiy izlanishlar, fan to'garaklarida qatnashishlar ham kiritiladi. Bu ta'lim tizimi mamlakatimizda hali yangilik bo'lganligi bois, uning mazmun-mohiyati nima uchun qo'llanilishi, baholash, tizimdagagi o'quv jarayonlarni tashkil etish haqida ko'plab o'qituvchilar, olimlar, professorlar tomonidan turli xil monografiyalar, maqolalar, qo'llanmalar chop etilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili** B.SH. Usmonov, R.A. Xabibullayevlar tomonidan 2020-yilda "Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit modul tizimida tashkil qilish" nomli o'quv qo'llanmalarida kredit-modul tizimi haqida batafsil malumotlar berilish bilan birligida, kredit-modul tizimining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi, turli xil xorijiy mammalakatlarda ta'lim tizimida qo'llanilishi va o'ziga xosligi haqida bayon etilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmaning 2-bobida kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish jarayonlari keng ko'lama yoritilgan. Bundan tashqari, mazkur qo'llanmada kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minotiga oid xujjalalar va bajariladigan jarayonlarga ham to'xtalib o'tilgan.

Proffessor U.Azizovning "Kredit modul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari" va SH.Mustafaqulov va M.Sultonovlar "Kredit modul tizimiga o'tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik" nomli maqolalarida kredit-modul tizimini joriy etishning ahamiyati va afzallikkleri haqida fikr yuritib tavsiya, xulosa, takliflarini berishgan.

Hasanova M.U, Jumanova M.G. larning "Kredit – modul tizimi va uning amaliyatga joriy etish tamoyillari" nomli maqolasida kredit- modul tizimining nima ekanligi, kredit – modul sistemasining mazmun va mohiyati, ustuvor tomonlari, va respublikamiz OTM larini bu tizimga o'tkazishda bajariladigan ishlar hamda bu xususda muallifning tavsiya va fikrlari ilmiy asoslab ko'rsatilgan.

Xaydarova R.A.ning Kredit-modul tizimini joriy etishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi" nomli maqolasida esa 1999-yilda 29 ta davlat tomonidan (hozirgi kunda 50 dan ortiq mamlakat a'zo) Bolonyada maqsadi taqqoslanadigan darajalar tizimini qabul qilish, akademik va kasbiy tan olishni engillashtirish va bitiruvchilarining ishga joylashishini imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan yagona ta'lim muhitini yaratish jarayonida ishtirot etish haqidagi Deklaratsiyaning imzolanishining sabablari va erishilayotgan natijalar ochib berilgan. Bolonya ta'lim tizimi: 12 yillik o'rta ta'lim; 2 bosqichli oliv ta'lim talabalari; kredit ESTS yordamida yagona baxolash texnologiyasi kabi birlamchi talabalarini ahamiyati va qo'llanilish ko'lami ko'rsatilib, kredit terminiga izox berilgan. Kredit turlari, turli regionlardagi o'ziga xosliklari, asosiy tamoyillari sanab o'tilgan.

ERASMUS xalqaro ta'lim dasturini joriy etishda Yevropada talabalar bilimini baholashdagi turli xillik va o'zaro mos kelmaslik holatlari yuzaga chiqdi, umumlashtirishda qiyinchiliklar paydo bo'ldi. Kredit tizimi ushbu muammoni hal qila oladigan, shu bilan birga milliy ta'lim tizimlarini amalda yaqinlashtirib, moslashuvchan va shaffof bo'lishini, ta'limdagи hujjalalar esa – oson taqqoslanadigan eng optimal vosita ekanligi xalqaro eksperimentlar natijasida aniqlandi. Kredit modul tizimini yutuq va kamchiliklari taxlil qilingan, O'zbekiston oliv ta'limi rivojlanishiha, raqobatbardoshligini oshirishga, etuk mutaxassislarni shakllantirishdagi roliga alohida to'xtalgan. Ushbu tizimga o'tishda boy xorijiy tajriba nechog'lik ahamiyatligi haqida so'z boradi.

**Tahsil va natijalar.** Adabiyotlar tahlilida kredit modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish eng muhim ekanligi yanada aniq va tushunarli qilib izohlab o'tilgan. Bunda eng asosiy masala – har bir fan bo'yicha o'ziga xos mustaqil ish turlarini ishlab chiqishdir. Hozirgi mavjud holati haqida so'z yuritadigan bo'lsak, Kredit-modul tizimida talabaning mustaqil ta'lim shakllari ta'lim mazmuni "Ta'lim natijalar" asosida rejalashtirib chiqiladi. Yanada oydinlashtiradigan bo'lsak, talabalar uchun tanlangan fanlar, mustaqil ta'lim turlari ham ularning kelgusidagi kasbiy faoliyat turlariga qanchalik zarur ekanligidan kelib chiqib shakllantirilmoqda. Kredit-modul tizimining o'ziga xosligi

talabalarning mustaqil bo'lishga ko'niktirishdir. Shuning uchun ham ular ajatilgan akademik soatlarin ko'p qismi mustaqil izlanishga, ya'ni mustaqil ta'limga asoslanganligidadir. Ya'ni, bunda har bir talaba uchun shaxsiy trayektoriya tuzish va har semestrda boshqa akademik guruhudagi o'qish imkoniyatini yaratib beradi. Tizimda yana talabalarning differensial o'qitilishiga alohida e'tibor beriladi. Bu orqali ilg'or talabalarni akademik yutuqligiga keng yo'l ochib berish mumkin.

Kredit modul tizimida talabalarning bilimi reyting asosida baholanishi va mustaqil ishlashtirishini ta'minlash asosiy ta'moyillaridan biri sifatida qaraladigan bo'lsa, mustaqil ta'lim mazmuni uning asosini tashkil etadi. Mayjud holatda, mustaqil ta'lim materiallari o'qituvchi va talabalarning faoliyatini tashkil etib, ular o'rtasidagi muloqotda asosiy rol o'ynaydi. Mustaqil ta'lim materiallari ham tizimli bog'langan bo'lishligi maqsadga muvofiqidir.

O'qituvchi talabalarini faqatgina boshqaruvchi sifatida yo'naltirib turadi,unga har tomonlama tavsiyalar berib boradi. Mustaqil ta'limni topshirishi uchun talabalarga mustaqil ta'lim materiallari qanday bo'ladi degan savollarga quyidagi tasnif ham amalda yordam beradi.

1. O'quv materialiga ko'ra (ya'ni darslik, o'quv qo'llanmalardan olinadigan ma'lumotlar hisobiga);
2. O'quv axborotining hajmiga qarab (AKT bilan bog'liq materiallari);
3. Foydalanish muddatiga qarab (faoliyat davomida foydalilanildigan material, ulardan bir marta yoki qayta foydalansa bo'lishiga qaratiladi).

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, bu ta'lim tizimida talaba olgan bilimlarini namoyon qiladi, o'qituvchi esa uni baholaydi.

**Xulosa.** Kredit modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish, nafaqat o'qituvchiga balki talabaga ham bog'liqdir. O'qituvchi kerakli materiallarni taqdim etadi, talabalar esa o'qib, izlanib, olgan bilimlarini interfaol metodlar, keys studylar yoki power point prezentatsiyalar orqali namoyon qiladi.

Avvalgi holatdan farqli o'laroq, bu tizimda talabaning mustaqil ravishda ko'p izlanishi, ko'proq o'qishi talab qilinadi. Bu holatda talaba ko'proq bilimni o'zida mujassamlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5349-son Farmoni.
2. Tojiyev M. Mamadaliyev K. Xurramov A. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliv ta'lim tizimi rivojlanishida kredit sisitemasining o'rni va ahamiyati. Oliy ta'lim taraqqiyoti istiqbollari: To'plam №3. Toshkent 2015. 52-b
3. Usmonov B.SH., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020-y. 120-bet.
4. Azizov U. Kredit modul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. T.: 2019-y. 63-b
5. Mustafaqulov. Sh, Sultonov M. "Kredit modul tizimiga o'tish nima uchun kerak? Maqsad, Moxiyat va afzallik. T.: 2020-y.
6. Choriquulov R. FEATURES OF THE USAGE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A6. – С. 246-249.
7. Ibodullo o'g'li C. R. Ta'lim Muassalarida Modulli Yondashuvning Mohiyati, Maqsadi Va Vazifalari // "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 36-38.
8. Choriquulov R. FUNCTIONS OF ORGANIZING INDEPENDENT STUDY BASED ON CREDIT MODULE //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2.
9. Choriquulov R. FUNCTIONS OF ORGANIZING INDEPENDENT STUDY BASED ON CREDIT MODULE //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2.
10. CRI o'g'li. TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. УЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ - АМАЛИЙ ТАДКИКОТЛАР 29, 113
11. Xodjayev B., Choriquulov R.I.O. O'QITISH JARAYONLARINI BOSHQARISHNING MAZMUN VA MOHIYATI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 1. – С. 1639-1643.



Inoyat ELMURODOVA,  
Denov tadbirdorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi  
E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD L.Muxtarova taqrizi asosida.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUV JARAYONINI FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TAKKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'quv fanlarini integratsiyalashgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olish darajasini oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada til va o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar kabi misollar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va o'rganish ko'nikmalarini oshirishda fanlararo integratsiyaning o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, samarali innovatsion usullar va amaliy qo'llanmalar haqida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** o'quvchi, maktab, integratsiya, integratsion darslar, jarayon, pedagog, tarbiya.

## METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRIMARY CLASSES BASED ON INTEGRATION OF SCIENCES

Annotation

In this article, efforts are being made to improve the level of education of primary school students by integrating academic subjects in general education schools. This article examines the role of interdisciplinary integration in broadening students' horizons and improving their learning skills through examples such as language and reading literacy and the natural sciences. It also provides information on effective innovative methods and practical applications.

**Key words:** student, school, integration, integrated lessons, process, pedagogue, education.

## МЕТОДОЛОГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК

Annotatsiya

В данной статье предпринимаются усилия по повышению уровня образования учащихся начальных классов путем интеграции учебных предметов в общеобразовательной школе. В этой статье рассматривается роль междисциплинарной интеграции в расширении кругозора учащихся и совершенствовании их навыков обучения на таких примерах, как языковая грамотность, грамотность чтения и естественные науки. Он также предоставляет информацию об эффективных инновационных методах и практическом применении.

**Ключевые слова:** ученик, школа, интеграция, интегрированные уроки, процесс, педагог, образование.

**Kirish.** Ma'lumki, o'qitish va tarbiya jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq, lekin inson shaxsining shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya ta'lif jarayonining barcha majmuuni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy intellektual insonni tarbiyalashda integrativ ta'lifning barcha jihatlari (aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigenik, huquqiy, jismoniy tarbiya)ni qamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Integrativ ta'lif jarayonida o'quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Tabiat go'zalligini his qila olish, undan zavqlanish, e'zozlash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Biz integratsiyating mohiyatini aniqlash jarayonida uning falsafiy, pedagogik-psixologik va metodik asoslarini aniqlab oldish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini takomillashtirish, umumiyligi o'rta ta'lif maktabi o'quvchilarini uchun qat'iy va nazariy tushunchalar bilan amalga oshirilgan turli fanlarni integratsiya qilishni talab qiladi [1]. Bu, o'quvchilarning nazariy bilimlарини amaliyotga aylantirish va ularga ta'lif jarayonini mustahkamlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish va dunyoqarashni rivojlantirishga qaratilgan qadriyatdir. Bu maqolada, boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirishning muhimligi, bu jarayonning sabablari va o'zaro cheklangan fanlar integratsiyasi asosida o'qitishning metodik tajribalari ko'rsatiladi.

**Tahlil va natijalar.** Ta'lifning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo

uzviylik tamoyiliga tayanish ta'lif muassasalari o'quv jarayoni uchun tabbiqiy tus olishi lozim. Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o'quv predmetlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini to'liq o'zlashtirishini ta'minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta'minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lif sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ta'lifni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi hamda fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarini darajada ortadi [2].

Boshlang'ich sinflarda fanlar integratsiyasi o'quv jarayonini takomillashtirish uchun quyidagi bosqichlar mukofotda olib borilishi mumkin:

Shuningdek, o'quvchining dars jarayonida bajargan topshiriqlariga ijobji yunosabatda bo'lish, mehnatiga yarasha rag'batlanirish, dars davomida turli o'yinlar tashkil etish darsning sifatini hamda samaradorligini yanada oshiradi. Jumladan, bir nechta o'quvchi tanlab olinadi yoki sinf guruhlarga ajratiladi hamda biror matnga sarlavha tanlagan topshirig'i yuklatiladi.

"Tabiiy" fanlarni o'qitishda samarali hisoblangan bir qator metodlar haqida ham ma'lumot berib o'tsak.

**"So'z top" o'yini.** Bu metoddan darsning hamma qismalarida foydalananish mumkin. O'qituvchi qushlar, hayvonotlar,

meva-sabzavotlar haqida bir so'z aytadi, o'quvchilar davom ettiradilar. O'qituvchi boshlagan so'z qaysi harf bilan tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlangan so'zni aytishi kerak. Bu usul o'quvchilarni tezkorlik bilan fikr yuritib, javob berishga hamda xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

**"Klaster" usuli.** Bu usul o'quvchiga berilgan mavzu bo'yicha erkin o'yash va fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratadi. Bu usulda o'quvchi nimani o'ylagan bo'lsa, shuni aytadi va yozilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar muhokama qilinmaydi va belgilangan vaqtgacha davom etadi. Bu sinfning har bir o'quvchisi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirib, ular o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. "Klaster" usuli yangi boshlashda avval o'quvchini darsga qiziqtirib, shu mavzu bo'yicha oldin egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida hamda o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'tkaziladi.

**"Mozayka" usuli.** "Mozayka", ya'ni mayda bo'laklardan yaxlit ko'rinishni hosil qilish. Bunda qushlar, hayvonlar, mevalarning rasmlari bo'laklarga har bir guruhga alohida tarqatiladi. Guruhlarning qatnashchilari bo'lakchalarini bir butun ko'rinishga keltiradilar. Guruh sardorlari yaxlit holga kelgan hayvon, meva yoki daraxt haqida gapirib beradilar.

**"To'xtab o'qish" usuli.** O'qituvchi matn bilan tantshtirish jarayonida bir necha marta to'xtab, o'quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi. Savollar aynan mavzuga tegishli bo'lishi zarur. Yoki o'quvchi matn o'qish jarayonida to'xtatilib, nima haqida o'qiganligi so'raladi. Bu usul orqali o'quvchilarning diqqati jamlanadi, mustaqil fikrash ko'nikmalari shakllanadi.

**"Zanjur" usuli.** Bu she'r, topishmoq, maqollar berilgan darslarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar tartib bilan, ketma-ketlikda berilgan she'r misrasi yoki topishmoq qatorini aytadilar. Bu usul qo'llanganda o'quvchi uyalib qolmasligi uchun berilgan she'r, maqol, topishmoqni yod olishga majbur bo'лади.

**"Rasmli rebus" o'yini.** Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga rasmlar tarqatadi. Berilgan rasmlar bosh harflaridan hayvon yoki jonivorlarning nomlari kelib chiqishi kerak.

Bilamizki, boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. U bolalarning matematikaga, yozishga, tabiat ko'pgina boshlang'ich tushunchalarga o'rgatadi. Boshlang'ich sinflarda bir o'qituvchining dars berishini, integratsiyaning bir usuli. Boshlang'ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofig. Ta'limming keyingi pog'onalaridan u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi [4].

Bugungi kunda, ya'ni ta'lim-tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o'qituvchining ishlash tizimi tubdan o'zgarmoqda va pedagogik texnologiyalar, fanlararo, predmetlararo, mavzulararo integratsiyalar, innovatsiyalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. O'quv fanlararo aloqadorlik ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok qilish qobiliyati, faoliyatlari, iziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O'quv fanlararo aloqadorlikni turli o'quv fanlari bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta'minlov-chi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

"Integratsiya" so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, "integer" butun so'zidan kelib chiqqan.

Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi:

**birinchidan,** tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarining bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon;

**ikkinchidan,** tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va niyoyat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliv darajasidir.

Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o'rganilayotgan o'quv predmetlari doirasida ma'lum didaktik birliklari orasida o'rnatilib, ularni o'rganish mazmunini va muddatlarini muvofiglashtirishni ko'zda tutadi, bundan farqli o'laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsiyalab o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi [6].

Bu o'z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi, etuk shaxsni shakllantirishga imkon beradi. Zero u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mayvumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilari yordamida ifodalash, sabab oqibatlari aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar o'rganilayotgan ob'ektni barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab etish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo'lgan tabaqalashtirish (differensiatsiya)ga tayangan holda rivojlanib beradi yoki aksincha.

Integratsiya masalasini pedagog olimlar va amaliyotchilar quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etishni tavsiya etadir:

- o'quv predmetlari va fanlar turkumi doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish;

- turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;

- ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va shu kabilar.

Bu yo'nalishlarning har birining aniq o'z maqsadi bo'lib, uni amalga oshirish uchun mos shakl, metod, vosita va shart-sharoitlarni talab etadi. Amaliyotda ulardan uyg'un holda foydalilanilgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini ham shu o'rinda eslatib o'tish lozim.

Yaxlit tizimni tuzishda integratsiyalaruvchi aloqadorlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni ichki ilmiy aloqadorlik ham deb ataladi. Tizimlashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad ichki ilmiy aloqadorlikni tartibga keltirish yo'li bilan yaxlitlikni yuzaga keltirishdan iboratdir. Bu jarayonda hosil bo'ladigan yaxlitlik yangi sifat ko'sratgichlariga ega bo'ladi.

Bu holat esa o'qituvchilardan o'quvchilarga bir fan doirasida bog'liqliklar asosida turli hodisalarini o'rganishni taqozo etadi. Tabiat hodisalarini, ularning tuzilishi, mohiyati va funksiyalarini, qonuniyatlarini o'rganish o'quvchilar tafakkurida qiyoslash, analiz va sintez, abstraktsiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosha chiqarish kabi tafakkur operatsiyalarini rivojlanishiga yordam beradi.

Bizningcha, boshlang'ich sinflarda fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirilgan o'quv jarayonining natijalarini kuzatilishi lozim. Bu jarayon orqali o'quvchilar amaliyot bilimlarini oshirish, o'zlashtirish va turli fanlarni bog'liq o'quv materiallarni yaxshi tushunishlari kutiladi. Munozaralar, o'quvchilarning o'z fikrlarini bayon qilish, maslahatlashish va kichik guruhlar orqali o'quv jarayonini mustahkamlashlari uchun muhimdir.

Bilamizki, maktabning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat.

Ta'lim mazmunida inson va uning dunyoga bo'lgan munosabati, ya'ni:

- ✓ inson va tabiat;

- ✓ inson va jamiyat;

- ✓ inson va inson;

- ✓ inson va texnika;

- ✓ tabiat-inson;

- ✓ texnika-atrof-muhit muammosi tobora markaziy o'rinnegallamoqda. Tabiatni o'rganuvchi fanlarni bir sinda bir marta

o'rganib bolmaydi. Uni bog'cha, maktab, tizimida uzlusiz va uzviylik asosida o'rganmoq zarur.

Tabiiy fanlar ta'limining mazmuni inson va tabiat aloqadorligi atrofidagi muammolarni o'rganuvchi turli o'quv fanlariga oid bilimlar uzviyiligi va integratsiyasini aks ettirmog'i lozim, bu esa tabiiy fanlarga oid bilimlarni sifat jihatdan yangi o'zgarishlarga olib keladi. Bu bilimlar o'ziga xos sintez, tabiiy fanlarga oid bilimlar va insonparvar yo'nalishlar majmui sifatida namoyon boladi. Ularning tafakkurning tizimli va ehtimolli uslubi

sifatida tavsiflanishi tabiiy bilimlarning ajralib turadigan xususiyatlari sirasiga kiradi.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirish, o'quvchilarning nazariy bilimlарни amaliyotga o'tkazish, ularga dunyoqarash, ta'lim jarayonini mustahkamlash va ilmiy tadqiqotlarga qaratilgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning o'z fikrlarini ifoda qilish, ishonchli savollar yaratish v muhokama qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhimdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Tolipova J, Numonova N. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya "Xalq ta'limi" jurnali, 2017. 3-son.
2. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: O'zRFA "Fan" nashr., 2000.
3. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. - Qarshi: "Nasaf", 2003.
4. Zunnunov Asqar. Pedagogika nazariyasi. -T.: "Aloqachi", 2006.
5. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. -T.: "Yangi avlod asri" 2003.
6. Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang'ich ta'limming integratsiyalashgan pedagogikasi. T.: Ilm ziyo, - 2009.



Mahliyo YULDASHEVA,  
Farg'onan davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD  
E-mail:myuldasheva229@gmail.com

Farg'onan davlat universiteti dotsenti I.Siddiqov taqrizi asosida

## DIFFERENTIAL ANALYSIS OF LONELINESS

### Annotation

In recent years, the phenomenon of loneliness has attracted psychological scientists as one of the pressing problems of our modern society. Statistics show that during the pandemic, the tendency to loneliness increased in young people compared to older people. The problem of loneliness is widely studied in foreign psychology, where it is studied on the basis of various theories, concepts, approaches, positions, directions. This article presents the analytical results of our research on the mechanisms of perception of loneliness by the youth of Uzbekistan. The degree of statistical reliability of the results obtained was confirmed by methods of mathematical statistics: the Mann-Whitney criterion, as well as the Spearman correlation coefficient.

**Keywords:** loneliness, general loneliness, dependence in communication, positive loneliness, differential analysis, interpersonal relationships, behavior, empirical research.

## ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОДИНОЧЕСТВА

### Аннотация

В последние годы феномен одиночества привлекает ученых-психологов как одна из насущных проблем нашего современного общества. Статистические данные показывают, что во время пандемии склонность к одиночеству усилилась у молодых людей по сравнению с людьми старшего возраста. Проблема одиночества очень широко изучается в зарубежной психологии, где она исследуется на основе различных теорий, понятий, подходов, позиций, направлений. В данной статье излагаются аналитические результаты нашего исследования по изучению механизмов восприятия одиночества молодежью Узбекистана. Степень статистической достоверности полученных результатов подтверждалась методами математической статистики: критерием Манна-Уитни, а также коэффициентом корреляции Спирмена.

**Ключевые слова:** одиночество, общее одиночество, зависимость в общении, позитивное одиночество, дифференциальный анализ, межличностные отношения, поведение, эмпирическое исследование.

## YOLG'IZLIK HISSINING DIFFERENTIAL TAHLILI

### Annotatsiya

So'nggi yillarda yolg'izlik fenomeni zamonaviy jamiyatimizning dolzarb muammolaridan biri sifatida psixolog-olimlarni o'ziga jalb qilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra pandemiya davrida yolg'izlikka moyillik katta yoshdag'i insonlarga nisbatan yoshlarda kuchaygan. Yolg'izlik muammosi xorij psixologiyasida juda keng o'rganilgan bo'lib, ular turlicha nazariyalar, konsepsiylar, yondashuvlar, pozitsiyalar, yo'naliishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Mazkur maqolada O'zbekiston yoshlarining yolg'izlik kechinmasini idrok qilish mexanizmlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotimizning tahlili natijalari bayon qilinadi. Olingan natijalarning ishonchliklilik darajasi matematik statistika metodlaridan Mann-Uitni mezoni hamda Spirmenning korrelyatsiya koeffisienti orqali tasdiqlandi.

**Kalit so'zlar:** yolg'izlik, umumi yolg'izlik, muloqotdagi tobelilik, pozitiv yolg'izlik, differentisial tahlil, shaxslararo munosabat, xulq-atvor, empirik o'rganish.

**Kirish.** Nazariy tahlillarda yolg'izlik psixologik muammo sifatida e'tirof etiladi. Bu esa depressiya, xavotirlilik va shaxslararo munosabatdagi ziddiyatlarga moyillik, psixoaktiv moddalar iste'moli va alkogolga ruju qo'yish, suisidga moyillik kabi holatlarning yolg'izlik bilan o'zaro aloqadorlikdagi muammolar sifatida o'rganiladi [1,2]. O'zbek tilining izohli lug'atida yolg'izlik "yolg'iz inson" ma'nosida "yolg'iz yashaydigan odam" tushunchasi bilan taqqoslanadi: "Yolg'iz – birorta ham sherigi yo'q, bir o'zi, yakka, tanho" [8].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan A.A.Artanova, Yu.D.Babayeva, N.A.Berdyyayev, S.A.Vetrov, T.I.Golman, O.B.Dolginova, Ye.N.Zavorotnix, I.A.Ilin, S.V.Kurtiyan, D.A.Mateyev, Ye.V.Neumoyeva, A.V.Nechayev, J.V.Puzanova, L.A.Pyankova, V.A.Sakutin, S.N.Solov'yov, Ye.N.Trubetskiy, S.G.Trubnikova, Ye.V.Filindash, G.R.Shagivaleyeva va boshqalar yolg'izlik hissining ontogenetik va differentisial masalalarini ilmiy tadqiq etishgan. Xorij olimlaridan D.Bernshteyn, K.Boumen, V.Veys, S.Grof, E.Dyurkgeom, G.Zilburg, A.Kamyu, E.Klyaynenberg, J.Lipovetski, A. Maslou, R.Merton, K.Mustakas, B.Miyuskovich, L.E.Pepla, D.Rassel, K.Rodjers, D.Rismen, Ye.Roy, G.S.Sullivan, U.Sadler, K.Solano, Z.Freyd, E.Fromm, R.Fridmen,

F.Fromm-Reyxman, Dj.Flanders, Dj.Yang va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yolg'izlik muammosi tadqiq etilgan [1, 7].

Respublikamizda talabalarda yolg'izlik hissini o'rganish masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar salmog'i kam bo'lsa-da, mazkur muammoga muayyan darajada e'tibor qaratilgan. Jumladan, Sh.A.Inakov, V.M.Karimova, N.Sh.Mullaboyeva, N.Z.Rasulova, N.A.Sog'inov, T.G.Suleymanova, A.B.Sabirova, G.Q.To'laganova, B.M.Umarov, U.D.Qodirov, G.B.Shoumarov va boshqalar tomonidan yolg'izlik hissining suitsidal xulq-atvorning omili sifatidagi psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan, lekin talabalarning yolg'izligi alohida psixologik muammo sifatida o'rganilmagan [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotimiz ilmiy tahlil qilishga tayangan holda nazariy va metodologik asos sifatida ijtimoiy-psixologik yo'naliishda shakkantirildi. Muammo tarixiylik usuli orqali o'rganildi, bu esa yolg'izlik tushunchasining mazmun-mohiyati borasidagi g'oyalalar xilma-xilligini tahlil qilishga imkon berdi.

Biz talabalar guruhi yolg'izlik hissining differentisial tahlilini amalga oshirishga harakat qildik. Talabalarda yolg'izlik kechinmasini empirik tahlil qilish E.N.Osin va D.A.Leontyevlarning "Yolg'izlik hissini differentisial o'rganish" so'rovnomasi orqali amalga oshirildi [3]. Tadqiqotimizda

Farg'ona davlat universitetining "Pedagogika va psixologiya" fakulteti talabalaridan 124 nafari (64 nafar yigitlar va 60 nafar qizlar) ishtirot etdi. Tanlov maqsadli reprezentativ tarzda amalga oshirildi. Tadqiqotda grant va to'lov-shartnoma asosida kunduzgi ta'lim shaklida tahlil olayotgan bakalavriatning birinchi va uchinchi bosqich talabalarini ishtirot etdilar.

Yolg'izlik hissining differensial tahlilini amalga oshirish talabalarning xulq-atvorlari, bilish sohalari va hissiy-emotsional

sohalarining xususiyatlarini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega.

**Tahlil va natijalar.** Metodika bo'yicha talabalarning ko'rsatkichlarini qanday statistik mezon bo'yicha tahlil qilish masalasi respondentlarning natijalarini normal taqsimlanishga mosligini tekshirishga olib keldi.

#### 1-jadval

##### "Yolg'izlik hissini differensial o'rganish" so'rovnomasini normal taqsimlanishga mosligini tekshirish natijalari

	Min.	Maks.	o'rtacha	stan. og'ish	z	p
Umumiy yolg'izlik kechinmasi	15,00	46,00	25,30	6,245	2,783	0,000
Muloqotdagi tobelilik	24,00	54,00	37,44	6,91	1,873	0,002
Pozitiv yolg'izlik	16,00	37,00	28,11	5,28	2,676	0,000

Izoh: \*\*\*p<0,001

"Umumiy yolg'izlik" ( $Z=2,783$ ;  $p<0,001$ ), "Muloqotdagi tobelilik" ( $Z=24,00$ ;  $p<0,001$ ), "Pozitiv yolg'izlik" ( $Z=2,676$ ;  $p<0,001$ ) shkalalarining natijalari normal taqsimlanish qonuniga mos kelmasligi aniqlandi. Bundan kelib chiqadi, tadqiqotning keyingi bosqichlarida "Yolg'izlik hissini differensial o'rganish" so'rovnomasi shkalalari noparametrik mezonlar asosida tahlil qilinishi maqsadga muvofiq bo'lishi aniqlandi. Buning uchun

Mann-Uitni mezoniga ko'ra natjalarning o'rtacha ko'rsatkichlari va Spirmen bo'yicha korrelyatsiya tahlili amalga oshirilishi ko'zda tutildi.

Talabalardagi yolg'izlik hissining xususiyatlarini umumiy, jinsiy va ijtimoiy tajribalari nuqtai nazaridan tahlil qilishga e'tibor qaratildi.

#### 2-jadval

##### "Yolg'izlik hissini differensial o'rganish" so'rovnomasini shkalalari bo'yicha ko'rsatkichlarining jins tafovutlari bo'yicha tahlili (Mann-Uitni mezon)

Shkala	Jins	N	O'rtacha rang	U	p*
Umumiy yolg'izlik kechinmasi	Yigitlar	64	204,45	19643,5	0,799
	Qizlar	60	215,16		
Muloqotdagi tobelilik	Yigitlar	64	234,64	19462,5	0,684
	Qizlar	60	209,63		
Pozitiv yolg'izlik	Yigitlar	64	224,40	17732,0	0,042*
	Qizlar	60	211,50		

Izoh: \* p<0,05.

Metodikaning xususiyatiga ko'ra talabalarning yolg'izlik hissiga munosabatini differensiasiyasi yigitlar bilan qizlarda kuzatilmadi.

"Umumiy yolg'izlik kechinmasi" shkalasi bo'yicha yuqori ballar izolyatsiya tajribasining haqiqiy vazni, hissiy yaqinlik yoki odamlar bilan aloqalarning yetishmasligi va respondentning o'zini yolg'iz, izolyatsiya qilingan odam sifatida bilishi bilan bog'liq. Shkalaning past ko'rsatkichlari respondentning yaqinlik yoki aloqa yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan og'riqli yolg'izlik tajribasini boshdan kechirmsaligini va o'zini yolg'iz odam, deb hisoblamasligini ko'rsatadi.

"Umumiy yolg'izlik kechinmasi" shkalasi haqiqiy yolg'izlik hissi darajasini aks ettirishi, boshqa odamlar bilan yaqin aloqaning yetishmasligini ifodalaydi. Talabalar jinsiga ko'ra umumiy yolg'izlik hissi bo'yicha natijalarda ishonch darajasidagi jins bo'yicha farq aniqlanmadi (204,45 va 2515,16; U=19643,5). Bunga ko'ra talaba-yigitlar bilan talaba-qizlarda umumiy yolg'izlikka munosabat farqqa ega emas ekan. Talabalarning yolg'izlikka munosabati yolg'izlikni ekzistensial fakt sifatida qabul qilishlari, insonga yolg'izlik holatlarni qadrash va ularni o'z-o'zini aloqa qilish va shaxsiy o'sish uchun manba sifatida foydalanan imkoniyatini aks ettirmoqda, deyish mumkin. O'z navbatida talabalar orasidan yuqori yolg'izlikka ega talabalar ham uchrashi, shubhasiz. Ular esa yolg'izlikdan voz kechish yoki qu'rqish, aksincha, yolg'izlikdan qochishga, ijtimoiy aloqalarni doimiy izlashga olib keladi, bu shaxsnинг o'zini tartibga solishga va shaxsiy o'sishga to'sqinlik qiladigan holatlarga duch keladiganlar ham mavjuddir. Demak, talabalarning jinsiga ko'ra umumiy yolg'izlik bilan bir qatorda muloqotga tobelilik shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlarida ham hech qanday tafovut kuzatilmadi

(234,64 va 209,63; U=19462,5). Ammo talabalarning ko'rsatkichlari har ikkala jins vakillarida yolg'izlikni rad etish va yolg'iz qolmaslikni aks ettirmoqda. Ushbu miyosdagи yuqori ko'rsatkichlar respondentlarning yolg'izlikka salbiy qarashlarini va yoqimsiz yoki og'riqli tajribalar bilan bog'liq bo'lgan yolg'izlik holatlardan qochish uchun har qanday darajada muloqotga kirishishga moyilligini ko'rsatadi. O'z navbatida talabalarning bir toifasi esa yolg'izlik tajribasiga, yolg'izlik holatlariga va yolg'iz odamlarga nisbatan xotirjam, tolerant munosabatga egadirlar.

Talabalarning pozitiv yolg'izlik bo'yicha jinsga ko'ra o'rtacha rang ko'rsatkichlarida tafovut kuzatildi (224,64 va 211,50; U=17732,0; p <0,05). Mazkur shkala insonning yolg'izlikdan resurs topish, uni o'z-o'zini bilish va o'zini rivojlantirish uchun ijodiy ishlashit qobiliyatini baholaydi. Talabalarning shkala bo'yicha o'rtacha rang tafovutini quyidagicha tahlil qilish mumkin: talaba-yigitlarning qiyamatlari (224,64) respondentning tanholik vaziyatlarida ijobiy his-tuyg'ularni boshdan kechirishini, ularni qadralashni bilishini va o'z hayotida ongli ravishda o'zi bilan yolg'iz vaqt o'tkazishga intilishini ko'rsatadi. Talaba - qizlarda esa shaxsiy hayoti bilan bog'liq tanholik vaziyatlarda ijobiy his-tuyg'ularning yetishmasligi holatlarida imkoniyat topa olmasligini aks ettiradi. Ular yolg'izlikni pozitiv baholashda har doim ham imkoniyat topa olmas ekan.

Navbatdagi bosqichda talabalarning yolg'izlik hissiga munosabatidagi differensiatsiyani tadqiq etishda ularning ijtimoiy tajribalari (ta'lim bosiqichlari)ga ko'ra qirralarga e'tibor qaratildi (3-jadval).

#### 3-jadval

##### "Yolg'izlik hissini differensial o'rganish" so'rovnomasi shkalalarini talabalarning ta'lim bosqichlari bo'yicha tafovutlari tahlili (Mann-Uitni mezon asosida)

Shkala	Jins	N	O'rtacha rang	U	p*
Umumiy yolg'izlik	1-kypc	62	254,19	14461,5	0,000***
	3-kypc	62	177,49		
Muloqotdagi tobelilik	1-kypc	62	234,50	18400	0,001***
	3-kypc	62	194,92		
Pozitiv yolg'izlik	1-kypc	62	249,65	15370	0,000***
	3-kypc	62	181,51		

Izoh: \*\*\* $p<0,001$

Tadqiqotda talabalar ta'lrim bosqichlarining ularni ijtimoiy tajribasi sifatida ifodalashimizga to'g'ri keladi. Talabalar har bir ta'lrim bosqichida yangi sotsial munosabatlarni o'zlashtiradi, har xil toifa insonlar bilan munosabat o'rnatishga ega bo'ladi, yangi hayotiy maqsadlar qo'yadi va hayotiy tajribalar to'plash boradi. Shu mazmunda talabalarning ijtimoiy tajribalari ortib borishi hisobida yolg'izlikka munosabatlarda differensiatsiya kuzatilishini o'rganishga erishildi. Yolg'izlik hissi borasidagi talabalar munosabatlarining jinsiy holatidan farqli ravishda ijtimoiy tajribalari bo'yicha qiyosiy holat anchagina ahamiyatli natijalarini taqdim etdi. 1-3-bosqich talabalarning umumiy yolg'izlik hissi (254,19 va 177,549 U=14461,5; p<0,001); muloqotdagi tobelilik (234,50 va 194,92; U=18400; p<0,001) va pozitiv yolg'izlik (249,65 va 181,54; U=15370; p<0,001) shkalalari bo'yicha yolg'izlikka munosabatlarda statistik ahamiyatga ega bo'lgan tafovutlar aniqlandi.

**Xulosa.** Metodikaning tatbiqidan olingen natijalar quyidagicha psixologik xulosalarni ilgari surishga sabab bo'ldi: 1-bosqich talabalarida 3 – bosqich talabalariga nisbatan umumiy yolg'izlik hissiga munosabatlari anchagina og'riqli ekan. Ularning umumiy o'rta ta'lrim, o'rta maxsus ta'lrim muhitini yoki yangi sosial munosabat subyektlari bilan muloqotga kirishayotganliklari tufayli yolg'izlikni kuchli his etishlari, o'zga insonlar bilan yaqin munosabatda iliqlikning yetishmayotganligi, o'zlarini ajralib qolgandek his etishlari, insonlar bilan emotsiional iliq munosabatlarga erisha olmaganlik kechinmalari yolg'izlikni kuchli boshdan kechirayotganliklaridan dalolat bermoqda. Uchinchi bosqich talabalar esa o'tgan o'quv yillari davomida ta'lrim muhitiga to'liq moslashganlar, munosabat muhitidagi

to'siqlarni bartaraf etishga erishganlar, ular yolg'izlikni og'riqli qabul qilmaydilar va o'zlarini yolg'iz inson, deb baholamasliklaridan dalolat bermoqda (254,19 va 177,549 U=14461,5; p<0,001). Shu sababli ham ularning umumiy yolg'izlik hissiga munosabatlari bo'yicha ko'rsatkichlarida farqlar kuzatildi.

O'z navbatida talabalarning muloqotga tobelilik shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlarda ham statistik ahamiyatli farq aks etdi. Ushbu holat talabalarning ta'lrim bosqichiga ko'ra quyidagicha izohlash mumkin: 1-bosqich talabalariga yolg'izlikni yoqimsiz va og'riqli kechinmasidan qochish uchun har xil darajadagi muloqot muhitini izlashlari xos bo'lgan-da, 3-bosqich talabalarida esa yolg'izlik hissiga, yolg'iz qolgan sharoitlar va yolg'izlikni boshdan kechirishga, yolg'iz odamlarga va vaziyatlarga tolerant va xotirjamlik munosabatiga ega bo'lar ekanlar (234,50 va 194,92 U=18400; p<0,001).

Talabalarning ta'lrim bosqichida pozitiv yolg'izlik shkalasi ko'rsatkichlarida statistik tafovut kuzatildi. Bunda talabalarning yolg'izlik hissiga munosabatidagi tafovutlar 1-bosqich talabalar hisobiga ijobji tus oldi. Pozitiv yolg'izlik bo'yicha 1-bosqich talabalar 3-bosqich talabalariga nisbatan yolg'izlikdan samarali foydalananishga xayrixohlikning o'sishiga sabab bo'lmoqda. Yolg'izlik hissiga munosabatlarning ta'lrim bosqichiga ko'ra tahlili kechinmalarning ijobji tus olishida ijtimoiy tajribalarning ta'siri mavjudligini tasdiqlamoqda. Bizningcha, 1-bosqich talabalarining umumiy yolg'izlik va muloqotga tobelilik shkalalari bo'yicha ko'rsatilgan yolg'izlikka salbiy munosabatlari ularda ijtimoiy tajriba to'plash vazifasini o'taydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Корчагина, С.Г. Психология одиночества: учебное пособие.- М.:Московский психолого-социальный институт, 2008.- 228 с.
2. Косоротова, Ю. Краткий курс одиночества. Как быть счастливым наедине с собой. Питер: Санкт-Петербург. 2016. - 220 с.
3. Осин, Е. Н., & Леонтьев, Д. А. Дифференциальный опросник переживания одиночества: структура и свойства. Психология. Журнал Высшей школы экономики, 2013, 10 (1), 55-81.
4. Юлдашева, М. Б., & Эргашова, З. Экспериментальное изучение чувства одиночества. Universum: психология и образование, 2021. (5 (83)), 31-33.
5. Юлдашев, Ф. А., & Юлдашева, М. Б. Экзистенциональные проблемы изучения одиночества. Материалы международной конференции "Проблемы психологического благополучия". УРГПУ Екатеринбург. 2021. Стр (pp. 281-284).
6. Юлдашева, М. Б. ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ ДЕТЕРМИНАТОВ ОДИНОЧЕСТВА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, 2(10-2), с. 422-428.
7. Yuldasheva M.B. Talabalarda yolg'izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 19.00.05 / Yuldasheva Mahliyo Baxtiyorovna. – Toshkent, 2022. – 121 b.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati: 2 tomlı./S.F.Akabirov, T.A.Aliqulov, S.I.Ibragimov va boshq.; Z.M.Magrufov tahriri ostida.- M.:Rus.yaz.,1981. 1 tom. A-R. 632 b.



Xalimjon YUNUSOV,

Toshkent davlat texnika universiteti erkin tadqiqotchisi

E-mail: [yuhalimjon@gmail.com](mailto:yuhalimjon@gmail.com)

TDTU professori, f.f.d N.Nishonova taqrizi asosida

## TALABA YOSHLARNING KASBIY SHAKLLANTIRISHGA STSIYENTIK-PROFESSIONETRIK USULLARNING TADBIG'I

Annotatsiya

Kasb-kor ham, uning shakllanish jarayonlari ham, shaxsning kasbiga bo'lgan munosabatlari sifatida ma'lum bir o'chovlarni taqozo etadi. Har bir mehnat faoliyat turi baholanishi, ma'lum bir ko'rsatkchilar orqali mezonlanishi zarur.

**Kalit so'zi:** Stsiyentik, profesiometrik yondashuv, professiya, professiogramma, demokratik xarakter, milliy g'oya, kadrlar tayyorlash, ruhiy va fiziologik xususiyatlar, psixofiziologik tavsif, oila, mahalla, maktab, texnika, axborot-texnologiyalari, iqtisodiyot, tibbiyot.

### ПРИМЕНЕНИЕ НАУЧНО-ПРОФЕССИОМЕТРИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ

Аннотация

Профессия, и процессы ее формирования требуют определенных измерений как отношения человека к своей профессии. Необходимо оценить каждый вид трудовой деятельности и измерить ее с помощью определенных показателей.

**Ключевые слова:** Научный, профессиометрический подход, профессия, профессиограмма, демократичность, национальная идея, подготовка кадров, психические и физиологические характеристики, психофизиологическая характеристика, семья, соседство, школа, техника, информационные технологии, экономика, медицина.

### APPLICATION OF SCIENTIFIC AND PROFESSIONAL METHODS IN PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS

Annotation

A profession and the processes of its formation require certain measurements of a person's attitude towards his profession. It is necessary to evaluate each type of work activity and measure it using certain indicators.

**Key words:** Scientific, professional approach, profession, professional chart, democracy, national idea, personnel training, mental and physiological characteristics, psychophysiological characteristics, family, neighborhood, school, technology, information technology, economics, medicine.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev yoshlarni kasb-hunarga o'qitish tizimi bo'yicha takliflarni ko'rib chiqib unda, "Kasblar va professional ta'limg klassifikatorlarini bosqichma-bosqich yangilab, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, professional ta'limg muassasalarini maktab va oliv o'quv yurtlari bilan uzviy bog'lash muhim" ligini ayтиб o'tdi va Oliy ta'limg, fan va innovatsiyalar vazirligi barcha kasb-hunar ta'lumi muassasalarini yaxlit tizim sifatida muvofiqlashtirishni belgilab berdi.[2023 yilning 4 oktyabr kunidagi videoelektor yig'ilishi, <https://president.uz/uz/lists/view/6725>].

Bugun dunyoda foydalanayotgan ilmiy texnik yangiliklar, kashfiyotlar avvalo aniq fanlar ta'sirining mahsulidir. Texnokratiyaning nafaqat salbiy, shuningdek, ijobji ta'siri ham bor, u jamiyat va kishilar hayotini osonlashtirish, og'ir mehnatni yeng'llashtirish, shaxs va uning qiziqishlarini globallashtirish, umuminsoniyashtirish ana shu ijobjiy ta'sir natijalari hisoblanadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarga aniq fanlarning atamalari, ilmiy-tekniq sohaga oid tadqiqot usullari keng kirib kelmoqda. Bu ikki yo'naliш o'rтasidagi integratsiyani, umumlashish xususiyatlarini anglatadi. Shunday ekan, stsiyentik qarashlarni ikki yo'naliшiga ajratish, bizning fikrimizcha, ma'qul yondashuv emas.

"Profesiometriya" yoki "profesiometrik yondashuv" neg'zida ikki vogelik "professiya" (kasb-kor, kasbiy, kasbga oid) va "metriya" (o'chov, mezon, me'yor) turadi. Profesiometriya kasb-korga oid o'chovlarni, kasbiy faoliyatning ko'rsatkichlarini, shaxsning asosiy mehnat faoliyatida o'zini va kasbiy bilimlarini namoyon etishini anglatadi. Kasb-kor ham, uning shakllanish jarayonlari ham, shaxsning kasbiga bo'lgan munosabatlari sifatida ma'lum bir o'chovlarni taqozo etadi. Har bir mehnat, faoliyat turi baholanishi, ma'lum bir ko'rsatkchilar orqali mezonlanishi zarur. Pul bilan baholanish qanchalik zarur bo'lmasin, mehnat samaradorligini yoki besamarligi ni o'chab borish lozim. Bu

ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni obe'ktiv baholash va shaxsning kasbiga, faoliyatiga taalluqli fazilatlarini aniqlash, pirovard natijada esa, mehnat faoliyati samaradorlig'i yanada oshirish yo'llari va mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Profesiometrik yondashuvning yo'qlig' kasblarni rivojlantirishga, yoshlarga kasb-hunar o'rgatishni prognozlashtirishga xalaqit kiladi. Shuning uchun u tor do'rada qasb xususiyatlarini ifoda etib qolmaydi, balki butun ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga ham ta'sir etadigan ko'pmilli vogelikdir. Profesiometriya va professiogramma bir birini to'ldirib, aniqlashtirib keladi. Birinchisi to'g'risida gapirganda bevosita ikkinchisi ham tilga olinadi yoki nazarda tutiladi. Profesiogramma kasb-kor haqidagi xislatlari, belgilar, profesiometriya esa ushbu kasb-korni baholash, o'chashdir. Ularning ikkalasi ham OTM va talaba yoshlarning kasbiy shakllanishlarida kerak, muhim. Ilmiy adabiyotlarda profesiogrammaga ikki yondashuv mavjud. Birinchisi rasmiy me'yorlar, davlat tomonidan OTM faoliyatiga oid belgilab berilgan kvalifikatsion belgilar, ikkinchisi, sotsiologik xarakateristikaga muvofiq asoslangan ilmiy bosqichlar. O'zbekistonda 1992 (1997 yili yangi tahrirda) yili qabul qilingan "Ta'limg to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi OTMlar uchun me'yoriy hujjatlar to'plamini shakllantirishga yetakladi. Shu maqsadda 1999 va 2003 yillari "Oliy ta'limg. Me'yoriy hujjatlar to'plami" qabul qilindi. Mazkur me'yoriy hujjatlarda OTMlardagi o'quv tarbiyaviy, ta'limg va iqtidorli talabalar bilan ishslash, o'qituvchi-professorlarning malakasini oshirish, ijtimoiy-gumanitar fanlar savyasini oshirish, bo'lg'usi mutaxassislarining kasbiy shakllanishiga oid masalalar ko'rib chiqilgan. Masalan, 2003 yil 9 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limg vazirining buyrug'i bilan "Oliy ta'limg haqidagi Nizom" tasdiqlangan. Unda OTM milliy g'oya asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlashi, ta'limg gumanistik va

demokratik xarakterini ta'minlashi, kasbiy taylorlashning dunyoviyligiga e'tibor berishi, ta'lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasiga erishishi kabi printsiplarga amal qilishi lozimligi ta'kidlangan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** OTM asosiy vazifalaridan biri yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi va umumimominiy qadriyatlar asosida, Vatanga, yurtga, oilaga va yon-atrofga muhabbat ruhidha tarbiyalash, olyi ta'limning gumanitar yo'nalişda bo'lishini ta'minlash, deb ko'rsatilgan [qarang: Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. 2 qism. - Toshkent: Sharq, 2003. 590 b.] Mazkur talab kadrlar professiogrammasida ham o'z aksini topishi zarur. Bu jarayon avvalo o'quv dasturlariga ijtimoiy-gumanitar fanlarning kiritilishi bilan ta'minlanadi, albatta. Shu bilan birga, vazirlikning 2003 yil 1 apreldagi buyrug'i bilan olyi ta'limni fundamentalizatsiyalashtirish tomon o'tishga qaror qilingan. Fundamental fanlarga matematika, fizika, kimyo, biologiya, axborot va axborot texnologiyalari, pedagogika va psixologiya (barcha olyi ta'lim muassasalarini uchun) kiritilgan Professiogramma sotsiologik yondashuvda kasbiy tanlashning ikki bosqichi borligi e'tirof qilinadi. Ularning birinchisida, "kuzatuv materiallari, ishchi jarayonlarini so'rovlar, test savollariga jalb qilish, rahbarlar, yetakchi mutaxassislar bilan suhbatlashish asosida professiogramma (kasbnoma) tuzib chiqildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kasblarni har tomonlama tasvirlash orqali ishchi, mutaxassis topshiriqni qanday va qaysi mehnat qurollari yordamida, ishlab chiqarishning qanday texnikaviy sharoitlarida bajarishi lozimligi haqida tasavvur beradi. Unga ijrochi javob berishi lozim bo'lgan talablar ham kiradi. Kasbnoma-ishlab chiqarish, texnikaviy, iqtisodiy, gigiyenik, tibbiy, ijtimoiy, pedagogik va psixofiziologik tavsiflarni o'z ichiga oladi. Ikkinci bosqichda korxonaga ishga kirayotgan yoshning tibbiy dalillar, mayllar, ijtimoiy, ruhiy va fiziologik xususiyatlari o'rjaniladi. Shular asosida shaxsiy xarita tuzib chiqiladi, unda insonga ijtimoiy jihatdan baho beriladi (ongliligi, kasbiy faoliyatining sabablari, kasbiy qiziqishlari, fikr do'rasisining kengligi, ishlab chiqarish faoliyatidan qoniqish hosil qilganligi), psixologik baho beriladi (olyi nerv faoliyatining turi, miya boshqaruv tizimlarining tuzilish xususiyatlari. [qarang: Mehnat va kasb sotsiolog'yasi (o'quv qo'llanma). Tuzuvchilar I.Xoshimov, Yu.Narziyeva. -Toshkent: TDMI, 2008. 120 b.]. Mazkur yondashuvlar haqida turli fikrlarni bildirish mumkin. Ulardan kasbiy shakllanish masalalari haqidagi ilmiy fikrlarning endi yuzaga kelayotganini sezish qiyin emas. Ammo u tibbiy fanlarda yetarli daraja ishlab chiqilgan. Professiometriya (PH), tibbiyotshunoslarning fikriga ko'ra, oshqozon, oziq-ovqatni hazm qilish va o'n ikki barmoqli ichakdag'i kislomni o'chashning

endoskopiya usuli sifatida ishlatalidi [qarang: https://www.swiss-clinic.ru/sutoch...]. Shuningdek, u organizmdagi kasallik, modda almashtishi, kislorod harakati, oshqozondagi, hatto intim joylardagi o'zgarishlarni tibbiy zondlar orqali o'chash usuli hisoblanadi. Bu, tabiiy ravishda, tibbiyotda qo'llaniladigan metriyani kasbiy shakllanishga tadbiq etish, bu jarayonni o'chash usullarini yaratishga turki beradi. Tibbiyotda ushbu metriya besh bosqichda amalga oshiriladi (qarang: o'sha joyda): Birinchi bosqich-zondni kiritish bilan bog'liq. Bizning misolimizda u talaba yoshning o'quv jarayoniga, mutaxassislikka kirishi. Ikkinci bosqich-zond xabarlarini, axborotlarini yelkaga yoki belga ilingan rekoderga yetkazilishi. Bizning misolimizda u talaba yoshning kasbi haqidagi ilk tassuroti, bilimlaridir. Uchinchi bosqich-elkaga o'rnatilgan organizmdagi o'zgarishlarni, signallarni qayd etadigan elektrod. Bizning misolimizda u OTMni bitirgan talaba yoshning kasbiy shakllanganligiga kasb egalari, ekspertlarning bahosi, fikridir. To'rtinchi bosqich-metriya davomida kishining o'z faoliyatini, tarmush tarzini odatdag'dek davom ettirishi. Bizning misolimizda u talaba yosh kasbining mavjud boshqa kasblarga taqqoslanishi yoki uning o'z tanlovinining tahlil va tahrir qilishi. Besinchi bosqich-axborotlar olingach zond chiqarib olinadi. Axborotlar 1-2 kun ichida o'rjaniladi va xulosha tayoranadi. Bizning misolimizda u talaba yoshning kasbiy tayyorligini ijtimoiy muhit tomonidan o'chanishi yoki baholanishidir.

**Tahhil va natijalar.** Ushbu manbalar va yondashuvlardan kelib chiqib, ijtimoiy falsafiy nuqtai nazardan, talaba yoshlar kasbiy shakllanishiga oid professiometriyani quyidag'cha belgilashimiz mumkin:

1. Kasbiy shakllanishga kirish bosqichi.
2. Kasbi haqidagi tassurotlari va bilimlari.
3. Kasbiy shakllanganlikning mutaxassislar, ekspertlar tomonidan baholanishi.
4. Kasbiy e'tiqodini namoyon etish.
5. Kasbiy faoliyatini ijtimoiy muhit, aholi tomonidan baholanishi.

Kasbiy shakllanishga kirish bosqichi yoshlarning oilasi, mahallasi, yaqinlari va maktabi ta'sirida shakllangan tasavvurlari, ideallari va modellaridir. Bu yoshlarning hayotga, kasbiy shakllanish jarayonlariga va o'zini o'zi tarbiyalashga kirish bosqichidir. Bu bosqichda oila va maktab asosiy rol o'ynaydi. "Olang'zda kim kasbiy tasavvurlaringiz va bilimlaringizni shakllantirgan?" degan savolimizga quyidag'cha javoblar olganmiz:

1-chizma

Savol: Oilangizda kim kasbiy tasavvur va bilimlaringizni shakllantirgan?	Texnika universiteti talabalarli	Axborot texnologiyalari universiteti talabalarli	Iqtisodiyot universiteti talabalarli	Tibbiyot akademiya si talabalarli	Pedagogika universiteti talabalarli	Chet tillari universiteti talabalarli	Yuridik universiteti talabalarli	Javob bermaganlar	Jami
Otam	8	12	21	19	12	10	16	2	100%
Onam	4	11	10	13	38	10	19	1	100%
Akam	3	12	15	15	3	2	42	8	100%
Ukam	-	-	-	2	4	2	4	88	100%
Bobo-momom	-	1	6	4	24	3	11	51	100%
Singillarim	1	1	2	6	18	18	3	51	100%
Hech kim	6	4	-	8	20	1	31	30	100%

Javoblar ichida "otam", "onam" va "akam" deganlari yetakchidir. Texnika OTM talabalaridan 8% "otam", 4% "onam", 3% "akam", "ukam" (yo'q javob), "bobom momom" (yo'q javob), 1% "sing'llarim", 6 "hech kim" deb ko'rsatgan. Axborot texnolog'ya OTMlari talabalarida ular, yuqorida tarkibda, 12%, 11%, 12% 1%, 1% va 4%ni, iqtisodiyot OTMlari talabalarida 21%, 10%, 1%, javob yo'q, 6%, 2% va javob yo'qni, tibbiyot OTM talabalarida 19%, 13%, 15%, 2%, 4%, 6%, 8% ni, pedagogika OTM talabalarida 12%, 38%, 3%, 4%, 4%, 24%, 18%

va 20% ni, chet tillari OTMlari talabalarida 10%, 10%, 2%, 2%, 3%, 18%, 1% ni, yuridik ta'lim talabalarida 16%, 19%, 42%, 4%, 11%, 3% va 31% tashkil qiladi. Texnika OTM lari talabalarli ichida "otam" deb ko'rsatganlar ichida yetakchisi iqtisodiyot OTM talabalarli (21%) turadi. Keyin tibbiyot OTM talabalarli (19%), yuridik (16%), pedagogika (12%) va axborot texnologiya OTM talabalarli (12%) keladi. Demak, yoshlarning kasb haqidagi tasavvurlariga va OTMni tanlashiga otaning ta'siri iqtisodiyot (21), tibbiyot (19%) va yuridik (16%) sohalarida kuchlidir. Agar

real ijtimoiy iqtisodiy hayotdagi ahvoldan kelib chiqsak, ushbu sohalarda erkaklar yetakchi kuch bo'lib qolayotganini ko'ramiz. Ularda xotin-qizlar asosan ijrochi, quiy pog'onalarda xizmat qilishadi. To'g'ri, tibbiyot va yuridik sohalarda xotin-qizlar 70%gacha, ammo ushbu sohalarga rahbarlik, boshqarish tizimlari erkaklar qo'lidadir. "Onam" deb javob berganlar (38%) ichida pedagogika OTM talabalari javoblari birinchi o'rinda turadi. Ayollarning tarbiya ishlariga moyilligi yoshlarning shu sohani tanlashiga ta'sir etgan, albatta. Javoblardan chiqariladigan professiometrik xulosa shundaki, yoshlarning kasb tanlashida ottona, oila muhitni ta'siri muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Otonaning kasbiy imiji, hamkasblari o'tasidagi obro'si ular farzandining kasb tanlashiga, kasb haqidagi tasavvurlari va bilimlariga ta'sir qilgan. Shuning uchun professiometrik yondashuvda ushbu omil ta'siri birinchi o'ringa qo'yilishi darkor. Undan keyin oila muhitni va undagi shaxslar (aka, uka, bobo, momo, sing'llar) keladi.

Professiometriyada navbatdagi e'tibor maktabga, ularda o'tiladigan darslar va o'qituvchilar omiliga qaratiladi. Darslar va o'qituvchilar omillarini yoshlarning kasbiy qiziqishi nuqtai nazaridan uyg'un qarash darkor. Aslida esa ular alohida alohida mezonlar bo'lishi kerak, chunki yoshlarga ko'pincha o'qituvchi shaxsi va imiji ta'sir qiladi. Uning shaxsi va imiji yoshlardagi

kasb-kor haqidagi bilimlarning shakllanishiga ustuvor ta'sir qiladi. Bunday professiometrik yondashuv pedagogik tadqiqotlar uchun muhim, ijtimoiy falsafa uchun esa ularni uyg'un qarash yetarlidir.

**Xulosa va takliflar.** Talaba yoshlar kasbiy shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari birinchidan, oila etnomadaniy ana'nalar; ikkinchidan, ijtimoiy muhit; uchinchidan, maktab va undagi ta'lim tarbiya jarayonlari; to'tinchingdan, shaxsiy hayotiy maqsadi; beshinchidan, jamiyat targ'ib etayotgan ekzistentsial-gumanistik qadriyatlar bilan bog'liqdir. Ularning har biri yoshlarning kasb-kor tanlashiga, o'zini ijtimoiy faoliyatda namoyon etishiga ta'sir etadi. Professiogramik tahlil ko'rsatadiki, kasb-kor tanlash, shakllanish ichki va tashqi omillar ta'sirida kechadi. Ular ichida hayotiy maqsad, kasbiy e'tiqod va ideal muhim o'rinn tutadi. Aynan ular shaxsni u yoki bu kasbga sadoqat bilan xizmat qilish, butun umri bo'yicha u bilan shug'ullanishga undaydi. Biroq ijtimoiy-iqtisodiy borliq tez o'zgarmoqda, yangi-yangi kasblar paydo bo'lib, professiogramik tasavvurlarni yangilamoqda. Bunday vaziyatda bir kasbni hayotiy maqsad, ideal qilib tanlash stagnatsiyaga olib kelishi mumkin. Hayotiy maqsad mehnatga, ijtimoiy foydalı kasb-korga muhabbat tarzida kelishi bilan tinmay o'zgarayotgan davr talablarini o'zida mujassam qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mehnat va kasb sotsiolog'yasi (o'quv qo'llanma). Tuzuvchilar I.Xoshimov, Yu.Narziyeva.-Toshkent: TDMI, 2008. 120 b].
2. [https://www.swiss-clinic.ru/sutoch...\]](https://www.swiss-clinic.ru/sutoch...).
3. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. 2 qism. - Toshkent: Sharq, 2003. 590 b.
4. <https://president.uz/uz/lists/view/6725>